

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA**

A. V. NARBEKOV

DINSHUNOSLIK ASOSLARI

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

A. V. NARBEKOV

DINSHUNOSLIK ASOSLARI

O'quv qo'llanmasi

Toshkent 2007

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlar kengashida maqullangan*

Narbekov A. V.

N-28 Dinshunoslik asoslari: O‘quv qo‘llanmasi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – 211 bet.

Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari asosida, diniy siyosatdagi o‘zgarishlar, uning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini hisobga olgan holda tuzildi. Unda dinshunoslik fanining predmeti va vazifalari, dinning vujudga kelishi, ilk shakllari, davlat, milliy va jahon dinlari xususida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, diniy fundamentalizm va ekstremizm, ularning maqsad va tahdidi, mamlakatimizda olib borilayotgan diniy siyosat kabi masalalar batafsil tahlil qilinadi.

IIV Akademiyasi tinglovchilariga, oliy o‘quv yurtlarining talabalari, o‘qituvchilari, shuningdek barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

BBK 86.3ya73

T a q r i z c h i l a r : falsafa fanlari nomzodi, dotsent
A. O‘. O‘tamurodov;
tarix fanlari nomzodi, dotsent
E. Q. Arifdjanov

SO'Z BOSHI

Komil insonni tarbiyalash milliy mafkuraning asosiy g'oyasi va davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani ijtimoiy hayotga tatbiq etish davlat tashkilotlari, muassasalari va jamoat birlashmalarining doimiy diqqat markazida turadi. Zero, yosh avlod nafaqat bizning kelajagimiz, balki hozirgi dolzarb muammolarni hal etishda ilg'or g'oyalar bilan ishtirok etuvchidir.

Ma'lumki, ma'naviy yetuk, bilimli, mustaqil fikrga ega va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash ilg'or maorif tizimi va malakali mutaxassis kadrlar tomonidan ta'minlanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy hayotning turli sohalarida, shu jumladan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda katta yutuqlarga erishildi. Maorif sohasida uzluksiz ta'lim tizimiga o'tildi. Zamonaviy o'quv dargohlari qurilib, yangi texnik vositalar bilan jihozlandi. Ta'lim jarayoni xalqaro tajriba va milliy mentalitetimizni hisobga olgan holda tashkil etildi. Bilim dargohlari yangi darsliklar, qo'llanmalar va o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlandi.

Ushbu o'quv qo'llanma respublikamizda olib borilayotgan diniy siyosatdagi o'zgarishlar, uning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda yozildi. Unda dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari, yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida so'z boradi. «Din» tushunchasi, dinning tarkibiy qismlari, vazifalari, vujudga kelish va jamiyatda saqlanib qolish sabablari, tarixiy davrlarda unga munosabat kabi masalalar tahlil qilinadi. Mazkur qo'llanma dinning jaholat, aqidaparastlik, o'zgalar fikriga toqatsizlik va ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuch ekanligi haqidagi noto'g'ri tasavvurlarga qarshiligi to'g'risidagi ijtimoiy fikrning vujudga kelishiga ko'maklashadi.

Dinning ilk shakllari insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ibtidoiy odamning dunyoqarashi sifatida vujudga kelgan. O'sha davrlardan buyon din insonning tabiiy ehtiyojlari va mayllarini jilovlash vositasi, madaniyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy ong shakli hisoblanadi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar diniy ta'limotda ham o'ziga xos jarayonlarni keltirib chiqargan. Ular ta'sirida davlat va milliy dinlar vujudga kelgan. Qudratli xudolarga sig'inish va ko'pxudolik shakllangan. Xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, yirik imperiyalarning paydo bo'lishi natijasida dinlar davlat va elatlar doirasidan

chiqib, umuminsoniy ahamiyat kasb etgan va shu tariqa jahon dinlari vujudga kelgan. Lekin diniy qarashlarning rivojlanish jarayoni hozir ham davom etmoqda.

Mazkur qo'llanmada jahon dinlari ta'limoti, aqidalari va marosimlariga ko'proq e'tibor berilgan. Zero, ular xalqlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Jumladan, millatlarning urf-odatlari, an'ana va marosimlaridagi umumiylilikda jahon dinlarining ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin. Bu jarayonlar dinlarning keskin raqobati sharoitida rivojlangan. Hozirgi davrda ular o'rtasidagi raqobat global muammo darajasiga ko'tarildi. Bunga sabab vayronkor kuchlarning dindan siyosiy manfaatlar yo'lida foydalanishga intilishidir.

Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekistonda dinning ijtimoiy ahamiyati qayta tiklandi. Diniy konfessiyalarning rasmiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Millatlar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda dinlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa dinning yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash va dunyoqarashini shakllantirishdagi faol ishtiroki bilan bog'liq.

Mazkur qo'llanmani tayyorlashda dinshunoslik fanini IIV Akademiyasida o'qitish davrida to'plangan tajriba va materiallardan, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda chop etilgan manbalar va adabiyotlardan, jumladan 1, 7, 8, 9 va 10-mavzularni yozishda falsafa fanlari doktori, professor A. Q. Qodirovning materiallaridan unumli foydalanildi. Shuningdek, respublikamiz oliv o'quv yurtlari talabalarining dinshunoslik fanidan muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan olimpiadalarda to'plangan ayrim manbalar ham kiritildi.

«Dinshunoslik asoslari» o'quv qo'llanmasi mazkur predmetni o'r-ganish va o'qitishdagi tajriba va bilimlarni umumlashtirish natijasidir. Shu bois muallif kitobxonlarning ushbu qo'llanma yuzasidan bildirgan mulohazalarini minnatdorlik bilan qabul qiladi.

1-mavzu

DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI

Dinshunoslik fanining mohiyati, predmeti va vazifalari

Din azaldan inson va jamiyat hayotining ma'naviy asosi, poydevori bo'lib kelgan. Din vositasida insonning biologik tabiat, hayvonot olami bilan umumiy jihatga ega bo'lgan fiziologik mayllari, ehtiyoj va instinktlari jilovlandi, ularga insoniy qiyofa berildi. Diniy ongning ibtidosida «yaxshilik

va yomonlik», «ezgulik va yovuzlik», «adolat va adolatsizlik» kabi axloqiy kategoriyalarning dastlabki elementlari shakllangani, din kishilik jamoasini mazkur kategoriylar atrofida jipslashtira olgani bois, unda dunyoqarash, integrativ, regulyativ, kompensatorlik va boshqa funksiyalar mustahkamlandi.

Hozirgi kunga kelib, din ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylandi, u ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rnini saqlab qoldi. Lekin uning ahamiyati turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlarda turlichadir. Din yetakchi mafkura hisoblangan davlatlar ham talaygina. Dunyoning qator davlatlarida din o‘zining siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun harakat qilmoqda.

Mustaqillikdan keyin dinning ijtimoiy-siyosiy salmog‘i o‘zgargan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq muayyan muammolar kelib chiqmoqda. Shu bois O‘zbekiston Konstitutsiyasida dinding mamlakatimizdagi ijtimoiy o‘rni aniq belgilab qo‘yilgan. Xususan, uning 31-moddasida: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», – deb ta’kidlanadi.

Istiqlol arafasida, Markaziy Osiyoda diniy omil mavqeining ortib borishini hisobga olib, 1991 yil 14 iyunda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun jamiyatni demokratlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tobora kuchayib borayotgan mustaqillik uchun g‘oyaviy kurash ta’sirida sobiq O‘zbekiston sho‘ro hukumati tomonidan qabul qilingan edi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda dinga munosabat tubdan o‘zgardi. Mustabid tuzum davrida dinga nisbatan bir yoqlama (taqiqlovchi) munosabat o‘rnini diniy e’tiqod erkinligi egalladi. Bu narsa asosan ijobiy bo‘lsa-da, sekin-asta salbiy tus ola boshladi. Diniy bilimlardan uzoq davr mahrum bo‘lgan ayrim kishilar g‘ayridiniy, ekstremistik janggarilik ruhidagi, Imomi A’zam mazhabidan farq qiluvchi ayrim aqidalarga ergasha boshladilar. Diniy e’tiqodga ham islohot niqobi ostida azaliy diniy an‘analarimizga zid bo‘lgan turli oqim va mazhablar vakillari kirib kela boshladilar. Shu davrda qurila boshlangan ko‘plab masjidlarda o‘tmishi noma’lum bo‘lgan g‘araz maqsadli kimsalar «in qura» boshladilar. Ular jamiyat hayotida siyosiy mavqega ega bo‘lish, islam diniy partiyasini tuzishga harakat qildilar. Ayrim viloyatlarda mavjud hukumat organlariga muqobil bo‘lgan diniy tashkilotlar ham tuzildi.

Bunday ziddiyatli davrda din rivojida ko‘plab ijobiy natijalarga ham erishildi. Islom diniga beqiyos hissa qo‘sghan buyuk allomalar, din peshvolarining nomlari qayta tiklandi, islam dinining taraqqiyotiga doir

qator tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Bunday tadbirlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa diniy konfessiyalarda ham amalga oshirildi. Bu tadbirlarning ayrimlarini sanab o'tish kifoya.

Masalan, 1991 yil 11 aprelda «Ro'za hayiti» va «Qurbon bayrami»ni milliy bayram deb e'lon qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. 1992 yil 7 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 1992 yil 1 aprelda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Ta'kidlash joizki, 1993 yil 16 sentabrda islom dinida naqshbandiya tariqatiga asos solgan Xoja Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligi Buxoro shahrida keng nishonlandi. 1993 yil 23–24 oktabrda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan va Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti ishtirokida Samarqand shahrida «Imom Buxoriy: hayoti va davri» mavzuida xalqaro anjuman o'tkazildi. 1994 yil 18 oktabrda yana Samarqand shahrida islom ilmiga katta hissa qo'shgan alloma Xo'ja Ahror Valiy tavalludining 590 yilligi keng nishonlandi. 1995 yilning noyabrida Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi Xorazmning Urganch shahrida nishonlandi. 1998 yil 23 sentabrda muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman Toshkent shahrida o'tkazildi. 1998 yil 23 oktabrda esa Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi Samarqand shahrida nishonlandi va Imom al-Buxoriy majmuasi ochildi. Bu tadbirlar bevosita O'zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi natijasida amalga oshirildi.

1998 yilga kelib mamlakatda din va diniy faoliyat shu qadar keng quloch yozgan ediki, ezgu ishlar bilan bir qatorda, yovuz, qora niyatlarni amalga oshirish, mamlakat hayotini diniy o'zanga burib yuborish uchun sharoit yaratishga urinishlar ham ko'zga tashlanib qoldi. Bu holat mantiqan va tarixan 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning hayotdan orqada qolganligini ko'rsata boshladi. Shu bois 1998 yil 1 mayda ushbu qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi hayot taqozosi bo'ldi. Bu qonun eskisidan farq qilib, dindor shaxs va diniy tashkilot faoliyatining amaldagi Konstitutsiyasi va qonunlar asosida tartibga solinishini, fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlarining poymol etilishiga barham berilishini,

O‘zbekiston tanlagan taraqqiyot yo‘lining saqlab qolinishini, mamlakatda demokratiya prinsiplarining himoya qilinishini ta’minlashi lozim edi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning hayotga joriy qilinishi dinga va diniy tashkilotlarga g‘araz maqsadlar bilan kirib olgan, mamlakat hayotini diniy o‘zanga burib yuborishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan turli unsurlarni bezovta qila boshladi. Bunday qora niyatli unsurlar endi to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlik, kuch ishlatish yo‘li bilan o‘z manfur va jirkanch maqsadlariga erishmoqchi bo‘ldilar.

Mash’um 1999 yil 16 fevral, 2004 yil 29, 30 mart – 1 aprel, 2005 yil 12–13 may voqealari bu jarayonlarning asl mohiyatini ko‘rsatdi. Buning oqibatida ko‘plab begunoh odamlar hayotdan ko‘z yumdilar. Ushbu voqealar dinning jiddiy mafkuraviy omilga aylanib borayotganligini, ko‘p millatli davlat sharoitida u diniy nizolar chiqishi uchun ayrim siyosiy kuchlarga qo‘l kelishi mumkinligini ko‘rsatdi. Natijada dinni, uning tarkibi va jamiyat hayotidagi o‘rnini ilmiy o‘rganish ehtiyoji tug‘ildi.

O‘zbekiston, milliy tarkibiga ko‘ra, ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Hozir respublikamizda 130 dan ortiq millat va elatlarning vakillari istiqomat qilmoqda, 20 ga yaqin diniy konfessiya (lotincha *confessionalis* so‘zi e’tiqodga oid, cherkovga tegishli degan ma’nolarni anglatadi) faoliyat ko‘rsatmoqda, 80 dan ziyod milliy markazlar ishlab turibdi. Tabiiyki, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash demokratik davlat sharoitida nafaqat davlat siyosatining izchil va kuchli bo‘lishini, balki, avvalo, diniy konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatlar qaror topishini, eng asosiysi, har bir fuqaroning din, diniy mazhablar, dinning tarixi va hozirgi hayotda tutgan o‘rni haqida ilmiy tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lishini talab qiladi.

Aynan shunday ehtiyojlar dinshunoslikning ijtimoiy mavqeini va hozirgi ahamiyatini belgilaydi. Dinshunoslik tarix, falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, huquq va boshqa fanlardan farq qilib, din hodisasining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va gnoseologik (grekcha *gnosis* – bilish, *logos* – ta’limot degan ma’nolarni anglatadi) ildizlarini ochib beradi, diniy aqidaga umumilmiy metodlardan biri bo‘lgan tarixiylik va mantiqiylikning dialektik birligi orqali yondashadi. Dinshunoslik fanining yana bir muhim xususiyati shundaki, u dinni ilmiy asosda, dunyoviy nuqtai nazardan o‘rganadi, dinshunoslikning predmetini, din, uning kelib chiqishi, vazifalari va rivojlanishini, tuzilishi va tarkibiy qismlarini, jamiyat tarixida namoyon bo‘lish shakllarini, shaxs va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini, madaniyat sohalari bilan o‘zaro aloqadorligini tahlil qiladi.

Dinshunoslik IIV Akademiyasida hamda boshqa yuridik va o‘rtalik maxsus ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan musulmon huquqi fanidan farq qiladi. Dinshunoslik din hodisasining nafaqat huquqiy, balki axloqiy-ma’naviy, madaniy-ma’rifiy, tarixiy-iqtisodiy jihatlarini, diniy aqidalarning mohiyatini, diniy mazhab va oqimlar, ularning asosiy da’vatlari, xususan, mafkuraviy da’volarini ham o‘rganadi. Shu ma’noda dinshunoslik keng qamrovli xususiyatga ega bo‘lib, dinning mavjud barcha jihatlarini umumlashgan holda tahlil qiladi, uning ijtimoiy mavqeini aniqlaydi.

Dinshunoslik faniga ehtiyoj yuzaga kelishining yana bir sababi shundaki, sobiq Ittifoq davrida o‘qitilgan «Ilmiy ateizm» kursi vijdon va e’tiqod erkinligi ta’minlangan mamlakatda o‘z mavqeini yo‘qotdi, diniy e’tiqodga keng imkoniyatlар yaratildi. E’tiqod erkinligiga tashna xalq ichida diniy tasavvurlarga ehtiyoj nihoyatda ortdi. Ammo bu holatdan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga urinuvchi yovuz kuchlar ham paydo bo‘ldi. Din, uning tarkibi va vazifasi haqida deyarli tasavvurga ega bo‘lmagan kishilar, diniy savodsizliklari sababli, turli makkor siyosiy kuchlarning tuzog‘iga ilindilar. Din niqobi ostida ish ko‘rvuchi manfur va jirkanch kimsalar azaliy diniy qadriyatlarimizning tiklanishiga yo‘l qo‘ymay, diniy bilishni janggarilik va takabburlik o‘zaniga burib yuborishga harakat qildilar.

Bunday harakatlarning misoli sifatida Namangan viloyatidagi 1991–1992 yillar voqealarini keltirishimiz mumkin. U yerda bir guruh unsurlar diniy poklanish, azaliy diniy qadriyatlarni tiklash niqobi ostida mavjud konstitutsiyaviy tuzumni o‘zgartirish, mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirgan yosh davlatni diniy davlat taraqqiyoti o‘zaniga burib yuborishga harakat qildilar. Ular xalqimizning azaliy diniy qadriyatlaridan farq qiluvchi vahhobiylar g‘oyalarini targ‘ib qilib, diniy bilimlardan uzoq kishilarni haqiqiy islom niqobi ostida o‘z ta’sir doirasiga tortdilar. Ular manfur maqsadlarini amalga oshirishda turli jinoyatchi unsurlardan, janggari kallakesarlardan foydalandilar.

2005 yilning may oyidagi Andijon voqealari esa diniy mutaassiblik va terrorizmning haqiqiy qiyofasini yana bir marta namoyon qildi. Uning tashkilotchi va ishtirokchilari mamlakatimizdagи barqarorlikni qurolli fitna va xorijdagi «demokratiya» uchun yollanma kurashchilar yordamida buzishga urinib ko‘rdilar. Islom bayrog‘i ostida konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlashga da’vatlar xalqimizning g‘azab to‘lqiniga urilib, parchalanib ketdi. Afsuski, mamlakat huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillarining muammoni tinch muzokaralar bilan hal qilishga urinishlari samara bermadi. Diniy ekstremistlar va terrorchilar murosasizlik yo‘lini tutib, tinch aholining qurbon bo‘lishiga sababchi bo‘ldilar. Demokratiya xavf ostida qolgan

yuqoridagi vaziyatda O‘zbekiston Prezidenti olib borgan oqilona siyosati tufayli mustaqilligimizga tahdid bartaraf etildi. Oqibatda bunday aqida-parastlarning payi qirqildi. Adashgan shaxslar to‘g‘ri yo‘lning ahamiyatini kechroq anglab yetdilar (Bu haqda qo‘llanmaning so‘ngi qismlarida batafsil to‘xtalamiz).

Dunyoviy, demokratik siyosiy taraqqiyot yo‘lini tanlagan ko‘p konfessiyali O‘zbekiston uchun diniy davlat qurish milliy va diniy nizolarning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratishi mumkin. Milliy va diniy tarkibi jihatidan murakkab bo‘lgan mamlakatda faqat millatlararo tenglik va erkinlik munosabatlarigina milliy birlik uchun sharoit yaratadi.

Mazkur ijtimoiy holat dinshunoslik faniga ehtiyojni yanada oshiradi. Ushbu ehtiyoj yana bir muhim ijtimoiy hodisa bilan bog‘liq. Ma’lumki, mustaqil iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot yo‘liga kirgan O‘zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylandi. Ayni vaqtda u turli diniy mafkuralarga ega davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlaridan, balki har bir fuqaroden jahon dinlari, turli diniy oqim va mazhablar haqida ilmiy tasavvur va tushunchaga ega bo‘lish talab qilinadi.

O‘zbekiston hududida, yuqorida eslatib o‘tilganidek, ko‘plab diniy konfessiyalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Dinshunoslik fani diniy konfessiyalar, ularning tarixiy ildizlari, vatani, hozirgi holati va mavqeい haqida ham bilim beradi. Shu ma’noda u falsafiy fanlarga yaqin turadi. Dinshunoslik diniy e’tiqod va uning tabiatni, muayyan diniy dunyoqarash haqida chuqur tahlilsiz umumiyl ilmiy tasavvur hosil qiladi. Dinshunoslik nafaqat islam, balki jahonning boshqa dinlari – buddaviylik, xristianlik, iudaizm, hinduizm va boshqa diniy e’tiqodlar haqida ham tasavvur beradi. Dinlarning yo‘nalishlari, oqimlari (mazhablari) haqida faqat dinshunoslik predmeti orqali keng tasavvur hosil qilish mumkin. Shu ma’noda, dinshunoslik, o‘z tarkibi va tabiatiga ko‘ra, umumlashtiruvchi va tartibga soluvchi fan bo‘lib, diniy e’tiqodning ibridoiy ko‘rinishidan hozirgi holatiga qadar bo‘lgan tarixiy evolutsiyasini o‘rganadi.

Dinshunoslik bilimlarning kompleks (lotincha *complexus* – aloqa, birikma degan ma’nolarni anglatadi. Predmetlar, harakatlar va voqeliklarning birikmasi bo‘lib, ular bir butunlikka birlashadi) tarmog‘ini tashkil etadi. Ushbu fan ilohiyot, falsafiy va ilmiy fikr rivoji natijasida shakllandi.

Diniy bilimlarning tarixan tashkil topgan birinchi shakli ilohiyot (teologiya grekcha *teos* – xudo va *logos* – ta’limot degan ma’noni anglatadi), ya’ni xudoni o‘rganuvchi ta’limotdir.

Ilohiyot muayyan dinning aqida (qoida)larni, muqaddas yozuvlar va diniy tashkilotlar hujjatlarini odamlarga tushunarli tilda yetkazib beruvchi ta’limotdir.

Dingga ilohiyot nuqtai nazaridan yondashuv dinni uning ichidan o‘rganishdir, chunki ilohiyot vakillari dinni faqat xudoga ishongan kishi tushunishi mumkin deb hisoblaydilar.

Dinni o‘rganishda ilohiy yo‘nalish bilan birga falsafiy va ilmiy yo‘nalishlar ham mavjud. Falsafiy va ilmiy yo‘nalishlar, ilohiyotdan farqli ravishda, dinni «ichidan» emas balki «tashqaridan» o‘rganadi. Ularning dinni o‘rganish usullari ilohiyotnikidan farq qiladi. Falsafiy va ilmiy yo‘nalishlar dinni tafakkur, mantiqiy-nazariy, empirik-ilmiy prinsiplarga tayanib o‘rganadi.

Falsafiy va ilmiy yo‘nalishlarning dinga yondashuvdagagi umumiyligi jihatlari bilan birga o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Masalan, falsafiy yondashuv tevarak atrofdagi voqeа-hodisalarning umumiyligi prinsiplari hamda qonuniyatlarini topishga, narsa-hodisalarning mohiyatini aniqlashga intiladi, ularga tanqidiy nuqtai nazardan yondashadi. Bunday yondashuv mavjud dunyoqarashning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda ijtimoiy hayotda isbotlanmaganlari inkor qilinadi, isbotini topganlari yanada rivojlantiriladi.

Falsafiy yo‘nalishda xilma-xil oqimlar mavjud bo‘lib, ular dinganisbatan turlicha munosabatda bo‘ladilar. Masalan, din falsafasi oqimi ilohiyotga o‘xshash vazifalarini bajaradi. Lekin ilohiyotdan farqli o‘laroq, xudo va diniy qadriyatlarning obyektiv mavjudligini ilmiy jihatdan isbotlashga intiladi.

XIX asrning o‘rtalarida dinni o‘rganishda ilmiy yondashuvning shakllanish jarayoni uzil-kesil yakunlandi. Shu davrda tabiiy va ijtimoiy fanlarning rivojlanishi natijasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarga tayanib, dinni yerdagи sabablarga bog‘lab tushuntirish imkoniyati yuzaga keldi.

Ilmiy yo‘nalish dinni ijtimoiy hayotning bir sohasi sifatida uning boshqa sohalari bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganadi. U din qanday shakllangan, kishilarda qanday qadriyatlar, normalar va xulq-atvor obrazlarini vujudga keltirishi, diniy tashkilotlarning qanday faoliyat ko‘rsatishi, dinning jamiyatda qanday funksiyalarni bajarishi kabilarni o‘rganadi.

XIX asrning oxirlarida dinni ilmiy o‘rganish asosida bilimlarning maxsus tarmog‘i – dinshunoslik fani shakllangan. Dinshunoslik fanining **vazifalari** quyidagilardan iborat:

– din va diniy e’tiqod haqida ilmiy, dunyoviy tasavvur hosil qilishga yordam berish;

– dinning inson hayotida tutgan o’rni va mavqeい haqida to‘g‘ri tu-shunchani shakllantirish;

– kishi ma’naviyatida ma’naviy bo‘shliq (vakuum) yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, turli g‘ayritabiyy va g‘ayriinsoniy diniy qarashlar shakllanishing oldini olish.

Bundan tashqari, diniy e’tiqod tarkibida mavjud insonparvarlik, mehr-shafqat va imonlilik kabi qadriyatlargal janggarilik, shafqatsizlik, qonxo‘rlik da’vatlarining butunlay yot ekanligi dinshunoslik orqali oydinlashadi, diniy jaholatning ma’rifat orqali bartaraf etilishiga, dinning haqiqiy mavqeい tiklanishiga erishiladi. Dinshunoslik, diniy e’tiqodning, qaysi shaklda bo‘lmisin, ezgulik, odamiylik va adolat g‘oyalariga bo‘ysunganligini isbotlashga ko‘maklashadi, dinlar o‘rtasida mazkur g‘oyalar asosida ma’naviy yakdillik va hamjihatlik aloqalari mavjudligini isbotlashga xizmat qiladi.

Dinshunoslikning vazifalari o‘zaro aloqador bo‘lib, ularni amalga oshirishda boshqa fanlar bilan hamkorlik qilish talab qilinadi. Masalan, falsafa kishilarning dunyoqarashi, dunyoga munosabati masalalari, ularni o‘rganish usullari, dinning jamiyatdagi ma’naviy, ijtimoiy, ruhiy ildizlarini o‘rganadi. Dinshunoslik dinni o‘rganishda falsafiy qonuniyatlar, masalaga yondashish usullari, dunyoqarash muammolari kabilarga tayanishi mumkin.

Huquqshunoslik dinning konstitutsiyaviy mavqeい, huquqqa ta’siri, vijdon erkinligi, so‘z erkinligi kabilarga bog‘liqligi masalalarini o‘rganadi.

O‘zbekiston tarixi fani dinning qadimgi zamonlardan hozirgi davrga qadar jamiyat hayotidagi ahamiyatini, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga ta’siri jarayonlarini o‘rganadi. Tarixda bu jarayonlarning barcha jahbalarida dinning o’rni va o‘ziga xos ta’siri bo‘lgan. Dinshunoslik tarixiy davrlarda dinning ijtimoiy hayotda tutgan o’rni va ahamiyatini o‘rganishda tarix fani ma’lumotlariga tayanadi.

Dinshunoslik boshqa ijtimoiy fanlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

– dinshunoslik dinni ijtimoiy-ruhiy voqelik sifatida kompleks tarzda, boshqa ijtimoiy fanlar esa dinni o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rganadi. Jumladan, huquqshunoslik dinning huquq bilan bog‘liq jihatlarini, falsafa diniy dunyoqarashni, ruhshunoslik (psixologiya) diniy hissiyot va kechinmalarni, dinshunoslik esa dinning barcha jiatlarini bir-biriga bog‘liq holda o‘rganadi;

– dinshunoslik dinni o‘rganishga ilmiy jihatdan xolisona yonda-shuvga asoslanadi. Masalan, ilohiyot xudo va diniy qadriyatlarni himoyalab, ularning ustuvor qadriyat ekanligini isbotlashga harakat qilsa, ateizm dinning insoniyat uchun zararli ekanligini isbotlashga intiladi. Ammo ikkala yondashuv ham ilmiy yondashuvga ziddir.

Dinshunoslik fanini o‘rganish ichki ishlar organlari xodimlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, dinshunoslik ichki ishlar organlari xodimlarining din to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga yordam beradi, muammoga mustaqil munosabatni vujudga keltiradi. Ikkinchidan, bu fan ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan muomalada, ularning diniy tuyg‘usi, qadriyatlarini hurmat qilish va o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni o‘rnatishlariga ko‘maklashadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, din murakkab, ko‘p tarmoqli ijtimoiy ong shaklidir. Shuning uchun ijtimoiy fanlar dinni o‘rganishga doimo jiddiy e’tibor beradilar. Dinshunoslik dinni o‘rganishda boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanib, ijtimoiy munosabatlarning yanada rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda.

Dinning tuzilishi va funksiyalari

Din – o‘ta murakkab ijtimoiy hodisa. U o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lib, kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti hosilasidir. Din kishilarning g‘ayritabiyy kuchlarning mavjudligiga ishonishdan yuzaga kelgan. Zero, «din» so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida «ishonch», «ishonmoq» degan ma’nolarni anglatadi.

Hozirgi zamон dinlari murakkab tarkibiy qismiga ega. Uning tarkibiy qismiga diniy ong, marosim va tashkilotlar kiradi.

Diniy ong diniy dunyoqarash tarkibida muhim o‘rin tutadi. Diniy ong diniy tasavvurlar, g‘oyalar, his-tuyg‘u va kayfiyatlarni ifodalaydigan qarashlar tizimidir. Dinni tarkibiy qisimlari qatorida diniy ong ustuvor ahamiyatga ega, chunki diniy marosim va diniy tashkilot kishilar ongida va jamiyatda diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va saqlanib qolishiga ko‘maklashadi.

Diniy ongning o‘zaro bog‘liq va nisbatan mustaqil bo‘lgan ikki darjasи yoki bosqichi mavjud. Bular diniy psixologiya va diniy ideologiyadir. Diniy psixologiya – kishilarning diniy his-tuyg‘ulari, odatlari, an’analari va kayfiyatlari majmui. Diniy ideologiya esa diniy tashkilotlar orqali malakali diniy shaxslar targ‘ib etadigan turli diniy g‘oyalarning muayyan tizimidir.

Diniy psixologiya va diniy ideologiya o‘rtasida muayyan darajadagi umumiylilik mavjud. Bu umumiylilik voqelikni sarobiy aks ettirishda, g‘ayritabiyy kuchlarga sig‘inishda namoyon bo‘ladi.

Tarixan diniy psixologiya diniy ideologiyaga nisbatan oldin paydo bo‘lgan. Kishi ruhiyati barqaror voqelik emas, chunki ijtimoiy jarayonlar ta’sirida o‘zgarib turishi mumkin. Shuningdek, amaliyat bilan diniy ideologiyaga nisbatan yaqindan aloqada bo‘ladi. U kishilarning tabiat kuchlaridan qo‘rqishlari, ular oldida taslim bo‘lishlari va ularni ilohiyashtirishlari natijasida shakllanadi. Diniy ideologiya esa jamiyatda mehnat taqsimoti, sinflar va davlatning vujudga kelishi bilan bog‘liq.

Diniy psixologiya taraqqiy etgan sayin diniy tasavvurlar ham takomillashib boradi. Diniy tasavvurlardan diniy g‘oyalar shakllangan. Oqibatda qadimgi diniy e’tiqod shakllari – sehrgarlik, animizm, fetishizm, shomonlik va boshqalar kelib chiqqan.

Diniy ideologiya diniy psixologiyadan farq qiladi. Zero, u muayyan tushuncha va qarashlarning tartibli tizimidir. Diniy ideologiya insoniyat taraqqiyotining nisbatan yuqori bosqichlarida yuzaga keladi. Uni ruhoniylar, kohinlar, dinni o‘rganuvchi faylasuflar ishlab chiqadilar va targ‘ib qiladilar.

Diniy ideologiya ayrim manbalarda teologiya deb yuritiladi. Teologiyaning asosini odatda diniy ideologiyaning muntazam va muayyan tizimli ko‘rinishi bo‘lmish muqaddas kitoblar (Tavrot, Zabur, Injil, Qur’on kabilar) tashkil qiladi. Diniy ideologiya quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi:

1) dogmatika (grekcha *dogmatos* – fikr, ta’limot, yechim degan ma’nolarni anglatadi) diniy ta’limotning barqaror, kam o‘zgaruvchan qoidalari tizimi;

2) apologetika (grekcha *apologeomai* – himoya qilaman degan ma’no ni anglatadi) ilohiyot sohasi va diniy ta’limotni insoniyat tafakkuri hamda tajribasiga asoslanib himoya qilish;

3) ilohiyot va axloqning o‘zaro aloqadorligi (din axloq qoidalariga ilohiy mazmun beradi);

4) amaliy ilohiyot – cherkov va machitlarning faoliyati va xudoga sig‘inish tartiblarini ishlab chiqish.

Dinning tarkibiy qismlari qatorida diniy ong bilan birga diniy marosim ham ahamiyatga ega. Biz dinni g‘ayritabiyy kuchlarning mavjudligiga

ishonch yoki kishilarning o‘zaro munosabati va harakatlari sifatida ham baholashimiz mumkin. Bunday munosabatlar diniy marosim deb ataladi.

Diniy marosim individ, guruh yoki tabaqalarning manfaatlari, g‘oyalari va orzu-istikclarini ifodalaydigan munosabatlar va harakatlar tizimidir. Diniy g‘oyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular va harakatlar tizimi diniy ta’limotni vujudga keltiradi. Dindorlar diniy marosim orqali muloqotning boshqa vositalari samara bermaydigan vazifalarni bajaradilar. Unda harakat yoki munosabat muayyan sirli mazmunni ifodalaydi. Har bir harakat yoki o‘qilgan duo ramziy mazmun kasb etadi. Inson va sig‘inish obyekti o‘rtasida g‘ayritabiyy aloqa mavjudligiga ishonch mustahkamlanadi. Kishi diniy marosimlarni bajarish bilan g‘ayritabiyy kuchni o‘z ittifoqchisi va madadkoriga aylantirishga umid qiladi.

Qadimda diniy marosimning keng tarqalgan turi qurbanlik bo‘lgan. Qurbanlik turli (oziq-ovqatlarning bir qismini ajratish, hayvonlar so‘yish kabi) usullarda amalga oshirilgan.

Qurbanlik negizida boshqa diniy marosimlar yuzaga kelgan. Jumladan, diniy marosimning eng rivojlangan shakllaridan biri sig‘inish ham qurbanlik asosida shakllandi. Qurbanlik diniy marosimini bajarish jarayonida g‘ayritabiyy kuchga sig‘inish yuzaga kelgan va keyinchalik undan ajralib chiqqan. Sig‘inish dindorning so‘z vositasida real yoki uydirma obyektga ta’sir qilishga qaratilgan duolari, ramziy xatti-harakatlari majmuasidir. Kishining qanday his-tuyg‘ularni ifodalashiga qarab, uni olqishlovchi, minnatdorlikni ifodalovchi, gunohlarning kechirilishini so‘rashga yo‘naltirilgan va boshqa turlarga bo‘lish mumkin.

Sig‘inish turli xatti-harakatlar, xulq-atvorlar bilan birga moddiy hodisalarni ham o‘z ichiga oladi. Sig‘inishning muhim xususiyati hissiy-ramziy obrazlarda ifodalanishidir. Sig‘inish tarkibiga turli udumlar, an‘analar, qurbanliklar, duolar, o‘zini hayot ne’matlaridan cheklash (jumladan, ro‘za tutish) kabilar kiradi. Sig‘inish u yoki bu predmetni ilohiylashtirish (masalan, Ka’badagi qora tosh, ayrim daraxtlar, muqaddas qabrlar, qadamjolar) vositasida amalga oshiriladi. Sig‘ishda turli tumorlar, tasbeh, diniy liboslar ham muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi bирgalikda sig‘inishga hissiy-ramziy obraz tusini beradi va kishining ruhiyatiga qattiq ta’sir qiladi. Sig‘inishning alohida ahamiyati shundaki, kishi o‘z hayotining ma’nosini eng oliy qadriyat – narigi dunyoda erishadigan lazzat va fa-

rovonlik bilan bog‘laydi, bu dunyodagi hayotining o‘tkinchi ekanligiga, o‘zining qandaydir tashqi qudratli kuch tomonidan idora etilishiga ishonadi.

Shveysariyalik olim K. G. Yungning fikricha, diniy ramz (simvol)lar inson hayotiga ma’no bag‘ishlaydi. Uning ta’kidlashicha, Amerikadagi pueblo qabilasining hindulari o‘zlarini Quyosh ota farzandlari deb hisoblashadi. Bu narsa ularga umid bag‘ishlaydi, tasalli beradi, hayotini muayyan mazmun va ma’no bilan to‘ldiradi¹.

Umid kishiga kuch-quvvat bag‘ishlaydi va insonni nochor real hayotidan tashqari kelajakda kutayotgan rohatbaxsh daqiqalar sari xayolan yetaklaydi. G‘ayritabiiy kuchga ishonish kishining kundalik azob-uqubatlarni o‘tkinchi bir narsa deb qarashiga, hatto o‘limdan ham qo‘rmasligiga yordam beradi. Chunki taqvodor kishi kelajakda farovon hayotga erishishiga ishonadi. Dinning kuchi ham ana shunda. Kishining xudoga ishonishi bu dunyonи o‘tkinchi sifatida anglashiga ko‘maklashadi, narigi dunyodagi «hayoti»ga umid va ishonch bag‘ishlaydi. Bunday holatni mustahkamlash uchun din turli-tuman ramziy hodisalardan foydalanadi.

Diniy marosimlar ongga ta’sir qiladi. Bu ta’sir jarayonida u nafaqat axloqiy-ma’naviy, balki estetik vositalardan ham foydalanadi. Masalan, diniy marosimlar o‘tkaziladigan joylar – masjid, cherkov, sinagogalarni bezashga katta e’tibor beriladi. Bunday joylarda bo‘lgan kishining ruhiyatida o‘zgarishlar yuz beradi. Buni xristianlikning katolitsizm yo‘nalishi misolida ham ko‘rsatish mumkin. Cherkovning ichki va tashqi qismlari rassomchilik, haykaltaroshlik asarlari bilan bezatiladi, marosimlarga tantanali tus beriladi, xor va organ musiqasidan foydalaniladi. Dindor cherkovdan o‘zini yengil his qilib chiqadi, diniy bilimi kengayadi, e’tiqodi mustahkamlanadi.

Islom dinida ham badiiy-hissiy usullardan ustalik bilan foydalaniladi. Masalan, Qur’онни yoki biror-bir duoni qiroat bilan o‘qish, og‘zaki nutq madaniyati, notiqlik san’ati usullaridan foydalanish yordamida bajariladi. Ta’kidlash joizki, aksariyat din peshvolari va allomalar nutqining ta’sirchanligi hatto ba’zi mashhur professorlarnikidan ham ustun turadi.

Din tarkibida e’tiqod ham muhim o‘rin egallaydi. *E’tiqod* – kishining muayyan hodisa, uning xossa va xususiyatlari haqqoniy ekanligiga ishonchi.

¹ Караңг: Юнг К. Г. Архетип и символ. – М., 1992. – С. 81.

Ishonch e’tiqodning asosini tashkil etadi. Biroq har qanday ishonch ham e’tiqodga aylanavermaydi. Garchi ishonch va e’tiqod bir-biriga juda yaqin va o‘xhash bo‘lsa-da, biroq ular o‘rtasida farq ham mavjud. Odatda, e’tiqod deganda diniy e’tiqod tushuniladi. Aslida, e’tiqod diniy ham, dunyoviy ham bo‘lishi mumkin. Diniy e’tiqod g‘ayritabiiy kuchlar va hodisalarga ishonish, sig‘inish orqali shakllanadi. E’tiqodning dunyoviy ko‘rinishi esa insonni o‘rab turuvchi obyektiv olamdagি narsa va hodisalarni hissiy tajriba va ilmiy bilish asosida shakllanadi.

Diniy marosimlarni dindorlar yakka tartibda yoki jamoaga birlashib amalga oshiradilar. Ularning jamoaga birlashuvi osonlikcha kechmaydi. Shu tariqa diniy ijtimoiy institutlar shakllanadi. Bunday institutlarning boshlang‘ich bo‘g‘ini dindorlar guruhidir. Dastlabki dindorlar guruhi mehnat, urug‘ jamoalari negizida yuzaga kelganligi bois butun urug‘ yoki qabila a’zolarini birlashtirgan. Diniy marosimlarda barcha urug‘ a’zolari ishtirok etgan. Diniy tajribaning ortib borishi bilan diniy marosimlarni bajarishni tashkil etuvchi va boshqaradigan mutaxassislar – shomonlar, sehrgarlar – ajralib chiqqan. Ular asta-sekin mazkur faoliyat turini o‘zlashtirib, kasbiy guruhlarga birlashganlar.

Xususiy mulk, sinflar va davlatning paydo bo‘lishi bilan dinning ijtimoiy vazifalari kengayib borgan. Dinning vazifalaridan biri hukmron sinf va davlat manfaatlariga xizmat qilish bo‘lgan. Mavjud siyosiy tizim va hukmdorning shaxsi ilohiyashtirilgan.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar diniy marosimlar va institutlarga ham ta’sir etgan. Diniy marosimlarning murakkab tizimlari shakllangan. Nisbatan mustaqil faoliyat ko‘rsatadigan kohinlar korporasiysi yuzaga kelgan. Diniy korporatsiya faoliyat turiga ko‘ra birlashgan kishilarning tashkiloti bo‘lgan. Lekin u davlat apparatining tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Shu davrdan boshlab kohinlar alohida tabaqaga birlashganlar. Davlat tuzumi va hukmdorning muqaddaslashtirilishi kohinlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlab borgan. Kohinlar o‘z davrining eng bilimdon vakillari sifatida davlatning siyosiy tizimi shakllanishida faol ishtirok etganlar.

Ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy institutlarning takomillashuvi jarayonida din davlat siyosiy tizimining tarkibidan ajralib chiqqan va mustaqil faoliyat ko‘rsata boshlagan. Diniy tashkilot ham davlatning siyosiy tizimidan mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilotga aylangan.

Diniy tashkilot diniy qarashlarga ega maslakdoshlarning muayyan birligi bo‘lib, umumiy e’tiqod va sig‘inishlar zaminida yuzaga keladi. U insoniyat tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarida xilma-xil aks etadi. Diniy tashkilotlar kishilik jamiyatida keskin sinfiy tabaqalanish yuzaga kelishi, aqliy mehnatning nisbiy mustaqilligi mustahkamlanishi bilan alohida ijtimoiy mavqega ega bo‘lib boradi.

Diniy tashkilotlar masjid (cherkov), sekta (mazhab), xarizmatik marosim va denominatsiya kabilarga bo‘linadi.

Cherkov – diniy qarashlar va g‘oyalarni ishlab chiqadigan, saqlaydigan hamda almashadigan, diniy faoliyatni tashkil etadigan, dindorlarni nazorat qiladigan, iyerarxiya tizimi asosida boshqariladigan dindorlar tashkiloti. Cherkovga taalluqlilik mustaqil tanlov asosida emas, balki an’ana bilan belgilanadi. Unga qabul qilinish uchun dindor maxsus marosimdan o‘tishi kerak. Cherkov, odatda, dindorlarning marosimlarni bajarishlari yoki xulq-atvorlarini qat’iy nazorat qilmaydi. Cherkovga a’zolik an’anaga ko‘ra belgilansa, sekta a’zolari e’tiqodiga ko‘ra birlashadilar.

Sekta (mazhab) – diniy qarashlari va marosimlaridagi tafovutlariga ko‘ra rasmiy cherkovdan ajralib chiqqan guruh yoki tashkilot. Diniy sektalar, odatda, davlat hokimiyati va rasmiy cherkovga muxolafatda turadi. Shu bois sekta a’zolari davlat hokimiyati va rasmiy din vakillari tomonidan ta’qib qilinishi mumkin. Sektaga a’zolik qat’iy tartibga solinadi, ularning boshqa tashkilotlar bilan aloqasi cheklanadi yoki taqiqlanadi. Sekta a’zolarining tengligi e’tirof etiladi. Ular ruhoniylar va dindorlarga bo‘linmaydi.

Xarizmatik marosim tashkil etilish prinsipi (tamoyili)ga ko‘ra sektaga o‘xshaydi. Tashkilot o‘tkir zakovat (xarizma)ga ega shaxs atrofida maslakdoshlarining jipslashuvidan yuzaga keladi. Unda rahbarning shaxsi ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko‘tariladi. Tashkilot a’zolari o‘rnatilgan tartib-intizomga qat’iy amal qiladilar. Tashqi aloqalari cheklanadi yoki butunlay to‘xtatiladi, rahbarga so‘zsiz itoat etiladi.

Hozirgi dinlarda «denominatsiya» (lotincha *denominatio* – boshqa nom qo‘yish, nomini o‘zgartirish) degan diniy-tashkiliy hodisani ham kuzatish mumkin. Ilmiy adabiyotda bu hali chuqr o‘rganilmagan. Biroq denominatsiya hozirgi zamonda buddaviylik, xristianlik, islom va iudaizm kabi dinlarda katta ahamiyatga ega.

Denominatsiya diniy tashkilotlarning oraliq yoki vositachi shakli bo‘lib, cherkov va mazhablar oralig‘ida turadi. Uni din falsafasi va din sotsiologiyasi fanlari o‘rganadi.

Diniy tashkilotlarning yuqorida qayd etilgan tartibda tasniflanishi shartli ahamiyatga ega. Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan murakkab jarayonlar ta’sirida ularning sifati o‘zgarishi mumkin. Sektalar cherkovga aylanishi yoki yangi sektalar yuzaga kelishi mumkin. Hozirgi davrda jahon dini darajasiga ko‘tarilgan dinlarning dastlab sekta sifatida yuzaga kelgani va uzoq rivojlanish bosqichidan o‘tgani fikrimizning isbotidir.

Mamlakatimizda diniy tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi 1998 yil 1 may (yangi tahrirdagi) qonuni asosida faoliyat yuritadi. Mazkur qonun 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan variantidan farq qilib, diniy tashkilotlar faoliyatini huquqiy jihatdan mukammalroq kafolatlaydi. Dinlar tarkibida, diniy tashkilotlardan tashqari, turli mazhablar ham muhim o‘rin tutadi. Mazhab muayyan diniy mafkuraning xususiy ko‘rinishi, ortodoksal, ya’ni fundamental diniy ideologiyadan qisman farq qiluvchi yoki unga muxolafatda bo‘lgan diniy maslakdoshlar birlashmasidir. Masalan, xristianlikda baptistlar, yevangelistlar, kalvinistlar, lyuteranlar, murmonlar va boshqa diniy sektalar mavjud. Ular rasmiy xristian dinining ayrim g‘oyalaridan farq qiluvchi diniy tasavvurlarni targ‘ib qiladilar.

Islom dinida ham shunga o‘xshash ismoiliy, zaydiy, nizoriy, druz va boshqa diniy mazhablar mavjud. Shuni alohida qayd etish joizki, mazhablar nafaqat sof diniy, balki ko‘pincha siyosiy va huquqiy asosga ham ega bo‘ladi. Ular ko‘pincha o‘zlarining siyosiy va huquqiy manfaatlarini diniy niqobda ifoda etadilar. Jamiyatdagi muayyan tabaqanining hukmron siyosiy tartibdan ijtimoiy noroziliginı ochiq ifoda eta olishi uchun yetarli shart-sharoitlarning mavjud emasligi ham bunga sabab bo‘ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, davlatning byurokratlashuvi fuqarolarda norozilikni shakllantirishi mumkin. Sektalar esa buni diniy qiyofada yoki din vositasida ham ifoda etishga harakat qiladilar. Bunday urinishlar rivojiana borib, ochiqdan-ochiq siyosiy tus olishi, diniy davlat qurish da’vosini yuzaga keltirishi mumkin. Buning oldini olishning yagona yo‘li dunyoviy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, inson huquqlari va erkinliklarining ro‘yogha chiqishi uchun real sharoit yaratishdir.

Din o‘z mavqeい va inson hayotidagi o‘rniga ko‘ra ijtimoiy hayotning muhim qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham u inson va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi va ahamiyatiga ko‘ra turli vazifalarni bajaradi. Odatda, din dunyoqarash, regulyativ, integrativ, kompensatorlik, legitim (qonuniy) va shu kabi boshqa vazifalarni bajaradi.

Dinning *dunyoqarash* vazifasi shundan iboratki, dindor atrofdagi narsa va hodisalarни o‘tkinchi deb, ya’ni insonning real hayotdagi faoliyati narigi (boqiy) dunyo uchun faqat asos, tayyorgarlik deb biladi. Dindor (diniy dunyoqarashga asoslangan kishi) umr mazmunini narigi dunyoga tayyorlanish, bu dunyoning azob-uqubatlari vaadolatsizliklariga sabr-qanoat qilish, chidashdan iborat deb hisoblaydi. U o‘limni hech qanday qo‘rquvsiz qabul qilishi kerak, chunki o‘lim insonning boqiy hayotga o‘tish yo‘li, deb bilinadi. Dunyoqarash vazifasi shu o‘rinda dinning taskin berish (kompenatorlik) vazifasi bilan uyg‘unlashib ketadi.

Dinning *kompensatorlik* (lotincha *compensare* – tenglashtirish, muvozanatlashtirish, to‘ldirish degan ma’nolarni anglatadi) vazifasi kishilarning hayotini boyitadi, diqqatlarini kundalik muammolardan boshqa narsalarga jalb qiladi, ularni ovutadi. Mazkur vazifa orqali din kishilarda ertangi kuniga ishonch tuyg‘usini shakllantiradi. Ularni hayotiy qiyinchiliklarga taslim bo‘lmaslikka va har qanday sharoitda xudoga ishonchini yo‘qotmaslikka o‘rgatadi.

Dinning *integrativ* vazifasi jamiyat a’zolarini – ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeい, millati kabi xususiyatlaridan qat’i nazar – birlashtiruvchi kuch ekanligida namoyon bo‘ladi. Integrativ yoki funksionalistik yondashuvning asoschilaridan biri E. Dyurkgeymning fikricha, din xuddi yelim kabi kishilarni umumma’naviy qadriyatlar, e’tiqod, urf-odat va an’analar asosida birlashtirishga, yaxlit bir majmuaga aylantirishga xizmat qiladi. E. Dyurkgeym ayniqsa diniy sig‘inish masalasiga alohida e’tibor beradi. Uningcha, din sig‘inish orqali jamiyatni bir butun qiladi, shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi va itoat etishga undaydi, ijtimoiy yaxlitlikni mustahkamlaydi, an’analarni qo‘llab-quvvatlaydi, kishida qanoat hosil qiladi.

Dinning integrativ vazifasi bilan *regulyativlik* (lotincha *reguiare* – muayyan tartibga bo‘ysundirish, tartibga solish, o‘rnatish degan ma’nolarni anglatadi) vazifasi uzviydir. Regulyativlik vazifasi diniy xulqatvor normalari vositasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, ushbu normalarni dindorlarning bajarishlarini nazorat qiladi. Bunday normalarga

diniy urf-odatlar, marosimlar, an'analar va bayramlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Dinning regulativlik vazifasi dindorlar faoliyatining tartibga solinishi qonuniylashtirilishini taqozo etadi. Bu esa uning *legitimlik* vazifasini keltirib chiqaradi. Mazkur vazifani birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog olim T. Parsons ajratgan. Uning fikricha, muayyan qonuniyliksiz, ya'ni legitimliksiz hech bir ijtimoiy tizim mavjud bo'la olmaydi. Legitimlik vositasida jamiyat a'zolarining xatti-harakatlari muayyan qolipga solinadi, jamiyatda barqarorlik ta'minlanadi. T. Parsons diniy normalarni jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib, o'zgarib va rivojlanib boruvchi boshqa ijtimoiy normalardan ustun qo'yadi, chunki diniy normalar jamiyatning axloqiy-ma'naviy tartibini belgilaydi.

Legitimlik dindorlarning e'tiqod bilan bog'liq o'zaro aloqalarini taqozo etadi. Bu esa uning navbatdagi aloqa vazifasini yuzaga keltiradi. Dinning aloqa vazifasi dindorlarni diniy mafkura vositasida birlashtiradi. Shu bilan birga, jamiyat va shaxs o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatilishiga yordam beradi.

Yuqorida tahlildan ko'rinish turibdiki, din o'z tarkibiga ko'ra juda murakkab va rang-barang mazmunga ega. U insonning hissiy-obrazli faoliyatidan tortib hayot ma'nosini anglashi bilan bog'liq bo'lgan yuksak axloqiy-ma'naviy faoliyati, tafakkuri va ijodiga xos hodisalarni qamrab oladi. Din tarkibida axloqiy elementlar bilan birga huquqiy va siyosiy jihatlar ham mavjud. Shu bois dinga faqat axloqiy-ma'naviy hodisa deb qarash noto'g'ri. Unda qonuniylik va uni siyosiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan ruhiy imkoniyat ham mavjud. Dinning bunday jihatlarini mazkur qo'llanmada alohida mavzu tarzida o'rganamiz.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Dinshunoslik fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Dinshunoslikning boshqa gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligini tahlil qiling.
3. Dinshunoslikning boshqa fanlardan farqli jihatlarini aniqlang.
4. Ichki ishlar organlari xodimlarining dinshunoslik fanini o'rganish zaruriyati nimalardan iborat?
5. Dinning tarkibiy qismlari deganda nimani tushunasiz?
6. Diniy psixologiya nima?

7. Diniy mafkura nima?
8. Diniy mafkuraning xususiyatlarini aytib bering.
9. Diniy marosimning qanday shakllarini bilasiz?
10. Diniy tashkilot deganda nimani tushunasiz?
11. Din jamiyatda qanday funksiyalarni bajaradi?

2-mavzu
DINNING ILK SHAKLLARI VA ULARNING INSON
DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

Dinning vujudga kelish sabablarini o‘rganishga asosiy
yondashuvlar

Dinning vujudga kelish sabablarini o‘rganish qadimdan insoniyatni qiziqtirib kelgan va hozir ham bu muammo o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘qotmagan. Masalaning murakkabligi shundaki, ilk diniy qarashlar paydo bo‘lgan insoniyat tarixining qadimgi davrlaridan bizgacha yetib kelgan ashyoviy manbalar va etnografik ma’lumotlar ilmiy xulosa chiqarishimiz uchun yetarli emas.

Qadimgi davrlardan dinni o‘rganishda muammoga yondashuv va ularni hal etish usullari bilan o‘zaro farq qiladigan ilohiyot va ilmiy yo‘nalishlar yuzaga kelgan.

Ilohiyot ta’limotiga ko‘ra olam, undagi barcha narsa va jonzodlarni xudo yaratgan. Olamdagи barcha hodisa va jarayonlar uning irodasi bilan yuz beradi. Jahon dinlaridan biri bo‘lgan xristianlik ta’limotiga binoan xudo insonni o‘zining jismiga monand qilib yaratdi va moddiy olamga egalik qilishni buyurgan. Xudo borliqni, shu jumladan, insonni ham yaratgan vaqtda u bilan bevosita muloqotda bo‘lgan. Lekin, Odam Ato (Adam) va Momo Havo (Yeva) xudoning irodasini bajarmay gunohga yo‘l qo‘yanligi sababli, u bilan bevosita muloqot imtiyozidan mahrum bo‘ldi. Lekin xudo insonga xalos bo‘lish imkoniyatini berdi. Insoniyat xudoni bilish, ilohiy haqiqatni idrok etish salohiyatini saqlab qoldi. Zero, insonning xudo bilan bevosita aloqani qayta tiklash yo‘lidagi faoliyatni umumiyligi nom bilan din deb ataladi.

Insoniyat xudo bilan aloqadan mahrum bo‘lganidan keyin jaholat, zulmat,adolatsizlik, yovuzlik va muhtojlik kabi vayronkor kuchlarga qarshi tinimsiz kurash olib borishga duchor qilindi. Qiyin sinovlarga duchor bo‘lgan inson xudoni bilish maqsadidan voz kechmadi. Uning bu boradagi dastlabki qadami xudoga ibodat qilishdan boshlangan. Injilda qayd etilishicha, inson dastlabki ibodatida xudoga qurbanlik keltirgan. Mashaqqatli mehnat bilan topgan mahsulotining bir qismini qurbanlikka bag‘ishlagan va yo‘l qo‘yan xatosi uchun har qanday sinovlardan o‘tishga tayyorligini namoyish etgan.

Ilohiyot insoniyat tarixini xudoni bilish tarixi deb biladi. Odamzod asrlar davomida xudoni bilishga intilib, moddiy dunyo to‘g‘risidagi bilimlarini takomillashtirib bordi va bu jarayon hali nihoyasiga yetgani yo‘q.

Kishi xudoga e’tiqod qilishni dastlab yakka xudoga sig‘inishdan boshlagan. Keyinchalik turli obyektiv va subyektiv sabablar tufayli tabiat voqeliklarini ilohiydashtirgan va ko‘pxudolik paydo bo‘lgan. Uzoq vaqt davom etgan izlanishlardan keyin yagona xudoga sig‘inish yana qayta tiklandi. Ilohiyat an’analariga asoslanadigan dinshunoslar din tarixini yuqorida qayd etilgan prinsiplar asosida o‘rganadi.

Fan dinning vujudga kelish sabablarini o‘rganishda boshqa prinsip va qonuniyatlarga asoslanadi. Olamning g‘ayritabiyy kuch faoliyati natijasida paydo bo‘lganligi g‘oyasi inkor qilinadi. Fan dinni madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ilmiy uslublarga tayanib o‘rganadi. Dinni ilmiy o‘rganish dalillarga asoslanadi. Dinshunoslik bu dalillarni tabiiy va ijtimoiy fanlardan oladi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra insoniyat hozirgi holatga ega bo‘lishi uchun bir necha million yillik tadrijiy rivojlanish davrlaridan o‘tgan. Bu jarayon bir qator bosqichlarga bo‘linadi. Miloddan avvalgi 40–35-ming yilliklarda «Xomo xabilis» (ishbilarmon odam) o‘rnini «Xomo sapiyens» (ongli odam) egallagan. «Xomo sapiyens»ning dastlabki vakili «kromanyon odam» ajdodlaridan jismoniy tuzilishi, fiziologik va ruhiy imkoniyatlari bilan keskin farq qilgan. Shu davrdan boshlab madaniyatning muhim elementlari til orqali muloqot qilish, qon-qardoshlik aloqalari, o‘zaro munosabatlarni axloq normalari asosida tartibga solish singari madaniyat elementlari vujudga kelgan.

Bizgacha yetib kelgan arxeologik manbalarning tasdiqlashicha, yuqori paleolit davridan boshlab odamlar vafot etgan urug‘doshlarini ko‘mish marosimini amalga oshirganlar. Marhumlarning tanasiga rangli bo‘yoq surtilgan, qabriga ov va mehnat qurollari, maishiy buyumlar qo‘yilgan. Qoya va g‘orlarda chizilgan sujetlarda odamlar yarim odam va yarim hayvon qiyofasida tasvirlangan. Ushbu ma’lumotlar ham o‘sha vaqtida dinning paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Dinning vujudga kelish sabablarini ilmiy o‘rganish qadimgi davrlardan boshlangan. Dastlabki ilmiy qarashlar Qadimgi Sharq va Qadimgi O‘rta Yer dengizi sivilizatsiyalarida namoyon bo‘lgan. O‘rta Yer dengizi havzasida vujudga kelgan Qadimgi Grek va Rim sivilizatsiyalarida dinning vujudga kelishini ilmiy o‘rganishda katta yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Qadimgi grek mutafakkirlari bunga munosabat masalasida ikki oqimga bo‘linadi. Birinchi oqim tarafдорлари odamlarning xudoga e’tiqod qilishi sabablarini ruhiy (ideal) kuchlarning obyektiv mavjudligi bilan bog‘lab tushuntirganlar; ikkinchi oqim tarafдорлари esa dinning vujudga kelishini tabiiy va ijtimoiy sabablarini axtarib topishga harakat qilganlar. Ularning fikrlariga ko‘ra, din o‘z-o‘zidan

(immanent) vujudga kelmagan, balki u odamlarni qo‘rqtish va jamiyat qonunlarini bajarishga majbur qilish uchun o‘ylab topilgan. Qadimgi grek mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Demokrit dinni odamlarning tabiatdagi dahshatli kuchlardan qo‘rqishlari va ular oldidagi ojizliklar sababli vujudga kelgan deb hisoblagan. Albatta, buni inkor etib bo‘lmaydi, lekin xudoga munosabatda odamlarda ko‘proq qo‘rqinch hissi emas, balki mehr-muhabbat tuyg‘usi ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, qo‘rqinch hissining odamda nafratni vujudga keltirishini ham unutmaslik kerak.

Antik davr hurfikrligi dinning vujudga kelishi sabablarini moddiy borliq bilan uzviy bog‘lab tushuntirishda erishgan yutuqlari ilmiy dinshunoslikning vujudga kelishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘rta asrlarda ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlar ta’sirida dinning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi o‘rni va mavqeい yanada ortdi. Cherkov va ruhoniylar dunyoviy hokimiyatga da‘vogarlik qilish bilan birga hurfikrlilikning har qanday ko‘rinishlariga qarshi keskin kurashdilar. Mutafakkirlarning haqiqatni izlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlarida diniy dogmalar doirasidan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmadi.

Yevropada Uyg‘onish davriga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda amalga oshirilgan o‘zgarishlar (kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, fan va san’atning yuksalishi, gumanizm va reformatsiya harakatlari) natijasida hurfikrlilik asta-sekin qayta tiklana boshlagan. Ingliz mutafakkiri Tomas Gobbs (1588–1679 yillar) dinning vujudga kelishi sabablarini odamlarning tabiat va jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini bilmasligi, ular oldidagi ojizligi, doimo tahlika va qo‘rquvda yashashlari bilan bog‘lab tushuntirgan. Niderlandiyalik mutafakkir B. Spinoza esa (1632–1677 yillar) T. Gobbsning g‘oyalarini rivojlantirgan. U o‘z kuchiga ishonmaslik, umid va qo‘rquv o‘rtasida doimiy ikkilanish odamlarga xos deb hisoblagan va diniy e’tiqodning ular ta’sirida vujudga kelgani to‘g‘risidagi g‘oyani ishlab chiqqan.

XVIII asrda feodal tuzum inqirozi sababli burjua revolutsiyalarining yangi kuch bilan Yevropada yoyilishi mutafakkirlarning dinga munosabatida o‘ta keskin namoyon bo‘lgan. Din – feodal tuzumning inqirozi sababchisi va ijtimoiy taraqqiyotga to‘sinqlik qiluvchi kuch, degan kayfiyat ustuvorlik qilgan. Bunday fikr ayniqsa fransuz ma’rifatparvarlarining qarashlarida keskin namoyon bo‘lgan. Ma’rifatparvar P. Golbax (1723–1789) dinni kishining xayolida vujudga kelgan safsata deb baholagan. F. Volter (1694–1778) diniy e’tiqod va cherkov an’analarini tanqid qilib, agar din bo‘lmaganida uni o‘ylab topish kerak edi, deb P. Golbaxning fikrini qo‘llab-quvvatlagan. Ma’rifatparvar

P. S. Mareshal (1750–1803) dinni tanqid qilishda yanada keskin fikr bildirgan va din inson uchun afyundir degan xulosaga kelgan.

Ma'rifatparvar mutafakkirlarning din vujudga kelishi sabablarini o'rganishda aytgan mulohazalarini amaliyotdan yiroq deb bo'lmaydi. Lekin ularning muammoni o'rganishdagi ilmiy-obyektiv yondashuvlari buzilganligi shubhasizdir, chunki dinni quruq safsatadan iborat voqelik yoki inson uchun afyun deb baholash uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'liq inkor etishdan boshqa hech narsa emas. Ayni damda ma'rifatparvarlarning, o'ta keskin bo'lsa-da, dinning vujudga kelishini ijtimoiy hayot bilan bog'lab tushuntirishga urinishlari antik davr hurfikrligining qayta tiklanishi va jamiyatda mustahkam o'rniiga ega bo'lishiga sharoit yaratganini qayd etish lozim.

XIX asrda dinning mohiyati va vujudga kelishi sabablarini kompleks o'rganish boshlagan. Ilmiy dinshunoslik maktablari, yo'nalishlari va ta'limotlari paydo bo'lgan. Birinchilar qatorida V. Grimm, M. Myuller kabi shaxslar rahbarligida mifologik maktab vujudga kelgan. Ushbu maktab vakillari diniy e'tiqodlarni qadimgi munajjimlar bajarganlar va afsonalarda ta'riflangan marosimlarni o'rganishdan paydo bo'lgan deb hisoblaganlar. Ammo maktab vakillari rivojlangan diniy tizimlarni tahlil qilishda aniq xulosalar bermaganlar.

Dinning paydo bo'lishini o'rganishda o'sha davrda antropologik maktabning vujudga kelishi muhim bo'ldi. Ushbu maktabning vakillaridan biri L. Feyerbax (1806–1880) dinni tushuntirishda uning yerdagi manbalari va ildizlarini izlab topishga harakat qilgan. Odamlar din timsolida o'zlarining tasavvurlari orqali vujudga keltirilgan obrazlarga sog'inadi deb diniy qarashlar va hissiyotlar kishilarda tug'ma mavjudligi to'g'risidagi ilohiyot g'oyasini tanqid qilgan. Uning vujudga kelishi sabablarini odamlarning ruhiy fiziologik xususiyatlari va qurshab turgan tabiatdan axtarib topishga harakat qilgan. Mutafakkir diniy e'tiqodning vujudga kelishida salbiy his-tuyg'ular, ya'ni qo'rqish, qayg'u-iztirob kabilar bilan birga shodlik, mehr-oqibat, sevgi, minnatdorlik singari ijobiy his-tuyg'ular ham ishtirok etishini qayd etgan.

XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan marksizm dinni o'rganishda o'zgacha yondashuvga asoslanadi. Unda ijtimoiy shart-sharoitlar va jamiyat rivojlanishi darajasiga alohida e'tibor beriladi. Marksizm ta'limotiga binoan, individ shaxs sifatida tarixiy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadi. Shu bois diniy tasavvurlar inson ongida emas, balki tarixiy jarayonlar ta'sirida paydo bo'ladi. Din turlarining rivojlanishi ham o'z-

o‘zidan yuz bermaydi. Ular ijtimoiy shart-sharoitlarning pishib yetilishi va jamiyatning rivojlanishi ta’sirida o‘zgarib boradi.

Marksizm dinning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyati masalasida dinni hukmron sinflarning afkor xalq ommasini ezish vositasi, ijtimoiy taraqqiyotga qarshi kuch hamda ma’naviy zulm shakli deb baholagan.

XX asrda dinning vujudga kelishi sabablarini antropologik yondashuvidagidek ibridoiy odamning abstrakt tafakkuri mahsuli, ongning mantiq qoidalariga zid kelishi natijasi sifatida baholash va marksizmdagi hukmron sinflarning afkor xalq ommasini ezish vositasi, ijtimoiy taraqqiyotga to‘sinqilik qiluvchi kuch kabilar bilan bog‘lab tushuntirishdan farq qiluvchi g‘oyalar vujudga kelgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida dinni sotsiologik o‘rganishda katta yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Bu sohada nemis mutafakkiri M. Veber (1864–1920) va fransuz mutafakkiri E. Dyurkgeym larning (1858–1917) xizmatlari katta bo‘lgan.

M. Veberning fikriga ko‘ra, sotsiologiyani dinning manbalari va metafizik mohiyati masalasi emas, balki uning mavjudligi, shart-sharoitlari qiziqtiradi. Sotsiologiya esa diniy g‘oyalar va tasavvurlarning kishilar xatti-harakatlari va ijtimoiy hayotga ta’siri kabi masalalarni o‘rganishi kerak.

M. Veber sotsiologiya predmetini dinning sotsial funksiyasidan kelib chiqqan holda belgilagan. Dinni individ va jamiyatning ahamiyati, simvollari va qadriyatlarini belgilovchi madaniy tizim, ijtimoiy institut deb hisoblagan.

Din qadriyatlarning birlamchi asosidir. Zero, din kishi harakatiga ma’no va mazmun baxsh etuvchi eng muhim usul sifatida uning maqsadini belgilaydi. Din vositasida dunyo manzarasi ishlab chiqiladi, unda amal qiladigan qadriyatlar va normalar tizimi hosil qilinadi. Bu esa hayot uchun nimalar ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini aniqlovchi vosita vazifasini bajaradi.

E. Dyurkgeym dinni o‘rganishda M. Veberga nisbatan tamoman bosh-qacha yondashadi. U dinni o‘rganishda sotsiologik tadqiqotlarning umumiy prinsiplariga tayanadi. Uning fikriga ko‘ra, sotsial ma’lu-motlarning manbai tafakkurda yoki alohida olingan kishilarning xatti-harakatlarida emas, balki jamiyatdadir. Sotsial voqelik hosil bo‘lishi uchun kamida bir necha kishi birlashib harakat qilishi va bu jarayon yangi natijani vujudga keltirishi kerak. Mazkur jarayonlarning natijasi individ ongidan tashqarida yuzaga kelganligi sababli, individual tafakkurlar uchun xatti-harakatlar, qadriyatlar va normalar namunasi vujudga keladi va

mustahkamlanadi. Natija ijodiy jarayonda ishtirok etayotgan individ uchun obyektiv voqelikka aylanadi. Din ijtimoiy voqelik bo‘lib, unda boshqa ijtimoiy institatlarni o‘rganishdagi uslublar va baholash mezonlaridan ham foydalanish mumkin.

Din muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni ta’minlash maqsadida yuzaga kelgan ijtimoiy institutdir. Uning manbai odamlarning ijtimoiy hayotidan kelib chiqadi. Din orqali jamiyat o‘zini ilohiyashtiradi. Uning mavjudligi va mohiyati ijtimoiy his-tuyg‘ularni muqaddaslashtirishga, jamiyatning shaxsga ta’sirini mustahkamlashga xizmat qilishdan iborat bo‘ladi.

Dinni sotsiologik o‘rganish uni ijtimoiy voqelik sifatida yondashuvga asoslanadi. Lekin din nafaqat sotsiologik, balki ruhiy voqelik ham hisoblanadi. Din psixologiyasi vakillari uni o‘rganishda ushbu jihatlariga alohida e’tibor beradilar. Ular dinning vujudga kelishi sabablarini odamni o‘rab turgan tashqi dunyodan emas, balki insonning o‘zida, ichki borlig‘i va hissiy-irodaviy kechinmalarida deb hisoblaydilar.

Din psixologiyasini o‘rganishda Z. Freydning (1856-1939) xizmatlari katta bo‘lgan. Z. Freyd dinni inson faoliyatining mahsuli deb hisoblagan. U dinning kishi tabiatga qaramligi sababli vujudga kelganligini qayd etgan holda bilishning irratsional (lotinchada – mantiqsizlik, tafakkurga zid qarashlar degan ma’nolarni anglatadi) mexanizmlarini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlagan.

Z. Freydning ta’limotiga ko‘ra, inson psixikasi uch darajaning o‘zaro hamkorligidan hosil bo‘ladi: ongsizlik, ong oldi va onglilik darajalari. Bularning ichida ongsizlik darajasi psixikada katta ahamiyatga ega. Inson psixikasining bu darajasida tabiiy instinktlar va «birlamchi mayllar» ustuvorlik qiladi. Z. Freyd asosiy mayllar qatorida jinsiy mayllarni ustun qo‘ygan. Individning ongsizlik bilan bog‘liq mayllari jamiyat uchun katta xavf-xatar tug‘diradi. Jamiyat o‘zini kishi mayllaridan himoya qilishi uchun ijtimoiy normalar va boshqa madaniyat elementlaridan iborat ustqurma mexanizmlarni vujudga keltirgan. O‘ta kuchli tabiiy ehtiyojlarni ijtimoiy normalar bilan tiyib turish din yordamida mustahkamlanadi. Z. Freydning fikriga ko‘ra, tabiiy mayllarning tiyilishi individ psixikasida nevroz holatini vujudga keltiradi. Din ham jamoa nevrozining bir turidir. Lekin din jamoa nevrozi sifatida kishini individual iztiroblardan saqlaydi, individual nevrozning rivojlanishini to‘xtatadi va fojiali oqibatlarga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, dinni vujudga kelishi sabablarini uning alohida xususiyatlarini o‘rganish bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmasligiga amin bo‘lamiz. Masalaga bunday yondashuv dinni kompleks

o‘rganishni taqozo etadi. Zero, kompleks o‘rganish uning jamiyatda takror ishlab chiqarishga sabab bo‘ladigan ildizlarini aniqlashga yordam beradi.

Dinning vujudga kelishi, avloddan-avlodga o‘tib borishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni shakllantiruvchi omillar uning ildizlari deb ataladi. Dinning ildizlari uch qisimga bo‘linadi. Ularning har biri dinni o‘rganishda juda muhim. Bu qisimlar birgalikda dinning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ular quyidagilardan iborat:

1) dinning ijtimoiy ildizi kundalik hayotda kishilarning turmushini belgilovchi moddiy va ma’naviy munosabatlar tizimidan iborat. Dinning ijtimoiy ildizida moddiy sharoitlar ustuvor. Siyosiy ustqurma institatlari dinga ikkilamchi ta’sir etadi.

Dinning ijtimoiy ildizini tashkil etuvchi jabhalardan biri ijtimoiy hayotni stixiyali qonuniyatlar asosida rivojlanishidir. Undagi boshqarib bo‘lmaydigan jarayonlar jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy inqirozlarini, urushlarni, kasalliklarni keltirib chiqaradi. Tabiiyki, individ ularning vayron qiluvchi ta’sirlaridan o‘zini himoya qilishga intiladi va oqibatda g‘ayritabiyy kuchlardan najot so‘rab murojaat qilishga majbur bo‘ladi.

2) dinning gnoseologik (grekcha *gnosis* – bilish, *logos* – ta’limot degan ma’nolarni anglatadi) ildizi kishining bilish faoliyati jarayonida diniy e’tiqodi vujudga kelishiga imkoniyat yaratadigan sharoitlardir. Tabiat va jamiyatni bilish dialektik jarayon. Tajribasizlik, subyektivlik, narsa va hodisalarini absolutlashtirish voqelikning noto‘g‘ri idrok etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, diniy g‘oyalarning paydo bo‘lishi borliqni hissiy idrok etishdan boshlanadi va u ratsional bilish bosqichida ahamiyatini saqlab qoladi.

Dinning gnoseologik ildiziga aloqador va barcha tarixiy davrlarda takrorlanib turadigan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

a) bilishning subyektiv jihatlarini absolutlashtirish (lotinchada – voqelik bilan bog‘lanmagan narsa, nisbatsizlik, so‘zsiz degan ma’nolarni anglatadi), ya’ni bo‘rttirib ko‘rsatish;

b) abstrakt (lotinchcha *abstratio* – diqqatni chetga tortish degan ma’noni anglatadi), ya’ni tafakkur;

v) tafakkurning umumlashtirish qobiliyati.

3) dinning ruhiy ildizi. Dinning vujudga kelishida kishining bilish faoliyatiga bog‘liq jarayonlar bilan birga uning hissiyoti, kayfiyati va kechinmalari ham ishtirok etadi. Diniy tasavvurlar dastlab kishilarning histuyg‘ulari orqali vujudga keladi.

Dinning ruhiy ildizi individual va ijtimoiy ruhiyatlarga bo‘linadi. Individual ruhiyatga shaxsiy iztirob, g‘am-tashvish, o‘limdan qo‘rqish, yolg‘izlik, muhabbat, mehr-shafqat, minnatdorlik singari ijobiy va salbiy kechinmalarni misol keltirish mumkin.

Ijtimoiy ruhiyatga guruhralar va jamiyatlarga xos voqeliklar – ijtimoiy fikr, ommaviy qo‘rqish hissi, taqlid, an’ana va urf-odat kabilarni misol keltirish mumkin.

Dinning ruhiy ildizlari deganda diniy g‘oyalarni qayta ishlab chiqarilishi va o‘zlashtirilishiga qulay shart-sharoitlar yaratadigan jamiyatlar, guruhralar va individlarning ruhiy holati, jarayonlari va mexanizmlari tushuniladi.

Ruhiy kechinmalar insonga xos xususiyatdir. Ularsiz inson yashay olmaydi. Odam o‘zining ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularini boshqarishga harakat qiladi, lekin ruhiyat turli obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarga bog‘liqligi, murakkabligi sababli ularni barqarorlashtiradigan kuchga ehtiyoj sezadi. Din ana shunday kuch vazifasini bajarishi mumkin.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, dinning vujudga kelishi sabablarini o‘rganish uning odamlar ongiga ta’siri, jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini yaxshiroq tushunishga, uning yaratuvchilik jihatlaridan insoniyat manfaatlari uchun yanada kengroq foydalanishga imkon beradi, vayronkor kuchlarni jamiyatdagi barqarorlik, fuqaroviylar to‘tuvlik, o‘zaro yordam va hamjihatlikni barbod qilishga qaratilgan faoliyatiga samarali kurashadi.

Dinning ilk shakllari va ularning xususiyatlari

Kishi ongida diniy dunyoqarash paydo bo‘lishi uchun tafakkur bilan bog‘liq sharoitlar talab etiladi. Masalan, abstrakt tafakkur, kuchli his-hayajon, tasavvur, to‘g‘ri va noto‘g‘ri mantiqiy bog‘liqliklarni farqlash qobiliyati kabilar shular jumlasidandir. Hozirgi zamon fani xomo xabilislarning shunday imkoniyatga ega bo‘lganligi to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega emas, lekin xomo sapiyensning dastlabki vakili – kromanyon odam voqelikni tahlil qilish, fikrlash, kundalik faoliyatida orttirgan tajribalarini yodda saqlash va avloddan-avlodga o‘tkazish singari imkoniyatlarga ega edi. Shunga qaramay, kromanyonlarning ajdodlariga nisbatan imkoniyatlari qanchalik keng bo‘lmashin, bilim va imkoniyatlari cheklanganligi bois ular tabiat kuchlari oldida ojiz bo‘lganlar. Kromanyonlarda ko‘p yillik tajribalar asosida to‘plangan bilimlar bilan birga xayoliy fantastik qarashlar ham shakllangan.

Kromanyon tafakkurining rivojlanishi diniy qarashlarning abstrakt fikrlaydigan «yarim-yovvoyi» mavjudotning ongida paydo bo‘lmasligi,

balki kishilarning jamoalarga birlashib mehnat qilishlari (ov qilish, oziq-ovqat topish, mehnat qurollari yasash kabi faoliyatları) natijasida, ularning doimiy ijtimoiy muloqotlari jarayonida shakllanganligidan dalolat beradi.

Ibtidoiy jamiyatda diniy qarashlar qudratli xudolarga sig‘inish shaklida vujudga kelmagan. Odamlar ruhlarga, tabiat hodisalari (suv, olov, oy, quyosh singari)ga va mavjudotlar (ot, bug‘u, mushuk kabilar)ga sig‘inganlar. Shu bois ibtidoiy din shakllari umumiyl nom bilan diniy kompleks (lotincha *complexus* – aloqa, birikma degan ma’nolarni anglatadi) deb ataladi. Diniy kompleks – predmetlar va mavjudotlarda g‘ayritabiyy kuchlarining mavjud ekanligiga ishonuvchi kishilarning qarashlari va maxsus harakatlari tizimi.

Ibtidoiy din shakllari xilma-xil ko‘rinishga ega. Eng qadimgi diniy e’tiqod turlaridan biri totemizmdir (Shimoliy Amerika hindulari tilida *ototem* – uning urug‘i degan ma’noni anglatadi). Totemizm – odamlar jamoasi (urug‘, qabila)ning hayvon, o‘simplik yoki predmetlar bilan qon-qardoshlik aloqasi mavjud ekanligiga ishonishlari. Totemizmning asosiy xususiyati shundaki, totem sifatida qabul qilingan hayvon, o‘simplik yoki predmetlar urug‘ yoki qabilaning ajdodi deb tan olinadi va uni tan olgan jamoa a’zolari qarindosh hisoblanadilar. Totem hayvon, o‘simplik yoki boshqa predmetlar juda ko‘p talablarga javob berishi kerak bo‘lgan. Masalan, totem hayvon birinchi navbatda xo‘jalik uchun zarurligi va foydaliligiga qarab aniqlangan.

Totemizm odamlarning birlikni anglashlaridan paydo bo‘lgan. Bu birlikning tashqi belgisi sifatida tabiat voqeliklari qabul qilingan. Chunki odam ibtidoiy jamiyatning ilk bosqichlarida o‘zini tabiatdan ajratmagan, undagi mavjudotlar bilan o‘zini qiyoslagan. Shu asosda, odamlarda totemistik qon-qardoshlik tuyg‘usi ularning fiziologik qon-qardoshliklaridan oldin paydo bo‘lgan.

Totemizm quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirgan:

- odamlar jamoalarining birligini totemi yordamida yanada mustahkamlagan. Ularni «o‘ziniki» va «begona»larga ajratish orqali insonlarning o‘zligini tushunishlariga yordam bergen;

- insonni tabiatga hurmat ruhida tarbiyalagan va u bilan uyg‘un yashashga o‘rgatgan.

Totemizm milliy-davlat va jahon dirlari ta’limotlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan va hozir ham uning ayrim ko‘rinishlari saqlanib qolgan. Totemizmning ta’sirini davlat ramzlarida, harbiy qisimlarning atamalarida, harbiy kiyimlarda, ayrim hayvonlarning go‘shtini iste’mol qilishning taqiqlanishi kabilarda ko‘rish mumkin.

Totemizm marosimlari bilan odamlarning mayl va ehtiyojlarini cheklaydigan qoidalar tizimini ifodalovchi tabu (polineziya etnosi tilidan so‘zma-so‘z tarjimasи qat’iy taqiqlash degan ma’noni anglatadi) tushunchasi bevosita aloqador.

Tabu deb muayyan harakatlarni bajarish yoki harakatsizlikka yo‘l qo‘yishning qat’iyan man etilishiga aytildi. Uning boshqa cheklash va taqiqlashlardan asosiy farqi shundaki, joriy qilingan qoidalarning sabablari ko‘rsatilmaydi va asoslanmaydi.

Tabu inson uchun yashirin xavf-xatarlarning mavjudligini bilish va ularning oldini olishga intilish sababli vujudga kelgan. Mazkur xavf-xatarlar odamlar yoki guruhlar tabu qoidalariга amal qilsalar, o‘zligini namoyon qilmaydi. Agar qoida buzilsa, nafaqat qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ygan kishi, balki butun jamoa xavf-xatarga duchor bo‘lishi mumkin. Demak, tabu odamlarga xavf tug‘diruvchi mavjud, lekin ko‘zga ko‘rinmas xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida joriy qilingan.

Ibtidoiy jamiyatning diniy e’tiqod turlaridan yana biri sehrgarlikdir. Sehrgarlik deb odam, hayvon, predmet va ruhlarga g‘ayritabiyy ta’sir etish maqsadida amalga oshiriladigan duolar, harakatlar va marosimlar tizimiga aytildi.

U dashmanga ziyon-zahmat yetkazish, harbiy, davolash, mehnat va sevgi sehrgarliklari kabi turlarga bo‘linadi. Sehrgarlikning maqsadi hayotiy muammolarni bevosita hal qilishdan iborat. Bunda sehrgar faqat o‘z iqtidori va kuchiga tayanadi. Sehrgarlik juda keng qamrovli voqelik va undan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida foydalanish mumkin.

Sehrgarlik amaliyotida duolar yoxud harakatlarning ta’siri va samaradorligi turli shart-sharoitlarga, jumladan tashqi ta’sirlarga ham bog‘liq bo‘ladi. Undagi tashqi ta’sirlarga e’tibor belgilarga ishonishni vujudga keltirdi. Bunday ishonch dastlab odamlarning muayyan harakatlariga ta’sir etuvchi shart-sharoitdan keyinchalik ularning taqdirini belgilaydigan e’tiqodga aylangan.

Sehrgarlikning muhim xususiyatlaridan biri – fan bilan ayrim jihatlariga ko‘ra yaqinligi. Fan tabiat va jamiyatda yuz berayotgan voqeа va hodisalarning umumiу prinsiplari va qonuniyatlarini topishga xizmat qiladi. Unda tasodiflarning oldini olishga harakat qilinadi. Sehrgarlik ham voqeа va hodisalarning makon va zamonda qat’iy belgilangan tartibini ishlab chiqishga intiladi. Bir xil sabab bir xil oqibatni keltirib chiqaradi. Sehrgar belgilangan marosim va duolarni aniq bajarsa, belgilangan maqsadiga erishadi. Tasodif bo‘lishi mumkin emas. Hodisalarning ketma-ketligini faqat undan kuchliroq sehrgar buzishi mumkin.

Fan kabi sehrgarlik ham voqea va hodisalarning umumiy tartibini axtarib topishga va har qanday tasodiflarning oldini olishga intiladi. Sehrgarlikning hozirgacha ijtimoiy hayotda saqlanib qolishining muhim omillaridan biri uning zamonaviy fan yutuqlaridan keng foydalanishi yoki kishilarda shunday yolg‘on tasavvurlar hosil qilishidir.

Sehrgarlikning ta’siri rivojlangan diniy tizimlarda ham saqlanib qolgan. Islomda payg‘ambar, eshon va mullalarning g‘ayritabiiy mo‘jizalari to‘g‘risidagi hikoyalardan keng foydalaniladi. Duolar orqali g‘ayritabiiy kuchlarga ta’sir etish mumkinligi tan olinadi. Masalan, islomda «kalimai shahodat»ning odamni turli yovuz kuchlardan himoya qilishi to‘g‘risidagi aqida mavjud.

Biz kundalik turmushimizda sehrgarlikning oq (davolaydigan) va qora (ziyon-zahmat yetkazadigan) sehrgarlik, munajjimlar bashorati, folbinlik kabi turlaridan foydalanishimiz mumkin.

Ibtidoiy odamlar predmetlarni ham g‘ayritabiiy kuchga ega deb hisoblaganlar. Ibtidoiy jamiyatda paydo bo‘lgan bunday e’tiqod turi *fetishizm* (portugal tilida *fetiko* – sehrli, mo‘jizakor degan ma’nolarni anglatadi) deb ataladi.

Fetishizm deb g‘ayritabiiy kuchga ega mavjudotlarga va predmetlarga sig‘inishga aytiladi. Fetishizm ruhlarning jonzodlar va predmetlarga «ko‘chib o‘tishi», narsalarda jon borligi va ularning g‘ayritabiiy kuchga ega ekanligiga ishonishdan vujudga kelgan. Ibtidoiy odam xayolini o‘ziga jalg qilgan istalgan predmetni fetish sifatida qabul qilishi mumkin edi. Uning obyekti hisoblangan predmetlar orasida eng ko‘p tarqalganlari odam yoki hayvonlarning suyak qoldiqlari, qabr toshlari bo‘lgan. Suyak qoldiqlari fetish egasini tabiiy ofatlardan, kasallikkardan, yovuz ruhlardan saqlaydi deb hisoblangan. Qabr toshlari vafot etgan kishining tinchligini qo‘riqlaydigan ruhlar joylashgan predmet vazifasini o‘tagan. Qabr joylashgan hududga sig‘inish natijasida keyinchalik muqaddas qadamjolar vujudga kelgan. Bunday qadamjolarda maqbaralar, qo‘rg‘onlar qurilgan.

Qadimda jonsiz fetishlar bilan birga jonli fetishlardan ham foydalanilgan. Jonli fetishlarga sig‘inish barcha xalqlarda mavjud bo‘lgan. Eng ko‘p tarqalgan jonli fetishlarga ilon, qarg‘a, bo‘ri, ayiq, ho‘kiz singari hayvonlarni misol keltirish mumkin. Jonsiz fetishlar elatga xos xususiyatlarni ifodalamaganligi uchun, qabilada jonli fetishlar ko‘p bo‘lgan.

Fetishlar asosan kuchli ruhni o‘zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy hayotning ayrim sohalaridagi muammolarni hal etishga yordam bergan.

Fetishizmning ko‘rinishlaridan biri *butparastlikdir*. But odam yoki hayvonning qiyofasi tasvirlangan predmet bo‘lib, unda g‘ayritabiyy kuch mujassamlashgan deb hisoblanadi.

Diniy tizimlar vujudga kelganidan keyin ham fetishizmning qoldiqlari saqlanib qolgan. Uning ta’sirini muqaddas qadamjolar, tumorlar, xoch taqish, din yo‘lida iztirob chekib avliyo deb tan olingan kishilarga sig‘inish kabi holatlarda ko‘rish mumkin.

Din bilan bog‘liq bo‘lmagan fetishizm qoldiqlarini ham ijtimoiy turmushda ko‘plab uchratish mumkin. Davlat arboblarining shaxsini ulug‘lab haykallar qo‘yish yoki suratlarini asrash, sumalak toshini saqlash, hayvonlarning a’zolarini olib yurish va shu kabi holatlarni qayd etishimiz mumkin.

Fetishizm ruhning ko‘chishi to‘g‘risidagi qarashlardan vujudga kelgan. Moddiy olamda ruhlar mavjud ekanligiga ishonishdan animizm shakllandi. *Animizm* deb (lotincha *anima* – jon, ruh degan ma’nolarni anglatadi) tabiat voqeliklarida, hodisalarda ruhlarning mavjudligi, ularning inson va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ishonishga aytildi.

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ilk bosqichlarida paydo bo‘lgan animizm ibridoiy e’tiqodning universal shakliga aylangan, chunki u kishidan nafaqat e’tiqod qilish, balki muayyan udum va marosimlarni bajarishni talab qilgan. Bu esa keyinchalik diniy urf-odat va marosimlarni vujudga keltirgan.

Animistik tasavvurlarga binoan jonzodlarda ruh mavjud. Mavjudotning tanasi ruh uchun qobiq vazifasini bajaradi, lekin u tanadan mustaqildir. Ruh tanani istagan vaqtida tark etishi mumkin. U tanani tark etsa, kishi faolligini vaqtincha yo‘qotadi (hushidan ketadi, tush ko‘radi) yoki vafot etadi. Ruh o‘zining «qobig‘ini» tark etganidan keyin ham individuallagini saqlab qoladi.

Ruhlar dunyosi predmetlarda, jonzodlarda joylashgan va tanadan mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi ruhlarga bo‘linadi. Tana yoki predmet bilan bog‘lanmagan «oliy» ruhlar ilohiy va moddiy dunyodagi voqeahodisalarni boshqarib turadi, odamlarning hayot yo‘lini va vafot etganidan keyingi taqdirini belgilaydi. Odamlar ruhlarning noroziligini vujudga keltiruvchi ishlarga emas, balki ularning ko‘nglini olishga harakat qilishlari kerak. Shu bois ruhlar sharafiga diniy marosimlar uyushtiriladi, bayramlar o‘tkazib, qurbanlik qilinadi.

Ruh nafas, bug‘ yoki soya ko‘rinishiga ega. Uning ko‘rinishidan qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlash mumkin. Ruh odam vafot etishi sababli «qobig‘ini» tark etganidan keyin insonlarga turlicha munosabatda

bo‘ladi. Dastlabki odamlarga zarar yetkazishi mumkin, chunki unda o‘zidan omadliroq bo‘lgan boshqa kishilarga nisbatan g‘arazgo‘ylik hissi uyg‘onadi. Lekin, vaqt o‘tishi bilan uning odamlarga munosabati o‘zgaradi. O‘lganiga ko‘p vaqt bo‘lgan odamlarning ruhlari o‘z qonunlari bilan yashaydigan jamoani tashkil etadilar. Bunday ruhlar odatda insonlarga yordam beradilar, faqat odamlarning aybi bilangina ularga yomonlik qilishlari mumkin.

Narigi dunyoda ruh faoliyatining davom ettirilishi to‘g‘risidagi g‘oya ta’sirida vafot etgan kishini hayotligida to‘plagan boyliklarining bir qismi bilan qo‘sib ko‘mish marosimi vujudga kelgan. Keyinchalik marhumga nafaqat boyliklarining bir qismi, balki xizmatkorlari, yaqin kishilar ham qo‘sib ko‘milgan. Odatda marhumga qo‘sib ko‘miladigan xizmatkorlar begona kishilar bo‘lgan. Bunday tartib qabila boshliqlari va hatto oddiy kishilarning ham narigi dunyoga xizmatkori bilan ketishlariga imkoniyat deb hisoblangan.

Katta miqdordagi boyliklarning marhum bilan qo‘sib ko‘mib yuborilishi va odamlarni qurbanlik qilish qabila ichidagi o‘zaro munosabatlarga salbiy ta’sir etgan, qo‘shti qabilalar bilan aloqalarni izdan chiqargan. Shu bois ruhning narigi dunyodagi sarguzashtlari to‘g‘risidagi g‘oya takomillashtirilgan va fazilatli yashash tiriklar uchun muhimroq ekanligi haqida g‘oya ishlab chiqilgan. Keyinchalik ruhning narigi dunyodagi taqdiri kishining tirikligidagi xizmatlari bilan belgilanadigan bo‘lgan. Ushbu aqidaga binoan narigi dunyoda rohat-farog‘at hammaga nasib ham qilavermaydi, balki unga hayotini faqat o‘zining elatiga xizmat qilishga bag‘ishlagan, dushmanlarga qarshi kurashgan, barcha urf-odatlar va din talablarini muqaddas bilib, ularni sidqidildan bajargan kishilar erishishlari mumkin va xalqiga xiyonat qilgan sotqinlar, faqat o‘zini o‘ylab yashagan befarq va zaif odamlarning ruhlari abadiy qiynoqqa duchor qilinadi yoki zulmatga g‘arq bo‘lib ketadi, deb hisoblangan.

Ibtidoiy din shakllari kabi afsona ham katta ahamiyatga ega. O‘sha davrda insonlar tabiat hodisalarini jonli sherik sifatida qabul qilganlar va ularda individual tafakkur, iroda singari sifatlar mavjud deb hisoblaganlar. Odamlar bu jarayonlarni his etganlar, fikrlaganlar va tushuntirib berishga harakat qilganlar. Afsona shu asnoda vujudga kelgan.

Afsona deb tabiiy yoki ijtimoiy hodisalarini sodda xayoliy obrazlar yordamida o‘rganish va tushuntirish vositasiga aytildi. Afsonada obrazlilikni fikrdan ajratib bo‘lmaydi. U fikr va voqelikni idrok etish shakli va dunyoni bilish usuli hisoblanadi. Shu asosda odam borliqning mohiyatini tushunishga intiladi. Afsona voqelikni tushuntirishga intilishi

bilan ertakdan, aniq tarixiy voqeaga asoslanganligi bilan esa dostondan farqlanadi.

Insoniyat uzoq o'tmishdan afsonaning mohiyatini tushuntirishga harakat qilib kelgan bo'lsa-da, hanuzgacha uning umum qabul qilingan nazariyasi ishlab chiqilgani yo'q. Bunday holat uni o'rganishda tadqi-qotchilarning diqqatga sazovor qarashlariga to'xtalib o'tishni taqozo etadi.

Italiyalik tadqiqotchi J. Viko birinchilardan bo'lib afsonaning falsafiy nazariyasini ishlab chiqqan. U afsonani odamlarning ustidan hukmronlik qiladigan oliy kuchlarni his etishlari va ulardan qo'rqliklari sababli vujudga kelgan xayollar o'yini deb hisoblagan.

Qadimgi davrda tabiiy va ijtimoiy kuchlar oldida insonning ojizligi kundalik faoliyatida doimo o'zini namoyon qilib tursa-da, borliqni hissiy-mantiqiy idrok etgan.

Ingliz etnografi E. Teyloringa fikriga ko'ra, afsonalar va diniy e'tiqodlarning asosini animizm tashkil etadi. Qadimda odamlar predmetlar va hodisalarining mohiyatini tushuntirishda har bir narsada ruhlar mavjudligiga ishonishdan kelib chiqib, tevarak-atrofdagi jarayonlarni ruhlar faoliyatining natijasi sifatida talqin qilganlar. Afsona odamlarning voqelik to'g'risidagi sodda fikrlari bo'lib, tush ko'rish va ajdodlar ruhlari bilan muloqoti natijasida paydo bo'lgan deb hisoblanadi.

Afsonani o'rganishda tadqiqotchi B. Malinovskiyning qarashlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Tadqiqotchi afsonani nazariy ta'limot deb hisoblamaydi. Uning fikriga ko'ra, afsona voqelikni tushuntirmaydi, balki e'tiqodni voqelik sifatida idrok etadi. Haqiqatan, qadimgi davrlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar odamlarning e'tiqodini ifodalaydi va umumlashtiradi, jamiyatda qaror topgan axloq normalarini asoslaydi, marosim va udumlarning maqsadga muvofiqligini qayd etadi, xulq-atvor qoidalarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois afsona borliq haqidagi sodda qarashlar va tasavvurlar emas, balki faol ijtimoiy kuch, diniy e'tiqod va axloqni ifodalovchi hayot qonunidir.

Hozirgi vaqtida afsona nafaqat xalq og'zaki ijodiyoti turi va diniy e'tiqodning tarkibiy qismi sifatida mavjud, balki ijtimoiy hayotning siyosat, iqtisod, fan-texnika kabi boshqa sohalarida ham saqlanib qolgan. Masalan, keng tarqalgan hozirgi zamon afsonalari sifatida noma'lum uchuvchi obyekt haqidagi yoxud elektron hisoblash mashinalarida jon borligi to'g'risidagi afsonalarni qayd etishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dinning ilk shakllari nafaqat ibtidoiy jamiyatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega voqelik bo'lgan, balki

tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida va hozir ham ijtimoiy hayotda o‘z ta’sirini saqlab qolgan.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Din qachon vujudga kelgan?
2. Dinning yuzaga kelishi sabablarini o‘rganishning asosiy yonda-shuвлari nimalardan iborat?
3. Dinning ijtimoiy ildizlari deganda nimani tushunasiz?
4. Dinning qanday funksiyalari mavjud va ularga xos xususiyatlarni aniqlang.
5. Diniy kompleks nima?
6. Diniy kompleksning diniy tizimdan farqi va xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Totemizmning integratsiyalovchi va regulyativlik funksiyalari deganda nimani tushunasiz?
8. Nima sababdan animizm ibridoiy dinning universal shakli deb ataladi?
9. Sehrgarlikka xos qanday xususiyatlar mavjud?
10. Fetishizmning asosiy shakllari nimalardan iborat?

3-mavzu
MILLIY DINLAR

**Mesopotamiya diniy tizimining vujudga
kelishi va rivojlanishi**

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilik, sinflar va davlatning vujudga kelishi natijasida diniy komplekslar (ibridoyn din shakllari) diniy tizimlar (milliy va davlat dinlari) bilan almashdi. Diniy tizimlarning asosiy xususiyatlari qudratli xudolarga sig‘inish va ko‘p xudolikdir. Ilk din shakllariga xos bo‘lgan tabiat voqeliklari, ya’ni daraxt, tosh, hayvon kabilarni ilohiylashtirish yangi tarixiy sharoit talablariga mos kelmay qoldi. Tabiat voqeliklarini ifodalovchi aniq shaklga ega bo‘lmagan g‘ayritabiyy mavjudotlar aniq qiyofali qudratli xudolar bilan almashtirildi. Qudratli xudolar dastlab ibridoyn din turlari ta’sirida yarim odam, yarim hayvon qiyofasida tasvirlangan.

Ko‘pxudolilik diniy tizimga xosdir. Uning dastlab ko‘pxudolilik shaklida paydo bo‘lishi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar bilan bog‘liq. Obyektiv shart-sharoitlarga, bиринчи navbatda, ishlab chiqarish munosabatlarining ta’sirini kiritish lozim. Mehnat taqsimoti jamiyatda kishilarni kasb sohasi bilan o‘zaro farqlanuvchi guruhlarga ajratdi. Mazkur guruhlar o‘ziga xos faoliyat turi, mehnat munosabati va madaniyatini ishlab chiqdilar. Ular o‘z sohasiga homiylik qiluvchi g‘ayritabiyy kuchlarga, ya’ni xudolarga sig‘inganlar.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ta’sirida qabilalar ittifoqi vujudga keldi. Bu ittifoq hukmron qabila atrofida o‘nlab qabilalarning birlashuvi tarzida amalga oshirildi. Hukmron qabila atrofga boshqa qabilalarni birlashtirish bilan birga, o‘z qadriyatlarining ittifoqda ustun bo‘lishini ta’minlashga harakat qilgan. Shu asnoda, unga homiylik qiluvchi xudo qabilalar ittifoqining bosh xudosi deb tan olingan. Qabilalar hukmron qabila xudosining ustunligini tan olishlari bilan birga o‘zlarining mahalliy xudolariga sig‘inishni davom ettirganlar. Ayni paytda, boshqa qabilalar va yurtlarning xudolari ham qabul qilingan. Oqibatda odamlar yuzlab, hatto minglab xudolarga va g‘ayritabiyy mavjudotlarga sig‘inganlar. Masalan, Qadimgi Misr fir’avni Ramzes II bilan Xett davlati hukmdori Xettusili III o‘rtasida tuzilgan tinchlik shartnomasiga mingta Misr va shuncha Xett xudosi kafil bo‘lgan.

Ko‘pxudolilik kundalik hayot talabidan kelib chiqqan. Zero, o‘sha davrda jamiyatdagi nisbiy barqarorlik va farovonlik shu qadar zaif

bo‘lganki, inson erishilgan darajani saqlab qolish va yanada rivojlantirish uchun har qanday tasodiflarni yoki g‘ayritabiyy ta’sirlarni hisobga olishi va ulardan o‘zini himoya qilishi kerak edi.

Yuqorida qayd etilganidek, qabila xudolari xo‘jalikning alohida sohalariga ham homiylik qilgan. Qabilada kundalik hayot tashvishlarini hal etilishiga bevosita yordam beradigan xudolarning mavqeい baland bo‘lgan. Chunki odamlar xudolarga sig‘inar ekan ulardan o‘z hayotiy muammolarining hal etilishida yordam berishlarini so‘raganlar.

Diniy tizim deb g‘ayritabiyy kuchga ega, tabiat va jamiyatdagi hodisalar rivojlanishini belgilaydigan, ishlab chiqarish sohalariga homiylik qiladigan va ijtimoiy hayotdagi mavqeい bilan o‘zaro farq qiladigan qudratli xudolarning mavjudligiga ishonishga aytildi.

Qudratli xudolarga sig‘inish diniy tizimning asosini tashkil etsa-da, u bir qadar kengroq tarkibiy tizimga ega. Bu borada, birinchi navbatda, ibtidoiy din shakllarining unga ta’sirini hisobga olish talab qilinadi, chunki yangilik o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki ijtimoiy taraqqiyotni aks ettiruvchi zanjirning bir halqasi hisoblanadi. Bunda ijtimoiy ong darajasini ham hisobga olish zarur. Oddiy xalq vujudga kelayotgan yangi diniy tizimga o‘zining kundalik tasavvurlari, hayot normalari, urf-odatlari va an’analarini ham olib kiradi. Bu munosabatlar diniy tizimda o‘tmish qoldiqlarining saqlanishini ta’minalash bilan birga, jamiyatda mustahkamlanib qolishiga ko‘maklashadi.

Diniy tizimdagi o‘tmish qoldiqlariga turli xil xurofiy qarashlar, sehrgarlik usullaridan foydalanish, belgilarga ishonish va shu kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Lekin ularga o‘tmish qoldiqlari deb e’tiborsizlik bilan munosabatda bo‘lish noto‘g‘ri. O‘tmishdan saqlanib qolgan ta’sirlar mazmunan keskin o‘zgarib, yangilikning muhim qismiga aylanishi mumkin. Masalan, ibtidoiy jamiyatdagi ruhlarga sig‘inish diniy tizimlarda ruhning ko‘chishi (buddaviylikda) va abadiyligi (xristianlik va islom dinlarida) to‘g‘risidagi aqidalarga asos bo‘ldi. Demak, o‘tmishning ta’siri nafaqat xurofiy qarashlar misolida yangilikda saqlanib qoladi, balki uning muhim tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

Diniy tizimning shakllanishida diniy kompleks katta ahamiyatga ega bo‘lsa ham, eski diniy qarashlardan sifat jihatdan farq qiladi. Uning muhim farqlaridan biri shundaki, diniy kompleks asosiy va asosiy bo‘lmagan qismlarga bo‘linmaydi. Ibtidoiy jamiyat qabilasida diniy kompleksning bir turi boshqalariga nisbatan ko‘proq qo‘llanilsa ham, uning boshqa turlari bu yerda ahamiyatini yo‘qotgan, degan xulosaga kelish xatodir. Chunki diniy kompleksning alohida bir turining qabiladagi ustuvorligi nisbiy bo‘lib, u o‘z

o‘rnini osonlik bilan boshqasiga bo‘shatib berishi mumkin. Diniy tizimda xudolar jamiyatdagi mavqeい jihatidan guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhning aniq belgilangan vazifalari mavjud. Qudratli xudolar diniy tizimning eng yuqori bo‘g‘inini tashkil etadi va ularga boshqa qismlar bo‘ysundiriladi. G‘ayritabiyy kuchlar o‘rtasidagi munosabatlar sinfiy jamiyatdagi kabi quyidan yuqoriga bo‘ysunish tamoyili asosida tashkil etiladi.

Diniy tizimning muhim xususiyatlaridan yana biri diniy tashkilotning mavjudligidir. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ta’sirida aholi punktlari yiriklashib borgan, ma’muriy, hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari hisoblanuvchi shaharlarning paydo bo‘lishi, diniy ta’limot, marosim va urf-odatlarning tobora murakkablashuvi kabilar ta’sirida diniy tashkilotlar – ibodatxonalar vujudga kelgan. Ibodatxonalar dinga aloqador vazifalarni amalga oshirish bilan birga iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatida ham faoliyat yuritgan.

Diniy tizimlarda davlat boshlig‘ining mavqeい yuqori bo‘lib, uning shaxsi ilohiyashtirilib, xudo darajasiga ko‘tarilgan. Ta’kidlash joizki, hukmdorning shaxsini ilohiyashtirish amaliyoti barcha xalqlarda qo‘llanilmagan. Bu faoliyat ko‘proq siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Davlat tuzumini mustahkamlash yoki barqarorligini ta’minalash maqsadida aholining ongiga mavjud siyosiy tartib xudoning irodasi bilan vujudga keltirilgan, hukmdor esa xudoning nazari tushgan shaxs, ya’ni yerdagи vakili degan g‘oyalar singdirilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, diniy tizim diniy kompleksning mantiqiy davomi, ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv hosilasi sifatida paydo bo‘lgan. Qudratli xudolarga e’tiqod qilish yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumning mafkurasi vazifasini bajarish bilan birga madaniyatning rivojlanishiga ham xizmat qilgan.

Insoniyat tarixida ilk diniy tizimlar vujudga kelgan qadimgi markazlardan biri Mesopotamiya (Ikki daryo oralig‘i)dir. U yerda diniy tizim miloddan avvalgi IV va III ming yilliklar chegarasida paydo bo‘lgan.

Mesopotamiyada diniy tizimning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganishda ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarni hisobga olish talab etiladi. Mintaqada Qadimgi Sharqning boshqa markazlaridan farqli o‘larоq, ayrim istilochi hukmdorlar (Sargon, Xammurapi) siyosiy rejimlarini hisobga olmaganda, kuchli, barqaror, markazlashgan davlat tashkil topmagan. Mintaqadagi shahar-davlatlar o‘rtasida siyosiy hukmronlik uchun o‘zaro urushlar to‘xtovsiz davom etgan. Shuning uchun Mesopotamiyadagi siyosiy vaziyatning o‘ziga xosligi shahar-davlatlar hukmdorlarining mavqeiga ta’sir etgan. Bu yerda davlat boshliqlarining shaxsi ulug‘lanib,

xudolar darajasiga ko‘tarilmagan, ularga «xudoning farzandi», «yerdagи xudo» degan unvonlar berilmagan. Mahalliy hukmdorlar bosh ruhoniy va xudo bilan bevosita aloqada bo‘luvchi vakil, diniy marosimlarga rahbarlik qiluvchi va xalqning iltijolarini xudoga yetkazuvchi vositachi hisoblangan.

Mesopotamiyada davlat boshliqlarini sakrallashtirish (lotincha *sacer* – muqaddas degan ma’noni anglatadi)ning o‘ziga xosligi, mintaqada markazlashgan davlatning tashkil topmaganligi, xudolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ham ta’sir etgan. Xudolar o‘zaro siyosiy hukmronlik uchun keskin kurash va raqobat girdobiga tortilmagan. Shu sababli bo‘lsa kerak, turli xudolarga sig‘inuvchi aholi tinch-totuvlikda yashagan, haqiqiy va soxta e’tiqod tarafdorlari o‘rtasida dushmanlik munosabatlari va to‘qnashuvlar vujudga kelmagan.

Mesopotamiya diniy tizimi ko‘pxudolikka asoslangan. Mintaqadagi xudolarni, ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga ko‘ra, mahalliy va umumdavlat xudolariga bo‘lish mumkin.

Mahalliy xudolarga har bir shahar, qishloq va mahallaga homiylik qiluvchi xudolarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shahar, qishloq va mahallaning markazida unga homiylik qiluvchi xudoga bag‘ishlab sajdagoh (zikkurat) qurilgan. U konussimon shakldagi to‘rtburchak bino bo‘lib, tashqi ko‘rinishidan yuqoriga qarab qisqarib boradigan zinani eslatadi. Sajdagoh 3–7 qavat qilib pishiq g‘ishtdan qurilgan. Binoning yuqori qavatlariga zinalar yoki nishab shaklda qurilgan yo‘laklar orqali ko‘tarilgan. Odatda zikkuratning yuqori qavati osmon jismlari harakatini kuzatishga mo‘ljallangan observatoriya vazifasini bajargan.

Odamlar homiy xudolariga sig‘inganlar, qurbanliklar qilganlar. Homiy xudo, qaysi sohaga ixtisoslashganligidan (osmon xodosi, yer xodosi, hosildorlik xodosi va hokazo) qat’i nazar, undan najot so‘rab murojaat qilgan odamga ilohiy yordam beradi deb hisoblangan.

Ikki daryo oralig‘i xalqining ijtimoiy ongida umumdavlat xudolari qadimdan shakllana boshlagan. Afsonalarga ko‘ra, ilk shahar-davlatlar paydo bo‘lgan davrlarda Shumer panteoni (grekcha *pantheioh* – barcha xudolar degan ma’noni anglatadi) vujudga kelgan. Qadimgi Shumer xudolari odamlardek hayot kechirgan va ko‘paygan. Masalan, osmon xodosi – An va yer ma’budi – Kidan havo xodosi – Enlil va suv xodosi – Ea tug‘ilgan. Xudolar o‘zaro murakkab munosabatlarga kirishgan. Bu munosabatlarga tarixiy davrlar, siyosiy vaziyat va sulolalarining o‘zgarishi ta’sir etgan.

Shumer xudolariga havo xodosi – Enlil boshchilik qilgan. Uning hokimiyati rasmiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Enlil tenglar orasida birinchi

bo‘lgan. Hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun uning qarindoshlari bo‘lmish yetti juft buyuk xudolar o‘zaro kurashganlar. O‘zaro kurashda mag‘lub bo‘lgan xudo hokimiyatdan chetlatilib, yer ostidagi o‘liklar podsholigiga badarg‘a qilingan. Xudolar boqiy bo‘lganligi bois yer ostidagi o‘liklar podsholigiga tushib qolgan xudo uzoq qiyinchiliklar va sinovlardan o‘tganidan keyin jahannamdan qaytib chiqib, xudolar panteonidagi avvalgi mavqeini qayta tiklagan yoki vazifasining o‘zgarishi sababli xalq xotirasidan asta-sekin unutilib ketgan.

Xudolar darajasidagi hokimiyat uchun kurashning natijalari ko‘proq yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, sulolalarining almashishi yoki shahar-davlatlar o‘rtasidagi kuchlar nisbatining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan. Mintaqada siyosiy hukmronlikni qo‘lga kiritgan shahar-davlat o‘zining xudosini bosh xudo deb e’lon qilgan.

Xudolarning ko‘pchiligi antropomorf (grekcha *anthropos* – odam, *morphe* – shakl degan ma’nolarni anglatadi) qiyofada tasvirlangan. Lekin ularning ayrimlari (suv xudosi – Ea yoki urush xudosi – Nergal) yarim odam, yarim hayvon (zoomorf) qiyofasida tasvirlangan. Bu ibridoiy din shakllari, xususan totemizmning kuchli ta’siridan dalolat beradi. Xudolarni tasvirlashda hayvonlar qiyofasining saqlanib qolishi bilan birga aholi hayvonlarga sig‘inishni ham davom ettirgan. Muqaddas hayvonlar orasida buqa va ilon alohida ulug‘langan. Mesopotamiyaliklar xudolarni «qudratl buqalar» deb ataganlar. Shuningdek, buqa hosildorlik timsoli va erkaklik ibtidosi bo‘lgan. Ilon (donishmandlik, uddaburonlik, epchillik timsoli) ayollik ibtidosi ramzi bo‘lgan.

Ikki daryo oralig‘i xalqlarining diniy ta’limotini aks ettiruvchi muqaddas bitiklar yaratilmagan, ammo uning asoslari xalq og‘zaki ijodi namunalari (afsona, doston, rivoyat, matal, ertak kabilar)da bayon qilinadi. Bizgacha «Dunyoning yaratilishi haqidagi doston», «Aguayoya haqidagi doston», «Adapa haqidagi doston», «Gilgamesh haqidagi doston» va boshqalar yetib kelgan. Bu manbalardan Ikki daryo oralig‘ining diniy tizimi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin.

Ikki daryo oralig‘ining diniy tizimi asrlar davomida rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayonda turli qadimgi xalqlarning ishtirok etishi ham yangi qirralarning ochilishiga xizmat qilgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida mintaqada rivojlangan diniy tizim uzil-kesil shakllangan. Shu davrda Bobil shahar-davlati kuchaygan va uning hokimiyati Ikki daryo oralig‘iga o‘rnatilgan. Bobil shahrining homiysi Marduk (olamdagи tartibni ta’minlovchi xudo) bosh xudo sifatida tan olingan. Afsonalarda qayd etilishicha, Marduk xudolarga qarshi chiqqan

maxluq Tiamat (ibridoit tartibsizlik timsoli)ni yenggan. Bosh xudoning o'zgarishi sababli, xudolar va boshqa g'ayritabiyy mavjudotlarning vazifalari qayta ko'rib chiqilgan. Bobil shahri inqirozga uchraganidan keyin Marduk ham boshqa qudratli davlatning homiy xudosiga o'rmini bo'shatib bergen. Shu tariqa diniy tizimda o'zgarishlar davom etgan.

Mesopotamiyada xudolar odamlardek yashaydi deb hisoblangan. Odamlar hayotidagi o'zgarishlar xudolar turmushida ham shunga o'xshash jarayonlarni vujudga keltirgan. Jamiyatda sinflar va davlatning vujudga kelishi bilan g'ayritabiyy kuchga ega mavjudotlar orasida ham tabaqalarga bo'linish boshlangan. Diniy tizimda bosh xudo va unga xizmat qiluvchilar guruhi paydo bo'lган. G'ayritabiyy mavjudotlar ham quyidan yuqoriga bo'ysunish (iyerarxiya) prinsipi asosida boshqarilgan. Hanuzgacha sehrgarlik va folbinlik kabi ibridoit din turlari xudolarga xizmat qiluvchi vositalar sifatida saqlanib qolgan.

Odatda, xudolar sharafiga bag'ishlangan diniy marosimlarga kohinlar rahbarlik qilgan. Davlat boshlig'i ayni paytda bosh kohin vazifasini bajarar edi. Hukmdorning bosh kohinlik maqomi kohinlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamladi. Kohinlar ibodatxonalarda yashaganlar, ibodatxona mulklariga egalik qilganlar va boshqarganlar. Din peshvosi, ilm sohibi, murabbiy va mulkdor sifatida kohinlarning jamiyatdagi nufuzi juda baland bo'lган.

Ibodatxona diniy vazifalar bilan birga dunyoviy vazifalarni ham bajargan: katta ekin maydonlari, chorva mollari va yaylovlarga egalik qilgan; ichki va tashqi savdo ishtirok etgan. Uning qoshida hunarmandchilik ustaxonlari qurilgan. Ibodatxona madaniyat va ma'rifat markazi vazifasini bajargan. Ularda davlat arxivi, kutubxona va maktab joylashgan. Maktablarda esa kohinlar muallimlik qilganlar.

Diniy e'tiqodda axloqiy qadriyatlar alohida ahamiyatga ega bo'lган. Kohinlar diniy marosimlarda kishilarni xudolarga shak keltirmaslik, ularni hurmat qilish, yolg'on guvohlik bermaslik va yolg'on gapirmaslik, o'g'rilik qilmaslik, odam o'ldirmaslik, zino qilmaslik, ota-onasi va kattalarni hurmat qilish, zaif va kambag'al odamlarga zulm qilmaslik, qarindoshurug'lar orasiga raxna solmaslik, qabiladoshlarga yordam berish, qabila ishlariga e'tiborsizlik qilmaslik kabi fazilatlarga da'vat etganlar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) diniy tizimi mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy sharoit ta'sirida jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olishga da'vogarlik qilmagan; jamiyatda din bilan bog'liq bo'lмаган munosabatlar, qarashlar va tartiblarning amal qilishiga to'sqinlik qilmagan. Diniy tizimning ushbu

xususiyati keyinchalik O'rta dengiz havzasida uning ta'sirida paydo bo'lган madaniyatlarda hurfikrlikning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratgan.

Qadimgi Misr diniy tizimi

Ikki daryo oralig'i diniy tizimining paydo bo'lishi bilan bir vaqtida Qadimgi Misr diniy tizimi rivojlangan. Iqtisodiy turmushi o'zaro yaqin bo'lган bu ikki xalq ijtimoiy-siyosiy tizimi, dinlarining ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi madaniyatni vujudga keltirgan.

Qadimgi Misr xo'jaligining o'ziga xosligi diniy tizimning shaklanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu yerda sun'iy sug'orishga asoslangan qishloq xo'jaligi, murakkab irrigatsiya inshoatlarini qurish va ish holatida saqlab turish uchun aholi kuchini davlat miqyosida birlashtirish va uning negizida yagona xo'jalik tizimini vujudga keltirish talab qilingan. Miloddan avvalgi IV ming yillikning oxirlari – III ming yillikning boshlarida iqtisodiy zarurat ta'sirida Nil vohasi yagona markazga birlashtirilgan.

Markazlashgan davlat boshlig'i fir'avn deb atalgan. Fir'avn cheklanmagan siyosiy hokimiyatga ega bo'lган va uning shaxsi ilohiyashtirilib, xudo darajasiga ko'tarilgan. Qadimgi misrliklar fir'avnni xudoning yerdagi timsoli (yerdagi xudo) deb bilganlar. Fir'avn xudo Amon Ranning yerdagi ayol bilan muqaddas nikohi natijasida tug'ilgan xudo sifatida ulug'langan. Odamlar unga ziyon yetkazishdan qo'rqib, hatto ismini ham tilga olmaganlar. «Fir'avn» atamasi istiora so'z bo'lib, katta uy, buyuk uy degan ma'nolarni anglatadi.

Davlat boshlig'i shaxsining ilohiyashtirilishi kohinlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlagan. Ular ruhoniylilik bilan birga markaziy va mahalliy davlat hokimiyatining amaldori, sud ishlarini bajaruvchi mansabdor shaxs, munajjimlik, me'morlik, murabbiylik singari dunyoviy ishlarni bajarganlar. Ruhoniylar jamiyatda alohida imtiyozlarga ega toifani tashkil etib, hokimiyatni egallash uchun hatto fir'avn va uning vorislari bilan ham raqobat qilganlar.

Qadimgi misrliklar qudratli xudolar, g'ayritabiiy kuchga ega mavjudotlar, tabiat kuchlari va hayvonlarga sig'inganlar. Diniy tizim qo'shni xalqlar xudolarining qabul qilinishi hisobiga ham kengayib borgan. Har bir shahar va qishloq aholisining sig'inadigan mahalliy xudosi bo'lган. Ularga bag'ishlab ibodatxonalar qurilgan, qurbanliklar qilingan, diniy bayram va marosimlar o'tkazilgan.

Qadimgi Misrning shahar-davlatlari yagona markazga birlashtirilganidan keyin umumdavlat ahamiyatiga ega xudolar guruhi vujudga kelgan. Guruhga bosh xudo rahbarlik qilgan. Bosh xudo sifatida Quyosh xudosi – Amon Ra tan olingan. Miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlab Fiva shahrining homiysi Amon Raning bosh xudo sifatidagi mavqeい yanada mustahkamlangan.

Qadimgi Misrda umumdavlat xudolariga sig‘inishning vujudga kelishi to‘g‘risida turli diniy ta’limotlar mavjud. Ular orasida Geliopol mакtabining ta’limoti alohida ahamiyatga ega. Unda to‘qqizta umumdavlat xudosi haqida hikoya qilinadi. Ushbu ta’limot «yenneada» deb ataladi. Unga ko‘ra, dastlab ibtidoiy ummon timsoli sifatida Nun mavjud bo‘lgan. Nundan abadiyat xudosi – Atum ajralib chiqqan. Atum qanotli ilon qiyofasida tasvirlanadi. U xudolar – Shu va Tefnutlarni yaratgan. Ulardan xudolar – Geb va Nut tug‘ilgan. Keyinchalik havo xudosi – Shu osmon ma’budi Nutni yer xudosi – Gebdan ajratgan. Geb va Nut nikohidan o‘lib-tiriladigan tabiat timsoli, narigi dunyo xudosi – Osiris, hosildorlik, suv va shamol ma’budi – Isida, o‘lgan odamlar ruhiga homiylik qiluvchi ma’bud – Neftida, cho‘l xudosi – Set tug‘ilgan. Umumdavlat xudolariga dastlab Atum rahbarlik qilgan. Lekin hokimiyatga da’vogarlik qiluvchi xudolar bilan raqobatda u quyosh xudosi Ra (Amon Ra)ga yengilgan. Miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri – II ming yillikning boshlarida Ra o‘z hokimiyatini yanada mustahkamlagan.

Memfis shahri mакtabining kosmogonik (grekcha *kosmogonia* – dunyoning paydo bo‘lishi degan ma’noni anglatadi) ta’limotiga ko‘ra, Ptax (yaratuvchi xudo, Memfisda o‘liklar xudosi sifatida ulug‘lanadi, u mumiyolangan odam qiyofasida tasvirlanadi) borliqni va barcha xudolarni yaratgan. Ptax borliqni so‘z va ijodiy qobiliyati yordamida yaratadi, deb hisoblangan. Ilohiy iroda uning yuragida paydo bo‘lgan. Xristianlikda ham borliqning vujudga kelishi to‘g‘risida shunga o‘xshash ta’limot mavjud. Havariy (apostol) Ioanning yevangeliyasida xudo borliqni so‘z orqali yaratganligi qayd etilgan.

Qadimgi misrliklar xudolarni qudratli va qasoskor g‘ayritabiyy mavjudotlar deb bilganlar. Odamlar xudolarga xizmat qilish uchun yaratilgan, agar ular o‘z burchlarini unutsalar yoki ularni sidqidildan bajarmasalar, xudolarning g‘azabiga duchor bo‘ladilar, deb hisoblangan. Shu bois davlat xazinasi va fuqarolar shaxsiy daromadining juda katta qismi xudolarga bag‘ishlangan, ya’ni ibodatxonalar qurilishi, qurbanliklar va boshqa ko‘plab diniy marosimlarni bajarishga xarajat qilingan. Masalan, fir‘avn Xufuning maqbara (piramida)si miloddan avvalgi XXVII asrda yuz mingdan ortiq kishilar tomonidan 20 yil davomida qurilgan.

Xudolar totemizm ta'sirida dastlab asosan xo'jalikda foydalaniladigan uy hayvonlari qiyofasida tasvirlangan. Keyinchalik diniy ta'limotning takomillashib borishi bilan ular odam yoki yarim odam, yarim hayvon qiyofalarida tasvirlangan. Masalan, Osiris, Isida, Xator kabi xudolar odam qiyofasida, Gor burgut boshli odam, Set xo'tik boshli, Tot laylak boshli mavjudot qiyofalarida tasvirlangan.

Diniy qarashlarda totemizm bilan birga animizmning ta'siri kuchli bo'lган. Bu o'lган odamlarni ko'mish marosimida yaqqol namoyon bo'lган. Rivoyatlarda aytishicha, odamning ruhi o'lmaydi. Insonda «Ka» va «Ba» ruhlari mavjud. Ular turli vazifalarni bajaradilar. «Ka» ruhi odam vafot etganidan keyin jismda qoladi. «Ba» ruhi esa tanani tark etib, narigi dunyoda safarini davom ettiradi va oxir-oqibatda ilgarigi jasadga qaytib keladi. Shundan keyin odam qayta tiriladi va abadiy rohat-farog'at hukmron bo'lган ilohiy jamiyatda hayotini davom ettiradi.

Odamning qayta tirilishi uchun bir qator vazifalarning hal etilishi talab qilingan. Birinchi navbatda «Ka» ruhini tanada saqlab qolish kerak bo'lган. Buning uchun marhumning jasadi mumiyolangan. Agar mumiy vaqt va tabiat kuchlarining ta'sirida chirib ketsa, qo'shimcha vosita sifatida qabrga kishining tasviri chizilgan yoki haykali qo'yilgan. «Ka» ruhining tanada saqlanib qolishi «Ba» ruhining narigi dunyoda xudo bilan savol-javob va turli xavf-xatarlardan muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi deb hisoblangan; ikkinchidan, «Ba» ruhi narigi dunyoda kishining tirikligida qilgan ishlari uchun xudo oldida javob beradi deb hisoblangan. Bundan o'ta olmasa ruhni ajdaho yutib yuborgan, oqibatda uning narigi dunyodagi safari yakunlangan. So'rovdan ijobiy natija bilan o'tgan ruh esa tanaga qaytgan va odamning qayta tirilishiga qadar Ialu vodiysi (jannat)ga tushgan.

Qadimgi Misrda siyosiy hokimiyatning markazlashuvi va davlat rahbarining cheklanmagan hokimiyatga ega ekanligi jahonda birinchi bo'lib yakkaxudolilik ta'limotining yuzaga kelishiga sabab bo'lган. Miloddan avvalgi XV asrning oxirlarida mamlakatni boshqargan fir'avn Amenxotep IV (oqsuyak zodagonlar va kohinlarning hokimiyatni undan tortib olish uchun kurashiga zarba berish maqsadida) diniy islohot o'tkazgan. Islohot natijasida ko'pxudolilik bekor qilingan va yagona xudo Aton (Quyosh)ga sig'inish joriy qilingan. Eski ibodatxonalar yopib qo'yilgan va ularning mulklari musodara qilingan. Mamlakatning poytaxti yangi qurilgan Axetaton shahriga ko'chirilgan. Fir'avn o'zini Exnaton (Atonga xush yoqadigan) deb atalgan. Lekin islohot uchun hali tarixiy zarurat pishib yetilmagan va jamiyat yakkaxudolikni qabul qilishga ham

tayyor bo‘lмаган. У ко‘проқ сиёсиy аhamiyatga ega bo‘lib, oqsuyak zodagon va kohinlarning jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy qudratiga zarba berish maqsadida amalga oshirilgan. Shu bois uning muvaffaqiyatsizlik bilan tugashi oldindan ma’lum bo‘lgan. Fir’avn vafot etganidan keyin diniy islohot bekor qilingan va u dahriy deb la’natlangan. Vaqt o‘tishi bilan avvalgi xudolarga sig‘inish yana qayta tiklangan.

Xulosa sifatida qayd etish kerakki, Qadimgi Misr dinining g‘oyalari O‘rta dengiz havzasidagi G‘arb va Sharq xalqlari madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ruhning o‘lmasligi, narigi dunyo, kishining xudo oldida javobgarligi va qayta tirilishi kabi fikrlar keyinchalik mintaqada vujudga kelgan yakkaxudolik ta’limotlarining g‘oyalari sifatida qabul qilingan hamda Qadimgi Misr madaniyatining rivojlanishiga ta’sir etgan. Qadimgi Sharq madaniy markazlarining ta’sirida O‘rta dengiz havzasida antik (lotincha *antique* – qadimgi degan ma’noni anglatadi), ya’ni Yunoniston (Gretsiya) va Rim davlatlarining madaniyati vujudga keldi.

Qadimgi Gretsiya diniy tizimi

Qadimgi Gretsiya diniy tizimi antik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida boshqa qadimgi dinlar kabi uzoq rivojlanish bosqichidan o‘tgan. Bu davlatda diniy tizim Qadimgi Sharq sivilizatsiyalaridan o‘zgacha shart-sharoitlarda yuzaga kelgan va rivojlangan. Gresiyada Misr va Mesopotamiyadagi kabi yirik daryolar bo‘lмаган. Xo‘jalikning asosini tashkil etuvchi agrar sohada ekin maydonlari lalmikor yerlar bo‘lib, ularning asosiy qismi xususiy mulkdorlarga qarashli bo‘lgan. Mamlakatning siyosiy tuzumi klassik qulchilik munosabatlariga asoslangan shahar-davlatlardan tashkil topgan. Ma’lumki, Qadimgi Gretsiyadan farqli o‘laroq, Qadimgi Sharqda qullar hech qachon asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo‘lмаган.

Birinchi bo‘lib Qadimgi Gretsiyada davlatni demokratik boshqarish shakli paydo bo‘lgan. Keyinchalik cheklangan demokratiya deb baholangan davlat boshqaruв shakli, garchi juda ko‘p kamchiliklari bo‘lsada, aholining ma’lum bir qismiga keng huquq va erkinliklar bergen. Cheklangan demokratiya odamlarning o‘z ichki qobiliyatları va iste’dodlarini namoyon qilishlari uchun Sharq davlatlaridagiga nisbatan keng imkoniyatlар yaratgan. Insonning oliv qadriyat ekanligi to‘g‘risidagi g‘oya paydo bo‘lgan va rivojlantirilgan. Yuqorida qayd etilgan xususiyatlар mamlakat diniy tizimida o‘z aksini topgan.

Qadimgi Gretsya diniy tizimi rivojlanishini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin: birinchi bosqich miloddan avvalgi III ming yillikning oxiridan II ming yillikning oxirlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Birinchi bosqich Minoy (miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri – miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmi) va Axeya (miloddan avvalgi 1500 – miloddan аввалги 1100 йиллар) даврларига бўлинади.

Миной davrida diniy qarashlar, ibridoiy din shakllarining таъсири кучли бўлганлиги сабабли жуда содда бўлган. Diniy ta’limotda табиатни jonli ва g‘ayritabiyy кучга ega deb tasavvur qilish, xudolarni yarim odam, yarim hayvon qiyofasida тасвирлаш, афсоналар vositasida диний ta’limotni tushuntirish кенг qo‘llanilgan. Табиат voqeliklari qatorida она ер алоҳида улуғланган. Грекларнинг диний ривоятларига кўра, бутун олам Yerdan paydo бўлган.

Diniy qarashlarda она заминни zaminni ва unga unga grek jamiyatida ҳали matriarxatning ta’siri kuchli ekanligi va деҳқончилик xo‘jalikning asosiy tarmog‘iga aylanganidan dalolat beradi. Лекин ijtimoiy hayotda ibridoiy din shakllarining ta’siri qanchalik kuchli bo‘lmasin, qudratlari xudolarga sig‘inish uzil-kesil qaror topgan va keng yoyilgan. Дастлаб xudolar tabaqalarga bo‘linmagan. Keyinchalik Krit orolining yirik shahardavlat atrofida birlashtirilishi (miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri) natijasida xudolar darajasida ham tabaqaviy bo‘linishlar boshlangan. Zevs xudosi (grekcha *zeus* – yorug‘ osmon degan ma’noni anglatadi; osmon, yorug‘lik, momaqaldiroq va chaqmoq худоси) bosh xudo va Minoy podsholarining ajdodi sifatida ulug‘lana boshlangan. Xudolar asosan odam (antropomorf) ва қисман ярим yarim , yarim hayvon (zoomorf) qiyofalarida tasvirlangan. Tabiat voqeliklarida g‘ayritabiyy mavjudotlar (yarim xudolar) mavjudligiga ishonish saqlanib qolgan.

Bu davrning diniy tizimida totemistik tasavvurlarning ta’siri kuchli bo‘lgan. Afsonalarga кўра, подшоҳ ва давлат ҳокимияти асослари asoslari ва davlat hokimiyati қўшилишларидан пайдо бўлган. Ўқиз qo‘shilishlaridan тимсоли бўлган. Шу боис унинг тасвири tasviri буюмларбуумларкийим-кечакларkechaklarmaishiy безаклари ва бошқа жойларда кўплаб joylarda .

Miloddan avvalgi XV asrdan boshlab Qadimgi Gretsyaning katta qismini Axeya qabilalari bosib olgan. Shuning uchun miloddan аввалги XV асрдан miloddan asrdan XI asrgacha bo‘lgan muddat Axeya davri deb ataladi. Axeya qabilalari bosib olingan xalqning ilg‘or madaniyatini, jumladan dinini yo‘q qilib tashlamaganlar. Axeyaliklar greklar diniy tizimini qabul qilganlar. Ayni paytda o‘zlarining xudolaridan ham voz

kechmaganlar. Natijada xudolarning vazifalari o‘zgargan va yangi xudolar yuzaga kelgan. Shu vaqtdan e’tiboran hosildorlik va uzumchilik xudosi – Dionis, dengiz xudosi – Poseydon, savdo-sotiq xudosi – Germes, urush xudosi – Aresga sig‘inish boshlangan. Ularning xudolar orasidagi mavqeい mustahkamlangan va keyinchalik ular Olimpiya xudolari qatoriga kiritilganlar.

Qadimgi Gretsiya diniy tizimi rivojlanishining ikkinchi davri miloddan avvalgi XI asr oxirlaridan boshlangan. Bu Gomer («Iliada» va «Odisseya» dostonlarining muallifi) davri deb ataladi. Gomer davrining boshlanishi Qadimgi Gretsiyada asilzodalar (aristokratiya) hokimiyatining vujudga kelishi va mustahkamlanishi davriga to‘g‘ri keladi. Asilzodalar hokimiyatining mustahkamlanishi davrida diniy tizimda umumxalq xudolari guruhi ajralib chiqqan. Greklar ularni «Olimpiya xudolari» deb ataganlar. Olimpiya xudolari guruhining shakllanish davri uzoq vaqt davom etgan va miloddan avvalgi VI–V asrlarga kelib bu jarayon uzilkesil yakunlangan. Olimpiya xudolari o‘n ikkita xudodan iborat bo‘lib, ularga Zevs boshchilik qilgan. U asilzoda xudolar Aid (o‘liklar podsholigi xudosi), Poseydon (dengiz xudosi) va boshqalarga tayanib dunyonи boshqargan. Zevs boshchiligidagi bosh xudolar guruhi umumxalq xudolari sifatida tan olinsa-da, aholi orasida juda ko‘p mahalliy xudolarga sig‘inish an’anasi saqlanib qolgan.

Xudolar shu vaqtdan boshlab odam qiyofasida tasvirlana boshlagan. Ular kishilarga nafaqat tashqi qiyofasi bilan o‘xshagan, balki oziq-ovqat, kiyim-kechak, mehnat va urush qurollari kabilardan foydalangan, hashamatli qasrlarda yashagan, odamlardek tug‘ilgan va insonlardagi illatlarga ham ega bo‘lgan. Xudolar odamlardan faqat ilohiy qudrati va boqiyligi bilan farq qilgan. Insonlar xudolarning qahrini keltirmaslikka va ularning e’tiborini qozonishga harakat qilib, hashamatli ibodatxonalar qurbanlar, juda ko‘p qurbanliklar keltirganlar va xudolar sharafiga boshqa ko‘plab diniy marosimlar o‘tkazganlar.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda quzdorlik shahar-davlatlarining yanada rivojlanishi diniy ta’limotning mohiyatini o‘zgartirgan. Diniy tizim shahar-davlat fuqarolarining qullar ustidan hukmronligini mustahkamlagan, uning grek jamiyatidagi ahamiyatini himoya qilgan. Shu davrdan boshlab, jamiyatda hunarmandchilik va savdo-sotiqqa homiylik qiluvchi xudolarning ijtimoiy nufuzi ortgan. Ularning vazifalari o‘zgargan. Shahar-davlatga homiylik qiluvchi xudo ayni paytda hunarmandchilikka va savdo-sotiqqa ham homiylik qiladigan bo‘lgan. Jamiyatning o‘rta va quyi tabaqalari orasida Olimpiya xudolarini asilzodalarning homysi va

ular hokimiyatining himoyachisi ekanligiga doir qarashlar mustahkamlangan. Ular Olimpiya o‘zlarining mahalliy xudolariga sig‘inishni davom ettirganlar.

Qadimgi Gretsiyada kohinlar ijtimoiy mavqeining o‘ziga xosligi bilan ajralib turganlar. Ular ijtimoiy hayotda alohida tabaqani tashkil etmaganlar va asosan ibodatxonadagi ishlarni boshqarish bilan shug‘ullanganlar. Diniy marosimlarga odatda davlat xizmatchilari yoki faylasuflar rahbarlik qilganlar. Greklar kohinlarni xudolarning o‘zları tanlashlari kerak deb hisoblaganlar. Shu bois kohinlar da’vogarlar orasidan qur’a tashlab aniqlangan va ibodatxonalarda yashaganlar. Ibodatxonada bir yoki bir necha kohin bo‘lgan. Ibodatxona qaysi xudoga bag‘ishlab qurilganligiga qarab, erkak yoki ayol kohinlar xizmat qilganlar. Kohinlarning turmushini tartibga soluvchi umumiyligida ham ishlab chiqilmagan. Ayrim ibodatxonalarda ayol yoki erkak kohinlarning turmushga chiqishi yoki uylanishi taqiqlangan bo‘lsa, ayrimlarida ularning albatta oilali bo‘lishlari talab qilingan. Kohinlarga davlat ish haqi to‘lamaganligi sababli, ular asosan ehsonlar hisobidan yashaganlar. Ularga ibodatxonalarda xudolarga qurbanlik qilingan chorva mollarining go‘shtini iste’mol qilish, terisi, shoxi va tuyoqlarini bozorda sotishga ruxsat berilgan. Ibodatxona davlat xazinasini va xususiy qimmatbaho narsalarni saqlaganligi uchun haq olgan. Odatda kohinlarni moddiy turmushi jihatidan o‘rta tabaqa vakillariga kiritish mumkin.

Diniy tizimda qahramonlarga sig‘inish, ular sharafiga qurbanliklar qilish marosimi mavjud bo‘lgan. Greklar Vatan uchun jonini qurban qilgan kishilarni qahramonlar deb atashgan. Afsonalarda odatda xudo bilan odamning nikohidan tug‘ilgan qahramonlar to‘g‘risida hikoya qilinadi. Ular o‘z Vatanining shon-sharafi uchun jangda jasorat ko‘rsatganlar, yurtdoshlarini turli xavf-xatarlardan himoya qilganlar. Bunday kishilar vafot etganlaridan keyin ularning el-yurt uchun qilgan xizmatlari taqdirlanib, xudolar qatoriga qabul qilinganlar. Qahramonlar xudo bo‘lganidan keyin ham o‘z yurtiga homiylik qilishni davom ettiradi, deb hisoblangan.

Greklar Vatan uchun qurban bo‘lgan kishilarni e’zozlash bilan fuqarolarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga, yurtning tinchligi, ravnaqi va porloq kelajagi uchun qayg‘uradigan komil insonlarni tarbiyalashga harakat qilganlar.

Qadimgi Gretsiyada taqdiri azalga, odamlar va hatto xudolarning ham taqdiri oldindan belgilanganligiga ishonish mavjud edi. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, hatto qudratli xudolar ham o‘z qismatini o‘zgartira olmaganlar.

Taqdiri azal barchaning ustidan hukmronlik qilgan. Odamlar va xudolarning taqdirini moyralar (grekcha *moira* – qismat, taqdir degan ma'nolarni anglatadi) to‘qigan.

Taqdiri azalga ishonish bashoratchilikning keng yoyilishiga sabab bo‘lgan. Greklar biron muhim ishni boshlashdan oldin bashoratchining fikrini bilishga harakat qilganlar. Bashoratchilar turli usullardan foydalanib voqe-a-hodisalarini oldindan aytib berishga harakat qilganlar. Bu ish bilan asosan kohinlar shug‘ullanganlar. Ular ko‘proq qurbanlik qilingan hayvonning ichki a’zolari joylashuvi va holatiga qarab bashorat qilish usulidan keng foydalanganlar. Bunday usul xaruspitsiya (etrusk tilida *harus* – ichki organlar, lotincha *specio* – kuzataman degan ma’nolarni bildiradi) deb atalgan. Qadimgi davrda Delfa orolidagi Pifiya ibodatxonasi bashoratchilari butun Elladada (greklar o‘z yurtini shu nom bilan ataganlar) mashhur bo‘lganlar. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, makedoniyalik Iskandar ham Eronga yurish qilishidan oldin Delfa oroliga kelib, bashoratchilarning fikrini bilgan.

Qadimgi Gretsiyadagi siyosiy tarqoqlik diniy tizimga ham ta’sir qilgan. Bu yerda umumxalq ahamiyatga ega diniy tashkilot bo‘lmagan. Shuningdek, grek qulدورлик демократияси diniy ta’limotda ham turli qarashlarning o‘zaro kurashini keltirib chiqargan. Oqibatda Qadimgi Gretsiyada birinchi yashirin diniy jamiyatlar va marosimlar vujudga kelgan. Ular orasida Demetra (hosildorlik, dehqonchilik, nikoh va oilaviy hayot ma’budasi) va Dionis (uzumchilik va vinochilik ma’budi)ga bag‘ishlangan sirli marosimlar eng mashhur bo‘lgan. Demetra sirli marosimi (Elevsin marosimlari) yilda bir marta o‘tkazilgan. Marosim narigi dunyoning sirlarini bilishga bag‘ishlangan. Unda ishtirok etuvchilar shu asosda narigi dunyoga ketishga tayyorgarlik ko‘rayotganligini namoyish qilganlar. Marosimda ishtirok etuvchilarga gunohlaridan xalos bo‘lish, ruhlarining narigi dunyoda rohat farog‘atda yashashi va’da qilingan.

Dionis sirli marosimlarining ishtirokchilari ramziy ravishda o‘lib-tirilib, narigi dunyo tilsimotlarini tushunishga intilganlar. Marosim davomida qurbanlik qilingan hayvonning xom go‘shti va qoni iste’mol qilingan.

Diniy tizimda yashirin diniy jamiyatlarning vujudga kelishiga demokratik siyosiy tuzum va diniy aqidalar talqinidagi tafovutlar bilan birga ijtimoiy tabaqalarning turmushidan norozi ekanligi ham ta’sir etgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qadimgi Gretsiya diniy tizimi ta’limotida ayrim insonlar xudo darajasiga ko‘tarilgan. Diniy qarashlarda

ibridoyn din shakllarining ta'siri kuchli bo'lsa-da, xudolar odam qiyofasida tasvirlangan, insonlardek yashagan va o'zaro muloqotda bo'lган. Odamlar g'ayritabiyy mavjudotlar va hatto xudolar bilan raqobat qilganlar.

Diniy tizim ijtimoiy hayotni to'liq nazorat qilishni da'vo qilmagan. Diniy tartiblar ko'proq tavsiya mazmuniga ega bo'lган. Har bir kishining ularga amal qilishi yoki o'z xohishiga ko'ra yashashi mumkin bo'lган. Lekin insonlar xulq-atvorlari va xatti-harakatlari uchun shaxsan javobgar bo'lганlar.

Qadimgi Gretsiya diniy tizimi ta'limoti va marosimlari keyinchalik xristianlik ta'limoti va marosimlarining shakllanishida muhim manba vazifasini bajargan.

Qadimgi Hindiston dini

Qadimgi Hindiston diniy tizimining paydo bo'lishida turli elatlar ishtirok etgan. Diniy tizim mahalliy va ko'chib kelgan xalqlar dinlarining sintezi natijasida yuzaga kelgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Hindistonning shimoliy va markaziy qismlarini taxminan Pomir tog'lari vohalarida yashagan ko'chmanchi Oriy (asilzoda) qabilalari bosib olganlar. Ularning bu yerkarta kelishi sinflar va davlatning paydo bo'lishi davriga to'g'ri kelgan. Ko'chmanchi qabilalar odatdagidek mahalliy aholiga singib ketmagan. Oriylar o'z urf-odatlari, an'analari va udumlarini saqlab qolishi bilan birga mahalliy xalq madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Oriylarning mahalliy madaniyatga ta'siri diniy e'tiqodda ayniqsa salmoqli bo'lган. Ularning diniy aqidalari xudolarga qurbanlik qilish (xudoga eng katta qurbanlik odam hisoblangan, undan keyin qayd etish tartibiga ko'ra ot, ho'kiz, qo'y va echki turgan) hamda boshqa marosimlari muqaddas bitiklarda tasvirlangan. Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlari – I ming yillikning boshlarida mazkur bitiklar asosida muqaddas matnlar to'plami – vedalar (sanskrit tilida – bilim degan ma'noni anglatadi) yaratilgan. Vedalar matni qadimgi xudolar to'g'risidagi hikoyalar, xudolarga qurbanliklar qilish tartibi va bu marosimlarni bajarishda aytildigan qo'shiqlar, xudolar sharafiga aytildigan madhiyalar va afsunlardan tuzilgan.

Vedalar 4 ta to'plamga bo'linadi va quyidagilardan iborat:

1) Rigveda – xudolarga bag'ishlangan madhiyalar. Xudolarning sarguzashtlari, o'zaro aloqalari va asosiy vazifalari she'riy uslubida tasvirlangan;

2) Samveda – asosan Rigveda mavzularini takrorlovchi she’riy to‘plam;

3) Yadjuraveda – qurbanliklar qilish qoidalaridan iborat;

4) Atxarvaveda – yovuz ruhlarga qarshi qo‘llaniladigan jodu va afsunlardan tuzilgan.

Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlari – I ming yillikning boshlarida Qadimgi Hindistonda vujudga kelgan din muqaddas bitik – vedalar sharafiga shu nom bilan atalgan. Veda dini asrlar davomida takomillashib borgan. U ko‘pxudolikka asoslangan. Daus osmon xudosi hisoblangan va yer ilohi Pitxivi borliqni yaratgan, xudolar va odamlarning ajdodi bo‘lgan. Ulardan Indra (issiqlik, yorug‘lik, yomg‘ir va to‘fon xudosi, olamning hukmdori), Agni (olov xudosi, oila homiysi, baxt va sog‘lom farzand ato etuvchi, xudolar va odamlar o‘rtasidagi vositachi xudo) tug‘ilgan. Oriylarda keng tarqalgan xudolar qatorida yana Suriya (quyosh xudosi), Mitra (yorug‘lik xudosi), Varuna (tun xudosi, abadiy tartibni ta’minlovchi, aybdorlarga jazo, aybiga iqror bo‘lib tavba qilganlarni kechiruvchi xudo)ni qayd etish mumkin. Ular orasida odamlarning kundalik yumushini hal qilinishida bevosita ishtirok etuvchilari alohida ulug‘langan.

Hindistonda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, mehnat taqsimoti, tabaqa (varna)lar va qadimgi davlatlarning vujudga kelishi sababli diniy e’tiqodda o‘zgarishlar bo‘lgan. Veda dini braxmanizm bilan almashtirilgan.

Braxmanizm jamiyatning tabaqalarga bo‘linishini, braxmanlarning imtiyozlari va davlatni muqaddaslashtirgan. Yangi dinning diqqatga sazovor jihatlaridan biri shuki, unda diniy aqidalar braxmanlar matnlari muqaddas bitigida bayon qilingan. Braxman matnlari yaratilganidan keyin ham vedalar saqlanib qolgan va ular vedalarni sharhlovchi muqaddas bitik vazifasini bajargan.

Braxman matnlarida braxmanlarning eng yuqori tabaqa ekanligi bayon qilingan, kasta tuzumi muqaddaslashtirilgan va ularning alohida yashash qoidalari belgilangan. Har bir dindor muayyan kasta a’zosi bo‘lganligi uchun uning qoidalari asosida yashagan.

Braxmanizm ta’limotiga ko‘ra moddiy borliq undan tashqarida mavjud bo‘lgan yagona boqiy ruhning emanatsiyasi (lotincha *emanatio* – oqib chiqish, o‘tish degan ma’nolarni anglatadi, iloh ijodiy energiyasining oqib chiqishi) natijasida vujudga kelgan. Tirik jonzodlardagi ruh uning bir zarrasidir. Ruh boqiy. Uning qayta tug‘ilishi to‘xtatilmasa, tanadan-tanaga cheksiz ravishda ko‘chaveradi. Ruhning ko‘chishini sansara (sanskrit tilida – shakllanish, ko‘chish, vujudga kelish degan ma’nolarni anglatadi)

aqidasi tartibga soladi. Sansara barcha tirik mavjudotlarning o‘tkinchiligi, o‘zgaruvchanligi, ruhning tanadan-tanaga ko‘chishining yagona zanjiri to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Ruhning ko‘chish tartibi, ya’ni ruhning qaysi mavjudotning tanasiga ko‘chishi uning hayot yo‘li yoki karmasiga (sanskrit tilida – harakat, burch, faoliyat degan ma’nolarni anglatadi) bog‘liq. Karma – ilohiy kuch bo‘lib, odamning sodir etgan xatti-harakati, xulq-atvori, intilishlari va maqsadlarini umumlashtiradi va ruhning qaysi jonzodga ko‘chishini belgilaydi. Braxmanizmda karmaning asosini kasta qoidalari tashkil etadi. Kastada belgilangan qoidalarni buzish og‘ir gunoh sanaladi va bu ruhning ko‘chishi masalasini hal etishi mumkin.

Karma aqidalari dxarma (sanskrit tilida – qonun, burch, qoida, fazilat kabi ma’nolarni anglatadi) ta’limotida bayon qilingan. Dxarma – fuqaroviylar, axloqiy va madaniy qoidalari tizimi bo‘lib, uning xudo tomonidan yaratilganligi qayd etiladi. Dxarma qoidalari hind xalqi turmush tarziga aylangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, braxmanizm hind jamiyatida ijtimoiy taraqqiyotning mulkiy tengsizlik, xususiy mulk va davlat vujudga kelishi bosqichida hukmron tabaqaning manfaatlariga xizmat qiluvchi diniy ta’limot tarzida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Braxmanizm aqidalari oldingi tarixiy davrlarda mavjud bo‘lgan diniy qarashlarning mantiqiy davomi sifatida keyingi bosqichlarda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

Qadimgi Xitoy dini

Miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida Qadimgi Xitoy dini vujudga kelgan. Qabila ittifoqi davlatga o‘sib o‘tishi natijasida hukmron In qabilasining homiysi Shandi bosh xudo sifatida qabul qilingan. Qudratli xudolarga sig‘inish urug‘-qabila dinlari negizida shakllanganligi sababli unda totemiz va animizmning ta’siri kuchli bo‘lgan. Xitoyliklar Shandini ulug‘ ajdod sifatida qadrlaganlar. U elat farovonligining himoyachisi, ajdodlar an’analariiga amal qilinishining nazoratchisi sifatida mazkur tartibni buzganlarni jazolagan. Odamlar unga o‘z kundalik muammolarini hal etishda ko‘mak so‘rab sig‘inganlar. Shandining ulug‘ ajdod sifatidagi vazifasi keyinchalik ajdodlar ruhiga sig‘inishning mamlakatda keng yoyilishiga shart-sharoit yaratgan.

Miloddan avvalgi XI asrda Xitoyda Chjou sulolasining hukmronligi davrida Shandiga e’tiqod Osmon xudosi va ajdodlar ruhiga sig‘inish bilan almashgan. Shu bilan birga, hukmdorning Osmon xudosi bilan nasliy

bog‘liqligi g‘oyasi vujudga kelgan va Xitoy «osmonosti imperiya» deb ataladigan bo‘lgan.

Osmon xudosi borliqni belgilovchi o‘zgarmas koinot tartibini ifodalaydi. Koinotda amal qiluvchi tartib jamiyatda axloq normalarida namoyon bo‘ladi. Fozillikka intilish Osmon qonuniyatlariga amal qilish bilan ayniylashtirilgan. Bunda kishining asosiy vazifasi Osmon bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, jahoniy tartibga mos kelishdir. Jahoniy tartib borliqda, tabiatda o‘zini namoyon qiladi. Zero, borliq va tabiat ilohiy mukammallikning bir ko‘rinishi ekan, inson bu tartibni buzishga haqli emas. Kishi tabiat bilan uyg‘un yashashi, undagi mukammallikka intilishi kerak. Tabiatdagi mukammallikka intilish odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir etgan. Xitoyliklar har bir odamda ijtimoiy ahvoldidan qat’i nazar mukammallik mavjud deb qaraydilar.

Qadimgi Xitoy dinining xususiyatlaridan yana biri shundaki, kohinlar tabaqasi jamiyatda kuchli mavqega ega, lekin bu yerda kohin va davlat xizmatchisining vazifasi bir bo‘lgan. Chunki imperator Osmon xudosining yerdagi vakili, birinchi kohin sifatida diniy marosimlarni bajarish vazifasini davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklagan. Ularning asosiy vazifasi davlatning barqarorligini ta’minalash bo‘lganligi sababli Osmon xudosiga sig‘inish rasmiy-byurokratik mazmun kasb etgan.

Shandi, Osmonga va ajdodlar ruhiga sig‘inish Qadimgi Xitoy madaniyatining asosi vazifasini bajargan. Ularning asosida daosizm va konfutsiylik diniy-falsafiy ta’limotlari shakllangan.

Qadimgi Xitoy diniy falsafiy ta’limotlardan biri daosizmdir. U falsafiy ta’limot sifatida miloddan avvalgi VII asrda vujudga kelgan. Miloddan avvalgi IV–III asrlarda diniy ta’limot sifatida mustahkamlangan. Daosizm ta’limotning asoschisi – mutafakkir murabbiy Lao-szysi.

Mazkur diniy ta’limotning asosini Dao to‘g‘risidagi qarashlar tashkil etadi. Dao – borliq, koinot to‘g‘risidagi qonun, dunyoning universal birligi, ilohiy absolut (lotincha *absolut* – cheklanmagan, so‘zsiz, shubhasiz degan ma’nolarni anglatadi, borliqning abadiy ibtidosi)dir. Daoni hech kim yaratmagan, borliq undan boshlanadi va unga qaytadi.

Dao ilohiy ibtido va ayni bir vaqtida ilohiy «yo‘l»dir. Dunyodagi barcha narsa va hodisalar, jumladan buyuk Osmon ham shu yo‘ldan boradi. Baxtga erishishni orzu qiladigan barcha odamlar shu yo‘ldan borishi, Daoni anglashi va unga qo‘shilishi kerak. Odam mikrokosm, Dao makrokosm va abadiydir. Uning o‘limi bu ruhning tanadan ajralib chiqishi

va makrokosmga singib ketishidir. Odamning vazifasi ruhning jahon tartibi bilan qo'shilib ketishiga harakat qilishdan iborat. Bunga quyidagicha erishiladi.

Dao ta'limotiga ko'ra, Dao yo'liga De kuchi xosdir. De orqali har bir kishida Dao namoyon bo'ladi. De odamlarni maqsadga erishishlarida faollikka undamaydi. De ularni tabiat tartiblarini buzishdan saqlaydigan faolsizlikka chorlaydi. Odam o'zligini anglashdan borliqni bilish sari boradi. Daoning ideali – tabiat bilan uyg'unlikda, uning maromiga monand yashaydigan kishilar.

Doasizm Qadimgi Xitoy diniy tizimining diniy mistik sohasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'lsa, konfutsiylik diniy e'tiqoddagi hayotiylik, ijtimoiylik va axloqiylik jihatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Konfutsiylikning asoschisi Qadimgi Xitoy mutafakkiri Kun-szýdir.

Konfutsiy qarashlarini shogirdlari bilan o'zaro suhbatlarda bayon qilganligi sababli yozma manbalarni qoldirmagan. Uning g'oyalarini shogirdlari va do'stlari yozib borgan. Mazkur hujjatlar asosida keyinchalik «Lun'-yuy» («suhbat va mulohazalar») nomli kitob chop qilingan.

O'sha davrda davlatda o'zaro urushlar kuchayib, ijtimoiy barqarorlik yo'qolgan. Shu bois Konfutsiy jamiyatni mustahkamlashning diniy-axloqiy asoslarini ishlab chiqishga, ijtimoiy barqarorlikka esa qadimgi e'tiqod va an'analarni qayta tiklash bilan erishishga intilgan. Mutafakkir kishilarni osmonga va ajdodlar ruhiga sig'inishning ilgarigi ahamiyatini qayta tiklashga da'vat etgan.

Qadimgi an'analarga ko'ra, dunyo tartibli va o'zaro aloqador abadiy ibtido bo'lib, bir xil qonuniyatlar asosida spiralsimon rivojlanadi. Odam o'zaro aloqador va tartibli olamda o'z o'rnini topishi kerak. Buning uchun u mukammallikka intilishi zarur. Konfutsiy mukammallikka intiluvchi «ideal kishi» to'g'risidagi g'oyani ishlab chiqqan. Olam bilan hamohang yashashga qodir bo'lgan insonni «olijanob er», uning antipodini «past kishi» deb atagan. Ideal kishiga quyidagi beshta sifat xos: hissiylik, burch, bilim, me'yorni bilish hissi va ishonch.

Olijanob inson burch va qonunga itoat etadi. Past kishi «yog'li» joyni egallahsga va ko'proq foyda olishsga intiladi. Birinchisi o'ziga ikkinchisi odamlarga talabchandir. Olijanob inson to'g'risida uning mayda ishlariiga qarab baho berib bo'lmaydi, lekin katta ishlarni unga ishonib topshirish

mumkin. Past kishiga katta ishlarni ishonib topshirib bo‘lmaydi, uning mayda ishlariga qarab xulosa chiqarsa bo‘ladi. Birinchisi odamlar bilan kelishib yashaydi, lekin ularga taqlid qilmaydi. Past kishi boshqalarga ergashadi, lekin ular bilan kelishib yashay olmaydi. Olijanob insonga xizmat qilish oson, lekin uni xursand qilish qiyin, chunki u zaruratdan shodlanadi. Ikkinchisini xursand qilish oson, lekin unga xizmat qilish qiyin. Olijanob inson insonparvarlik va zarurat sababli o‘limga tik boradi, ammo past kishi umrini o‘z joniga qasd qilish bilan yakunlaydi. Olijanob inson uch narsadan: Osmon amridan, buyuk insonlardan va aqli so‘zlardan qo‘rqadi. Past kishi Osmon amrini bilmaydi va undan qo‘rqmaydi, amali katta aqli odamlardan nafratlanadi, ularning maslahatlariga amal qilmaydi².

Barqaror jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalar ijtimoiy tartibotning asosiy tamoyilini ishlab chiqilishiga asos bo‘lgan. Ota otaligini, farzand farzandligini, hukmdor hukmdorligini, xizmatchi xizmatchiligin qilsin, ya’ni har bir kishi o‘z vazifasi va huquqini bilsin hamda talab qilingan ishni bajarsin. Jamiyat shu asosda yuqori (boshqaruvchi) va past (mehnatlash) tabaqalarga ajratilgan. Tabaqalar o‘rtasidagi tafovut naslnasabi, davlati bilan emas, balki bilimi va fazilatlari bilan belgilangan. Bu past tabaqa vakillarining iste’dodi va fazilatlari bilan mansab shohsupasidan imperatorgacha ko‘tarilishiga imkon bergen. Xitoy tarixida past tabaqa vakillarining imperator taxtini egallab, o‘z sulolasiga asos solgan yoki davlat boshlig‘i lavozimiga ko‘tarilganligi to‘g‘risida ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Konfutsiylikda ajdodlar ruhiga sig‘inish marosimlari asosiy o‘rinni egallagan va ularning aniq bajarilishiga katta e’tibor berilgan. Marosim orqali har bir kishi koinotning cheksiz oqimida o‘z o‘rnini topadi, deb hisoblangan.

Diniy etikada «syao» ta’limoti qabul qilingan. Unga ko‘ra, har bir farzand ota-onasini hurmat qilishi va doimo ularga sodiq qolishi talab qilinadi. Oqil farzand ota-onasi kim bo‘lmasin, ulardan voz kechishga haqli emas. Xitoy diniy rivoyatlarida ota-onasi och qolganda, ularga tanasini kesib, undan taom tayyorlab bergen farzandlar to‘g‘risida hikoya qilingan.

² Қаранг: Древнекитайская философия: Собр. текстов. Т. 1. – М., 1972. – С. 170.

Ajdodlar ruhiga sig‘inish va «syao» ta’limoti oilaviy qadriyatlarning jamiyatda mustahkamlanishiga yordam bergen. Oila jamiyatning negizini tashkil qilgan va shaxs manfaatlaridan oila manfaatlari ustun qo‘yilgan. Oilaviy munosabatlarni tashkil etishda hissiyot, tuyg‘ular muhim emas. Muhabbat o‘tkinchidir. Uning yo‘qligi er-xotinning asosiy burchi hisoblanuvchi ko‘p farzandli bo‘lish va ularga tarbiya berish vazifasining bajarilishiga xalaqit bermasligi lozim.

Ajdodlar ruhiga sig‘inishning muhim jihatlaridan biri – kattalarga so‘zsiz bo‘ysunish. Har qanday katta kishiga, ota-onas, davlat xizmatchisi yoki hukmdorga kichik, xodim yoki fuqaro so‘zsiz itoat etishi lozim. Yoshlarni kattaga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunishi fozillik hisoblangan.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, hozirgi davrda konfusiylar Xitoyda oldingi mavqeini yo‘qotgan bo‘lsa-da, diniy e’tiqod sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan.

Iudaizm dini

Iudaizm dini Falastinda miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlari – I ming yillikning boshlarida vujudga kelgan. «Iudaizm» atamasi yahudiy qabilalar ittifoqiga kirgan (Ruvit, Simon, Levin va Iuda singari) 12 qabilaning eng kattasi nomidan olingan. Miloddan avvalgi X asrda ular Iuda qabilasi atrofida birlashtirilgan. Qabila vakili Dovud Isroil-yahudiy davlatining podshohi lavozimini egallagan.

Miloddan avvalgi XIII asrda yahudiy ko‘chmanchi qabilalari Falastinga bostirib kelishiga qadar totemizm, animizm va sehrgarlik avj olgan va ko‘pxudolik amalda mavjud bo‘lgan. Yahudiylarning diniy e’tiqodida yakkaxudolik g‘oyalari Falastinni bosib olganidan keyin shakllana boshlagan. Bu jarayon uzoq vaqt davom etgan. Dastlab bosh xudo sifatida Yaxve (Iyegova) tog‘lar, chaqmoq, momaqaldiroq va suv xudosi qabul qilingan bo‘lsa-da, aholi ko‘pxudolik an’analarini saqlab qolgan. Miloddan avvalgi 622 yilda podsho Iosif ko‘pxudolik amaliyotini tugatish maqsadida Yaxvedan boshqa xudolarga sig‘inishni bekor qilgan. Lekin yakkaxudolikni joriy qilish maqsadida davlat tomonidan ko‘rilgan choralar ham samara bermagan. Miloddan avvalgi 586 yilda Yangi Bobil podshosi Navuxodonosor Iudeyani bosib olganidan keyin vaziyat tubdan o‘zgargan. Navuxodonosorning buyrug‘i bilan Quddusdagi iudaizmning bosh ibodatxonasi vayron qilingan. Yahudiylarning bir qismi Mesopotamiyaga majburan ko‘chirilgan. Isroilda mustaqillik uchun kurash boshlangan. Iudaizm dini yahudiylarning davlat mustaqilligini qayta tiklash va majburan ko‘chirib yuborilgan yurtdoshlarini Vataniga qaytarish uchun

kurashida (diaspora) mafkura vazifasini bajargan. Shu vaqtdan boshlab yakkaxudolik g‘oyasi yahudiylarni birlashtiruvchi diniy mafkura sifatida jamiyatda mustahkamlangan.

Iudaizm dini aqidalari va marosimlari muqaddas manbalarda bayon qilingan. Ular muqaddas bitiklar (Tanak) va muqaddas rivoyatlar (Talmud – qadimgi yaxudiy tilida *lameyd* – o‘rganish degan ma’noni anglatadi)ga bo‘linadi.

Tanak – xristianlikning muqaddas kitobi Injil (Bibliya)ning Eski ahd qismiga kiritilgan. Tanak manbalarda Tavrot deb qayd etiladi. Tavrot miloddan avvalgi X–V asrlarda yozilgan va quyidagi kitoblardan iborat: Borliq, Chiqish, Loviy, Sonlar, Ikkinchchi qonun. Miloddan avvalgi V asrda muqaddas bitik yagona to‘plam sifatida dastxat qilingan. Tavrotning qismlarida Yaxvening yagonaligi, olamning yaratilishi, Adam va Yevanining jannatdan quvilganligi, ularning avlodlarini sarguzashtlari hamda xudo bilan murakkab munosabatlari tasvirlangan.

Muqaddas manbalarda qayd etilgan rivoyatlarga binoan, payg‘ambar Musa (Moisey)ga Sinay tog‘ida xudo Yaxvedan vahiy kelgan. Xudo Yaxve uning vositachiligidagi yahudiy xalqi bilan ahdnama «zavet» tuzishni taklif etgan. Ahdnomaning asosini ikkita shart tashkil etadi. Birinchisi – yahudiy xalqi Yaxveni xudolarning eng qudratlisi emas, balki yagona xudo, borliqning yaratuvchisi va unda yuz berayotgan hodisalarini belgilovchi sifatida tan olishi lozim. Ikkinchisi – yahudiylarga Yaxvega sodiqligini isbotlasa, xudoning nazari tushgan xalq imtiyozi beriladi va uning himoyasida bo‘ladi.

Yahudiylar xudoning sevimli bandasi bo‘lib, ularga yerda inson-parvarlik, tenglik, farovonlik, hamjihatlik va boqiy hayotga hukmron ilohiy jamiyatni qurish messiyasini bajaruvchi xalq mas’uliyati yuklatilganligi aqidasi mavjud. Binobarin, unga asoslanib ravvinlar (qadimgi yahudiy tilida *rabbi* – mening ustozim degan ma’noni anglatadi), ya’ni ruhoniylar miloddan avvalgi 444 yilda yahudiylarning boshqa xalqlar bilan quda-andachilik munosabati o‘rnatishini taqiqlovchi qonun qabul qilinishiga erishganlar. Masalaning diqqatga sazovor jihat shundaki, bir tomonidan, bu qonun yahudiylarni boshqa xalqlarga qarshi qo‘yish (hatto ularning ta’qibi)ga sabab bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, xalqni qiyin sinovlarni yengib o‘tish yo‘lida jipslashtiruvchi vosita vazifasini bajargan.

Yaxve Musaga Sinay tog‘ida «ahdnoma» bergan. Ahdnomaning maz-muni Tavrotning «Chiqish» va «Ikkinchchi qonun» qismlarida qayd etilgan. U o‘nta diniy aqidalar, axloqiy-huquqiy normalardan tuzilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1) faqat Yaxvega sig‘inish;

2) Yaxvedan boshqa osmondagи, yerdagi, suvdagi yoki undan pastda turgan narsalar va mavjudotlarni ilohiylashtirmaslik, ularning butlarini yaratmaslik va sig‘inmaslik;

3) xudoning nomini besabab tilga olmaslik;

4) haftaning olti kunida ishlab, shanba kunida xudoga sig‘inishni unutmaslik (zero, xudo dunyoni olti kun davomida yaratib, yettinchi kunida fatvo bergen va uni muqaddaslashtirgan);

5) ota-onani hurmat qilish;

6) odam o‘ldirmaslik;

7) zino qilmaslik;

8) o‘g‘rilik qilmaslik;

9) yaqin kishilarga yolg‘on guvohlik bermaslik;

10) yaqin kishilarning haqiga xiyonat qilmaslik.

Ahdnama shartlari yahudiylar uchun amal qiladi va boshqa xalqlar vakillari bilan munosabatlarda legitimlik kuchiga ega emas. Zero, «jongajon, qonga-qon» aqidasi bu muammoga ko‘proq oydinlik kiritishi ehtimoldan xoli emas.

Tavrotning «Chiqish» kitobida yakkaxudolik Moiseyning yahudiy-larni Misr qulligidan qutqorganidan keyin joriy qilinganligi to‘g‘risida hikoya qilingan. Tarixda yahudiylarning Misrda tutqunlikda bo‘lganligi qayd etilmagan. Rivoyatda aks ettirilgan hodisalar yahudiylarning Falastinni bosib olish uchun kurashi davri bo‘lsa kerak.

Iudaizmning muqaddas rivoyatlari Talmud (qadimgi yahudiy tilidagi *lameyd* so‘zidan olingan bo‘lib, o‘rganish, tahlil qilish degan ma’nolarni anglatadi) hisoblanadi. Diaspora davrida Tavrotning matnlariga sharhlardan tuzilgan. Miloddan avvalgi II—I asrlarda Talmud og‘zaki an’ana shaklida yoyila boshladi. Milodiy III—V asrlarda dastxat qilingan. Jinoiy va fuqaroviylarning munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar, axloq normalari, diniy aqidalar va qoidalarning sharhlari, oilaviy va shaxsiy hayot masalalari yuzasidan maslahatlardan tuzilgan.

Diniy aqidalarni tafsir qilish keyingi davrlarda ham davom ettirilgan. O‘rta asrlarda iudaizm o‘zining eski mazmunini saqlab qolgan holda biroz o‘zgargan. XI—XII asrlarda iudaizmda hukmronlik qilgan ravvinlar uning ko‘p tomonlarini qayta ishlab chiqqanlar. O‘rta asrning ko‘zga ko‘ringan faylasuflaridan biri bo‘lgan ravvin Maymond iudaizmning 13 ta asosiy aqidasini tuzib chiqqan. Ular quyidagilardan iborat: 1) olamni yaratuvchi xudo bor; 2) u bitta; 3) u jismsiz; 4) u ibtidosiz; 5) faqat xudoning bir o‘ziga sig‘inish kerak; 6) tabiiy sir – haqiqat; 7) Muso payg‘ambarlarning

eng ulug‘i; 8) tora (tavrot), ya’ni injilning bиринчи беш китоби Musoga xudo томонидан берилган; 9) Musoning qонунларини boshqa qонунлар bilan almashtirib bo‘lmaydi; 10) koinot xudoning irodasi bilan boshqariladi; 11) yaxshilarga yaxshilik, yomonlarga jazo bor; 12) Isroilga xaloskor keladi; 13) o‘lganning tirilishi haqiqat.

Maymond yozgan yuqoridagi aqidalar orqali iudaizmni yanada kuchaytirish, uning feodalizm manfaatlarini kuchliroq himoyachisiga aylantirish, dinni shakkoklik va kufrlardan himoya qilish, iudaizmni zamonaviylashtirishga urinish edi. Yangi aqidalarda iudaizmning xaloskorlik vazifasini kuchaytirish ham maqsad qilib olingan.

Sionizm Sion tog‘lari nomidan olingan. U qadim zamonda tuzilgan ahdnama to‘g‘risidagi tavrot rivoyatlari asosida ishlab chiqilgan iudaizm dinining zamonaviy ko‘rinishidir.

Sionizm paydo bo‘lgan vaqtidan boshlaboq iudaizmning yahudiy xalqi «xudoning arzandas» degan da’vosini bayroq qilib olgan. Sionizm o‘zaro bog‘langan ikkita maqsadni ishlab chiqib, ularni izchil amalga oshirib kelmoqda. Bu maqsadlar quyidagicha: 1) tarixiy sabablarga ko‘ra turli tomonlarga ketib, o’sha joylarda ko‘p asrlardan buyon yashayotgan yahudiylarni o‘z yurtlariga, ya’ni ajdodlarining Vataniga qaytarib kelish va Isroil davlatini Yer yuzidagi jannatga aylantirishga xizmat qildirish; 2) agar shaxs yahudiy millatiga mansub bo‘lsa-yu, ammo yashab turgan joyidan Isroilga ko‘chib kela olmasa, uni o’sha yerdan turib Isroilni iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va harbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shishga da’vat qilish.

Iudaizmda yahudiylarning kundalik turmushi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga katta e’tibor beriladi. Masalan, har bir dindor taom iste’mol qilish, jinsiy munosabatlar, jamoat joylari, ibodatxonalardagi xulq-atvor qoidalari va hokazolarni tartibga soladigan 365 ta taqiq va 248 ta buyruqlarni yoddan bilishi kerak.

Mazkur dinda diniy bayramlarga alohida e’tibor beriladi. Ularning asosiyлари quyidagilardan iborat: shabbat (shanbalik) – dam olish kuni va bunda har qanday ijtimoiy faoliyat taqiqlanadi; yom kippur (cheqlanish kuni) – bir kunlik ro‘za, tavba-tazarru qilish; pesax (pasxa) – bahorning boshlanishi bayrami va hokazolar.

Iudaizmda diniy tashkilot tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o‘zgarib borgan. Dastlab dindorlar jamoalariga kohinlar rahbarlik qilganlar. Diniy hayot Yaxve (Quddus) ibodatxonasida markazlashtirilgan. Diaspora davri boshlanganidan keyin diniy hayotda sinagoga – ravvin (ustoz) rahbarligidagi dindorlar jamoasi tuzilgan.

Hozirgi davrda iudaizm Isroil davlatida asosiy din bo‘lsa-da, davlat dini maqomiga ega emas. Shunga qaramasdan, u davlatning madadiga tayanadi. Uning ijtimoiy hayotga ta’siri juda kuchli. Diniy jamoalar rahbarlari ravvinlar davlat xizmatchisi maqomiga ega. Ravvinlar fuqarolik holatini rasmiylashtiradilar. Qurolli kuchlarda tarbiyaviy ishlarni olib boradilar, diniy marosimlarga rahbarlik qiladilar.

Iudaizm diniy jamoalari Isroildan tashqari jahonning juda ko‘p davlatlarida faoliyat olib boradi. Jumladan, O‘zbekistonda ham rasmiy diniy konfessiya sifatida tan olingan.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, Iudaizm yakkaxudolikka asoslangan eng qadimgi dinlardan biri, rivojlangan diniy marosimga ega, xalqning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qiluvchi milliy dindir. Asrlar davomida takomillashtirib kelgan mazkur diniy ta’limot va marosimlar tizimi jahon dini maqomida xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etib kelayotgan xristianlik va islom aqidalarining shakllanishga beqiyos hissa qo‘shgan.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Diniy tizimlarning yuzaga kelishi sabablari nimalardan iborat?
2. Diniy tizimlarga xos qanday xususiyatlarni bilasiz?
3. Qadimgi Mesopotamiya diniy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Qadimgi Shumer xudolariga sig‘inish qachon paydo bo‘lgan?
5. Qadimgi Mesopotamiya diniy ta’limoti va marosimlari nimalarda aks etgan?
6. Qadimgi Misrda fir’avnlar nima sababdan xudo sifatida ulug‘langan?
7. Qadimgi Misrning diniy marosimlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
8. Yakkaxudolik to‘g‘risidagi g‘oya dastlab qayerda yuzaga kelgan?
9. Qadimgi Misrda nega odam o‘lganidan keyin mumiyolangan?
10. G‘arbiy Yevropa madaniyatining rivojlanishiga qaysi qadimgi din katta hissa qo‘shgan?
11. Qadimgi Gretsiya diniga xos bo‘lgan xususiyatlar nimalardan iborat?

4-mavzu
ZARDUSHTIYLIK DINI

**Zardushtiylikning kelib chiqishi sabablari
va muqaddas bitigi**

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Markaziy Osiyoda qabilaviy ittifoqlar va boshqaruvi urug‘-aymoqchilik munosabatlariga asoslangan Xorazm va Baqtriya qadimgi davlat birlashmalari yuzaga kelgan. Bu mamlakatlar mintaqada uzoq vaqt davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning hosilasi bo‘lgan. Ular ta’sirida jamiyatda tutgan o‘rni, imkoniyatlari va ahamiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladigan guruhlar, tabaqalar va sinflar yuzaga kelgan. Davlat esa mavjud ijtimoiy munosabatlarni himoya qiluvchi siyosiy tashkilot vazifasini bajargan.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergen o‘zgarishlar talablariga ibtidoiy madaniyat, shu jumladan diniy e’tiqod ham mos kelmagan. Shu bois, mavjud diniy e’tiqodni yangi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy munosabatlarga moslashtirish zarur edi. Zardushtiylik esa mazkur talablarga mos diniy ta’limot va o‘ziga xos dunyoqarash sifatida yuzaga kelgan.

Zardushtiylikning yuzaga kelishi sabablari quyidagilardan iborat:

- jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, sinflar va davlatning yuzaga kelishi natijasida eski munosabatlarni aks ettiruvchi ibtidoiy din shakllarning yangi davr talablariga mos kelmay qolishi;

- tabiat kuchlari, mavjudotlar va ruhlarni muqaddaslashtiruvchi, vazifalari noaniq g‘ayritabiyy kuchlarni ifodalaydigan urug‘-qabilaviy din, o‘z qiyofasiga ega, ishlab chiqarish sohalariga homiylik qiladigan, kuch va imkoniyatlariga ko‘ra guruhlashgan qudratli xudolar bilan almashtirish zarurati;

- ma’naviy tajribani umumlashtirish va ularga ilohiy tus berish bilan jamiyat va davlatni yanada mustahkamlash ehtiyoji.

Zardushtiylikning qayerda vujudga kelganligi masalasida mutaxassislar turlicha ma’lumot beradilar. G‘arb (Yevropa va Shimoliy Amerika) mutaxassislarining aksariyat qismi zardushtiylikning Eronda yuzaga kelganligi e’tirof etadilar. Sharqda ham ushbu masalada munozaralar davom etayotgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik mutaxassislarining fikriga ko‘ra, zardushtiylik Xorazm yoki Baqtriya da yuzaga kelgan. Sobiq Ittifoq parchalanib ketganidan keyin Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi bilan bu masaladagi bahslar yanada kuchaydi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, tarixiy diniy va boshqa manbalar zardushtiylikning Xorazm vohasida yuzaga kelganligini ko‘rsatadi. Avestoda: «Birinchi muqaddas olov – Atarxurra Eran-vej (ba’zi manbalarda Ayrian vedja)da yoqildi deyiladi³. Mazkur hudud geografik va iqlimiyl tavsifiga ko‘ra Xorazmga to‘g‘ri keladi.

Zardushtiylikka taxminan 2700 yil oldin Xorazmda yashagan tarixiy shaxs Zardusht Sepitoma asos solgan. Zardusht ilohiyotshunos, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim va mutafakkir sifatida jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan qabilaviy diniy e’tiqodlarning o‘rniga, elatlarni birlashtiruvchi, yakkaxudolik belgilariga ega, yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga mos diniy tizimning asosini ishlab chiqqan. O‘zining diniy qarashlarini oddiy mehnat ahliga tushunarli tilda yozilgan «Gotlar» she’riy to‘plamida bayon qilgan. Mazkur to‘plam keyinchalik zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»ning «Yosin» deb atalgan qismiga kiritilgan.

«Zardusht» so‘zi qadimgi fors tilida *ushtra* – tuya, zarat – sariq, ya’ni keksa tuyachi, tuyachilar avlodи degan ma’nolarni anglatadi. Qadimgi Grek manbalarida mutafakkir zoroastr (grekcha *actron* – yulduz degan ma’noni anglatadi), ya’ni donishmand munajjim deb yuritiladi.

«Zardushtiylik» atamasi mazkur dinga nisbatan O‘rta asrlardan boshlab qo‘llanilgan. Zero, Zardushtning diniy ta’limotni ishlab chiqishdagi beqiyos xizmatlari inobatga olingan bo‘lsa kerak. Bungacha u Mazda Yasna, ya’ni mutlaq oqil zotga sig‘inish deb atalgan⁴.

Diniy rivoyatlarga ko‘ra, Zardusht odamlarni yangi dinga da’vat qilish faoliyatini boshlashdan oldin ibodatxonada kohinlik xizmatini bajargan va qirq yoshida ilohiy haqiqatga erishgan. Zardusht kunlarning birida (erta tong pallasida) muqaddas ichimlik «haoma» (hushyorlik, tiyraklik baxshida etuvchi muqaddas ichimlik)ni tayyorlash maqsadida daryodan suv olish uchun kelgan. Bu yerda unga unga porloq xilqat – Vaxumana ko‘ringan. Vaxumanadan taralib turgan nurdan Zardusht soya tashlamagan. Porloq xilqat uni ortidan ergashtirib, xudo Ahura Mazdaning (Avestoda Ahuro Mazdoh – qadimgi fors tilidan so‘zma-so‘z tarjimasi – oqil, donishmand xudo degan ma’noni anglatadi) oldiga olib borgan. Ahura Mazda uni odamlarga ilohiy haqiqatni yetkazishi uchun tanlaganini ma’lum qilgan. Shu vaqtan u xudo Ahura Mazda hikmatlarini yoyuvchi vakil, ya’ni payg‘ambarlik (ezgulik haqida darak beruvchi kishi)

³ Қаранг: Йўлдошхўжаев Ҷ. ва бошк. Диншунослик: Маърузалар матни. – Т., 2000. – Б. 38.

⁴ Авесто: Яшт китоби / М. Ичоқов таржимаси. – Т., 2001. – Б. 36.

faoliyatini boshlagan⁵. Lekin avvalida Zardushtning da'vatkorlik faoliyati muvaffaqiyatsiz chiqqan. O'z yurtida muvaffaqiyatsizlikka uchragan Zardusht maqsadiga erishish uchun vatanini tark etishga majbur bo'lgan. Qo'shni Baqtriya davlatida Zardushtga omad kulib boqqan. Baqtriya malikasi Xutosa va Shoh Vishtaspa zardushtiylikni qabul qilganlar. U Baqtrianing davlat dini sifatida tan olingan.

Zardushtiylikning Sharq mamlakatlarida keng yoyilishi Ahmoniyalar imperiyasi davriga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi VI asrda Ahmoniyalar shohi Kambiz zardushtiylikni davlat dini deb e'lon qilgan. Bu voqeа mazkur dinning butun imperiya hududiga yoyilishiga shart-sharoit yaratgan. Diniy ta'limot yanada rivojlantirgan. Diniy marosim va urf-odatlarni ishlab chiqish jarayoni yakunlangan.

Zardushtiylik ta'limoti asoslari muqaddas Avesto (qadimgi fors tilida – o'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar degan ma'nolarni anglatadi) to'plamida bayon qilingan. Avesto matnini to'plash ishlari taxminan 2700 yil oldin boshlangan. To'plamning matni dastlab midiya, baqtriya, so'g'diyona tillarida yozilganligi taxmin qilinmoqda. Miloddan avvalgi IV asrda to'plamni tuzish ishlari yakunlangan, lekin matniga qo'shimchalar kiritish asrlar osha davom etgan. Shu bois Avesto biz uchun o'ziga xos yilnomasi vazifasini o'taydi.

Bizgacha yetib kelgan Avesto matnlarining eng qadimgi qo'lyozmalarini milodiy III–IV asrlarda dastxat qilingan. Shuningdek, Eron va Hindistonda hozirgi zardushtiylar jamoalarida qo'llaniladigan muqaddas to'plamning matnlaridan ham foydalanilgan. Zardushtiylikka e'tiqod qiladigan har qaysi elat yoki millat Avestoga qo'shimchalar kiritganlari sababli matnlarda tafovutlar bo'lishi mumkin. Yevropa olimlari tarjima qilgan muqaddas to'plamning nusxalari asosan Hindistondagi zardushtiylar jamoalarida saqlanib qolgan nusxalaridir.

Tarixiy manbalarda qayd etilishiga ko'ra, Ahmoniyalar imperiyasini va Markaziy Osiyoning bir qismini bosib olgan makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn (miloddan avvalgi 334–327 yillar) 12 ming buqa terisiga yozilgan Avestoning nodir nusxasini qo'lga kiritgan. Matnlar Iskandarda katta qiziqish uyg'otgan. Shu bois uning bir qismini grek tiliga tarjima qildirgan. Tarjima qilinmagan matnning katta qismi esa yo'q qilingan. Lekin Avesto matnining keng ko'lamda yo'q qilinishi islomning yoyilishi davridan boshlangan.

⁵ Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. – Т., 1994. – Б. 105.

Avesto 21 qism (nask)dan iborat to‘plam bo‘lib, bizga qadar uning to‘rtta qismi yetib kelgan: «Vandidot», «Yasna», «Visprat», «Yasht» nasklari1.

Yasna naski xudolarga hamdu sano, munojot va qurbanlik qilish duolaridan tuzilgan. Uning matni 72 bobga bo‘lingan bo‘lib, bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Zardushtning she’riy uslubda yozgan xatnomalar (got)lari 17 bob hajmda shu qismga kiritilgan.

Yashtlar naski – zardushtiylarning xudolarini madh etuvchi qo‘sish. Ahura Mazda yaratgan ma’bud va ma’budalar (Avestoda yazatlar deb yuritiladi) sha’niga o‘qiladigan duo va alqov she’rlaridan tuzilgan. Nask 22 bobdan iborat bo‘lib, shundan 10 tasi saqlanib qolgan.

Visporad naski (barcha boblar degan ma’noni anglatadi) yashtlarga qo‘sishimcha tarzda yozilgan bo‘lib, 25 bobdan iborat. Uning qismlari bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Visporad namoz vaqtida o‘qiladigan oyat va suralardan, olamni bilishga oid pand-nasihatlardan tuzilgan.

Vandidot (viydaivadota so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lib, devlarga qarshi qonun degan ma’noni anglatadi) 22 bobdan iborat bo‘lib, ular bizgacha to‘liq yetib kelgan. Vandidot asosan devlarni mahv etishga mo‘ljallangan duolar, poklanish tartibi, Ahura Mazda va Zardushtning savol-javoblaridan tuzilgan.

Avesto matnining hajmi juda katta bo‘lib, dindorlarga tushunish juda qiyinligi sababli, diniy ta’limotning asosiy g‘oyalarini qisqa va sodda tilda bayon qiluvchi kitobga ehtiyoj tug‘ilgan. Tarixiy zarurat natijasida dindorlar kundalik ibodatlarda foydalanadigan duolar va boshqa asosiy diniy marosimlardan tuzilgan «Xurda Avesto» («Kichik Avesto») to‘plami yaratilgan. Unda bizgacha yetib kelmagan nasklarning matnlari ham mavjud.

Avestoda O‘rta Sharq davlatlarining miloddan avvalgi II ming yillikning boshlaridan milodiy I ming yillikning o‘rtalarigacha va undan keyingi tarixiy davrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud. Matnga qadimgi davrning xalq og‘zaki ijodi namunalari (afsonalar, rivoyatlar, ertaklar va matallar) kiritilgan. Unda ma’bud va ma’budalarning vazifalari, o‘zaro kurashlari va taqdirlari aks ettirilgan.

Muqaddas Avesto diniy va ilmiy ahamiyatga ega yozma manbadir. Unda zardushtiylik qabul qilingan qadimgi davlatlarning iqlimi, geografik o‘rni, xo‘jaligi, ularda yashagan qabilalar va elatlarning urf-odatlari, an’analari, o‘zaro aloqalari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zardushtiylik ishlab chiqarishning rivojlanishi, mulkiy tengsizlik, sinflar va davlat bilan bog‘liq yangi

iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni aks ettiruvchi diniy ta'limot vazifasini bajargan. Uning yuzaga kelishida Zardushtning xizmati katta bo‘lgan va diniy ta'limotida adolat, axloq, mas’uliyat, mustaqil fikrga hurmat, soflik kabi qadriyatlar ustuvorligi sababli u katta hududga yoyilgan, asrlar osha odamlar ongida saqlanib qolgan.

Mustaqillik yillarida mazkur bitikning ahamiyatiga munosib baho berildi. Avestoning 2700 yilligiga bag‘ishlab xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazildi. Ommaviy axborot vositalarida qator ilmiy va ilmiy ommabop maqolalar chop etildi, turkum ko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar tayyorlandi.

Zardushtiylik ta'limoti va marosimlari

Zardushtiylik ta'limotiga binoan, borliq yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim, adolat vaadolatsizliklar kabi qarama-qarshiliklardan tashkil topgan. Bu qarama-qarshiliklar tabiat va jamiyatda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Tabiatda ular hayot va o‘lim, issiqlik va sovuqlik, yorug‘lik va zulmat kuchlarini ifoda etadi. Ijtimoiy hayotda ular adolat vaadolatsizlik, qonunga itoatkorlik va qonunlarga bo‘ysunmaslik singari ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Qarama-qarshiliklar voqeа va hodisalarning manbaidir. Yaxshilik va yomonlik, issiqlik va sovuqlik kabi kuchlar o‘rtasida to‘xtovsiz kurash boradi. Bu kurash xudolar darajasida ham mavjud. Donishmand xudo Ahura Mazda – ezgulik va yaxshilik timsoli. Ahura Mazzani Avestoda yigirma sifatga ega iloh deb ta’riflanadi. Bu Ahura Mazzanining go‘zal ismlaridir.

Ahura Mazda borliqni yaratuvchi va hamma narsani biladigan oliy xudodir. U o‘zini yaxshi ishi va yaxshi so‘zлari bilan namoyon qiladi. Ahura Mazda odamlarga yomonlik qilmaydi, ularni faqat ezgu ishlarga da’vat etadi. Zardushtning talqinida Ahura Mazda oliy ibtido bo‘lib, uning turmushi odamlarnikidan farq qiladi. Uni hech kim yaratmagan, oilasi yo‘q, dunyodagi barcha voqeа-hodisalardan xabardor, ular Ahura Mazzanining xohishi bilan sodir bo‘ladi.

Ahura Mazzaga dunyodagi barcha yomonliklarning timsoli – Axriman (yovuz ruh) qarshi turadi. Ahura Mazda Axriman (Anxra Maynyu)ni odamlarning ibrat olishlari uchun o‘z jismidan yaratgan. Shu bois u Ahura Mazzaga qarshi turadi, dunyoda yomonlik, zulm va zulmatning yaxshilik va yorug‘lik ustidan g‘alaba qilishi uchun kurashadi. Donishmand xudo dunyo va undagi hayotni, yorug‘likni, umuman, barcha ijobiy voqeliklarni

yaratgan bo‘lsa, yovuz ruh o‘lim, zulmat, sovuqlik va odamlarga ziyon-zahmat yetkazuvchi jonzodlarni yaratgan.

Ezgulik ilohi Ahura Mazda va yovuzlik ruhi Axriman o‘rtasidagi kurash faqat ularning o‘zlariga xos emas. Bu kurashda ularning yordamchilari ham ishtirok etadi. Ahura Mazda avvalo olti nafar eng yaqin yordamchilariga tayanadi. Jumladan, Voxu Manah (ezgu fikr) poda va chorvani, Asha Vahishita (yuksak haqiqat) olovni, Hashatra Varya (munosib qudrat, hokimiyat) ma’danlarni, Sienta Armati (muqaddas itoat) yerni, Ameretat (mangulik) o‘simpliklar dunyosini boshqargan. Shuningdek, u o‘ziga yo‘ldosh ilohlarni yaratgan. Ular Mitra, Anahita, Saroshi (itoatkorlik, intizom), Ashi (taqdirni belgilovchi xudo) va boshqalardan iborat bo‘lib, Ahura Mazdaning yovuzlikka qarshi kurashida unga yordam bergen. Ahura Mazda yaratgan xudolarning ayrimlari keyinchalik diniy tizimda katta nufuzga ega bo‘lgan. Masalan, Mitra (quyosh xudosi) odamlarning himoyachisi sifatida Eronda Ahura Mazdaning o‘rnini egallagan. U zardushtiylikdan tashqari boshqa dinlarda ham qabul qilingan. Masalan, Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimda Mitra keng tarqalgan.

Yovuz ruh Axriman ham Ahura Mazdaga qarshi kurashda yolg‘iz emas. Unga yovuz ruhlar (devlar), sehrgarlar, yomon hukmdorlar yordam beradi. Ular tabiatning to‘rt unsuri – olov, yer, suv, va osmon (havo)ga zarrar yetkazadilar. Yovuz hukmdorlar birovni ko‘rolmaslik, yalqovlik, yolg‘on, nifoq singari boshqa illatlarni jamiyatda mustahkamlashga, kishilarga tarqatishga intiladi.

Zardushtiylik ta’limotida axloqqa katta e’tibor beriladi, kishining ma’naviy barkamolligi qadrlanadi, odamlarni imon-e’tiqodli bo‘lishga da’vat etiladi. Faqat imonli odam ezgulikni yovuzlikdan farqlay oladi. Zardushtiylik imoni fikrlarning sofligi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligiga asoslanadi.

Odamlar tozalikka va tartib-intizomga qat’iy rioya qilishlari kerak. Kishilardagi mehr-shafqat, ota-on, oila va Vatanga muhabbat, minnatdorlik his-tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Ota-onadan farzand oldidagi burchini bajarishlari talab qilinadi. Bitta dinga e’tiqod qiladigan odamlar bir-birlariga yordam berishlari, hamjihatlikda va ahillikda yashashlari lozim. Ahura Mazda odamlarni mehnatni sevish, yerga ishlov berish va chorvani ko‘paytirishga da’vat etadi. Dunyoda moddiy boyliklarning ko‘payishi zulm va yovuzlikning yo‘qolishiga xizmat qiladi.

Zardushtiylik ta’limotida ma’naviy qadriyatlarni jamiyatda qaror toptirish muammosi alohida ahamiyatga ega. Din kishilarni halol

yashashga da'vat etsa-da, o'z hayot yo'llarini erkin tanlashlariga to'sqinlik qilmaydi. Odamlar axloqiy tanlov erkinligiga ega. Xudolar darajasida yaxshilik va yomonlik tarafдорлари о'rtasidagi kurashning natijasiga odamlarning qaysi tarafni tanlashlari ham ta'sir etadi. Zardushtiylikda insonlar xudolar o'rtasidagi kurashning ojiz kuzatuvchisi emas, balki bu jarayonning muhim ishtirokchilari bo'ladi. Har bir kishi hayot yo'lini mustaqil tanlaydi va axloqiy tanlovi uchun narigi dunyoda va oxiratda shaxsan javobgar bo'ladi. Odam hayot yo'lini erkin tanlasa-da, uning taqdiri azaldan belgilangan.

Diniy aqidalarda g'ayridinlar va ularni ta'qib qilish yoki qilmaslik to'g'risida ham hech nima deyilmagan. Diniy e'tiqodi turlicha bo'lgan odamlarning tinch-totuv yashashlari rag'batlantirilgan. Jamiyatda diniy murosa va hamkorlik hukmronlik qilgan.

Diniy ta'limotda dunyoning tuzilishi to'g'risidagi qarashlar katta ahamiyatga ega. Insoniyat tarixi 12 ming yildan iborat va to'rt bosqichga bo'linadi. Ularning har biri 3 ming yil davom etgan.

Birinchi bosqichda ruh, g'oya va narsalar bo'lмаган. Asta-sekin ibtidoiy bo'shiqdan keyinchalik yerda yuzaga kelgan narsa va hodisalarning dastlabki belgilari shakllangan.

Ikkinci bosqichda Donishmand xudo (Ahura Mazda) osmon, yulduz, oy, quyosh, tabiat, Odam Ato (Yima) va birinchi muqaddas buqa (Geush urvan) kabilarni yaratgan. Yima (Firdavsiyning «Shohnoma» dostonida Jamshid deb atalgan) xudo Ahura Mazdani ilk bora tan olgan kishi. Yima insoniyatning ajdodi bo'lib, barcha odamlar undan tarqalgan. Muqaddas buqadan hayvonot dunyosi vujudga kelgan. Aximan ham Ahura Mazdaga qarama-qarshi koinotda planetalar va kometalarni, yerda cho'llar, vahshiy hayvonlar, kasallik qo'zg'atuvchi jonzodlarni yaratgan. Qarama-qarshiliklarning koinotdagi va yerdagi to'qnashuvidan butun borliq harakatga kelgan.

Uchinchi bosqichda Avestoda qayd etilgan personajlarning faoliyati boshlangan. Yima odamlar va chorvani olamning suv bosishi falokatidan qutqargan hamda Ahura Mazda yordamida odamlarga rahbarlik qilgan. Dunyoda yaxshilikning tantanasiga xizmat qilgan. Yima podsholigida odamlar sharaf uyi (jannat)da yomonlik,adolatsizlik,yovuzlik,kasallik va o'limning nima ekanligini bilmay, baxtli hayot kechirganlar. Shu bois Yimaning hukmronlik davri Avestoda «oltin asr» deb ataladi. Yima davrida odamlar yer haydab, dehqonchilik qilganlar va chorva urchitganlar.

Vaqt o‘tishi bilan Yima odamlarga ko‘rsatgan yaxshiliklaridan g‘ururlanib, manmanlik, o‘zgalar dardiga befarqlik yo‘liga kirgan. Mansabparastlik va o‘z imkoniyatlariga ortiqcha baho berishi oqibatida Ahura Mazdaning nasihatlarini bajarmay qo‘ygan. Oqil xudo man etgan muqaddas buqani ov qilib, uning go‘shtidan taom tayyorlashni buyurgan. Manmanlik, o‘zboshimchalik va man etilgan ishlarni sodir etganligi uchun Ahura Mazda Yima va uning avlodlarini jazolangan. Odamlar jannatdan chiqarilgan, tirikchilik tashvishlari, yeb-ichish zarurati, kasalliklarga duchor etilganlar, boqiylik imtiyozidan mahrum qilinganlar. Uchinchi bosqichning oxirlarida Zardushtning faoliyati boshlangan va Zardushtning vafotidan keyin uchinchi bosqich tugagan.

To‘rtinchi bosqichning har ming yilda dunyoga uchta xaloskor (payg‘ambar) keladi. Ularning oxirgisi – Oso‘shyant oxiratda dunyoga kelib, barcha imonlilarning ruhlarini bihishtga yetaklaydi, gunohkor bandalar uchun xudo Axura Mazzadan mag‘firat so‘raydi. Oxiratda yovuz ruh yengilib, yaxshilik yomonlikning ustidan uzil-kesil g‘alaba qiladi. Dunyo eritilgan temir bilan soflanib qayta quriladi. Yerdagi hayot tubdan o‘zgaradi. Yaxshilik tantana qiladi, yomonlik va o‘lim yo‘qoladi. Gunohkorlar o‘zlarining sodir etgan yomonliklari uchun pushaymon bo‘lib, xudodan kechirim so‘raydilar. Yangilangan dunyoda yomonlik yo‘q qilinganligi sababli gunohkorlar kechiriladi, abadiy rohat-farog‘at jamiyati barpo etiladi.

Oxiratda ziddiyatlarga to‘la olam yo‘q qilinsa ham odamlar undan qo‘rqmasliklari kerak. Zero, oxiratda kishilarning azaliy orzu-istagi hisoblanuvchi baxt,adolat, tinchlik va tenglikka asoslangan jamiyat quriladi. Dunyo tamoman o‘zgaradi va undan yomonliklar butunlay yo‘qoladi.

Zardushtiylik ta’limotida hayot va o‘limga munosabat to‘g‘risidagi qarashlar ta’sirida o‘ziga xos ko‘mish marosimi vujudga kelgan. Diniy aqidalarda qayd etilishiga ko‘ra, odamning vafot etishi yovuz kuchlarning ezgulikdan ustun kelganligi oqibatidir. Shu bois tanani yovuzlikdan xalos qilish kerak. Yomonliklарtan tananing chirishi jarayonida yo‘qoladi. Yomonliklardan xalos bo‘lmagan tanani muqaddas tabiat unsurlari sanaluvchi yerga, olovga va suvgaga tashlash mumkin emas. Marhumni so‘nggi manziliga qo‘yishdan oldin soflanish (ko‘mish) marosimi o‘tkazilgan. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, odam vafot etganidan to‘rt kun o‘tgach uning ruhi tanani tark etib, yosh ayol qiyofasidagi farishtaning kuzatuvida narigi dunyoga o‘tadi. Ko‘mish marosimi ham shuncha vaqt o‘tganidan keyin bajarilgan. Marhumning jasadi erta tongda quyosh

chiqmasdan oldin temir zambilga ortilib kohin va yaqin qarindoshlarining kuzatuvida Indamaslar minorasi deb ataladigan mozorga olib borilgan. Indamaslar minorasi uncha katta bo‘lmagan bino bo‘lib, balandligi 4,5 metrni tashkil etgan. Binoning poli marhumni ko‘mish maydoni vazifasini bajargan. Maydon yosh bolalar, ayollar va erkaklarning jasadi qo‘yiladigan qismlardan iborat bo‘lgan. Marhumning jasadi ma’lum muddatga shu yerga qo‘yilgan. Jasadning soflanishi (chirishi) jarayonini tezlashtirish maqsadida yirtqich hayvonlar (asosan itlar)dan foydalanilgan. Yirtqich hayvonlar jasadni g‘ajib bo‘lganidan keyin qolgan suyaklar yig‘ib olinib, minoraning o‘rtasida qurilgan quduqqa tashlangan yoki sopol idish (assuariy)ga solinib, nauslar deb ataladigan yer ostida qurilgan inshoatlarga ko‘milgan.

Zardushtiylikda tabiat unsurlari tuproq, suv, havo va olov muqaddas daslashtirilgan. Ularni ifloslantirish kechirilmaydigan gunoh sanalgan. Muqaddas tabiat unsurlari qatorida olov alohida o‘ringa ega. Ahura Mazdaning ramziy belgisi ham olov bo‘lgan. Shu bois zardushtiylar ba’zan otashparastlar deb atalgan.

Zardushtiylar ibodatxonalarida muqaddas olov yonib turgan. Ibotatxonada muqaddas olov uchun ikki metr balandlikdagi, to‘rt pog‘onali supa qurilgan. Olov supaning markazida misdan quyilgan o‘choqda yoqilar edi. Supadagi olov doimo yonib turishini kohinlar nazorat qilib turgan. Kohin oq matodan tikilgan ko‘ylak, bosh kiyim, buruni va og‘zini yopib turadigan niqob taqib (hozirgi jarroh shifokorlarning muolaja vaqtida kiyadigan kiyimiga o‘xhash) olovning oldiga yaqinlashishi mumkin edi. Ibodatxonaga sig‘inishga kelgan dindorlar muqaddas olovni ko‘rish imkoniyatiga ega emas edi. Ular muqaddas olovning aksini yoki shu’lasini ko‘rishi mumkin bo‘lgan. Muqaddas olov avvalo shahar ibodatxonalariga, ulardan qishloq ibodatxonalariga va undan keyin dindorlarga berilgan. Ibodatxonalardagi olovlar ahamiyati jihatidan farq qilgan. Har qaysi hukmdor o‘zining oloviga ega bo‘lgan.

Muqaddas olovning juda ko‘p turlari bo‘lib, Erondaadolat ilohi Varaxram (Bahrom)ning olovi alohida ulug‘langan. Bu olov jamiyatning turli tabaqalari vakillarining o‘chog‘i va boshqa manbalar (o‘n olti olovdan)dan to‘plangan. Olovning eng qadrlisi yashin tegib yongan daraxtdan olingani hisoblangan.

Tabiat unsurlari qatorida olov bilan birga suvgaga katta e’tibor berilgan. Suvning hayot manbai ekanligi aholisi asosan sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi mintaqamiz uchun alohida ahamiyat va mazmunga ega edi. Shu bois suvni e’zozlash va undan

tejamkorlik bilan foydalanishga ilohiy tus berilgan. Suvni ifloslantirish, ya’ni unga turli (notoza) narsalarni tashlash, behudaga isrof qilish og‘ir gunoh sanalgan. Yomg‘ir yog‘ayotgan vaqtda odamlarning yerni va suvni iflos qilmasliklari uchun hatto uydan tashqariga chiqishlari taqiqlangan.

Zardushtiylikda o‘ziga xos ibodat qilish marosimi shakllangan. Dindorlar Ahura Mazdaga bir kunda besh marta sig‘inganlar. Ibodat janub tomonga qarab, toza joyda va yomon yerlardan yiroqda bajarilgan. Zardushtiylar erta tongda, uydan chiqish va kirish vaqtida, soflanish, kechki uyqudan oldin hamda diniy marosimlarni bajarish vaqtlarida ibodat qilganlar.

Zardushtiylikda tozalikka e’tibor diniy aqida darajasiga ko‘tarilgan. Tozalik ham jismoniy, ham ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Ma’naviy tozalik kishining ichki madaniyati,adolat, haqiqatni so‘zlash, insonparvarlik, mehr-shafqatlilik singari umuminsoniy axloq normalaridan iborat. Jismoniy tozalik deganda pokiza, toza va orasta yashash bilan birga, muqaddas narsalarni ham ifloslantirmaslik tushunilgan. Notoza (yovuzlik timsoli) deb qabul qilingan o’simliklar, hayvonlar va hasharotlarga, o‘lgan odamning mayyitiga tegishish gunoh hisoblangan. Bunga yo‘l qo‘ygan kishi murakkab soflanish marosimidan o‘tkazilgan. Notoza ishlarni bajaradigan kishilar jamiyatda eng past tabaqani tashkil etganlar. Ular o‘lgan odamning mayyitini yuvish, tobutni qabrga ko‘tarib borish kabi «notoza» ishlarni bajarganlar. Mazkur tabaqa vakillari boshqa guruhlardan alohida yashaganlar. Ularning jamoat foydalanadigan suv manbalariga yaqin kelishlari va hatto soyalari tushishiga ham yo‘l qo‘yilmagan.

Zarushtiylar jonzodlarni ham notoza va toza turlarga ajratganlar. Notoza deb qabul qilingan hayvonlarga yaqinlashgan kishi soflanish marosimidan o‘tkazilgan. Toza hayvonlardan xo‘jalikda foydalanilgan. Qoni oqizib yuborilgan toza hayvonlarning go‘shti iste’mol qilingan.

Jamiyatda tabaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy ijtimoiy va huquqiy tengsizlikka qaramasdan xotin-qizlar uning to‘la huquqli a’zosi hisoblangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishiga ko‘ra, xotin-qizlar erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega va oilada o‘z mulkini erining xohishidan qat’i nazar mustaqil meros sifatida qoldirishi mumkin bo‘lgan. Zardushtiylik ayollarning erkaklar bilan teng huquqligini mustahkamlagan.

Zardushtiylikka e’tiqod qiluvchilar juda ko‘p diniy marosimlarni bajarishgan. Diniy marosimlarga esa kohinlar rahbarlik qilgan. Marosimlarning ko‘pligi kohinlarning moddiy jihatdan muhtojlikni bilmay yashashlariga imkon bergen. Kohinlarning jamiyatdagi mavqeい juda baland

bo‘lib, ular alohida tabaqani tashkil etgan. Shuning uchun kohinlik otadan farzandga meros bo‘lib o‘tgan. Kohin o‘z farzandini yoshligidan bo‘lg‘usi kasbga tayyorlab borsa-da, nomzod uzoq vaqt o‘qitilgan va bir necha bosqichdagi sinovlar hamda poklanish marosimlaridan o‘tkazilgan. Faqat ko‘p bosqichli sinovlardan muvaffaqiyat bilan o‘tgan kasbga da’vogarlarga kohinlik martabasiga muyassar bo‘lgan.

Diniy marosimlar ibodatxonalar, ochiq maydonlar va dindorlarning uylarida o‘tkazilgan. Zardushtiylik vujudga kelgan dastlabki davrlarda ommaviy diniy marosimlar ochiq maydonlarda va dindorlarning uylarida o‘tkazilgan. Dastlab ibodatxonalarning qurilishi Ahmoniyalar imperiyasi davridan boshlangan. Ibodatxonalar «olov uylari» deb atalgan. Ularning rejasи bir xil bo‘lib, tosh yoki paxsadan qurilgan. Binoning ichki va tashqi qismidagi devorlari suvoqlangan. Binolarda qimmatbaho bezaklarning yo‘qligi sababli ko‘rinishi boshqa jamoat binolaridan deyarli farqlanmagan. Ibodatxonaning markazida doimo olov yonib turadigan hujra bo‘lgan.

Ahmoniyalar davrigacha zardushtiylikda xudolarning tasviri aks ettirilmagan. Aynan shu vaqtdan boshlab xudo Ahura Mazdaning qiyofasi Ossuriya davlatining bosh xudosi ko‘rinishida tasvirlangan. Ibodatxonalarda Ahura Mazzadan tashqari boshqa xudolar va hukmdorlarning haykallari qo‘yilgan. Ahmoniyalar podshosi Artakserks II (miloddan avvalgi 404–359) hukmronligi davrida suv va hosildorlik ma’budasi Anaxitaga bag‘ishlangan ibodatxonalar qurilgan va ularga ma’buda haykallari joylashtirilgan.

Zardushtiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan uzoq davom etgan raqobatlarga bardosh bergen. Bu borada muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa-da, boshqa diniy e’tiqodlarni mintaqadan to‘liq siqib chiqarib, o‘z hukmronligini o‘rnatishga intilmagan. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasining pastligi, viloyatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan biqiqligi bunga imkon bermagan. Odamlar yangi dinni qabul qilish bilan birga o‘zlarining an‘anaviy e’tiqodini ham saqlab qolganlar. Muayyan mintaqada zardushtiylik keng tarqalgan bo‘lsa-da, boshqa diniy e’tiqodlar ham saqlanib qolgan.

Diniy e’tiqoddagi xilma-xillik hukmdorlarning muayyan dinni tanlashdagi erkinliklarida ham kuzatilgan. Makedoniyalik Iskandar va uning vorislari mintaqamizda Olimpiya xudolariga sig‘inishni qo‘llagan bo‘lsalar, Kushon davlati hukmdorlari buddaviylikni qabul qilib, uni mamlakat hududida keng yoyishga harakat qilganlar. Sosoniylar davlati hukmdorlari zardushtiylikni har taraflama qo‘llab quvvatlaganlar. Butun mamlakat hududida ko‘plab olov uylari qurilgan. Milodiy VIII asrning

boshlarida Markaziy Osiyoning bir qismini bosib olgan Arab xalifaligi davlati islomlashtirish siyosatini olib borgan. Islomdan tashqari barcha diniy e'tiqodlar taqiqlangan. Zardushtiyalar ibodatxonalari buzib tashlangan yoki masjidlarga aylantirilgan. Zardushtiylik e'tiqodini saqlab qolganlar «kofirlar» deb e'lon qilingan. Ularning fuqaroviylar huquq va erkinliklari cheklangan, maxsus soliq olingan va majburiyatlari talab qilingan.

Zardushtiylik islom siquvida katta talafot ko'rsa-da, yo'qolib ketmagan. Zardushtiylikka sodiq dindorlar jamoalari yashash uchun noqulay joylar (dasht va cho'llar)ga, boshqa mamlakatlarga ko'chirilgan. Eronda hozir ham unga sig'inadigan urug'lar mavjud. Minglab zardushtiyalar Hindistonga ko'chib o'tganlar. Hindistonlik zardushtiyalar forslar deb atalgan. Vaqt o'tishi bilan ular mahalliy aholi bilan qo'shilib ketganlar. Faqat kohinlar diniy e'tiqodlariga sodiqlikni saqlab qolganlar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zardushtiylik nafaqat jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga, balki Sharq davlatlarida axloqiy qadriyatlarni keng yoyishga xizmat qilgan. Odamlarning ma'naviy qadriyatlarga amal qilib yashashlari, jannat va do'zax, qiyomat, odamning qayta tirlishi va ilohiy davlatning yaratilishi singari g'oyalari keyinchalik xristianlik va islom dini ta'limotlarining ishlab chiqilishida muhim manba vazifasini o'tagan.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Zardushtiylikning vujudga kelishi sabablari nimalardan iborat?
2. Avesto matni necha qismidan iborat va ularning mazmunini tu-shuntiring?
3. Avestoning ilmiy ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Nima sababdan zardushtiylik yakkaxudolik dini hisoblanadi?
5. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashda inson qanday o'rinni egallaydi?
6. Nima sababdan zardushtiyalar ba'zi manbalarda otashparastlar deb ataladi?
7. Zardushtiylikning islomga ta'sirini qanday isbotlash mumkin?
8. Zardushtiyalar qanday diniy marosimlarni bajarganlar?

5-mavzu
**BUDDAVIYLIK VA HINDUIZM: DUNYOQARASH, IJTIMOIY
ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI**

Buddaviylikning mohiyati va xususiyatlari

Jahon sivilizatsiyasining qadimgi markazlaridan biri bo‘lgan Hindistonda miloddan avvalgi VI asrda buddaviylik (sanskrit tilida *buddha* – osoyishtalikka va buyuk haqiqatga erishgan degan ma’nolarni anglatadi) dini yuzaga kelgan. Yangi diniy ta’limotning vujudga kelishi turli sabablar bilan bog‘liq bo‘lgan. Miloddan avvalgi VI asrda o’nlab mayda knazliklarga bo‘linib ketgan Hindistonda davlat hokimiyatini markazlashtirishga harakatlar kuchaygan. Hindiston jamiyatining juda ko‘p kastalar (portugal tilida *casta* – irq, urug‘, tabaqa)ga bo‘linib ketishiga sababchi bo‘lgan braxmanizm bunday jarayonlarni rag‘batlantirmagan. Shu bois bir-biridan sun’iy ravishda ajratib tashlangan kastalarni (Hindistonda varna deb ataladi) umumiy maqsad atrofida birlashtirishga turtki beruvchi mafkuraga zarurat tug‘ilgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalarida Hindistonning Shimoliy va Markaziy qismini bosib olgan oriy qabilalarining diniy e’tiqodi va mahalliy qabilalar dinlarining sintezi natijasida vujudga kelgan braxmanizm hind jamiyatining kastalarga bo‘linishini muqaddaslashtirishi bilan birga, diniy ta’limotning tilsimotlarini, hukmron braxmanlardan tashqari boshqa kastalarni tanishtirishni istamagan. Davlatchilik rivojlanishining ilk bosqichlarida bunday holat hech kimni ajablantirmagan bo‘lsa-da, keyinchalik davlat hokimiyati timsolida o‘z qo‘lida kuch va moddiy boyliklarni to‘plagan tabaqalar (kshatriyalar va boshqalar) diniy tilsimotlar tafsiloti, ilohiy haqiqatga erishish, hayot va o‘lim muammolari bilan bevosita tanishishga qiziqa boshlaganlar.

Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida Hindistonda turli tabaqalarning diniy ta’limotni o‘rganishga intilishlarining kuchliligi o‘sha davrda ma’naviy madaniyatning yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Buddaviylikka tarixiy shaxs, kshatriya kastasining vakili Siddixartxa Gautama (gautama so‘zi urug‘ning nomidan olingan) asos solgan. U Shimoliy Hindistondagi Shakya knazligining shahzodasi bo‘lgan. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, Siddixartxaning onasi ilohiy ravishda unga homilador bo‘ladi (onasining tushida biqiniga fil kirib ketadi, farzandini ham biqinidan tug‘adi). Bola tug‘ilganidan keyin onasi vafot etadi. Suyukli xotinidan judo bo‘lgan otasi Siddixartxa Mudsxadana farzandining

tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi. Natijada Siddixartxa Gautama o'z davrining o'qimishli kishilardan biri bo'lib yetishadi. O'sha vaqtdagi yetuk murabbiylarning tarbiyasini olgan o'smir balog'at yoshiga yetganidan keyin bilimini yanada kengaytirish va ilohiy haqiqatni anglash maqsadida tarki dunyo qiladi (o'sha davrda ilohiy haqiqatga faqat shu yo'l bilangina erishish mumkin degan g'oya bo'lgan) va bu davr olti yil davom etadi. Benares shahri yonida meditatsiya bilan shug'ullangan Siddixartxa Gautamaga kunlarning birida buyuk haqiqat ayon bo'ladi va u buddaga aylanadi. Shu vaqtdan boshlab u odamlar orasida o'zining ta'limoti (Benares da'vati)ni targ'ib qila boshlaydi.

Siddixartxa Gautama asos solgan buddaviylik ta'limoti braxmanizm aqidalari negizida ishlab chiqilgan. Bunda, asosan, ruhning abadiyligi va tanadan tanaga ko'chishi – sansara, uning bir tanadan boshqasiga ko'chishi – karma va karmaning qanday bo'lishi kishining hayot yo'li, ya'ni dxarmaga bog'liqligi kabi ta'limotlar qabul qilingan.

Buddaviylik ta'limotiga binoan, cheksiz qayta tug'ilishlar zanjiri (sansara)ni uzib tashlashi mumkin. Sansara zanjiridan chiqib ketish har bir dindorning tub maqsadi bo'lishi kerak.

Buddaviylik braxmanizm ta'limotining asoslarini qabul qilishi bilan birga, unga muxolif din ham bo'lgan. Birinchi navbatda, buddaviylik braxmanizmga xos bo'lgan boylik, hokimiyat va hayotiy lazzatlarga intilishlardan voz kechib, ulardan xalos bo'lishning o'rtacha yo'lini tanlagen. Boylik, hayotiy lazzatlarga xirs qo'yish kabilar tubanlik va ma'naviy buzilishlarga olib keladi, uning antipodi jaynizmning ixtiyoriy zohidlik g'oyasi ham insoniylik ruhiga munosib emas deb hisoblangan. Braxmanizmda ruhning ko'chishini faqat braxmanlar to'xtatishi mumkinligi to'g'risidagi aqida qabul qilingan.

Buddaviylikda kishining qaysi tabaqaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, ilohiy haqiqatga erishishi mumkinligi qayd etilgan. Shuningdek, ilohiy haqiqatga individual asosda erishish yo'li qabul qilingan. Individual xalos bo'lish yo'li odamlarning o'z taqdirini o'zgartirishi mumkinligiga ishonchini mustahkamlaydi, individning ichki dunyosini din talablari asosida takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Braxmanizm jamiyatning kastalarga bo'linishini xudo belgilagan qonun darajasiga ko'targan bo'lsa, buddaviylikda kishilarning tabaqaviy tengsizligi inkor etilgan. Har bir inson (tirik jon)da mutlaq ruhning bir zarrasi mujassamlashganligi sababli xudo oldida teng hisoblangan. Buddaviylikdagi odamlarning xudo oldida tengligi g'oyasi uning keyinchalik jahon dini darajasiga ko'tarilishi uchun shart-sharoit yaratgan.

Budda ta'limoti quyidagi to'rtta buyuk haqiqatga asoslanadi:

- 1) hayot iztiroblardan iborat;
- 2) iztiroblarning manbai – ehtiros va istaklarga to'la hayot;
- 3) iztiroblardan nirvanaga (sanskrit tilidan so'zma-so'z tarjimasi – o'chish, so'nish degan ma'noni anglatadi) erishish orqali xalos bo'lish mumkin;
- 4) haqiqatni anglash va nirvanaga erishishning yo'li mavjud.

Diniy ta'limotda hayotning iztiroblardan iborat ekanligi qayd etiladi. Iztiroblar kishini doimo ta'qib qiladi. Odamlar o'z manfaati va ehtiyojlarini ta'minlash uchun doimo to'siqlar va qiyinchiliklarni yengib o'tishga majbur bo'ladi. Maqsad sari tashlangan har bir qadam to'xtovsiz ravishda yangidan-yangi iztiroblarni vujudga keltiradi. Kishi iztiroblardan xalos bo'lish uchun ehtiros va istaklaridan voz kechishi kerak.

Budda iztiroblardan xalos bo'lish va nirvanaga erishishning sakkiz bosqichli yo'lini ishlab chiqqan:

- 1) to'g'ri e'tiqod – hayotning iztiroblardan iborat ekanligini idrok etish, istak va ehtiroslarni ongli ravishda cheklash;
- 2) to'g'ri yo'1 – kishi o'z hayot yo'lini to'g'ri tanlay bilishi;
- 3) to'g'ri so'z – insonning gapi samimiyligi va adolatli bo'lishi;
- 4) to'g'ri ish – kuch ishlatishga yo'1 qo'yilmasligi;
- 5) to'g'ri hayot – tinch, pokiza va adolatli yashash;
- 6) to'g'ri fikr – inson o'z fikrining to'g'ri ekanligini nazorat qilishi;
- 7) to'g'ri niyat – yomonlikning jismimizda mujassamlashganligini bilish;
- 8) to'g'ri mushohada – meditatsiya va mushohada qilishning to'g'ri usullarini tanlash.

Kishi bu bosqichlarni birin-ketin o'zlashtiradi, bir bosqichdan boshqasiga o'tishi bilan ijtimoiy hayot zanjirlaridan ozod bo'lib, ma'naviy erkinlikka erishadi, nirvanaga yaqinlashadi va mutlaq ruh (xudoning jismi)ga qo'shilishga tayyor bo'ladi.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, nirvana kishi ichki dunyosining shunday holatiki, unda barcha hissiyotlar, hayotiy ko'nikmalar va dunyoga qiziqishlar so'nadi. Odam ichki o'zligidan va u orqali yashashga intilish asosida ruhning to'xtovsiz qayta tug'ilishini hosil qiluvchi sabablardan xalos bo'ladi. Kishi ichki erkinlikka ega bo'ladi. Bu shunday erkinlik va ruhiy holatki, unga erishgan kishiga hatto xudolar ham havas bilan qaraydi.

Nirvanaga erishish yo'li juda murakkab bo'lib, tashqi tomondan yordam bo'lmasa, kishi mustaqil ravishda unga erisha olmaydi. Shu bois

bu yo‘lni tanlagan kishilarga nirvanaga erishish holatida bo‘lgan, lekin o‘zi bosib o‘tgan yo‘ldan ko‘proq odamlarning o‘tishi uchun yordam berishga tayyor turuvchi avliyosifat odamlar – bodxisatvalar (sanskrit tilida – tabiatan uyg‘otuvchi, ziyo beruvchi kishi degan ma’nolarni anglatadi) ustozlik qiladi.

Buddaviylik har qanday ko‘rinishdagi keskinliklarga qarshi bo‘lganligi sababli, nirvanaga erishish yo‘lini tanlagan kishidan albatta tarki dunyo qilishni, hayot quvonchlaridan voz kechib, dunyo kezib yurishni talab qilmaydi. Tarkidunyolikni tanlagan odamlar odatda ibodatxona jamoalari – sangaga birlashib yashaydilar.

Buddaviylikda ibodatxonalar (hindularda sangalar deb ataladi) ruhoniylarning iyerarxiya prinsipi asosida tashkil etilmagan yagona tashkiloti va buddaviylikni tashviqot qiluvchi markazi bo‘lib qolgan. Ibodatxonalarda jamoa a’zolaridan shaxsiy gigiyenaga amal qilishlari bilan birga, yashaydigan joylarining toza bo‘lishi ham talab qilingan. Erkaklar sangalari bilan birga, ayollar sangalari ham tashkil etilgan. Ayollar sangalari kam sonli bo‘lib, asosan aholi punktlariga yaqin joylarda qurilgan. Bu yerdagi diniy marosimlarni unga yaqin turgan erkaklar sangalarining ruhoniylari bajarganlar.

Ibodatxonalarda ruhoniylar diniy marosimlarni bajarish bilan birga, diniy ma’lumot olganlar, muqaddas yozuvlar matnini ko‘chirganlar va boyitib borganlar. Ularning sa’y-harakatlari bilan milodiy I asrning boshlarida buddaviylikning muqaddas kitobi «Tripitaka» (sanskrit tilida – uchta savat degan ma’noni anglatadi) yozib tugallangan.

Tripitaka uch qismga (pitakka) bo‘linadi va quyidagilardan iborat:

– «Vinaya pitaka» beshta kitobdan tuzilgan bo‘lib, unda sangalarni tashkil etish prinsiplari, jamoaga yangi a’zolarni qabul qilish tartibi, rohiblarning turmushi va dindorlar bilan munosabatlari tartibga solingan;

– «Sutta pitaka» (sutralar savati) hajmi bo‘yicha eng katta qism bo‘lib, diniy ta’limot masalalariga bag‘ishlangan. Buddha va uning shogirdlariga tegishli hikoyalar, pand-nasihatlar, afsonalar to‘plamidan iborat poemalar va ularga berilgan sharhlardan tuzilgan;

– «Abhidharma pitaka» (dxarma savati) yettita kitobdan iborat bo‘lib, unda diniy-falsafiy va axloqiy muammolar bayon qilingan. U Buddha vahiyilari sifatida talqin qilingan. Lekin u dastlabki ikki qismga nisbatan ancha keyin yaratilgan va ayrim buddaviylik mazhablarida muqaddas bitik sifatida tan olinmagan.

Boshqa dinlar qatori, buddaviylik ham oqim va mazhablarga bo‘linadi. Buddaviylikda ikkita asosiy oqim mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1) *hinayana oqimi* (sanskrit tilida *hinayana* – kichik arava degan ma’noni anglatadi) xalos bo‘lishning tor yo‘li bo‘lib, mazkur yo‘lni tanlagan dindorlarning dunyoviy hayotdan voz kechishlari va rohiblikni qabul qilishlari talab qilinadi. Rohiblar xalos bo‘lish va nirvanaga erishishning individual yo‘lidan borib, arxatlar (sanskrit tilida *arhat* – avliyo odam degan ma’noni anglatadi) darajasiga erishadilar. Arxatlar nirvanaga erishgan, ya’ni ma’naviy poklik va haqiqatni bilishi orqali iztiroblardan xalos bo‘lgan hamda ruhning qayta tug‘ilishini to‘xtatgan avliyolardir. Hinayana kishining rohiblikni qabul qilmasdan samoviy rohat-farog‘atga erishishini inkor etmaydi. Lekin bunday holat vaqtinchalik deb hisoblanadi. Nirvanaga erishishi uchun uning ruhi qayta tug‘ilib, rohiblik turmush tarzini qabul qilishiga to‘g‘ri keladi;

2) mahayana (sanskrit tilida *mahayana* – katta arava, buyuk yo‘l degan ma’nolarni anglatadi) xalos bo‘lishning keng yo‘lidir. Mahayanada bodxisatvaning (sanskrit tilida – uning mohiyati bilimdir degan ma’noni anglatadi) murabbiyligida dunyoviy kishi ma’naviy poklanish qoidalariga amal qilsa, nirvanaga erishishi mumkin degan g‘oya mavjud. Bu yo‘lni tanlagan odam quyidagi axloq qoidalariga amal qilishi lozim:

- 1) jonzodlarni o‘ldirmaslik;
- 2) o‘g‘rilik qilmaslik;
- 3) zino qilmaslik;
- 4) yolg‘on gapirmaslik;
- 5) ehtiroslarni qo‘zg‘atadigan ichimliklarni iste’mol qilmaslik.

Mahayanada kishidan xulq-atvor qoidalari va juda ko‘p diniy marosimlarni bajarish talab qilinadi. Mahayana arxatlik g‘oyasini odamlarga xos xudbinlikning bir ko‘rinishi deb baholab, bodxisatvaning ruhiy mukammallik qoidalalariga amal qilish orqali nirvanaga to‘liq erishishi mumkinligini targ‘ib qiladi. Bodxisatvalar rohiblar yoki dunyoviy kishilarning nirvanaga erishishlariga yordam berar ekan, bundan biron-bir manfaat ko‘zlamaydi. Ular iztiroblardan xalos bo‘lib, ilohiy mukammallik darajasiga yetgan va ruhining qayta tug‘ilishini to‘xtata olgan bo‘lsalar ham, bu yo‘ldan yana ko‘proq kishilarni o‘tkazish maqsadida yana qayta tug‘ilaveradilar. Bodxisatvalar odamlar tarafida turib, ularning zimmasidagi yumushlarni yengillashtirish, iltijolarining bajarilishiga ko‘maklashish kabi g‘ayritabiiy kuchga ega avliyolar sifatida ulug‘lanadilar. Shuning uchun mahayanada diniy marosim va urf-odatlarga katta e’tibor beriladi.

Buddaviylikda kundalik, davriy va kishi hayotining muhim voqealari bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar mavjud. Kundalik marosimlarga har kuni

bajariladigan ibodat, rohiblarga oziq-ovqat ulashish va boshqalar kiradi. Buddaviylar kundalik ibodatni ikki marta – ertalab va kechqurun bajaradilar. Ertalabki va kechqurungi ibodat ibodatxonada, uyda yoki bunday ish uchun mos keladigan boshqa joylarda bajariladi. Ibodat vaqtida Buddha haykali yoki uning ramziy belgilari oldida muqaddas yozuvlardan sutralar (sanskrit tilida – ip, kalava degan ma'nolarni anglatadi; diniy-falsafiy ta'limotlarning qisqacha bayoni) ifodali o'qiladi, unga ta'zim bajo keltiriladi. Buddha haykali gullar bilan bezatiladi, sham yoqilib, xushbo'y hidli isiriqlar tutatiladi. Gullar ibodat ishtirokchilariga hayotning o'zgaruvchanligini, muattar isiriq hidlari esa ularga munosib yashash kelajakdagi shirin onlarning garovi ekanligini eslatib turadi. Sham ilohiy haqiqatga erishishning ramziy belgisidir. Kundalik marosimlarga rohiblarga oziq-ovqat ulashish ham kiradi. Ularga moddiy yordam berish savob hisoblanadi.

Davriy marosimlarga bir oyda ikki marta ehtiyojlarni cheklash marosimini misol keltirishimiz mumkin. Marosim e'tiqodning mustahkamligini, intizomni va ma'naviy yetuklik darajasini sinashga yo'naltirilgan. Bunday kunlarda rohiblar intizom to'g'risidagi nizom qoidalarini targ'ib qiladilar, bu qoidalarga sodiq ekanliklarini shaxsiy hayotlari bilan namoyish etadilar. Ruhoniylar shaxsiy xizmatlari va savoblarini odamlar bilan bo'lishish maqsadida ularga suv sepadilar. Odamlar yaxshiliklarini ajdodlari bilan baham ko'rish maqsadida yerga suv sepadilar.

Kishi hayotining muhim voqealari bilan bog'liq marosimlarga tug'ilgan kun, balog'at yoshi, oila qurish, yangi uyga ko'chish, vafot etgan kunni nishonlash kabilarni misol keltirish mumkin. Bunday marosimlar ruhoniylar rahbarligida o'tkaziladi.

Buddaviylarning asosiy bayramlari – yangi yil kirgan, ilohiy haqiqat ayon bo'lган, Buddha tug'ilgan va vafot etgan kunlardir. Buddaviylikda yangi yil kishining shaxsiy karmasida o'tgan yil davomida qanday o'zgarishlar bo'lganligini sarhisob qilish, poklanish va yangi ezgu maqsadlarni rejalashtirish bilan bog'liq bayram deb qaraladi. Hinayana oqimiga mansub buddaviylar yangi yilni oy taqvimi hisobida aprel oyining o'rtalarida nishonlaydilar. Yangi yil bayrami uch kun davom etadi. Bayram tantanalarida odamlar Buddha haykalini suv bilan poklaydilar, rohiblar va oqsoqollarga yaxshi tilaklar bildirib, suv sepadilar. Rohiblar ham savob ishlarini bayram ishtirokchilari va ajdodlari bilan baham ko'rish maqsadida tantanalarda ishtirok etadilar. Bayram tantanalari qurg'oqchilik mavsumining tugashi va yog'ingarchilikning boshlanishi

davriga to‘g‘ri keladi. Shunday vaqtida kishilarning bir-biriga suv sepih, yaxshi niyatlar tilashlari nafaqat diniy bayram bilan, balki yangi yilda ob-havoning dehqonchilik uchun qulay kelishi va ilohiy kuchlar ham ularga madadkor bo‘lishini niyat qilishlari bilan ham bog‘liq.

Budda tug‘ilgan, ilohiy haqiqat ayon bo‘lgan va Budda vafot etgan kunlar turli vaqtlarda nishonlanadi. Hinayana buddaviylari bu bayramlarni bir kunda, ya’ni mayning oy to‘lishgan kunida bayram qiladilar. Shri-Lanka orolida bu kun olovlar bayrami deb ataladi. Bayram kuni xonardonlarda, bog‘lar va ko‘chalarda chiroqlar yoqib qo‘yiladi. Yaponiyada buddaviylar Budda tug‘ilgan kunni 8 aprelda, ilohiy haqiqat ayon bo‘lgan kunni 8 dekabrdan, u vafot etgan kunni 15 fevralda nishonlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, buddaviylik Hindistonda vujudga kelgan va yerda zafarli yurish davridan o‘tib, butun Hindistonga yoyilgan. Lekin u diniy ta’limotlar o‘rtasidagi kurashda hinduizm bilan raqobat qila olmagan. Natijada buddaviylik Hindistondan siqib chiqarilgan. Buning sababi quyidagilardan iborat:

1) buddaviylik jamiyatning kastalarga bo‘linishini inkor etadi. Hindistonda odamlar qadimdan tabaqalarga bo‘linib yashagan. Har bir kasta o‘zining an’analari va tasavvurlariga ega biqiq ijtimoiy guruh bo‘lishi bilan birga, o‘zining betakror madaniy qadriyatlarini yaratgan. Shuning uchun kastalarga bo‘linish buddaviylik davrida ham saqlanib qolgan. Kasta tuzumiga asoslangan hind jamiyati buddaviylik yoki hinduiylikni tanlashga to‘g‘ri kelganda aholi jamiyatning kastalarga bo‘linishini ilohiylashtiradigan hinduiylikni afzal ko‘rdi;

2) buddaviylik ta’limoti hind xalqi mentalitetiga ham mos kelmagan. Tabiatiga ko‘ra, doimo umid va ishonch bilan yashaydigan, ehtirosli, quvnoq xalq tushkun g‘oyalar ustuvorlik qiluvchi buddaviylikdan astasekinlik bilan voz kechgan;

3) ma’lumki, buddaviylikda kuch ishlatmaslik g‘oyasi tirik jonzodlarga zulm qilish va ularni o‘ldirishni taqiqlaydi. Bu esa asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo‘lgan dehqonlarning jamiyatdagi mavqeい pasayishiga olib kelgan. Chunki dehqonchilikda chorva mollarining kuchidan keng foydalanishi sababli, ular odatda og‘ir mehnatdan nobud bo‘lavergan.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa sabablar ta’sirida buddaviylik uzoq davom etadigan siyosiy kurash va harbiy to‘qnashuvlarsiz, tinch yo‘l bilan o‘z o‘rnini hinduiylikka bo‘shatib bergen. Hinduiylikning siquvi natijasida miloddan avvalgi IV–III asrlarda dastlab u Osiyo qit’asining janubi va janubi-sharqiga, milodiy I asrdan boshlab shimoli, shimoli-g‘arbi va

shimoli-sharqiga yoyilgan. Buddaviylik Hindistondan tashqarida birinchi bo‘lib Seylon (Shri-Lanka)da davlat dini sifatida qabul qilingan. Bu yerda rohiblar va buddaviylikni qabul qilgan dindorlar uyushmasidan diniy tashkilot – sangxalar paydo bo‘lgan.

Buddaviylikning yirik markazlaridan biri Hindixitoy yarimorolidir. Hindixitoyda Janubi-sharqiy Osiyodagi buddaviylarning 95 % ga yaqini istiqomat qiladi. Hindixitoga buddaviylik Xitoy orqali kirib kelgan. Xitoya esa Markaziy Osiyo orqali milodiy I asrdan kirib kela boshlagan. Bu yerda buddaviylikning mahayana oqimi keng yoyilgan. Uning mintaqada gullab yashnagan davri milodiy VI–X asrlarga to‘g‘ri keladi. Mahayana ta’limoti juda sodda bo‘lib, o‘rta va quyi tabaqa vakillari uni hinayanaga nisbatan yaxshi tushunishgan. Mahayananing negizini tashkil etgan g‘oyalar xitoyliklarning mentalitetiga mos kelgan. Sababi, mahayana nirvanani subyektiv (individual) voqelik emas, balki butun olamni qamrab oluvchi borliq, Buddanining tabiatini sifatida qaraydi. Uning tabiatini buyuk bo‘shliq bo‘lib, hamma narsa undan kelib chiqadi va unga qaytadi. Buyuk bo‘shliqning yaratuvchilik mohiyati to‘g‘risidagi g‘oya Xitoy buddaviyligi ta’limotining tamal toshi hisoblangan.

Xitoy buddaviylicha chan-buddaviylik deb ataladi. «Chan» so‘zi hindilarning «dxyana» atamasidan kelib chiqqan va fikrni to‘plab olish, diqqatni qaratish, meditatsiya qilish degan ma’nolarni anglatadi.

Buddaviylik ta’limoti Xitoy timsolida o‘ziga xos betakror madaniy muhitga duch kelgan. Uning mahalliy diniy qarashlar bilan muloqoti natijasida daosizm ta’limotining muhim jihatlarini aks ettiruvchi chan-buddaviylik ta’limoti vujudga kelgan. Chan-buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, diniy hayotning asosiy maqsadi kishining ruhan moddiy dunyo bilan uzviy qo‘shilishidir. Bu jarayon hatto kishining o‘zligidan voz kechishini talab qiladi. Maqsadga erishishning asosiy vositasi o‘ziga xos bo‘lib, kishidan harakatsizlikni talab qiladi. Chunki faqat harakatsizlik orqali kishining ichki tabiatini namoyon bo‘ladi.

Meditatsiyaning mohiyati talqinida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Uning maqsadi kishining o‘z ichki «men»ini, ichki dunyosini bilishdan iborat. Kishi Buddani o‘zidan, ichki dunyosidan axtarishi kerak. Uni tashqi dunyodan izlagan odam adashadi. Odam ichki tabiatida shaxsiy istaklaridan voz kecha olsa, o‘zini anglaydi.

Shunday qilib, chan-buddaviylikka binoan, xalos bo‘lish Buddanining tabiatini bilan qo‘shilishdir. Buning uchun ter to‘kib to‘xtovsiz muroqaba (meditatsiya) bilan shug‘ullanish yoki muqaddas sutralarni tinimsiz takrorlab turish kerak emas. Agar Buddha jismimizda bo‘lsa, uni ter to‘kib

izlash kerak emas, aks xolda uni izlashdan foyda yo‘q. Shuning uchun kishi butun olam oqimi bilan uyg‘unlikda yashashi va unga singib ketishi kerak. Buning asosiy vositasi harakatsizlikdir.

Chan-buddaviylikning yana bir xususiyati shundaki, dindorlarning asosiy maqsadi, ya’ni nirvanaga erishish yo‘li Siddixartxa Gautama ta’limotidan farq qiladi. Chan-buddaviylar ta’limotida xalos bo‘lishga fikr ravshanligi asosida erishiladi. Hinayanada fikr ravshanligi xalos bo‘lish yo‘lidagi boshlang‘ich bosqichlardan biridir. Fikr ravshanligi – kishining ichki dunyosini o‘zgartiruvchi yo‘l bo‘lib, unda odamning nafaqat belgilagan maqsadi, balki ruhi va ma’naviy o‘zligi ham o‘zgaradi. Bunday bosqichga erishgan odamning ongi olam maromiga quyilib ketadi. Undagi barcha o‘zgarishlar butun olam qonuniyatlariga mos ravishda amalga oshadi. Odam belgilangan maqsadiga ortiqcha harakatlarsiz, o‘z ichki mohiyatini o‘zgartirishi jarayonida erishadi.

Xitoyda chan-buddaviylik bilan birga lamaizm yo‘nalishi yuzaga kelgan. «Lamaizm» iborasi Tibetdagi buddaviy rohiblarning nomidan kelib chiqqan. Lamaizmning vujudga kelgan vaqtি haqida turli ma’lumotlar mavjud. Ayrim manbalarda uning XIV asr oxiri – XV asr boshlarida vujudga kelganligi qayd etilgan, boshqa manbalarda VII asrda vujudga kelganligi to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Agar biz buddaviylikning Hindistondan Osiyo qit’asining boshqa qismlariga yoyilish yo‘nalishini kuzatsak, bu jarayon uzoq vaqt davom etib, faqat XIV asrga kelib Tibetda uzil-kesil vujudga kelgan, degan fikrga kelishimiz mumkin.

Lamaizm ta’limoti chan-buddaviylik kabi mahalliy diniy qarashlarning buddaviylik ta’limoti bilan muloqoti natijasida shakllangan. Shu bois lamaizm ta’limotida rivojlangan diniy tizim elementlari bilan birga ibtidoiy davrga xos qarashlar ham mavjud. Masalan, diniy rivoyatlarda Yer yassi doira shaklida tasavvur qilinadi. U okean bilan o‘rab olingan to‘rtta materikka bo‘linadi. Yerni fil ko‘tarib turadi. Fil esa toshbaqanining ustida turadi. Agar yerda yomonlik ko‘payib ketsa, toshbaqa bezovtalanadi va qimirlaydi. Natijada yerda zilzilalar boshlanadi. Bunday bo‘lmasligi uchun odamlar gunoh qilmasligi, xudoga ibodat qilib yaxshi yashashlari lozim deb hisoblanadi.

Lamaizm ta’limotida tantrizm (sanskrit tilida *tantra* – jimjimadorlik, sirli matn, sehregarlik degan ma’nolarni anglatadi) g‘oyalarining ta’siri juda kuchlidir. Tantrizm veda dinidan kelib chiqqan. Unga ko‘ra, odam va koinot bir-biri bilan bog‘liq voqelikdir. Odam mikrokosm (mikrokoinot)

voqeligi bo‘lib, koinotdagi ashylardan yaralgan. Uning tanasi ham koinotga o‘xhash qilib tuzilgan.

Tantrizm bilan yoglar amaliyoti bog‘liqdir. Yog amaliyoti orqali odamdagи mudroq energetik ibtido harakatga keltiriladi. Bu vazifani kishi faqat ustozi (guru) yordami bilan amalga oshirishi mumkin.

Lamaizmda juda ko‘p xudo (budda)lar va g‘ayritabiyy mavjudotlar mavjud. Xudolar guruhiga budda Shakyamuni boshchilik qiladi. Buddalar vazifalari va ijtimoiy hayotdagi mavqeい bilan bir-biridan farq qiladi. Bunda buddalar bilan birga, bodxisatvalarga va diniy ta’limotni ishlab chiqishdagi xizmatlari bilan nom qozongan va xudolar darajasiga ko‘tarilgan shaxslarga ham sig‘iniladi.

Lamaizmda dindorlar va diniy tashkilotlarga bosh ruhoni – dalay-lama (mo‘g‘ul-tibetchada – dengiz kabi buyuk degan ma’noni anglatadi) rahbarlik qiladi. Dalay-lama yerda qayta tug‘ilgan mavjudotlarning eng buyugi, yerdagi xudo sifatida ulug‘lanadi. Uning vafot etishi yerda yangidan qayta tug‘ilishning boshlanishini bildiradi. Shuning uchun bosh ruhoni vafot etgandan keyin maxsus vakolatlarga ega hay’at tuziladi. Hay’at bir yil muddatda vafot etgan dalay-lamaning ruhi o‘tgan bolani axtarib topishi kerak. Bola aniqlanganidan keyin ibodatxonada tarbiyalanadi. Voris deb topilgan bola balog‘at yoshiba yetguniga qadar bosh ruhoni vazifasini regent (lotincha *regens* – idora qiluvchi degan ma’noni anglatadi) bajaradi. Hozirgi vaqtida lamaizmning boshlig‘i Dalay-lama XIV Lozondantzendjansoigvant (1935 yilda tug‘ilgan) hisoblanadi.

Odatda, diniy hayotning markazi vazifasini ibodatxonalar bajaradi. Ibodatxonalarda diniy marosim va udumlar bajariladi, xudoga ibodat qilinadi, shuningdek ular ma’rifiy va siyosiy markaz ham hisoblanadi. Ibodatxonalarda ruhoniylar, ularning xizmatkorlari va shogirdlari yashaydilar, turli diniy marosimlarni bajarishda qo‘llaniladigan jihozlar, muqaddas matnlar saqlanadi. Bino devorlarining ichki qismiga buddalar va bodxisatvalarning tasviri tushirilgan butlar qo‘yiladi. Diniy marosimlar esa tibet tilida amalga oshiriladi.

Lamaizmda diniy bayramlar unchalik ko‘p emas. Ularning eng yirigi sanaggan (oq oy) bayramidir. Bu bayram qadimgi oy taqvimi bo‘yicha yangi yilning kirishi munosabati bilan nishonlanadi va tantana o‘n olti kun davom etadi. Tantana davomida «Buddaning o‘n ikki mo‘jizasi»ga bag‘ishlangan juda ko‘p diniy marosim va udumlar bajariladi. Yoz faslining o‘rtalarida «vaydaraning doira bo‘ylab aylanishi» deb ataladigan diniy bayram o‘tkaziladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, buddaviylik odamlarning xudoga itoatdagi tengligi, xalos bo‘lishning individual yo‘li tanlanganligi, boshqa dinlarga munosabatda bardoshliligi, tarixiy shart-sharoitlarga moslashuvchanligi kabi xususiyatlari bilan davlat chegaralari va boshqa to‘siqlardan o‘tib jahon diniga aylangan.

Hinduiylikning ta’limoti va marosimlari

Hindiston diniy tizimlarining aqidalaridagi o‘xshashliklar, odamlarning diniy e’tiqodni tanlash erkinligi kabi omillar diniy e’tiqodi turlicha bo‘lgan xalqlarning tinch-totuv yashashlariga shart-sharoit yaratgan. Ammo yuqoridagi fikrga asoslanib, diniy tizimlar o‘rtasida mintaqada hukmronlik uchun keskin kurash bo‘lmagan, degan xulosaga kelish xatodir. Bunday kurash nafaqat diniy tizimlar o‘rtasida, balki bitta diniy tizimdagi xudolar darajasida ham to‘xtovsiz davom etgan. Masalaning diqqatga sazovor jihat shundaki, ular o‘rtasidagi keskin raqobat jamiyatda to‘qnashuvlarni, diniy urushlarni keltirib chiqarmagan.

Buddaviylikning davlat dini sifatida tan olinganligi (miloddan avvalgi III asr) diniy tizimlar o‘rtasidagi raqobatni susaytirmagan. Bu kurash, ayniqsa, braxmanizm va buddaviylik dinlari o‘rtasida murosasiz kechgan. Lekin braxmanizm avvalgi holatida qayta tiklanishi mumkin emas edi. Natijada braxmanizmning negizida yangi diniy ta’limot – hinduiylik vujudga kelgan. Uning shakllanish jarayoni milodiy I asrga kelib yakunlangan va Hindistonda keng yoyilishi milodiy IV–VI asrlardagi Guptalar imperiyasi davriga to‘g‘ri kelgan. Buddaviylik bilan hinduiylikning raqobat kurashi uzoq davom etgan. Faqat X asrga kelib, buddaviylik Hindistondan uzil-kesil siqib chiqarilgan.

Yangi dinni «hinduiylik» deb atash VIII asrda islom dinining Hindistonda yoyilishi bilan bog‘liqdir. Islom dinini qabul qilmagan aholini mahalliy musulmonlar «hindilar» deb ataganlar va keyinchalik ilmiy adabiyotda yangi din tarafдорлари «hinduiylar» deb atala boshlangan. Hinduiylar o‘z diniy e’tiqodlarini «arya-dxarma» (oriylar qonuni) yoki «sanatana dxarma» (abadiy qonun) deb ataganlar.

Hinduiylik Hindistonda qadimgi davrlardan paydo bo‘lgan barcha din turlarini, mahalliy xalqlarning urf-odatlari, an’ana va udumlarini qabul qilgan. Ushbu din buddaviylikka ko‘p jihatlari bilan o‘xhash bo‘lsa ham, kasta tizimini muqaddaslashtirganligi, mahalliy urf-odatlar va an’analarni, affsonalar, rivoyatlar va bayramlarni qabul qilishi va boshqa jihatlari bilan undan farq qilgan. Shu bois, haqli ravishda, hinduiylik «hind turmush tarzi» deb ataladi.

Yangi din mazmuni va mohiyati jihatidan nihoyatda kengligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turgan. Undan turli tabaqa vakillari o‘zlarini qiziqtiruvchi muammolarga javob topganlar. Uning negizida diniy tilsimotlar, falsafiy mulohazalar, yoga falsafasi va amaliyoti, ibtidoiy diniy qarashlar, diniy xurofotlar va irimlar o‘zaro qo‘silib ketgan. Zero, murakkab falsafiy qarashlar faqat uni tushunib, o‘rganadigan dindorlar uchun saqlanib qolgan. Aholining o‘rta va quyi tabaqa vakillari asrlar davomida saqlanib qolgan, sodda va tushunarli qadimiy marosim va an’analarga e’tiqod qilishni davom ettirganlar.

Hinduiylik ta’limotining kengligi, rang-barangligi sababli sanskrit tilida yozilgan vedalar, braxmanlar matnlari va upanishadalar muqaddas bitik sifatida qabul qilingan. Hinduiylikning eng qadimgi muqaddas bitigi – Vedalar (sanskrit tilida – bilim degan ma’noni anglatadi) miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalaridan miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalarigacha she’riy uslubda yozilgan diniy-adabiy yodgorlik. Unga xudolarga madhiyalar aytish, afsun va jodular, ibodatlar va qurbanliklar qilish tartibi kabilar kiritilgan. Vedalarning hajmi juda kattaligi sababli to‘rt to‘plam (samxitlar)ga bo‘lingan. Vedalar matnining mazmunini tushunish juda qiyinligi sababli muqaddas yozuvlarni tafsir qiluvchi to‘plam vedangalar (vedalarning qismi) yaratilgan.

Braxmanlar matnlari ham hinduizmning muqaddas bitiklaridan biri sifatida qabul qilingan. Braxmanlar matni kastalar tuzumining shakllanishi davrida vedalarni sharhlashga bag‘ishlangan diniy traktat sifatida yaratilgan. Ushbu muqaddas bitik mazmunan braxmanlarning jamiyatdagi rahbarlik mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Diniy ta’limotning muhim manbalaridan yana biri upanishadalar (sanskrit tilida – sirli ta’limot degan ma’noni anglatadi) bo‘lib, diniy-falsafiy asarlar to‘plami hisoblanadi. Unda vedalar sharhlangan, dunyoning paydo bo‘lishi, materiya va ruhning munosabatlari, xudolarning mohiyati kabi masalalar tahlil qilingan. Upanishadalar matni Hindistondagi boshqa muqaddas bitiklar singari juda uzoq vaqt davomida to‘plangan. Uning eng qadimgi qismi miloddan avvalgi VIII–VI asrlarda yaratilgan. Matnining ayrim qismlari yozilgan vaqt milodiy yil hisobi boshlangan tarixiy davrlarga to‘g‘ri keladi.

Muqaddas yozuvlar matni asrlar davomida to‘ldirib borilganligi sababli ularni o‘rganishda til va urf-odatlar bilan bog‘liq qiyinchiliklar vujudga kelishi muqarrar edi. Mazkur muammolarni hal qilish maqsadida muqaddas yozuvlarni o‘rganishga ko‘maklashuvchi qo‘sishimcha adabiyotlar yaratilgan. Ulardan biri *sutralar* deb ataladi. Sutralar diniy

ta’limotning juda qisqa bayoni bo‘lib, avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan. Uning mazmunini tajribali ustozning yordamisiz tushunish juda qiyin bo‘lgan. Sutralarning asosiy qismi diniy marosimlarga bag‘ishlangan. Shuningdek, ularda hukmron kastalarning yashash qoidalari va kundalik diniy majburiyatlar bayon qilingan.

Muqaddas bitiklarni o‘rganishga ko‘maklashuvchi sutralar bilan birga, o‘quv matnlar hisoblanuvchi *shastralalar* ham vujudga kelgan. Shastralalar she’riy uslubda yozilgan bo‘lib, diniy ta’limotning turli sohalaridan bilim beradi. Ular orasida eng mashhuri axloq qoidalari bag‘ishlangan «Manu qonunlari» (Manava-dxarma-shastra) hisoblanadi.

Hinduiylikning muqaddas yozuvlari sifatida «Mahobxorat» va «Ramayana» dostonlari ham qabul qilingan. «Mahobxorat» dostonining matnlarini to‘plash miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga to‘g‘ri keladi va bu jarayon bir yarim ming yil davom etgan. Dostonning dastlab hinduiylik ta’limoti bilan hech qanday aloqasi yo‘q edi, lekin ruhoniy braxmanlar uning matniga diniy mazmundagi ko‘plab lavhalarni kiritganliklari tufayli u diniy qonunlarni o‘rgatuvchi asar – dxarma-shastriga aylantirilgan.

Hinduiylikning muqaddas bitiklarini o‘rganish orqali uning ko‘p xudolikka asoslangan ta’limot ekanligi to‘g‘risida xulosaga kelish mumkin. Hinduizmda xudolarga sig‘inishning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Bu borada, eng avvalo, xudolarga qurbanlik ibodat qilishning boshqa turlari bilan almashtirilganligini qayd etish lozim. Lekin qon chiqarib qurbanlik qilish marosimi butunlay yo‘q bo‘lib ketmagan. Shuningdek, dindorlarga o‘z e’tiqodi va manfaatlariga ko‘ra, qaysi xudoga sig‘inishni mustaqil tanlash erkinligi berilgan. Ibodatxonalarda va diniy marosimlarni bajarish uchun ajratilgan boshqa joylarda odam, yarim odam va yarim hayvon qiyofasida tasvirlangan xudolarning haykallarini qo‘yish hamda ularga sig‘inish keng yoyilgan.

Hinduiylikda bosh xudolar sifatida Braxma, Vishnu va Shiva qabul qilingan. Ular turli sohalarga ixtisoslashgan va bir-birini to‘ldiradi. Bosh xudolarning birinchisi – yaratuvchi xudo Braxma. U oliy ibtidoiy borliq va abadiylikning birligidan o‘tkinchi va rang-barang dunyo, ya’ni olam va undagi mavjudotlarni yaratgan. Hinduiylik ta’limotida dindorlar Braxma yaratgan dunyodan chiqib ketib, nirvanaga erishishga intiladi, ya’ni u hinduiylarning maqsadiga qarama-qarshi bo‘lgan vazifani bajargan. Shu bois hinduiylik nuqtai nazaridan qaraganda, Braxmaning tabiat va odamlar uchun qilgan xizmati o‘zga bosh xudolarnikidan katta deb hisoblanmagan. Braxmaning odamlarning kundalik hayotida zarur bo‘lgan boshqa va-

zifalari yo‘qligi sababli dindorlar ham unga najot so‘rab murojaat qilmaydi, Braxmaning sharafiga bag‘ishlangan diniy marosim va ibodatlar ham o‘tkazilmaydi.

Hinduiylikning bosh xudolari qatorida ikkinchi xudo Shiva hisoblanadi. Shiva – vayron qiluvchi xudo, san’at va bilim, aysh-ishrat va ishqiy sarguzashtlar homysi; hayotiy kuchlar, erkaklik ibtidosi va tabiat stixiyasining timsoli. U tabiat kuchlari kabi ziddiyatli xudo. Shiva odamlarga yomonlik qilib, uning oqibatlarini o‘zi bartaraf etadi, chorvaga homiylik qiladi yoki ularga ziyon yetkazadi.

Shivaning ziddiyatli mohiyati uning qiyofasini tasvirlashda ham namoyon bo‘ladi. Uning peshonasida uchinchi, ya’ni vayron qiluvchi ko‘zi bor, lekin aynan shu ko‘zi bilan u odamlar ko‘ra olmaydigan narsalarni ko‘radi. Shiva tanasi atrofida ilonlar va bo‘ynida odamlarning bosh suyaklari osilib turgan holatda tasvirlanadi. Yovuz ruhlar u bilan doimo birga yuradilar.

Shiva ko‘pincha muroqaba (kishining ongi, his-tuyg‘ulari, sezgilari, jismoniy faolligi kabilarni so‘ndirishi va nazorat qilishiga yordam beradigan amaliyat, usul va mashqlar tizimi) bilan shug‘ullanayotgan yog qiyofasida tasvirlanadi. U meditatsiyadan raqsga tushuvchi xudo holatiga o‘tishi mumkin. Raqs uchun ko‘ngilxushlik vositasi emas. Shiva raqs orqali dunyolarni va hayotiy kuchlarni yaratadi, butun olamning harakat tartibini belgilaydi va uni vayron qiladi.

Vayron qiluvchi xudo o‘zining buyuk qudratini har doim ham namoyon qila olmaydi. Diniy rivoyatlarda aytishicha, u buyuk kuchni meditatsiyalar davomida to‘playdi. Zero, Shivaning tarkidunyochilik yo‘lini tanlagan qalandarlarga homiylik qilishi sababli ularda shunday buyuk ilohiy kuch bor deb hisoblanadi. Uning ilohiy kuchi jinsiy munosabatlarda ham ko‘payishi mumkin va bu kuch uning xotinlariga ham o‘tadi. Shivaning juda ko‘p xotinlari uning qudratini namoyon qiluvchi ilohiy mavjudotlar sifatida qabul qilingan. Masalan, uning xotinlaridan biri – ma’buda Durga o‘nta qo‘lli dahshatli ayol qiyofasida tasvirlanadi. Ma’buda devlarga qarshi shafqatsiz kurashi bilan nom qozongan. U dindorlar orasida ulug‘ ona va ayollik timsoli sifatida ulug‘lanadi.

Shivaning xotinlari qo‘rinchli mavjudotlar qiyofasida tasvirlanib, odamlarni qo‘rquv va umid bilan saqlashda unga yordam bersa ham, uning xotinlari bilan o‘zaro munosabatlari muhabbat va sadoqatga asoslangan. Misol uchun, Shivaning birinchi xotini Sati erining sha’nini himoya qilib, o‘zini olovga tashlagan. Ehtimol, shuning uchun bo‘lsa kerak, hind ayollarini orasida eri vafot etganidan keyin unga abadiy sodiq bo‘lib qolish

uchun o‘zlarini olovga tashlash marosimi (Sati marosimi) mavjud bo‘lgan. Marosim XX asrning o‘rtalarigacha saqlanib kelgan va hozir ham uzilkesil yo‘q bo‘lib ketmagan. Shiva odamlarning kundalik hayoti bilan bog‘liq juda ko‘p sohalarga homiylik qilganligi bois unga hinduiylarning yarmiga yaqini e’tiqod qiladi.

Xaloskor xudo Vishnu bosh xudolarning uchinchisi hisoblanadi. U Shiva kabi ziddiyatli ilohiy mavjudot emas. Vishnu odamlarga ilohiy haqiqatni yetkazadi va adolatning g‘alaba qozonishiga yordam beradi. Vishnu odamlarni zulmdan xalos qilishi bilan birga xavf-xatardan ham saqlaydi. O‘z vazifalarini bajarish uchun turli qiyofa (avatar)larda dunyoga keladi. Diniy manbalarda uning necha bor dunyoga kelishi to‘g‘risida har xil ma’lumotlar berilgan.

«Mahobxorat» dostonida Vishnuning mingta qiyofasi to‘g‘risida hikoya qilingan. U azaldan Budda, Krishna va Ram kabi qiyofalari bilan odamlar orasida mashhur bo‘lgan. Umuman, odamlarga ko‘p qiyofali Vishnuning qaysi ko‘rinishi yaqin bo‘lsa, o‘shonisiga sig‘inishlari mumkin sanalgan. Vishnu to‘g‘risidagi diniy rivoyatlarning diqqatga sazovor jihat yana shundaki, unga binoan oxiratda dunyoda muttahamlarning hukmronligi o‘rnataladi, ularning qalbidaadolat va xudoga nisbatan ishonch va e’tiqod so‘nadi. Vishnu so‘nggi marta oq ot mingan chavandoz qiyofasida dunyoga kelib, insoniyatni halokatdan qutqaradi. O‘shandaadolatli jamiyat quriladi va insoniyatning oltin asri boshlanadi. Vishnuga o‘z vazifalarini bajarishda go‘zallik va baxt ma’budasi – Lakshmi va uning boshqa xotinlari yordam beradi. Ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat, sevgi va sadoqat asosiga qurilganligi qayd etiladi. Vishnu dindorlar orasidagi mavqeい bo‘yicha Shiva bilan raqobat qiladi.

Boshqa diniy tizimlardagi kabi hinduizmda ham dindorlarning axloq qoidalari qat’iy amal qilishlari talab qilinadi. Bu qoidalalar quyidagi ta’limotlarda ifodalanadi:

- 1) dxarma (sanskrit tilida – qonun, majburiyat degan ma’nolarni anglatadi) – odamlarning burchi va majburiyatlarini belgilaydi. Dxarma qoidalari turli kastalarning burchlari va majburiyatlarini tartibga soladi, dindorlardan ushbu qoidalarning bajarilishini talab qiladi;
- 2) artxa – dindorlar xulq-atvor qoidalalarining majmuidan iborat;
- 3) kama (braxmanizm va hinduizmda sevgi xudosi) – hissiy istak va mayllar qondirilishining ahamiyatini belgilaydi;
- 4) moksha (sanskrit tilida – joydan-joyga ko‘chish, darbadarlik degan ma’nolarni anglatadi) – sansaradan xalos bo‘lish haqidagi ta’limot.

Dxarma har bir tirik jonzodning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi, odamlarning xulq-atvorini tartibga soladi, ularni jamiyat va tabiat bilan uyg‘un holda yashashga da’vat etadi. Lekin dxarma qoidalarida odamlarning huquqdagi tengligi e’tirof etilmaydi, aksincha kastalar tuzumi muqaddaslashtiriladi.

Dxarma kuch ishlatmaslik qoidasiga qat’iy amal qilishni talab etadi. Kuch ishlatmaslik odamdan nafaqat jismoniy majburlashdan voz kechishni, balki yomon niyatda bo‘lmaslik, xudbinlikni yo‘q qilish, g‘azab va nafratni tiyish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish kabilarni talab qiladigan qoidalardan iborat. Inson yomonlikka – yomonlik, zulmga – zulm bilan javob bermasligi kerak. Odam kechirimli bo‘lishi, ammo hayot oqimiga qarab yashamasligi lozim. Har kim mustaqil hayot yo‘lini tanlashi va belgilangan maqsadga erishishda qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tishi kerak.

Hinduiylikda yerdagi hayot lazzatlaridan bahramand bo‘lishning ahamiyati qayd etiladi. Karma qoidalariga binoan, odam diniy va dunyoviy qoidalarga amal qilib yashashi bilan birga, hissiy quvonchlar va jinsiy istaklardan ham voz kechmasligi kerak.

Insonlarning hurmati boyligiga qarab belgilanmaydi. Odamlarning hurmatini qozonishda boylikning muayyan darajada ahamiyati bor, lekin yashashdan maqsad boylik to‘plash emas, balki karmaning ta’siridan xalos bo‘lishdan iborat. Zero, kishining hayot yo‘li topgan davlatiga emas, balki odamiylichi va taqvodorligiga qarab baholanadi. Kishilarning o‘z ichki dunyosi va tabiat bilan uyg‘unlikda yashashlari rag‘batlantiriladi.

Hinduiylikning diniy-axloqiy qadriyatlari kishini ijtimoiy faollikka, ijtimoiy norozilikka va sinfiy kurashga da’vat etmaydi. Ularga jamiyatda tenglikka intilib yashash, ijtimoiyadolatsizliklarga qarshi kurashish, sinfiy birdamlik kabilar xos emas. Bunday qarashlar karma qoidalariga va ruhning aynan qayta tug‘ilishda yuz berayotgan voqealar uchun individual javobgarligi haqidagi diniy ta’limotga zid keladi. Ijtimoiy hayotni yaxshilash uchun kurashish kuch ishlatmaslik aqidasiga ham mos kelmaydi.

Hinduiylik dastlab jamiyatda kasta tuzumini mustahkamlashga yordam berishi bilan birga odamlarning siyosiy hokimiyatga munosabatlari va siyosiy faolliklarini rag‘batlantirmagan, kastalar o‘rtasidagi birdamlikka da’vat etmagan. Oqibatda, siyosiy hayotda o‘ziga xos bo‘shliq paydo bo‘lgan. Bunday vaziyatdan turli siyosiy kuchlar (asosan tashqi siyosiy kuchlar) ustalik bilan foydalanganlar. Hind jamiyati xalqning mentaliteti ta’sirida tashqi kuchlarning bosqiniga qarshilik ko‘rsatishga

ojiz bo‘lib qolgan. Mavjud vaziyatdan dastlab qo‘shni davlatlar, keyinchalik ingliz bosqinchilari ustalik bilan foydalanganlar.

Hinduiylik ta’limotida jannat va do‘zax to‘g‘risidagi g‘oya mavjud. Bu g‘oya hinduiylikning sansara ta’limotiga zid keladi. Shunday bo‘lsa-da, jannat va do‘zax to‘g‘risidagi g‘oya qabul qilingan va uning mazmuni tarixiy taraqqiyot ta’sirida o‘zgarib borgan. Dastlab narigi dunyoda faqat jannat mavjud deb tasavvur qilingan. Jannatga tushish uchun ruhning sinovlardan o‘tishi talab qilinmagan. Ma’lumki, Hindistonda qadimdan vafot etgan odamning jasadi o‘tda kuydirilgan. Mayitni kuydirish marosimi olov xudosi – Agniga sig‘inish bilan bog‘liq. Olov xudosi marhumning savobi va gunohlarini aniqlab, keyingi taqdirini hal qilgan. Bu jarayon dastlab juda sodda tasavvur qilingan. Unga binoan, olovda insonning tanasi kuydirilib gunohlaridan tozalangan, kishining gunohi va qusurlari kulda qolgan. Olov bilan soflangan ruh narigi dunyoda tana vazifasini bajaradigan yupqa qobiq hosil qilib jannatga tushgan. Ruh jannatda ajdodlari bilan birgalikda baxtli va farovon yashagan. Lekin keyinchalik do‘zaxning narigi dunyoda ham mavjudligi haqidagi g‘oya vujudga kelgan. Odamlarning hayotligi davrida qilgan gunohlari evaziga do‘zaxda jazolanishlari belgilangan.

Hinduiylikda do‘zax juda ko‘p ko‘rinishlarga ega deb tasavvur qilinadi va ular bir-biridan jazo berish usullari bilan farqlanadi. Masalan, braxmanni o‘ldirgan odamlarning ruhi eng qo‘rinchli do‘zaxga tushadi. Bu do‘zaxga tushgan kishining oyog‘i ostida doimo olov yonib turadi. Boshining ustida cho‘g‘dek qizitilgan temir turadi. Diniy urushlar, to‘qnashuvlar va janjallarni keltirib chiqargan odamlar vafot etganidan keyin tushadigan do‘zaxda ular yomon chiqindilar bilan to‘ldirilgan daryoga tashlanadi.

Hinduiylikdagi jannat va do‘zax to‘g‘risidagi qarashlar ajdodlar ruhiga sig‘inish marosimining mavjudligiga ham zid keladi. Chunki odam vafot etganidan keyin uning ruhi qayta tug‘ilish zanjirini uzib tashlab, nirvanaga erishmas ekan, dunyoga to‘xtovsiz qaytib kelaveradi. Ruhning turli mavjudotlarga ko‘chishi sababli kim-kimning ajdodi ekanligini aniqlab bo‘lmaydi.

Yuqorida qayd qilinganidek, ajdodlar ruhi bu dunyoga qaytib kelmasligi, ya’ni narigi dunyoda qolishi mumkin. U dunyoda qolgan ruh tana vazifasini bajaruvchi yupqa qobiqqa joylashadi va jannatga tushadi. Ruhning o‘zi yupqa qobiqni yarata olmaydi. Muammo hal etilishi uchun yerda qolgan qarindoshlari marhumning xotirasiga bag‘ishlangan maxsus diniy marosimlarni bajarishlari kerak. Aks xolda ruh tanasiz qoladi va yerga qaytib kelib, odamlarga ziyon yetkazishi mumkin. Shu bois

marhumning yaqin qarindoshlaridan belgilangan marosimlarni to‘liq bajarish talab qilinadi. Ajdodlar ruhiga bag‘ishlangan marosimlarni bajarmagan kishi hatto vorislik huquqidan ham mahrum qilinishi mumkin. Bunday marosimlarning vafot etgan har qanday kishi uchun o‘tkazilishi shart bo‘lsa-da, ruhi qayta tug‘ilishdan to‘xtagan kishilar uchun ayniqsa muhim sanaladi.

Hinduiylikda ko‘pdan-ko‘p diniy marosimlarni bajarish ishlariga braxmanlar rahbarlik qiladilar. Ruhoniy braxmanlar qadimgi davrdagi braxmanlar kastasining vorislardir. Hinduiylikda ham ular asosan imtiyozlarini saqlab qolganlar. Ular davlat tashkilotlari, xususiy firma va boshqarmalarda yuqori lavozimlarda xizmat qiladilar.

Braxmanlar ijtimoiy hayotning din talablari asosida tashkil etilishini nazorat qiladilar. Bu talablarning eng asosiyлари jamiyatning kastalarga bo‘linishi va odamlarning o‘z kastasi qoidalariga so‘zsiz amal qilishlaridir.

Braxmanlar kastasi vakillari ijtimoiy hayotning turli sohalarida faol ishtirok etsalar-da, ularning asosiy vazifasi jamiyat boshqa qatlamlarining diniy ehtiyojlarini ta’minlashdan iborat. Yuqorida qayd etilganidek, barcha muhim diniy marosimlar braxmanlar rahbarligida bajariladi. Diniy marosimlar asosan ibodatxonalarda o‘tkaziladi. Odamlar ibodatxonalarga xudoning butini e’zozlash, ibodat qilib, ehson berish niyatida keladilar. Braxman har bir dindorning ehsonini qabul qiladi va uni ilohga yetkazish bilan bog‘liq marosimlarni bajaradi.

Hinduiylikda kishining maqsadga erishishida braxmanning vositachiligi bilan birga g‘ayritabiyy kuchlarning xayrixohligiga erishish zarur deb hisoblangan. Bu esa diniy tizimda sehrgarlik amaliyoti – tantrizm (sanskrit tilida «tantra» – fikrni jimjimador qilib ifodalash, sir tutilgan matn, sehrgarlik)ning saqlanib qolishiga shart-sharoit yaratgan. Sehrgarlik usullari bo‘lmish tanralardan muqaddas afsunlar – mantralar vujudga kelgan. Hinduiylar mantralarda ilohiy kuch mavjud ekanligiga, ularni o‘qish bilan g‘ayritabiyy kuch (shakti)ni chaqirish va uning yordamida maqsadga mo‘jizaviy ravishda erishish mumkinligiga ishonganlar. Zero, mantra ovoz shakliga kirgan Braxma deb hisoblangan. Har bir kasta o‘z mantrasiga ega bo‘lib, hayotiy muammolar paydo bo‘lganda mantralarni o‘qib, g‘ayritabiyy kuchlarni yordamga chaqirgan.

Hinduiylikda mantralar bilan birga tumorlar, sehrli diagrammalardan ham foydalilanadi. Ular afsungarlik ashyolaridir. Odamlar o‘z hayotiy muammolarining hal etilishida braxmanlarning maslahatlari, xudolarga sig‘inish va ehsonlar berish yordam bermaganidan keyin so‘nggi vosita sifatida sehrgarlarning yordamlaridan ham foydalanadilar. Sehrgar ijtimoiy mavqeい jihatidan braxman bilan raqobat qila olmaydi. Albatta, braxmanni

sehrgar bilan tenglashtirish noo‘rin, lekin sehrgar ham jodularini bajarish vaqtida braxman murojaat qiladigan xudolarning madadiga tayanadi.

Hinduizm diniy tizimining o‘ziga xos marosimlari va bayramlari mavjud. Ularning ko‘philigi shonli sana va bayram kunlariga to‘g‘ri keladi. Xudoga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tantanalarda millionlab dindorlar ishtirok etadilar. Bayram tantanalari vaqtida ommaviy diniy marosimlar va namoyishlar uyushtiriladi, muqaddas joylarga haj safarlari tashkil etiladi. Bunday ommaviy bayramlarga Shiva, Ram, Krishna, Durga-pudja sharafiga o‘tkaziladigan bayramlarni, chiroqlar bayramini, donishmandlik ma‘budasi Sarasvati, boylik va savdo-sotiq homiysi Ganeshi sharafiga o‘tkaziladigan bayramlarni misol keltirish mumkin. Shivaga bag‘ishlangan bayramlar har oyda tantanali o‘tkaziladi.

Umum Hindiston bayramlari bilan birga ma’lum mintaqa, shahar, tuman, hatto qishloq aholisi nishonlaydigan mahalliy bayramlar ham mavjud bo‘lib, ular diniy afsonalar va hinduiylik xudolariga ibodat qilish bilan bog‘liq.

Bayramlarda diniy e’tiqodi, tabaqasi, millati va jinsidan qat’i nazar barcha aholi ishtirok etadi. Bunday bayramlar milliy ongi shakllantiruvchi va ularning birligini mustahkamlovchi muhim vosita vazifasini bajaradi.

Hinduiylik ta’limotining rivojlanishida islom dinining ta’siri alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Hindiston zaminida ta’limotning mohiyati jihatidan o‘zaro kelishishi qiyin bo‘lgan diniy e’tiqodlar to‘qnashgan. Hinduiylik mahalliy xalqlarning madaniyati va ruhiyatini o‘zida aks ettirib, odamlarda mo‘tadillik, bardoshlilik va o‘z ichki dunyosi bilan uyg‘unlikda yashash kabi xislatlarni shakllantirgan. Islomga, diniy bag‘rikenglik bilan birga, muayyan darajada g‘ayrimusulmonlarga nisbatan murosasizlik, odamlarni din talablariga so‘zsiz bo‘ysunishga va rahbarlarga ko‘r-ko‘rona ishonishga da’vat qilish kabilar ham xosdir. Lekin hinduiylik va islom ta’limotlarida jiddiy tafovutlar mavjudligiga qaramay xalqlarni e’tiqodiga ko‘ra bir-biridan ajratuvchi, ular o‘rtasida ishonchsizlik qo‘zg‘atuvchi qarashlarga nisbatan ularni o‘zaro yaqinlashtiruvchi jihatlar ustunlik qiladi. Bu esa dinlar o‘rtasida o‘zaro muloqotni vujudga keltiradi.

Islomda mavjud bo‘lgan odamlarning Olloh oldidagi tengligi, insonni oliy qadriyat deb bilish kabi g‘oyalar, axloqiy qadriyatlarga alohida e’tibor mahalliy xalqlarda, ayniqsa aholining o‘rta va quyi tabaqalari vakillarida qiziqish uyg‘otgan. Boburiylar sulolasining hukmronligi davrida siyosiy hokimiyatni musulmonlar nazorat qilganligi sababli, mahalliy aholining yuqori tabaqaga mansub vakillarining ham siyosiy manfaatlardan kelib

chiqqan holda oilaviy ravishda islom dinini qabul qilish hollari uchrab turgan. Lekin bu yerda islom boshqa mintaqalar (Misr, Eron, Mesopotamiya)dagi kabi xalqning ko‘p asrlik noyob an’analalarini yenga olmagan. Shu bois islom hinduiylik bilan birga faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘lgan.

Hinduiylik islom dini ta’limotining rivojlanishiga ham ta’sir o’tkazgan. Bu islomni qabul qilgan mahalliy aholi vakillari orqali hind xalqi an’analari bilan musulmonlarning yaqindan tanishishlari asosida amalga oshirilgan. O‘z navbatida, islom ham hinduiylikka, ham hind turmush tarziga ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, islom ta’sirida xotin-qizlarning ojiza sifatida oilada erkakka bo‘ysunishlari, ularning ko‘proq bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishlarini rag‘batlantirish va ijtimoiy faolliklarini cheklash kabilar milliy an’ana darajasiga ko‘tarildi. Bunday ta’sir san’at, adabiyot va me’morchilikda ayniqsa juda salmoqli bo‘lgan.

Hinduiylik va islom madaniyatining o‘zaro muloqoti qanchalik salmoqli bo‘lmisin, ikki din an’analardagi muammolar to‘liq bartaraf etilmagan. Bu muammolar, tashqi dushman ta’siri bo‘lmasa, e’tiqodi jihatidan bir-biridan farq qiladigan bitta xalqning tinch-totuv yashashiga to‘sinqlik qilmagan.

Hozir ham konfessiyalararo munosabatlар masalasi dolzarb muammo sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Zero, ingliz bosqinchilari tomonidan sun’iy hosil qilingan musulmonlar va hinduiylar o‘rtasidagi dushmanlik munosabatlari hinduiylikdagi modernizatsiya jarayonlariga salbiy ta’sir etgan. Islomga qarshi kurashda hinduiylikdagi fundamentalistik va ekstremistik ruhdagi mazhablar diniy an’analarni saqlab qolish shiorini o‘zlarining kurash bayrog‘iga aylantirganlar.

Hinduiylikdagi zamonaviylashuv (modernizatsiya) jarayonlariga to‘sinqliklarni faqat islomga qarshi kurash zarurati bilan bog‘lab talqin qilish noto‘g‘ri. Ma’lumki, ijtimoiy taraqqiyot ta’sirida dinda ham taraqqiyparvar o‘zgarishlarni amalga oshirish va diniy an’analarni hozirgi zamon talablariga moslashtirish zarurati vujudga keladi. Lekin bunday o‘zgarishlar konservativ kuchlar bilan kurash orqali amalga oshiriladi.

Qayd etish joizki, diniy an’analarga sodiqlik hamda ijtimoiy taraqqiyotga to‘sinqlik qilish aynan bir narsa emas. Hindiston tarixida biz shunday holatga duch kelamiz. Bu yerda hinduiylik an’analari ingliz mustamlakachiligiga qarshi kurashning samarali vositasiga aylantirilgan. M. Gandhi rahbarligidagi milliy ozodlik harakatining ishtirokchilari mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashda «svaraj» (o‘zining hokimiyati) shiori bilan chiqqanlar. Ushbu shior fuqarolarning mustamlakachilik

tartibiga bo‘ysunmasligini bildirgan. Kurash vositasi sifatida hinduiylikdagi kuch ishlatmaslik aqidasi asos qilib olingan.

M. Gandhi diniy qoida va an’analarga sodiq bo‘lsa ham, diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash olib borgan. Jamiatning kastalarga bo‘linishini va ular o‘rtasidagi tengsizlikni qoralagan. Xotinqizlarning tengligi va tul xotinlarning turmushga chiqish erkinligi uchun kurashgan. Hinduiylikdagi mustamlakachilarga qarshi kurashda yordam beradigan, taraqqiyiparvar siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga ko‘maklashadigan, xalqni umumiy maqsad atrofida birlashtiradigan g‘oyalarni qabul qilgan.

Hindistonning hozirgi siyosiy hayotida diniy an’alar, ayniqsa, hinduiylik an’alari juda katta ahamiyatga ega. Demokratik jamiyat qurayotgan mamlakatda siyosiy hokimiyat uchun kurashuvchi kuchlar diniy an’analarga o‘z dasturlarining eng dolzarb mavzusi sifatida qaraydilar. Reaksion siyosiy kuchlar hinduiylik an’alarining eng qoloq va konservativ g‘oyalarni jamiyatda qayta tiklashga harakat qiladilar. Lekin ular siyosiy hokimiyatda kuchli mavqega ega emaslar. Hozirgi siyosiy hokimiyat ma’muriyati diniy an’analardagi taraqqiyiparvar, zamonaviylashgan g‘oyalarga asoslanuvchi taraqqiyiparvar kuchlarni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hinduiylik nafaqat diniy ta’limot va madaniy an’ana, balki xalqning turmush tarzidir. U Hindistondagi mavjud boshqa diniy ta’limotlar bilan birga, ilg‘or jamiyat qurishdek bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etmoqda.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Buddaviylik ta’limotining asoslari nimalardan iborat?
2. Buddaviylikning braxmanizmdan asosiy farqlarini sanang.
3. Buddaviylikning muqaddas bitigi necha qismdan iborat?
4. Nima sababdan buddaviylik Hindistondan siqib chiqarilgan?
5. Hindistonda Braxmaga sig‘inuvchilar nima sababdan kamchilikni tashkil etadi?
6. Hinduiylik nima sababdan «hind xalqining turmush tarzi» deb ataladi?
7. Hinduiylikdagi bosh xudolar va ularning vazifalarini tushuntiring.
8. Hinduiylikning muqaddas bitiklariga misollar keltiring.
9. Hinduiylikning diniy-axloqiy qadriyatları qanday ta’limotlarda aks ettirilgan?
10. «Satyagarxi harakati» deganda nimani tushunasiz?

6-mavzu
XRISTIANLIK: MOHIYATI, MANBALARI
VA XUSUSIYATLARI

Xristianlik ta’limoti va marosimlari

Hozirgi davrda e’tiqod qiluvchilarning ko‘pligi jihatidan va xalqaro miqyosda nufuzli o‘ringa ega dinlardan biri xristianlikdir. Xristianlik milodiy I asrning boshlarida Rim imperiyasining mustamlakasi bo‘lgan Falastinda vujudga kelgan. «Xristianlik» iborasi qadimgi yahudiylar tilidagi «mashiax» so‘zining grek tiliga tarjimasida «xristros», ya’ni muqaddas yog‘ surtilgan, messiya (mahdiy) degan ma’nolarni anglatadi.

Falastin milodiy I asrda Rim imperiyasining provinsiya (viloyat)laridan biri bo‘lgan. Bu davrda Rim jamiyatining inqirozi uning provinsiyalarida yanada keskin tus olgan. Falastinda yashovchi yahudiylar imperiyaga bo‘ysundirilgan boshqa xalqlar qatori, mustamlakachilar va mahalliy hukmdorlarning zulmidan ezilganlar. Shu bois, norozi xalq mustabid tuzumga qarshi kurash olib borgan. Lekin chirigan imperiya hanuzgacha katta harbiy qudratga ega bo‘lganligi sababli, qo‘zg‘olonlarni shafqatsizlik bilan bostir ishga qodir edi. Uzoq vaqt davom etgan kurashning muntazam bostirilishi natijasida mazlum xalq orasida adolatsiz tuzumni yo‘q qilib, ilohiy podsholik quradigan xaloskor-messiya (mahdiy) to‘g‘risidagi g‘oya yuzaga kelgan. Ayni paytda, xalqning ezgu-niyatlaridan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanishga intiluvchilar, ayrim zohidlar, diniy mazhablarning vakillari, hatto tavakkalchi lo‘ttivozlar o‘zlarini mahdiy deb e’lon qilganlar.

Messiyachilik harakati odatda mustabid tuzumga qarshi umumxalq qurolli kurashi va uning shafqatsizlarcha bostirilishi bilan yakunlanar edi. Shuning uchun hukumat messiyachilik harakatiga qarshi keskin kurash olib borgan. Biroq davlatning unga qarshi keskin tadbirlari messiyachilik harakatini uzil-kesil yo‘qota olmagan.

Messiyachilik harakati davlat hokimiyatiga, uni qo‘llab-quvvatlovchi rasmiy mafkuraga va dinga ham qarshi bo‘lgan. Shu bois ular hokimiyatning messiyachilikka qarshi keskin kurashini qo‘llashlari bilan birga, unda faol ishtirok etganlar.

Milodiy I asrda Falastinda messiyachilik harakati shu qadar keng yoyilganki, mahalliy aholi ongida buyuk xaloskor-messiya Iso Masih (Iisus Xristos) to‘g‘risidagi diniy rivoyatlarning vujudga kelishi va mustahkamlanishiga sabab bo‘lgan.

Iso Masihning hayoti va faoliyati Bibliya (Injil)ning «Yangi Ahd» qismi, ya’ni yevangeliyalarda (grek tilida *euan gelion* – yaxshi xabar degan ma’noni anglatadi) bat afsil bayon qilingan.

Diniy rivoyatlarga ko’ra, farishta Gavriil (Jabroil) kambag‘al qiz Mariya (Mariyam)ga xudo unga xaloskor-messiyaning onasi bo‘lishni ato etganligi haqida xabar bergan. Mariya Ota xudo (xudoning qiyofalaridan biri)dan g‘oyibdan homilador bo‘lgan. Uning eri qariya Iosif (Yusuf) xotinining ilohiy homiladan tuqqan (Jabroil unga ma’lum qilgan) bolasini qabul qilgan.

Iso 30 yoshga kirganidan keyin Iordan daryosi bo‘yida Ioan Cho‘qintiruvchidan cho‘qintirishni qabul qilgan va da’vatkorlik faoliyatini boshlagan. Uning atrofida shogirdlari, qarindosh-urug‘lari va yaqinlaridan iborat maslakdoshlar guruhi shakllangan. Guruhning asosini Isoning 12 shogirdi – apostollar (grekcha *apostols* – vakil yoki arabchada havariylar degan ma’nolarni anglatadi) tashkil etgan. Iso guruh a’zolari bilan birgalikda Falastin bo‘ylab sayohat qilib, odamlarni yagona xudoga sig‘inishga da’vat etgan, bemorlarni davolaydigan, mo‘jizalar ko‘rsatgan.

Iso tashviqotlarda odamlarga yagona xudo yerdagi odamlarning yaratuvchisi ekanligini, xudoning yerda ilohiy podsholik o‘rnatalishi to‘g‘risidagi xabarini odamlarga yetkazish maqsadida o‘zining vakil qilib yuborganligini aytgan. Odamlarning ma’naviy tushkunlikdan xalos bo‘lishlari va ilohiy haqiqatga erishishlari yo‘lida o‘zini, (ya’ni Isoni) xudoning o‘g‘li, xudo va odamlar o‘rtasidagi vositachi sifatida tan olishlariga va uning ta’limotini qabul qilishga da’vat etgan.

Falastinda Isoning uch yillik da’vatchilik faoliyati kutilgan natija bermagan, unga ergashganlar juda kam bo‘lgan. Bundan tashqari, uning qarashlari iudaizm ta’limotiga mos kelmasligi, ba’zi bir muhim masalalarda unga qarshi turganligi, Quddus kohinlarining keskin qarshiligiga sabab bo‘lgan.

Rim davlati va kohinlar uni soxta mahdiylikda ayblab ta’qib qilganlar. Oqibatda Iso hokimiyat va rasmiy dinni badnom qilganligi uchun xochga tortib o‘ldirishga hukm qilingan. Iso Masihni uchta qaroqchi bilan birga qatl qilinishi belgilangan. O’sha davrda rasman tan olingan an’anaga binoan, qatl maydonida to‘plangan olomon o‘limga mahkum qilinganlar orasidan bittasini afv etish huquqiga ega edi. Shu bois, olomon qaroqchi Varravani tanlab, Iso Masihdan yuz o‘girgan.

Diniy rivoyatlarda qayd etilishicha, Iso qatl qilinganidan keyin uch kun o‘tgach mo‘jizaviy ravishda qayta tirilgan va shogirdlari bilan qirq

kun birga bo‘lgan. Qirqinchi kun Iso shogirdlariga oxiratda yana yerga qaytishini aytib, osmonga ko‘tarilib ketgan.

Isoning hayot faoliyati to‘g‘risidagi diniy rivoyatni qisqacha shunday ta’riflash mumkin. Yevangeliyalarda qayd etilgan Isoning hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarda noaniqliklar mavjud. Masalan, havoriy Matfey o‘z yevangeliyasida Iso shajarasini Dovud, Solomon va Ibrohim bilan bog‘lashga harakat qilgan. Havariy Luka Iso Dovudning 28-avlodi ekanligini qayd etgan. Mazkur dalillarni isbotlash qiyin, chunki Dovud tarixiy manbalarga ko‘ra, miloddan avvalgi X asrda yashagan (ming yil davomida ularning o‘rtasida bor-yo‘g‘i 28 ta avlod o‘tganligi shubhalidir).

Yevangeliyalarda Isoning hayoti to‘g‘risida qayd etilgan ma’lumotlardagi noaniqliklar yoki xatolar uning tarixiy shaxs ekanligiga shubha tug‘diradi. Shu bois uning shaxsiga munosabat masalasida afsonaviy va tarixiy maktablar shakllangan. Afsona maktabining vakillari Isoning tarixiy shaxs ekanligini inkor etadilar va Iso to‘g‘risidagi qarashlarning turli diniy rivoyatlardan tuzilganligini isbotlashga harakat qiladilar. Mazkur maktabning kamchiligi shundaki, unda Iso to‘g‘risidagi qarashlarning asosida hech qanday tarixiylik yo‘q degan g‘oyani isbotlashga intiladilar.

Boshqa tarixiy maktab vakillari esa Isoning tarixiy shaxs ekanligini isbotlashga harakat qiladilar. Bunda asosiy dalil sifatida yevangeliyalarda nomlari qayd qilingan personajlar: Ioan cho‘qintiruvchi, havariy Pavel, Rim noibi Pontiy Pilat kabilarning tarixiy shaxs ekanligi qayd etiladi. Albatta, bu dalillar uning tarixiy shaxs ekanligini isbot qilish uchun yetarli emas va bunga yanada asosli dalillar talab etiladi.

1946–1947 yillarda O‘lik dengiz qirg‘og‘ida joylashgan Qumron g‘oridan arxeologlar tomonidan qadimgi o‘rama bitiklarning topilishi ushbu masalaga oydinlik kiritgan. Qo‘lyozmalarning milodiy I asr o‘rtalarida Falastinda faoliyat ko‘rsatgan iudaizmning essinlar mazhabiga tegishli ekanligi aniqlangan. Essinlar e’tiqodi, diniy marosimlari va turmush tarzi bilan xristianlikka yaqin turgan.

Qumron qo‘lyozmalari asosan injilning lavhalari, jamoaning nizomi va duolardan iborat bo‘lgan. Qo‘lyozmalarda «yer yuzida adolat o‘rnatadigan ustoz», yangi diniy mazhabga asos solgan, iudaizm aqidalarini tanqid qilib, xristianlik ta’limotiga o‘xshash g‘oyalarni targ‘ib qilgan tarixiy shaxs yashaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

Dinshunoslik xristianlikning vujudga kelishi muammosini o‘rganar ekan, Isoning hayoti va faoliyati haqida bahs yurituvchi bu ikki maktabdan birining qarashlari to‘g‘ri ekanligini isbotlashga harakat qilmaydi. Ayni

paytda, masalaga ilmiy yondashuv milodiy I asrda Falastinda iudaizmning mazhablaridan biriga asos solgan va uning iudaizmdan farq qiladigan diniy ta’limotning shakllanishiga sabab bo‘lgan shaxs yashaganligini inkor etmaydi.

Shunday qilib, iudaizmning mazhablaridan biri sifatida vujudga kelgan xristianlik uzoq davom etgan izlanishlar jarayonida mustaqil diniy ta’limotga aylangan. Iso Masih iudaizmda mavjud kamchiliklarni tanqid qilar ekan, yangi dinga asos solishni maqsad qilib qo‘ymagan. U iudaizmdagi jaholat, butparastlikni kuchaytiruvchi jihatlarni o‘zgartirishga, haddan ortiq marosimchilikka chek qo‘yishga va shu yo‘l bilan uni takomillashtirishga harakat qilgan. Yahudiy kohinlari Isoning takliflarini rad etganlar va Isoni kuch ishlatib o‘z g‘oyalaridan voz kechishga majbur qilmoqchi bo‘lganlar. Lekin bunday harakatlar zoye ketgan va kurashuvchi taraflar o‘rtasidagi ixtiloflar tobora kengayib borgan. Iso iudaizmdan tobora yiroqlashgan va uning g‘oyalari yangi diniy ta’limotga asos qilib olingan.

Manbalarda qayd qilinishiga ko‘ra, Iso dastlab diniy qarashlarni Falastinning Kapernaum shahri atrofida joylashgan qirliklarda targ‘ib qilishdan boshlagan («Nagornaya propoved»)⁶. Isoning havariylarga qarata so‘zlagan nutqlarida iudaizmga zid g‘oyalar aniq namoyon bo‘ladi. Ularda Iso o‘zining qarashlarini «Eski Ahd»da yozilgan g‘oyalar bilan munozara usulida bayon qilgan. Aytulganki, «zino qilma», men aytamanki, kimda-kim «ojizalar»ga shahvoniy niyatda qarasa, u bilan qalbida zinoga yo‘l qo‘yadi. Aytulganki, «jonga-jon, qonga-qon», men aytamanki, «kimki sizning chap yuzingizga bir shapaloq ursa, siz unga o‘ng yuzingizni tuting», «zulmga zulm bilan javob bermang», «dushmanlaringizga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘ling» va hokazo⁷.

Shunday qilib, Iso ta’limoti vujudga kelgan vaqtdan boshlab, iudaizm qadriyatları qabul qilinmagan. Xudoning mohiyati muhabbat ekanligi va odamlarga yomonlik qilmasligi, uning oldida odamlarning tengligi, insonga mehr-muhabbat ko‘rsatish va ulug‘lash, axloqiy qadriyatlarning ahamiyati kabi g‘oyalar yangi dinning turli xalqlar orasida keng yoyilishiga sabab bo‘lgan.

⁶ Қаранг: *Миран Ю. В., Миран Ю. Г. Тайны богов и религий.* – М., 1999. – С. 978.

⁷ Қаранг: *Радугин А. А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии.* – М., 2000. – С. 117.

Xristianlik ta’limotining shakllanishida ilohiyot sohasidagi izlanishlar bilan birga ijtimoiy fikr, o’sha davrdagi falsafiy ta’limotlar va mutafakkirlarning g‘oyalari ham muhim manba vazifasini o’tagan.

Rim davlatining inqirozi natijasida, odamlarning jaholat girdobiga botib qolgan jamiyatga va ertangi kunga ishonchi yo‘qolgan. Rasmiy din odamlar orasida tobora o‘z mavqeini yo‘qotib borgan. Odamlar orasida qismatga, taqdiri azalga ishonish keng yoyilgan. Ilohiy xaloskor to‘g‘risidagi g‘oya paydo bo‘lgan. Qismatga, taqdiri azalga ishonish o‘sha davrdagi falsafiy maktablar ta’limotida va mutafakkirlarning qarashlarida ham dolzarb mavzuga aylangan.

Milodiy I asrda Qadimgi Rimda keng yoyilgan stoiklar (grekcha *stoa* – bino oldidagi ustunli uzun ayvon degan ma’noni anglatadi, mактаб asoschisi Zenon yashagan Afina shahri ibodatxonasi tarhidan olingan atama) falsafiy maktabining ta’limoti diqqatga sazovordir. Stoiklar talqinida dunyo bir butun, yaxlit voqelik bo‘lib, undagi voqea va hodisalar umumiyl tartibga bo‘ysunadi. Dunyoning birligi uni vujudga keltirgan va boshqarib turadigan ilohiy Logos (xudo) faoliyatining natijasidir. Ilohiy Logos borliqdagi jarayonlarni boshqarish bilan birga uning, shu jumladan odamlarning ham taqdirini oldindan belgilaydi.

Stoiklarning taqdiri azal to‘g‘risidagi ta’limoti Senekaning qarashlarida mukammal bayon qilingan. Uning fikriga ko‘ra, borliq moddiy va ruhiy dunyolarga bo‘linadi. Moddiy dunyo ruhiy dunyoga bo‘ysunadi va mustaqil faoliyatga qodir emas. Undagi tartib va mukammallik olamiy aql, ya’ni xudo faoliyatining mahsulidir. Xudo barcha narsa va voqealarning sababchisi, taqdirni belgilovchi oliy borliqdir. Tabiat voqeliklarida ruh mavjud. Voqeliklarda mujassamlangan ruh xudo ruhining bir zarrasini tashkil etadi. Tirik mavjudotlarda joylashgan ruhlar o‘z qobig‘ini tark etib, «ozodlikka chiqishga» va mutlaq ruhga qo‘shilishga intiladi. Diniy rivoyatlardan ma’lumki, ruhning tanani tark etishi «tabiiy» hodisadir, shunday ekan, odamlar hayotga va o‘limga bir xilda munosabatda bo‘lishlari kerak.

Har bir odamda ilohiy ruhning bir zarrasi mavjudligi, ularning ruhan tengligini bildiradi. Ular o‘rtasidagi tengsizlik jamiyatga xos voqelikdir. Qul pok vijdoni, insonparvarligi, do‘stlarga sadoqati, jasurligi kabi ma’naviy fazilatlari bilan xo‘jayinidan ustun turishi mumkin. Qullik kishining jismoniy holatidir.

Seneka borliqni ilohiy dunyo va odamlar dunyosiga bo‘ladi. Ular bir-birlari bilan bog‘liqdir. Ikki dunyo o‘rtasidagi aloqachi vazifasini avliyosifat kishilar jamoasi bajaradi. Jamoa a’zolarining diniy va dunyoviy

hokimiyatga itoatkorligi, zulmga qarshilik ko'rsatmasligi, jismiylikdan ruhiy yetuklikni ustun qo'yuvchi, stoiklar ta'limotini yaxshi biladigan va ularga so'zsiz amal qiladigan kishilar orasidan tanlab olinishi tavsiya etiladi. Seneka targ'ib qilgan kishilardagi fazilatlar xristianlikning ma'naviy qadriyatlariga mos keladi.

Seneka davlatlarni ikki turga bo'ladi:

1) xudo va odamlarning hamkorligiga asoslanuvchi, hududi yerning muayyan bir bo'lagi bilan cheklanganmaydigan katta davlat;

2) hududi makonda cheklangan kichik davlat. Odamlar ikkala davlatga ham xizmat qilishlari mumkin, lekin bu dunyoda xalqlarni birlashtiruvchi ilohiy davlatni tanlagan odam yutqazmaydi.

Shu tariqa kishilar ongiga kosmopolitizm (grekcha *kosmopolites* – yer shari fuqarosi degan ma'noni anglatadi) singdiriladi. Bu ta'limot oxiratda yer yuzidagi barcha odamlarni birlashtiruvchi ilohiy podsholikni qurish g'oyasiga asoslanadi.

Seneka ta'limotidagi moddiy dunyo lazzatlarining o'tkinchiligi, odamlarga hamdardlik, kamtarona yashash, o'zini xudoga baxshida etish kabi g'oyalari xristianlik ta'limotida yanada rivojlantirilgan.

Xristianlik ta'limotining shakllanishida Aleksandriyalik Filon (miloddan avvalgi 20 – milodiy 54 yillar) qarashlari alohida ahamiyatga ega. Filon diniy qarashlarda ustuvorlik qilib kelgan xudoni «mavhum, shaxsi noma'lum ibtido» deb ta'riflashga keskin qarshi chiqqan. Uning fikricha, agar xudo mutlaq ibtido bo'lsa, shaxsiyatsiz mavjud bo'la olmaydi, chunki uning shaxsiyati bo'lmasa, undan oldin yana nimadir bo'lishi kerak. Xudo nafaqat qiyofaga ega, balki ezgulik, go'zallik va donolik timsolidir.

Borliq xudo irodasi va faoliyatining mahsulidir. Dunyo ko'rinmas (ilohiy) va ko'rinadigan (moddiy) qismlarga bo'linadi. Xudo moddiy dunyodan tashqarida mavjuddir. Moddiy dunyodagi barcha narsa va hodisalar, jumladan odamlarni ham xudo yaratgan. Ular xudo faoliyatining mahsulidir. Xudo odamlarning bilishi va unga ergashishi zarurligini bildirish uchun o'z o'g'lini yer yuziga vakil qilib yuborgan.

Filon odamlarga xos bo'lgan illatlar – maishiy buzuqlik, o'zgalarga befarqlik, mehrsizlik, mansabparastlik, boylikka hirs qo'yish kabilarni qoralagan, odamlarning xudo oldida tengligini e'tirof etgan. Uning ijtimoiy qarashlari xristianlik ta'limotining shakllanishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Xristianlik ta'limotining ilohiy manbalari muqaddas bitiklar va muqaddas rivoyatlarga bo'lib o'rganiladi. Diniy rivoyatlarga ko'ra, xudo

muqaddas bitiklar (yozuvlar)ni odamlarga ularning ijtimoiy-madaniy jihatdan tayyorligi darajasiga qarab, uzoq vaqt davomida vahiy qilgan. Xristianlikning muqaddas yozuvi Bibliya (arabchada Injil) deb ataladi. Bibliya (grekcha *biblia* – kitoblar degan ma’noni anglatadi) matnining asosiy qismi bir necha sahifadan iborat kitoblar to‘plamidan tuzilgan.

Injil ikki qismga bo‘linadi. Birinchi qismi «Eski Ahd» («Eski rivoyat») deb ataladi. «Eski Ahd»ning matni yahudiylarning muqaddas bitiklaridan tuzilgan. Uning matnini to‘plash miloddan avvalgi XII asrdan boshlangan va miloddan avvalgi II asrga qadar davom etgan. Mazmuniga ko‘ra, «Eski ahd» yahudiy xalqining qadimgi diniy va qabilaviy an’analarini aks ettiradi.

Injilning ikkinchi qismi «Yangi Ahd» deb ataladi. Birinchi qismidan farqli o‘laroq, uning matni xristianlik paydo bo‘lganidan keyin tuzilgan va u, odatda, Injilning «xristianlik qismi» deb ataladi. «Yangi Ahd» to‘plami yevangeliyalardan tuzilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, taxminan 30 ta yevangeliya mavjud bo‘lgan. Shulardan, Isoning shogirdlari bo‘lmish havariylar (apostollar) Matfey, Mark, Luka va Ioannlarning yevangeliyalari, havariylarning amallari, 21 risola va Ioann vahiy nomasi (yoki oxir dunyo) kabilar Injilga kiritilgan, qolgan yevangeliylar din uchun zararli deb topilib, yo‘q qilingan.

Yevangeliyalarda Iso Masihning hayoti, mo‘jizalari va ta’limoti, havariylar Pyotr va Pavellarning xristianlikni targ‘ib qilishlari, diniy e’tiqod va amal bilan bog‘liq masalalar bayon qilingan.

Injil qismlarining nomlariga ahd so‘zining qo‘shib ishlatalishi xudo bilan odamlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ahdnomaga asosida tartibga solib turilishini anglatadi. «Yangi Ahd» xudo bilan odamlar o‘rtasida Iso vositachiligidagi yangi ahndlashuv hisoblanadi.

Xristianlik ta’limotining ikkinchi manbai muqaddas rivoyatlardir. Muqaddas bitiklardan farqli o‘laroq, ularni xudo cherkovga og‘zaki vahiy qilgan deb hisoblanadi. Muqaddas rivoyatlar muqaddas yozuvlarning ilohiy ahamiyatini asoslaydi, ilohiy qoidalarni sharhlaydi, zamonga moslashtiradi.

Bu rivoyatlarning muhim manbalaridan biri I–VIII asrlarda xristianlik ta’limotining falsafiy va ijtimoiy-siyosiy asoslarini ishlab chiqishda ishtirok etgan ilohiyotshunos mutafakkirlar hamda «cherkov otalari», ya’ni patristikaning («patristika» lotinchada *patryes* – otalar degan ma’noni anglatadi) asarlari tashkil etadi. Misol uchun, «cherkov otalari» qatoriga kiritilgan ilohiyotshunoslardan Yustin (II asr), Afinagor (177 yilda vafot etgan), Tertullian (taxminan 160–220 yillar), Avgustin (354–430 yillar) va boshqalarni qayd qilishimiz mumkin. Ular o‘z asarlarida cherkov aqidalari,

xristianlik ilohiyoti va falsafasi asoslarini ishlab chiqishda beqiyos hissa qo'shganlar.

Xristianlik ta'limotining asoslari quyidagilardan iborat:

1) *xudoga ishonish*. Xristianlikda xudo bitta, lekin u uch qiyofalidir. U Ota xudo, O'g'il xudo (Iso Masih) va Muqaddas Ruhdan iboratdir. Ota xudo tug'ilish yo'li bilan paydo bo'limgan, uni hech kim yaratgan emas. Olam va undagi mavjudotlar uning faoliyati mahsulidir. O'g'il xudo (Iso Masih) mo'jizali ravishda tug'ilgan. U – xristianlikning asoschisi. Muqaddas Ruh esa Ota xudodan paydo bo'lgan⁸. Xristianlikdagi xudo obrazi boshqa dinlardagi xudo obrazlaridan farq qiladi. Masalan, Qadimgi Gretsya xudolari kabi shuhratparastlik, odamlar taqdiriga befarqlik, ayshishratga moyillik, manmanlik, shafqatsizlik, qasoskorlik va odamlarga xos boshqa illatlar unda yo'q. Xudolar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro keskin kurash ham yo'q. Xristianlikda xudo odamlarning aql-idroki bilan tushunib bo'lmaydigan tilsimot bo'lib, u ilohiy dunyoda mavjud. Xudo muhabbatdir. U odamlarga hech qachon yomonlik qilmaydi. Yomonlik insonning birlamchi gunohkorligi va «noto'g'ri» turmush tarzining natijasidir⁹;

2) *Iso Masihning xaloskor-messiya ekanligiga ishonish*. Xudo Adam (Odam Ato) va Yeva (Momo Havo)larning «birlamchi gunohi»ni afv etish va odamlarga ilohiy haqiqatni yetkazish maqsadida o'z o'g'lini yer yuziga yuborgan. Iso Masih yerdagi hayot iztiroblari va o'limi bilan ularning gunohlarini o'z zimmasiga olgan. Odamlarga xalos bo'lishning to'g'ri yo'lini ko'rsatib, xristianlikka asos solgan;

3) *Iso Masihning qayta tirilishiga ishonish*. Iso Masih o'ldirilganidan keyin uch kun o'tgach qayta tirilgan va 40 kundan keyin osmonga ko'tarilgan. U yer yuziga yana bir marta oxiratda Dajjal (Antixrist)ni o'ldirib, o'liklar va tiriklarni so'roq qilish va ilohiy podsholikni qurish uchun qaytib keladi;

4) *odamning gunohkorligi va undan xalos bo'lishiga ishonish*. Xudo odamlarning ajdodi Adam va Yevani o'zining jismiga o'xshash qilib yaratgan va ularga boqiy hayot baxshida etgan, moddiy dunyoga egalik qilish va boshqarishni buyurgan. Jannatda yashayotgan Adam va Yeva xudodek bo'lishga intilib, man qilingan «donishmandlik» daraxtining mevasini yeganlar. Oqibatda odam boshqa jonzodlar bilmaydigan yaxshilik va yomonlikni farqlay boshlagan, uyat nimaligini tushungan. Shu

⁸ Каранг: Васильев Л. С. История религий Востока. – М., 1983. – С. 86.

⁹ Введение в культурологию / От. ред. Е. В. Попов. – М., 1996. – С. 220.

bois insoniyat hayotida cheksiz muammolar paydo bo‘lgan. Xudo ularni bu qilmishlari uchun jazolagan: birinchidan, odamlar yalpi gunohkorlikka mahkum qilinganlar; ikkinchidan, boqiy hayot imtivozi bekor qilingan.

Xristianlikda birlamchi gunoh oqibatlaridan qutulish yo‘llari ko‘rsatilgan. Bu ish bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda Iso Masih yerga kelib, yerdagi izardorlari va o‘limi bilan birlamchi gunohni o‘z zimmasiga olgan. Ikkinchi bosqichda Iso Masih yerga oxiratda yana qaytib keladi, Antixristni yengib abadiy hayot, baxt-saodat hukmon bo‘lgan ilohiy podsholikni vujudga keltiradi. Shu vaqt dan boshlab, odamlarga berilgan «birlamchi gunoh» jazosi bekor qilinadi, insonlarning baxtli va boqiy hayot davri boshlanadi;

5) *jannat va do‘zaxga ishonish*. Jannat va do‘zax – odamlarning o‘lganidan keyin yerdagi xulq-atvorlariga ko‘ra ruhlari oxiratgacha turadigan joy;

6) *oxiratga ishonish*. Xristianlik ta’limotiga binoan, oxirat boshlanishidan oldin yerga Antixrist keladi va qiyomat-qoyim boshlanadi. Oxir-oqibatda Iso Masih yerga qaytib kelib, Antixristni yengadi. O‘lganlar qayta tiriladi, tiriklar va o‘lganlar qayta ajrim qilinib, yangi hayot boshlanadi;

7) *axloq qoidalarining diniy ta’limotdagi katta ahamiyati*. Xristianlik axloqidagi ustuvor qoidalar xudoni sevish va yaqin kishiga bo‘lgan muhabbatdir. Yaqin kishini sevish odamning o‘z yaqin qarindoshlarinigina emas, balki u bilan bevosita muloqotda bo‘lgan odamlarni ham sevishini bildiradi. Xudo asosiy axloqiy qadriyat sanaladi va odamlardagi mo‘minlik, haqiqatni izlash, rahmdillik va tinchliksevarlik fazilatlari ulug‘lanadi.

Xristianlikda (boshqa dinlardagi kabi) diniy marosimlar va bayramlarga alohida e’tibor beriladi. Zero, ular orqali kishilar ongida xudoga ishonch, e’tiqod mustahkamlanadi, o‘zaro ilohiy munosabatlar o‘rnataladi. Kishilar ongiga hissiy-obrazli ta’sir etish bilan diniy ta’limot mustahkamlangan va avloddan-avlodga o‘tkazib kelingan. Masalaning murakkabligi shundaki, xristianlikning marosim va bayramlari uzoq vaqt davomida shakllangan va bu jarayon undagi turli yo‘nalish va oqimlarning vujudga kelishi bilan bir vaqtida amalga oshgan. Shu bois xristianlikning marosim va bayramlari masalasiga yo‘nalishlarini tahlil qilganda to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Katoliklar va pravoslavlarning o‘ziga xos jihatlari

Milodiy 329 yilda xristianlik Rimda davlat dini sifatida tan olingan. Xristianlikning davlat diniaga aylanishi munosabati bilan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy mavqeい o‘zgargan, cherkovning mulkdorlar sinfi vakillari manfaatlari va mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni himoya qilish vazifalari ustunlik qila boshlagan. Davlat hokimiyati cherkovning aholi o‘rtasidagi ta’sirini hisobga olgan holda, provinsiya (viloyat)larda ruhoniylarning yeparxiyalarini (grekcha *eparchia* – rahbariyat, hokimiyat degan ma’nolarni anglatadi), ya’ni cherkov ma’muriy okruglarini tashkil etgan. Yeparxiyalarga arxiyepiskop (grekcha *episkopos* – nozir, nazoratchi degan ma’nolarni anglatadi) rahbarlik qilgan.

Xristianlik davlatni mustahkamlashga xizmat qilish bilan birga hokimiyat va boylik uchun kurash jarayoniga tortilgan. O’sha davrda Rim davlatining zaiflashuvi cherkovning bu kurashdagi imkoniyatini yanada mustahkamlagan. Zero, kuchli markazlashgan davlat parchalanishi natijasida paydo bo‘lgan kichik davlatlar cherkov kabi ittifoqchiga muhtoj edi. Aholining madadiga tayangan cherkov mavjud imkoniyatdan unumli foydalangan va siyosiy hokimiyat uchun kurashda faol ishtirot etgan. Bu kurashda Rim va Vizantiya xristian cherkovining yirik markaziga aylangan. Quddus, Aleksandriya, Antioxiya (Suriya, Arabiston, Kipr kabilarni birlashtirgan mustaqil pravoslav cherkovi) va boshqa yeparxiyalar ularga bo‘ysundirilgan.

Rim yeparxiyasi xristian cherkovining eng qudratli tashkilotlaridan biri bo‘lgan. G‘arbiy Rim imperiyasi ag‘darilganidan keyin (476 yil) uning hududida kichik davlatlar vujudga kelishi natijasida Rim yeparxiyasining qudrati yanada ortgan. Rimda hokimiyat yepiskopning qo‘liga o‘tgan. Keyinchalik Rim yepiskopi papa (lotincha *papa* – ota, ustoz, murabbiy degan ma’nolarni anglatadi) unvonini olgan. VIII asrning ikkinchi yarmida Apennin yarimorolida Papa viloyati vujudga kelgan. Rim papasi diniy va dunyoviy hokimiyatga rahbarlik qiladigan bo‘lgan. Papa o‘z hokimiyatini butun Rim imperiyasi hududiga va boshqa yerlarga yoyishga harakat qilgan.

Sharqiy Rim imperiyasida (Vizantiya) markazlashgan davlat G‘arbiy Rim imperiyasi qulaganidan keyin ham uzoq vaqt davomida (XV asrning o‘rtalarigacha) saqlanib qolgan. Konstantinopol cherkovi imperator hokimiyatiga bo‘ysundirilgan. Kuchli imperator hokimiyati sharqiy cherkovni o‘ziga bo‘ysundirish bilan birga g‘arbiy cherkovning

mustaqilligini saqlab qolishga va o‘z ta’sirini boshqa hududlarga yoyishiga ko‘maklashgan.

Rim papasi va Vizantiya cherkovi o‘rtasida xristianlikning markazi maqomini qo‘lga kiritish uchun o‘zaro kurash boshlangan. Bu kurash murosasiz tus olib, unda goh u, goh bu tomon ustun kelib turgan. Oqibatda, 1054 yilda Rim va Konstantinopol cherkovlarida uzil-kesil ajralish yuz bergen. Xristianlik shu sanadan boshlab rasman ikki yo‘nalishga bo‘linib ketgan. Rim papasiga bo‘ysunuvchi yeparxiyalar katolik (butun dunyo) cherkovi, Konstantinopol patriarxiga bo‘ysunuvchi yeparxiyalar esa pravoslaviye (chin e’tiqod) cherkovi degan nom olgan.

Xristianlikning eng katta yo‘nalishlaridan biri katolik cherkovidir. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, XX asrning oxirlarida katoliklarning soni 900 mln. kishini tashkil etgan. Katoliklar asosan G‘arbiy, Janubi-sharqiy va Markaziy Yevropada, Lotin Amerikasida keng yoyilgan. Afrika aholisining 1/3 qismi katoliklardir. Cherkov Shimoliy Amerikada kuchli ta’sirga ega bo‘lib, dunyoning boshqa mintaqalarida ham keng yoyilgan.

Katolitsizm ta’limotining manbaini muqaddas bitiklar va rivoyatlar tashkil etadi. Bu ikki manba xristianlikda ahamiyati jihatidan teng hisoblansa-da, katolitsizmda boshqa yo‘nalishlardan farqli o‘laroq, muqaddas rivoyatlardan kengroq foydalaniladi. Katolitsizmda «cherkov otalari»ning (patristika) ilohiyotga bag‘ishlangan asarlari, Jahon soborlari va Rim papasining rasmiy hujjatlari, qadimiy ibodat tajribalari muqaddas rivoyatlar sifatida qabul qilingan.

Katolitsizm aqidalari va marosimlari pravoslaviyenikiga yaqin turadi. Unda pravoslaviyedagi kabi «e’tiqod ramzi»ning 12 aqidasi va 7 ta sirli marosimi tan olinadi. Lekin e’tiqod ramzi aqidalariga bir qator qo‘shimchalar kiritilgan. 589 yilda qabul qilingan filioka (lotinchadan so‘zma-so‘z tarjimasi o‘g‘ildan ham degan ma’noni anglatadi) aqidasiga binoan, xudo Muqaddas Ruh xudo Ota va xudo O‘g‘il (Iso)dan paydo bo‘lgan. Mazkur aqida katolitsizmda Isoning yerdagi noibi deb tan olingan Rim papasining hokimiyatini yanada mustahkamlaydi. Papa hokimiyati avliyolar va farishtalar hokimiyatidan ham yuqori qo‘yiladi.

Shuningdek, katolitsizmda odam o‘lganidan keyin ruhi jannat va do‘zax oralig‘idagi a’rofga tushishi to‘g‘risidagi aqida mavjud. Unga ko‘ra, tirikligida gunohlari yuvilmagan, lekin «kechirilmas gunoh» sodir etmagan kishilarning ruhi a’rof olovida tozalanganidan keyin jannatga tushishi mumkin. Lekin bu murakkab jarayon, chunki ruhning a’rofdan chiqib ketishi uchun boshqa kishi o‘zining ortiqcha savobini berishi lozim. Shu bois cherkov savob ishlarning zaxirasini vujudga keltiradi. A’rofda

qiynoqqa duchor qilingan odamlar o‘z ruhlarini jannatga o‘tkazish uchun zaxiradan foydalanadilar. Savob ishlar zaxirasi Iso Masih, Bibi Mariyam, avliyolar va dindor kishilarning ortiqcha savob ishlari, xizmatlaridan hosil qilinadi va doimo to‘ldirib boriladi. Zaxira doimo to‘ldirib turilishi uchun cherkov kishilarni doimo savob ishlar qilishga da’vat etadi.

O‘rta Asrlarda a’rof haqidagi aqida indulgensiylar (lotincha *indulgere* – marhamat qilish, shafqat qilish degan ma’nolarni anglatadi) sotishdek noxush hodisani vujudga keltirgan. Qayd etish joizki, XII asrgacha indulgensiylar cherkovga xush keladigan ishlarni bajaruvchilarga, ya’ni cherkov o‘rnatgan tartiblarga qat’iy amal qilganlar, muqaddas joylarni ziyyarat qilganlar va salib yurishlarida ishtirok etganlarga berilgan. XII asrdan boshlab indulgensiysi sotish tartibi joriy qilingan. Masalaning salbiy jihat shundaki, mulkdor kishi «kechirilmas gunohi»dan tashqari, barcha sodir etgan gunohlarini pul to‘lab yuvishi mumkin bo‘lgan. Hattoki kishi qaysi gunohi uchun qancha pul to‘lashi kerakligi to‘g‘risidagi jadval ishlab chiqilgan. Cherkov indulgensiyalarni sotish tartibini XIX asrgacha qo‘llab kelgan.

Katolitsizmda Bibi Mariyamni ulug‘lashga katta e’tibor beriladi. 1854 yilda papa Piy I Bibi Mariyamning ilohiy homiladorlik bilan tug‘ilganligi to‘g‘risidagi aqidani tasdiqlagan. Keyinchalik Bibi Mariyam xudoning marhamati bilan birlamchi gunoh ta’siridan himoyalanganligi e’lon qilingan. Keyinchalik Bibi Mariyamning vafot etganidan keyin jasadi va ruhi osmonga ko‘tarilib ketganligi qayd etilgan. Ushbu aqidaga asoslanib, 1954 yilda «falakning malikasi» sharafiga bag‘ishlanuvchi diniy bayramning o‘tkazilishi joriy qilingan. Katoliklar Bibi Mariyamni avliyolar kabi ulug‘lash bilan birga xotin-qizlarning gunohlarini xudodan so‘rab beruvchi homiy deb biladilar.

Katolitsizmda Rim papasi xristianlarning rahbari ekanligi to‘g‘risida aqida mavjud. Katoliklar o‘z e’tiqodlarini xristianlik ta’limotini to‘liq ifodalaydigan yo‘nalish deb biladilar. Shu bois Rim papasi Isoning yerdagi noibi, Rimning birinchi yepiskopi, havariy Pavelning vorisi deb tan olinadi. 1870 yilda Vatikanda Rim papasining benuqsonligi haqidagi aqida qabul qilingan. Unga binoan, papaning rasmiy chiqishlarida din va axloq masalalarida aytgan fikrlari benuqson yoki, boshqacha aytganda, u xudoning irodasini yetkazuvchi vakildir.

Ruhoniylarning ijtimoiy ahvoli masalasida katolitsizm boshqa yo‘nalishlardan sezilarli darajada farqlanadi. Katolik cherkovida ruhoniylarning maishiy turmushida XI asrdan boshlab selebat, ya’ni rohib va rohibalarning turmush qurmasligi qoidasiga amal qilinadi. Ruhoniy

xudo va odamlar o‘rtasidagi vositachi deb tan olinadi. Odamlarning o‘zлari ruhoniying yordamisiz va murabbiyligisiz mustaqil ilohiy haqiqatga erisha olmaydilar deb hisoblanadi. Ular diniy tashkilot vazifasini bajaruvchi ordenlarga birlashganlar. Katolik cherkovida iyezuitlar (Iso jamiyati), fransiskanlar, salezianlar, dominikanlar, kaputsinlar, xristian birodarlari, benediktlar kabi katta-katta rohiblik ordenlari mavjud. Orden a’zolari kiyim-kechagi bilan bir-biridan farq qiladilar.

Katoliklarning diniy marosimlarida ham xristianlikning boshqa yo‘nalish va oqimlaridan farqlar mavjud. Masalan, yetti sirli marosimni olib ko‘raylik. Cho‘qintirish sirli marosimini bajarishda rohib cho‘qintirilayotgan kishining ustidan suv quyadi yoki uni suvga botirib oladi. Miro yog‘ini surish sirli marosimi katoliklarda «konformatsiya» deb ataladi. Marosim kishining bolalik yoki o‘smirlik yoshida bajariladi. Non va vino tortish sirli marosimida pravoslaviyeda maxsus pishirilgan kulcha non (prosfora)dan foydalanilsa, katoliklarda kvas qo‘shib qorilgan xamirdan tayyorlangan quymoq shaklidagi non (prosfora) ishlatiladi. Umuman, katoliklarning sirli marosimlarni bajarish usullarida qisman tafovut bo‘lsa-da, aslida, pravoslaviyedagiga o‘xhash ekanligini qayd etish mumkin.

Diniy ibodatni tashkil etishda ham bir qator o‘ziga xos jihatlar mavjud. Diniy marosimlarni bajarish vaqtida cherkovda dindorlar o‘tirishlari mumkin, faqat ayrim duolar tik turib o‘qiladi. Shuning uchun katolik cherkovlarida kursilar qo‘yilgan. Diniy marosimlar lotin tilida olib boriladi. Ularni bajarish vaqtida organ yoki dam berib chalinadigan musiqa asboblari (filgarmoniya)dan foydalaniladi.

Diniy tashkilotlarni boshqarishning murakkab tizimi vujudga keltirilgan. Yuqorida qayd etilganidek, katoliklar Yer sharining barcha qit’alariga yoyilgan va xalqaro markazi Vatikanda joylashgan. Unga Rim papasi rahbarlik qiladi. Vatikan Rim shahrining markazida joylashgan. Maydoni – 44 hektar. 1929 yilda Musolini hukumati va Rim papasi Piy XI o‘rtasida tuzilgan Lateran shartnomasiga binoan Vatikanga shahar-davlat maqomi berilgan va u davlat suverenitetiga ega bo‘lgan. Har qanday suveren davlat kabi uning hududi, chegarasi, fuqarolari, gerbi, bayrog‘i va madhiyasi bor. Vatikanni dunyoning ko‘p mamlakatlari tan olgan va u bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Aksariyat xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, YUNESKO, MAGATE, Yevropa Kengashi kabilarning ishlarida Vatikan kuzatuvchilari ishtiroy etadi.

Rim papasini kardinallar (lotincha *cardinalis* – asosiy, katta, eng muhim degan ma’nolarni anglatadi), ya’ni katolik cherkovida papadan

keyin turuvchi mansabdor shaxs kollegiyasi umrbod muddatga saylaydi. Hozirgi kunda Rim papasi nemis millatiga mansub Benedikt XVI.

Vatikan davlatining asosiy qonuni sifatida Konstitutsiya qabul qilingan. Unga ko‘ra, Rim papasi qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatining boshlig‘idir. Davlatning Markaziy ma’muriy boshqaruva apparatiga Rim kuriyasi rahbarlik qiladi. U dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida faoliyat ko‘rsatayotgan katolik cherkovi va Vatikanga bo‘ysunuvchi dunyoviy tashkilotlarning ishlarini boshqaradi. Rim kuriyasi davlat kotibiyati, 9 ta kongregatsiya (lotincha *congregatio* – ittifoq, birlashma degan ma’nolarni anglatadi, davlat vazirliklari vazifasini bajaradi), 12 ta kengash, 3 ta tribunal va 3 ta devonxonadan iborat.

Davlat kotibiyatiga kardinal stats-kotib rahbarlik qiladi. U Bosh vazir va tashqi ishlar vaziri vazifalarini bajaradi. Davlat kotibiyati ichki va tashqi ishlarni boshqaradi. Muqaddas kongregatsiyalar, kengashlar va kotibiyat cherkov ishlari bilan shug‘ullanadi. Uning tarkibidagi diniy ta’limot masalalari bilan shug‘ullanuvchi kongregatsiya eng asosiysidir. Ushbu tashkilot ruhoniylar va ilohiyotshunoslarning dunyoqarashi, xulq-atvori va matbuotda chiqishlarining ortodoksal katolik cherkovi ta’limotiga mos kelishini nazorat qilib turadi. O‘rta asrlar davrida ushbu tashkilot hurfikrlikning har qanday ko‘rinishlariga qarshi keskin kurash olib borgan, inkvizitsiya sudlarini tashkil etib, ularga rahbarlik qilgan.

XX asrda jahon miqyosida demokratik jarayonlarning tobora keng yoyilishi katolik cherkovini boshqarish ishida ham muayyan o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Cherkovni boshqarishda demokratik qadriyatlar joriy qilingan, milliy cherkovlarning vakolatlari kengaytirilgan. Rim papasi huzurida maslahat ovoziga ega muqaddas Sinod tashkil etilgan. Sinod uch yilda bir marta chaqiriladi. Uning tarkibi milliy yepiskoplar konferensiyalari va rohiblar ordenlarining rahbarlari, Sharqiy cherkovlarning patriarxlari va mitropolitlari hamda papa shaxsan tayinlagan ruhoniylardan iborat. Sinod katoliklarning hayoti va e’tiqodi bilan bog‘liq eng muhim masalalarni muhokama qiladi va ular yuzasidan bajarilishi shart bo‘lgan qarorlarni qabul qiladi.

Mintaqalar darajasida yepiskoplarning konferensiyalari o‘tkazib turiladi. Konferensiyalar oralig‘ida unda saylangan rahbarlik organi faoliyat olib boradi. Mintaqaviy konferensiyalarga cherkov bilan bog‘liq ishlarni boshqarishda keng vakolatlar berilgan.

Milliy cherkovga papa tayinlagan kardinal, patriarch yoki mitropolit rahbarlik qiladi. Milliy cherkovlar yeparxiyalarga bo‘linadi. Yeparxiyaga iyerarx (grekcha *hieros* – muqaddas, *arche* – hokimiyat degan ma’nolarni

anglatadi) rahbarlik qiladi. Iyerarxga, boshqarayotgan yeparxiyaning nufuziga qarab, yepiskop yoki kardinal unvoni berilishi mumkin.

Katolik cherkovining boshlang‘ich tashkiloti (pravoslaviyedagi kabi) qavm (prixod) deb ataladi. Qavmlarni ruhoniy boshqaradi.

Cherkov boshqaruvi sohasidagi o‘zgarishlar diniy ta’limot va uning ijtimoiy doktrinasida ham modernizatsiya jarayonlarini kuchaytirdi. Bu jarayonlar kam o‘zgaruvchan diniy ta’limotda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Diniy ta’limotdagi modernizatsiya jarayonlari ta’sirida katolik cherkovining ustunligi to‘g‘risidagi g‘oyadan voz kechildi, umumiylar xristianlik g‘oyalari atrofida birlashish zarurligi tan olindi. Xristianlik konfessiyalarini birlashtirish to‘g‘risidagi ekuminizm (grekcha *aikumene* – odamlar yashaydigan dunyo, olam degan ma’nolarni anglatadi) g‘oyasi qabul qilindi. Mazkur voqeа konfessiyalararo munosabatlarning yaxshilanishida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki shu vaqtgacha katolitsizm xristianlarni faqat katolik cherkovi ta’limoti asosida birlashtirish mumkin, deb hisoblar edi. Katolik va pravoslav cherkovlarining 1054 yildagi bir-birini la’natlash to‘g‘risidagi qarorlari bekor qilindi. Uniat (xristianlik tashkilotlarining katolik cherkovi bilan ittifoqini yoqlovchi oqimlar) larga pravoslaviye yoki boshqa oqimlar sirli marosimlarini qabul qilish huquqi berilgan.

Cherkovning ijtimoiy ta’limoti (doktrinasi)da ham jiddiy o‘zgarishlar mavjuddir. Doktrinaning hozirgi sivilizatsiyaga munosabati masalasida pessimistik qarashlar ustunlik qiladi. Chunki cherkov hozirgi zamon sivilizatsiyasi chuqur inqirozga uchragan deb biladi. Inqirozning moddiy sababi – olamshumul (global) muammolarning hal qilinmaganligi.

Ma’naviy sohadagi eng muhim sabablaridan biri jamiyatda iste’molchilik illatining tobora kuchayishidir. Cherkovning nuqtai nazariga ko‘ra, insoniyatning ishlab chiqarishni rivojlantirishda erishgan yutuqlari farovon turmush uchun moddiy shart-sharoit yaratadi, lekin kishilar ehtiyoji doimiy oshib borish xususiyatiga ega. Oqibatda iste’molchilik ruhiyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Iste’molchilikning jamiyat uchun xavfi shundaki, u kishi ongida narsalarga erishish va unga egalik qilish hayotning asosiy maqsadi degan noto‘g‘ri tasavvurni hosil qiladi, kishini xudodan ajratadi, xalos bo‘lish uchun kurashishga yo‘l bermaydi. Cherkov bu muammoni odamlarni o‘z ehtiyojlarini cheklab, kamtarona yashashga da’vat etish bilan hal qilishni taklif etadi.

Cherkovning ijtimoiy doktrinasida mehnatga munosabat masalasi muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, Injilda mehnat inson yo‘l qo‘ygan

gunohning oqibati va unga berilgan jazo vositasi sifatida talqin etiladi. Masalaga bunday munosabat mehnatni hayotiy zarurat, kishining jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lishi uchun vosita sifatida emas, balki uning zimmasiga yuklatilgan og‘ir yuk deb baholashga sabab bo‘ladi. Shuning uchun cherkov mehnatni kishi hayotining asosi, mavjudligining manbai ekanligini qayd etadi. Cherkov ta’limotiga ko‘ra, insoniyat birlamchi gunohdan oldin ham mehnat qilgan, lekin undan keyin mehnatning mazmuni o‘zgargan. Mehnat odam uchun og‘ir yuk, iztirob keltiruvchi sabablardan biriga aylangan. Odam birlamchi gunoh qilganidan keyin moddiy borliqqa tabiiy hukmronlik huquqidan mahrum qilingan, mehnat esa uning ilgarigi mavqeini tiklash vositasidir.

Inson o‘z mehnati bilan xudoning moddiy olamdagи yaratuvchilik faoliyatini davom ettiradi. Mehnat orqali kishi nafaqat yaratilgan dunyoning yangi manbalari va qadriyatlarini kashf etadi, balki xudoga yaqinlashadi. Mehnat kishining xalos bo‘lishiga ko‘maklashadi. Qisqacha aytganda, mehnatning inson hayotidagi ahamiyatiga cherkovning yangicha munosabati ishlab chiqilgan.

Katolitsizmda rasmiy doktrina bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishning muqobil yo‘llarini taklif qiladigan ko‘plab mazhablar mavjud. Ular dinning siyosat va siyosiy hayotga betarafligini tanqid qilib, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan diniy mafkurani ishlab chiqishni taklif etadi. Zero, bunday qarashlar tarafdarları hozirgi davrda cherkovning mohiyati o‘zgarganligini, o‘tmishda din kuch ishlatuvchi institut sifatida ekspluatator sinflar bilan hamkorlik qilgan bo‘lsa, hozirgi davrda u kishilarni xalos qiluvchi institutga aylanganligini qayd etadilar. Shu bois uning siyosiy mafkurasi cherkovning mavjud ijtimoiy tuzumlardan mustaqillagini aks ettirishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, katolik cherkovi xristianlikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatidagi ahamiyatini saqlab qoldi. Uning tarkibidagi rasmiy va muxolif yo‘nalishlar ijtimoiy hayotdagi turli manfaat va ehtiyojlarni to‘liqroq ifodalashga yordam bermoqda.

Xristianlikda, katolik cherkovi bilan bir vaqtida pravoslaviye yo‘nalishi vujudga kelgan. Pravoslaviye G‘arbiy Rim imperiyasidagidan keskin farq qiladigan ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitda rivojlangan. Vizantiyada markazlashgan davlat hokimiyatining kuchli boshqaruv tizimi G‘arbiy Rim imperiyasi qulaganidan keyin yana uzoq vaqt davomida saqlanib qolgan. Davlatga imperator rahbarlik qilgan. Imperator cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lib, unga Konstantinopol cherkovi ham bo‘ysungan.

Cherkov davlat apparatining tarkibiy qismiga aylantirilgan va u imperiya manfaatlariga xizmat qilgan.

Sharqiy Rim imperiyasi hududida qadimgi madaniy markazlarning mavjudligi Konstantinopol cherkovidan mustaqil cherkovlarning ajralib chiqishiga shart-sharoit yaratgan. III–IV asrlarda Sharqiy Rim imperiyasi hududida Konstantinopol cherkovidan tashqari, Aleksandriya (Misr), Antioxiya (Suriya), Iyerusalim (Isroil) kabi mustaqil cherkovlar paydo bo‘lgan va undagi bo‘linish jarayoni keyingi davrlarda ham davom etgan.

Sharqiy Rim (Vizantiya)da mustaqil cherkovlarning mavjudligi bu yerda aslo diniy-siyosiy markaz yo‘qligini anglatmaydi. XI asrgacha Vizantiya imperiyasi Sharqning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan. Konstantinopol cherkovi imperiya hududidagi mustaqil cherkovlarni vaqtinchalik bo‘ysundirib, xristianlikning markaziga da’vogarlik qilib, Rim papasiga qarshi kurash olib borgan.

Sharqiy cherkov rasman grek-kafolik cherkovi deb atalgan. «Cherkov» atamasiga «kafolik» so‘zining qo‘sib ishlatilishidan, uning o‘z e’tiqodini katolitsizm kabi jahon diniga aylantirishga intilganligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, Sharqiy Rim imperiyasidagi vaziyat tamoman boshqacha bo‘lgan. Islom davlatlarining qattiq siquvi imperiyani siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashtirgan. Birin ketin unga bo‘ysundirilgan cherkovlar yana o‘z mustaqilligini tiklab olgan.

Hozirgi davrda 15 ta avtokefal (grekcha – *autos* o‘zim, *kephale* – boshman, ya’ni mustaqil degan ma’nolarni anglatadi) pravoslav cherkovi mavjud. Bular – Konstantinopol (Turkiya), Aleksandriya (Misr), Antioxiya (Suriya, Livan), Iyerusalim (Isroil), Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya va Amerika cherkovlaridir. Avtokefal cherkovlar bilan birga avtonomiya maqomidagi Sinay, Fin va Yapon cherkovlari faoliyat olib bormoqda. XX asrning oxirlarida, Sharqiy Yevropadagi siyosiy jarayonlar sababli, avtokefal cherkovlarning soni yanada ortdi. Bu cherkovlar turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadilar va zamonning dolzarb muammolariga turlicha munosabat bildiradilar.

Pravoslaviye ko‘plab avtokefal cherkovlardan tashkil topgan bo‘lsa ham, Konstantinopol cherkovi uning markazi maqomini saqlab qoldi. Shunga binoan, Konstantinopol patriarxi rasman jahon pravoslaviye cherkovining boshlig‘i hisoblanadi. Konstantinopol patriarxi avtokefal cherkovlarning ichki va tashqi ishlariga aralashish huquqiga ega emas. Avtokefal cherkovlarning e’tiqod va amal masalalaridagi mustaqilligi ularni tashkil etgan markaz (Konstantinopol cherkovi) bilan tuzilgan

o‘zaro bitimda belgilangan. Avtokefal cherkov tarkibidagi avtonom cherkov boshliqlari mahalliy cherkov yig‘inida saylanadi va avtokefal cherkov patriarxining tasdig‘idan o‘tadi.

Avtokefal cherkovlar ekzarkat (grekcha *exarchos* – boshliq, rahbar degan ma’nolarni anglatadi, viloyat cherkovi, unga yepiskop rahbarlik qiladi), yeparxiya (cherkovning ma’muriy okrugi, unga arxiyerey rahbarlik qiladi) hamda blagochiniyelarga (yeparxiyaning tumanlari, unga katta pop rahbarlik qiladi) bo‘linadi. Pravoslaviyening quyi diniy ma’muriy birligi qavm deb ataladi. Qavmlar cherkov, butxona xodimlari va dindorlar jamoasidan iborat. Diniy tashkilotlar iyerarxiya, ya’ni quyi tashkilotlarning yuqori tashkilotlarga bo‘ysunishi va hisob berishi prinsipi asosida bosh-qariladi.

Bu prinsip ruhoniylar darajasida ham amal qiladi. Unga ko‘ra, kichik martabali ruhoniylar yuqori martabali ruhoniylarga bo‘ysunishlari kerak. Ruhoniylar darjasini bilan birga uylangani (oq) va uylanmaganiga (qora, rohiblikni tanlagan) qarab ham ajratiladi. Diniy tashkilotlar uchun mutaxassislar va rahbar kadrlar asosan rohiblar orasidan tanlanadi.

Pravoslaviye cherkovlari diniy ta’limot, marosim va aqidalar masalasida bir-biridan farq qilmaydi. Diniy ta’limot asosini «e’tiqod ramzi» tashkil etadi. «E’tiqod ramzi» 12 paragrafdan iborat bo‘lib, unda diniy ta’limotning asosiy aqidalari: xudoning yaratuvchiligi, uning dunyo va insonga munosabati, xudoning yagona, lekin uch qiyofada ekanligi, o‘z qiyofasini o‘zgartirishi, odamlar gunohini o‘z zimmasiga olishi, o‘lib qayta tirilishi, oxirat, cherkovning xaloskorligi aks ettirilgan.

Pravoslaviye ta’limotiga ko‘ra, xudo bitta, lekin u uch qiyofalidir: Ota xudo, O‘g‘il xudo va Muqaddas Ruh. Xudoning qiyofalari teng va bir-biridan ajralmasdir. Muqaddas Ruh Ota xudodan kelib chiqqan.

Pravoslav xristianlar birinchi insonlar – Adam va Yeva sodir etgan dastlabki gunoh, O‘g‘il xudo (Iso Masih)ning ilohiy ravishda tug‘ilganligi, odamlar gunohini o‘limi bilan o‘z zimmasiga olganligi, oxiratda tiriklar va o‘liklarni qayta so‘roq qilish uchun yerga qaytib kelishi hamda ilohiy podsholikni qurishiga ishonadilar. Shuningdek, pravoslaviyeda ham jannat va do‘zax, ruhning abadiyligi, cherkovning xudo va odamlar o‘rtasidagi vositachilik vazifasini bajarishi to‘g‘risidagi ta’limotlar mavjud.

Har bir dinning o‘z marosimlari bo‘lganidek, pravoslaviyeda yetti sirli marosim alohida ahamiyatga ega. Bu marosimlarning sirli deb atalishiga sabab shuki, ruhoniylarning muayyan harakatlarni bajarishlari va duolarni o‘qishlari bilan obyektga odamning ko‘ziga ko‘rinmaydigan xudoning marhamati o‘tadi.

Sirli marosimlar quyidagilardan iborat:

1) *cho‘qintirish marosimi* kishining xristian cherkoviga qabul qilinganligini ramziy ifodalovchi asosiy sirli marosimlardan biridir. Pravoslaviyeda cho‘qintirish yoshi belgilanmagan. Cho‘qintirish marosimida yosh bola suvga uch marta botirib olinadi, katta yoshdagi kishi suvda poklantiriladi. Diniy rivoyatga ko‘ra, odam cho‘qintirilganidan keyin birlamchi gunohdan forig‘ bo‘ladi. Katta yoshdagi kishi cho‘qintirilganidan keyin birlamchi gunoh bilan birga, shu vaqtgacha qilgan gunohlari ham kechiriladi. Ushbu marosimni bajargan kishi xristianlikka (katolik cherkovida cho‘qintirilsa, katolik cherkoviga, pravoslav cherkovidan o‘tgan bo‘lsa, pravoslav cherkoviga) qabul qilinadi. Shu tariqa ilohiy haqiqatni bilish va xalos bo‘lish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuningdek, yosh bola cho‘qintirilganidan keyin unga ism qo‘yiladi. Odatda, bolaga cho‘qintirilgan kun qaysi avliyoning nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘sha avliyoning ismi qo‘yiladi;

2) *non va vino tortish marosimi* xristianlikda ikkinchi, lekin ahamiyatiga ko‘ra, juda muhim sirli marosim hisoblanadi. Bu barcha oqim va mazhablar qabul qilgan marosim. Diniy rivoyatlarda aytishicha, Iso birinchi marta o‘z shogirdlari bilan maxfiy kecha kunida bu marosimni o‘tkazgan. Keyinchalik xristian cherkovi Iso Masih o‘tkazgan marosimni qabul qilgan. Shu bois sirli marosimdan o‘tkazilayotgan kishiga xudoning jismi va qoni timsoli bo‘lgan non va vino iste’mol qildiriladi. Bu bilan insonning Isoga yaqinlashishi va abadiy hayotga daxldor bo‘lishi mumkin deb hisoblanadi.

Pravoslaviyeda bu marosim uchun kvasda qorilgan xamirdan tayyorlangan kulcha non (prosfora) va qizil sharob (vino) ishlatiladi. Odatda, u bir qator boshqa sirli marosimlar bilan qo‘sib o‘tkaziladi. Cherkov Iso Masih bilan uzlusiz aloqada bo‘lishni istagan kishiga bu marosimdan yilda bir marta o‘tib turishni tavsiya qiladi;

3) *tavba-tazarru qilish marosimi* IV–V asrlarda xristianlikda sirli marosim sifatida qabul qilingan. Pravoslaviyeda bu marosim dindor kishi hayotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dinda buyurilgan amallarni yoki cherkov qoidasini buzgan kishi tavba qilib, qilgan gunohini ruhoniya aytadi. Marosim quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: birinchi bosqichda odam ruhoniya sodir etgan gunohi to‘g‘risida hisob beradi, ya’ni marosim odamning o‘z gunohini anglashiga uni qayta takrorlamasligiga va ma’naviy poklanishga yordam beradi, gunohini yengillashtiradi; ikkinchi bosqichda maxsus vakolatga ega ruhoni Muqaddas Ruhning kuchi bilan ushbu insonning gunohini kechiradi.

Ilk xristian jamoalarida tavba-tazarru qilish marosimi qo'llanilmagan. Bunga sabab, o'sha vaqtda xristian jamoasining a'zosi din talablarini buzmaydi, degan noto'g'ri qarashning ustunlik qilganligidir. Lekin hayotda buning aksi bo'lib chiqqan. Shu bois dindorlar jamoasida oshkora tavba qilish tartibi joriy qilingan. IV asrda oshkora tavba-tazarru qilish ruhoniylar tabaqasining manfaatlariga mos kelmay qolganligi sababli, uning mazmunini sir tutish joriy qilingan. Cherkov tavba-tazarru sirini oshkor qilmaslikka kafolat beradi. Tavba sirini oshkor etish katta gunoh hisoblanadi;

4) *miro surtish sirli marosimi* cho'qintirish sirli marosimidan keyin o'tkaziladi. Uni bajaruvchi ruhoni yushbo'y miro yog'ini kishining peshonasi (fikri), ko'kragi (yuragi, his-tuyg'ulari, istaklari), ko'zi, burni va quloqlari (mayllari), shuningdek qo'l-oyoqlari (xatti-harakatlari)ga xoch shaklida surtadi. Miro yog'ini surtish vaqtida sirli ravishda xudoning marhamati o'tadi va shu tariqa uning pokligi saqlab qolinadi, ma'naviyatining yuksalishiga erishiladi, deb hisoblanadi;

5) *nikoh sirli marosimi* katolitsizmda XII asrda vujudga kelgan va XVI asrdan boshlab sirli marosim sifatida qabul qilingan. Pravoslaviyeda bu marosim alohida o'rin tutadi, chunki oila kishilar jismoniy va ma'naviy birligining boshlang'ich bo'g'inidir. Oila jamiyatning tayanchi, abadiy hayot timsolidir. Shuning uchun nikoh sirli marosimi tantanali ravishda o'tkaziladi. Ruhoni bayram kiyimlarida nikohdan o'tayotgan yoshlarni kutib oladi. Xudoni sharaflovchi duolar o'qiladi. Yosh kelin-kuyovlarning boshiga hosildorlik timsoli bo'lmish gulchambar taqib qo'yiladi. Yovuz kuchlarni haydovchi ladan (isiriq) tutatiladi. Marosim vaqtida nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovga xudoning marhamati tushadi, yangi oilada tinchlik, totuvlik va muhabbat hukmron bo'lishiga ilohiy shart-sharoit yaratiladi, deb hisoblanadi;

6) *muqaddas zaytun moyi surtish marosimi* bemor odam uchun bajariladigan sirli tadbir. Marosimda bemorning peshonasi, yonog'i, labi, ko'kragi va qo'llariga muqaddas zaytun yog'i surtiladi. Ruhoni bularni amalga oshirish davomida duolar o'qib, bemorning sog'ayib ketishiga xudodan yordam so'raydi. Diniy ta'limotga binoan, zaytun moyini surtish marosimi mo'jizaviy davolovchi kuchga ega bo'lib, bemorni gunohlaridan xalos qiladi. Bu marosim ruhoniylarga qabul qilishda ham o'tkaziladi;

7) *ruhoniylilik unvonini berish marosimi* III asrda jamiyatda alohida guruhni tashkil etgan ruhoniylar uyushmasi paydo bo'lganligi sababli joriy qilingan. Pravoslaviyeda bu marosim alohida ahamiyatga ega bo'lib, uni rohiblikni ixtiyor qilgan kishining boshiga yuqori martabali ruhoni qo'lini

qo‘yib bajaradi. Marosim davomida rohiblikka qabul qilinayotgan kishiga sirli ravishda xudoning marhamati o‘tadi hamda u xudo va odamlar o‘rtasida vositachilik qilish huquqiga ega bo‘ladi, deb hisoblanadi.

Pravoslaviyeda, sirli marosimlar bilan birga, ibodat qilish, xoch, butlar, tabarruk narsalar, shahidlar va avliyolarga sig‘inish kabi marosimlar mavjud.

Ibodat qilish – dindorning yoki dindorlar guruhining xudoga, avliyolarga iltimos, shikoyat yoki minnatdorchilik bildirib, bevosita murojaat qilishi. Bunda kishi tanasining holatiga alohida e’tibor beriladi, chunki ibodatning turiga yoki mazmuniga ko‘ra, kishining tiz cho‘kishi, qo‘llarini ko‘targan holatda yoki ko‘zini yumib turishi talab qilinadi. Pravoslav cherkovida, odatda, ibodat tik turib bajarilishi sababli dindorlarning o‘tirishlari uchun kursilar qo‘yilmaydi.

Xochga sig‘inish – Iso Masihning xochga mixlab qo‘yilishi bilan bog‘liq marosim. U xristianlikning timsoli hisoblanadi. Bu pravoslaviyening eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, diniy rivoyatlarda yozilishicha, Iso Masihning qoni to‘kilganligi sababli, xoch ilohiy kuchga ega bo‘lgan. U odamlarni yovuz kuchlardan saqlaydi. Xoch to‘rt burchakli, olti burchakli (Isoning boshidan balandroq qilib xochga yozuv taxtachasi qoqib qo‘yilganligi sababli), sakkiz burchakli (Isoning oyog‘i bilan tayanishi uchun xochga taxtacha qoqib qo‘yilganligi sababli) shakllarda tasvirlanadi. Xochning barcha shakllaridan keng foydalilanadi va ular bir xil ahamiyatga ega.

Butlarga sig‘inish – pravoslaviye marosimlarining muhim elementlaridan biri. Butlarda Ota xudo, O‘g‘il xudo, Muqaddas Ruh, Muqaddas uchlik, Bibi Mariyam, avliyolarning va yevangeliyalar mualiflarining tasvirlari chizilgan yoki o‘yib ishlangan bo‘ladi. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, xristianlar butlarda tasvirlangan personajlarga sig‘inishi yoki ular bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Butlar ilohiy kuchga ega bo‘lib, odamlarga kundalik muammolarini hal qilishlarida ko‘maklashadi. Pravoslaviyeda Bibi Mariyamning tasviri chizilgan butlar alohida ulug‘lanadi. Diniy rivoyatlarda yozilishicha, butlar tirik mavjudotlar kabi xislatlarga ega. Ular odamlar singari ko‘radi, eshitadi, og‘riqni sezadi, iztirob chekadi, ucha oladi, suvda suzadi va qo‘yilgan joyidan ketib qolishi mumkin. Butlardagi personajlar turli qiyofalarda tasvirlanadi. Masalan, Iso Masih VII asrgacha qo‘y yoki baliq qiyofasida, Muqaddas Ruh kabutar ko‘rinishida, havariylar: Luka – buqa, Ioann – burgut singari qiyofalarda tasvirlangan. Personajlar qiyofalarida milliylik belgilari mavjud.

Avliyolarga sig‘inish. Avliyolar – xristianlikda o‘zini xudoga xizmat qilishga bag‘ishlab, taqvodorlik bilan yashaganligi uchun narigi dunyoda mukofotlangan va odamlarning taqdiriga aralashishdek mo‘jiza ko‘rsatish kuchi baxshida etilgan kishilar. Xristianlikda aytlishicha, avliyolar odamlarga homiylik qilishlari va hayotiy muammolarining hal etilishiga ko‘maklashishlari mumkin. Ular xudo va odamlar o‘rtasidagi vositachilardir. Avliyolar mahshar kuni kishilar gunohining kechirilishini xudodan so‘rab berishlari mumkin.

Xristianlik shakllanayotgan davrlarda odamlarga xizmatlari uchun avliyo unvoni berishning umum e’tirof etgan qoidasi hali ishlab chiqilmagan edi. Shu bois o‘sha davrlarda afsonaviy obrazlar, xalq folklori qahramonlari va majusiy ma’budlar ham avliyo deb e’lon qilingan. Keyinchalik bu masaladagi noaniqliklar bartaraf etilgan (jumladan, pravoslaviyeda avliyo unvonini berish masalasi bilan maxsus komissiya shug‘ullanadi va uning taklifi muqaddas Sinodda ko‘rib chiqilganidan keyin muhokamaga qo‘yiladi hamda qaror qabul qilinadi). Avliyolar ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi va quyidagilarga bo‘linadi: farishtalar, payg‘ambarlar, havariylar, taqvodorlar, haqiqat uchun kurashganlar va hokazo.

Marhumlarga sig‘inish – vafot etgan kishining mayyiti xudoning irodasi bilan chirishdan saqlanib qolishiga ishonish. Xristianlar chirimay saqlanib qolgan shahidlar mayyitida ilohiy kuch mujassamlashganligiga va uning odamlarga foyda keltirishi mumkinligiga ishonadilar. Pravoslaviyeda chirishdan saqlanib qolgan tananing qismlarida ham mo‘jizaviy kuch bor deb hisoblanadi.

Pravoslaviye ta’limotini targ‘ib qilishda diniy bayramlarga alohida e’tibor beriladi. Chunki pravoslaviyeda bayramlar juda ko‘p bo‘lib, ahamiyatiga ko‘ra, katta, o‘rta va kichik bayramlarga bo‘linadi.

Katta bayramlarning eng nufuzlisi pasxa (grekcha *pascha* – qadimgi yahudiy tilidagi *pesach* so‘zidan olingan va so‘zma-so‘z tarjimasi – kelib chiqish, nasl-nasab, asli degan ma’nolarni anglatadi) bayramidir. Bu bayram Isoning xochga tortib o‘ldirilganidan keyin mo‘jizaviy qayta tirilishi xotirasiga bag‘ishlanadi. Xristianlikdagi ushbu bayram iudaizmdagi messiyaning kelishiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan pasxa bayramidan o‘zlashtirilgan. Dastlabki davrlarda ularning o‘tkazilish vaqtini ham bir kunga to‘g‘ri kelgan. Pasxa bayrami iudaizmdagi pasxa bayrami tugaganidan keyingi birinchi yakshanbada o‘tkaziladi. U bir hafta davom etadi.

Pasxadan keyin (ahamiyatiga ko‘ra) ulug‘ bayram hisoblanuvchi o‘n ikkita bayram qabul qilingan. Ular quyidagilardan iborat:

- Isoning tug‘ilishi;
- Xudoning cho‘qintirilishi;
- Uchrashuv;
- Ilohiy xushxabar;
- Xudo qiyofasining o‘zgarishi;
- Bibi Mariyamning tug‘ilishi;
- Bibi Mariyamni xotirlash;
- Isoni xochga tiklash;
- Xudoning Quddusga kelishi;
- Isoning osmonga ko‘tarilishi;
- Muqaddas uchlik.

Yuqorida sanab o‘tilgan o‘n ikkita ulug‘ bayramlar orasida Isoning tug‘ilishi va Muqaddas uchlik alohida mavqega ega.

Isoning tug‘ilishi bayrami – O‘g‘il xudo Iso Masihning tug‘ilishiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan bayram. Injilda Bibi Mariyam iffati saqlanib qolgan holda Ota xudodan ilohiy homilador bo‘lganligi va natijada Iso Masih tug‘ilganligi qayd etiladi. Iso Masihning tug‘ilishi insoniyat tarixida beqiyos ahamiyatga ega voqeа bo‘lgan. Iso tug‘ilgan kundan boshlab barcha odamlar uchun xalos bo‘lish, abadiy hayot va rohat-farog‘atda yashash imkoniyati ochilgan. Dastlab Isoning tug‘ilgan kunini xristianlar 6 yanvarda nishonlaganlar. Keyinchalik uni 25 dekabrda nishonlash belgilangan. Yil hisobida farq bo‘lganligi uchun Isoning tug‘ilgan kuni katoliklarda 7 yanvarda, pravoslavlarda 25 dekabrda nishonlanadi.

Katta bayramlarning keyingisi Muqaddas uchlik bayramidir. Xristianlarda bu pasxa bayramidan 50 kun o‘tganidan keyin nishonlanadi. Shu bois u ellik kunlik bayram deb ataladi. Injilda qayd etilishiga ko‘ra, Iso qayta tirilganidan keyin 50 kun o‘tgach, shogirdlari havariylarga Muqaddas Ruh ayon bo‘ladi. Aynan shu voqeа kunda mo‘jiza yuz beradi. Havariylar zimmasiga «payg‘ambar»lik vazifasi yuklanadi va ular turli xalqlar tillarida gapira boshlaydilar. Shu voqeadan keyin havariylarning missionerlik (lotincha *missio* – xabar eltuvchi, zimmasiga yuklash degan ma’nolarni anglatadi) faoliyati boshlanadi.

O‘n ikki bayramdan keyin ulug‘ bayramlar sifatida qabul qilingan beshta bayram turadi. Ular quyidagilardan iborat: Isoni xatna qilish, Ioann Predtechaning tug‘ilgan kuni, havariylar Ioann va Pavel kuni bayrami, Ioann Predtechaning boshi kesilishi va Homiylik bayrami.

Xristianlikda nishonlanadigan o‘rta va kichik bayramlar asosan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lib, odatda birorta mahalliy avliyoga bag‘ishlanadi. Bu bayramlar shu qadar ko‘pki, yilning har bir kuni biron-bir avliyoga bag‘ishlangan bayramga to‘g‘ri keladi.

Diniy bayramlar va marosimlarni bajarishda, dindorlar hayotida cherkov va ruhoniylar muhim o‘ringa ega. Cherkov Iso Masihning ilohiy «jismi»ga qiyoslanadi. U xudo va odam o‘rtasidagi vositachi maskan vazifasini bajaradi. Cherkovning muhim ijtimoiy vazifani bajarishi uni qurishda monumentallikka, bezaklarning go‘zalligi va hashamadorligiga alohida e’tibor berishni talab qiladi. Shuningdek, dindorlar cherkovga kelganida, binoning ulug‘vorligi, ichki va tashqi qismidagi hashamat, yuksak san’at darajasida bajarilgan bezaklari xudoning cheksiz qudratini namoyish qilishi bilan birga diniy bilim bergan, Injilning mazmuni bilan tanishtirgan.

Cherkovda va’z aytildi, xudoga sig‘inish marosimlari o‘tkaziladi, Injildan lavhalar o‘qilib, sirli marosimlar bajariladi. Pravoslaviyeda dindordan muntazam cherkovga qatnab turish talab qilinadi.

Yuqorida qayd etilganidek, pravoslaviye katolitsizm kabi marказlashgan tashkilotga ega emas, u bir qator avtokefal cherkovlarga bo‘linadi. Avtokefal cherkovlarni boshqarish tartibi to‘g‘risida yaqqol tasavvurga ega bo‘lish uchun Rus pravoslav cherkovi boshqaruv tartibini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rus pravoslav cherkoviga patriarch rahbarlik qiladi. Patriarch diniy ishlarga rahbarlik qilishda katta vakolatlarga ega. U diniy ta’limot va marosimlar bilan bog‘liq ishlarni hal qiladi, cherkovni boshqaradi va undagi sud ishlariga rahbarlik qiladi. U mustaqil cherkovlar bilan aloqa o‘rnatish ishlarini nazorat qiladi, yeparxiyalar arxiyereylarining (cherkov ma’muriy-hududiy birlashmasi rahbari, mitropolit, arxiyepiskop, yepiskop kabi unvonli kishi) faoliyatini nazorat qiladi, ularni lavozimiga tayinlaydi va ishdan bo‘shatadi, diniy unvonlar beradi.

Rus pravoslav cherkovi ma’muriy-hududiy bo‘linishi bo‘yicha 4 ta ekzarkat (grekcha *exarchos* – boshliq, rahbar degan ma’nolarni anglatadi, cherkovlar okrugi, bir necha yeparxiyalardan tashkil topadi) va 76 ta yeparxiya (cherkov ma’muriy-hududiy birlashmasi)ga bo‘linadi. Boshlang‘ich tashkilotlar «qavmlar» deb ataladi. Qavmlar quyi ma’muriy-hududiy cherkov tashkilotidir. Ular cherkov va unda faoliyat yurituvchi ruhoniylardan va shu hududda istiqomat qiladigan dindorlar jamoasidan tashkil topgan. Dindorlar jamoasi cherkov kengashi va taftish komissiyasini saylaydi. Taftish komissiyasi ijroiya organi hisoblanadi,

ya’ni cherkovning xo‘jalik va moliyaviy ishlarini boshqaradi. Rohiblar ijroiya organining ishlariga aralashmaydilar, ular dindorlarning diniy ehtiyojlarni ta’minalash, ibodat qilish, diniy marosimlarni bajarish kabi vazifalar bilan shug‘ullanadilar.

Rus pravoslav cherkovi ham (boshqa cherkovlardagi kabi) diniy mazhablarga bo‘linadi. XVII asrning o‘rtalarida jamiyatning inqirozi hamda bir qator obyektiv va subyektiv sabablar tufayli Rus pravoslav cherkovida bo‘linish yuz bergan, staroobryadchilik (eski e’tiqod tarafdarlari) diniy-ijtimoiy harakati vujudga kelgan. Cherkovdagagi bo‘linishga patriarch Nikon (1605–1681)ning diniy islohotlari bahona bo‘lgan. Uning tashabbusi bilan ilgari rus tiliga tarjima qilingan diniy kitoblar bilan grek tilidagi asl nusxalar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish ishlari olib borilgan. Cherkovda diniy marosimlarni bajarishning yagona tartibi joriy qilingan. Nikonning islohotlari diniy ta’limot asoslariga ta’sir etmagan. Masalan, islohotlar natijasida «Isus» so‘zi «Iisus» deb aytiladigan bo‘lgan, «pevсы» so‘zi «pesnopevсы» bilan almashtirilgan. Dindorlarning diniy marosimlar vaqtidagi harakatlarining yo‘nalishi o‘zgartirilgan. Yergacha ta’zim qilish, bel barobar ta’zim qilish bilan almashtirilgan va hokazo. Ko‘rinishidan jiddiy bo‘lmagan o‘zgarishlar jamiyatda og‘ir oqibatlarni keltirib chiqargan: diniy islohotlar mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy muammoga aylangan. Jamiyatda «Eski e’tiqod» tarafdarlari harakati vujudga kelgan. Harakat ishtirokchilari Rus pravoslav cherkovining betakror ahamiyatga egaligi va boshqa cherkovlardan, jumladan unga asos solgan Konstantinopoldan ham ustunligi g‘oyasi ilgari surilgan. Diniy marosimlar va udumlarda milliy xususiyatlarni saqlab qolish talab qilingan. Cherkov islohotlar mu-xoliflariga qarshi qat’iy kurash olib borgan. Staroobryadchilar «murtad» deb e’lon qilingan. Butun mamlakat bo‘ylab qatag‘onlar, quvg‘inlar boshlangan, minglab kishilar qatl etilganlar, qynoqqa duchor qilinganlar, qamoqqa tashlanganlar, surgun qilinganlar.

Hukumat va rasmiy cherkovning staroobryadchilikka qarshi keskin tadbiirlari harakatni yo‘q qila olmagan. Staroobryadchilar mamlakatning chekka o‘lkalariga qochib ketib, eski diniy e’tiqodlarini saqlab qolganlar. Ular davlat hokimiyatini iblisning gumashtalari deb hisoblaganlar va dunyoviy hayot bilan har qanday aloqalarni inkor etganlar. Hanuzgacha ularda diniy marosimlar eski diniy kitoblar asosida bajariladi, yil hisobi islohotlar davridagi eski taqvim asosida olib boriladi.

Davlat hokimiyatining va rasmiy cherkovning staroobryadchilikka qarshi keskin kurashi ta’sirida uning saflarida turli yo‘nalishlar vujudga

kelgan. XVII asrning oxirlarida «popchilar» va «popchilikni inkor qiluvchilar» yo‘nalishlari paydo bo‘lgan. «Popchilar» diniy udum va marosimlar poplarning rahbarligida bajarilishi kerak, deb hisoblaydilar. «Popchilikni inkor qiluvchilar» «haqiqiy» poplarni iblisning gumashtalari yo‘q qilgan deb, ularni inkor qiladilar.

1971 yilda o‘tkazilgan Rus pravoslav cherkovining Pomestye soborida staroobryadchilikni dindan chiqqanlar (anafema) oqimi ekanligi to‘g‘risidagi qaror bekor qilingan. Rus pravoslav cherkovidagi bo‘linishni bartaraf etish uchun qulay shart-sharoit vujudga kelgan, lekin muxolif kuchlarning o‘zaro birlashuvi amalga oshmagan. Hozir ham mustaqil staroobryadchilik cherkovlari saqlanib qolgan.

Pravoslaviyening ijtimoiy doktrinasi tarixiy davrlarning ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlari ta’sirida o‘zgarib borgan. Cherkov jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiyadolat va madaniy taraqqiyotga xizmat qilish bilan birga hukmron ijtimoiy-siyosiy tuzum va u olib borgan krepostniklik, mustamlakachilik va ekspluatatsiya siyosatlarini himoya qilib kelgan. Shu bilan birga kapitalistik taraqqiyot davridagi ijtimoiy-siyosiy tuzum oqlangan va uni «umumxristianlik qadriyatları»ning oliy darajadagi timsoli ekanligi qayd etilgan. Kishilarning turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun kapitalizmni «xristianlashtirish» yo‘li bilan «sog‘lomlashtirish» taklif etilgan.

Sobiq sotsialistik davlatlarda faoliyat ko‘rsatgan pravoslav cherkovlar doimo mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilganligini isbotlashga intilgan. Cherkovning har doim ijtimoiy tengsizlikka, kishining kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishi, qullik, zulm, mustamlakachilik va ekspansionizmlarga qarshi turganligi ko‘pchilikka ma’lum.

Pravoslaviyening katolitsizmdan farqli o‘laroq, dunyoviy hokimiyat bilan raqobatlashish imkoniyatlari cheklangan edi. Ko‘pchilik mustaqil cherkovlar bevosita siyosiy hokimiyatga bo‘ysundirilgan. Shunday vaziyatda cherkovlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumga nisbatan murosa yo‘lidan borganligi sababini tushunish mumkin. Sovet tuzumining barham topishi natijasida demokratik taraqqiyot yo‘lidan borayotgan yangi davlatlarning vujudga kelishi diniy tashkilotlarning erkin faoliyat ko‘rsatishiga imkon berdi. Cherkov jamiyatda insonparvarlik,adolat, mehr-oqibat, o‘zgalar fikriga hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishda boshqa dunyoviy tashkilotlar va muassasalar bilan faol hamkorlik qilmoqda, xalqaro munosabatlarda tinchlikni saqlab qolish va mustahkamlash, keskinlikni yumshatish, mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l

bilan hal etish uchun xalqaro terrorizm va ekstremizmning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashmoqda.

Pravoslav cherkovining Markaziy osiyodagi faoliyati uzoq o‘tmishimiz bilan bog‘liq. 2001 yilda O‘rta Osiyo pravoslav cherkovi yeparxiyasi tashkil etilganligining 127 yilligi nishonlandi. Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiyalar qatorida pravoslav cherkovi islom dinidan keyingi o‘rinda turadi. Barcha konfessiyalar kabi pravoslav cherkovi ham mintaqada tinchlik, barqarorlik, milliy totuvlik, diniy bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

Protestantlarning o‘ziga xos jihatlari

Xristianlikning katta yo‘nalishlaridan yana bittasi protestantizmdir (lotincha *protestans* – qarshi chiquvchi, norozi degan ma’nolarni anglatadi). U XVI–XVII asrlarda G‘arbiy Yevropadagi feodal tuzum va uning mafkuraviy tayanchi bo‘lgan reaksiyon katolitsizmga qarshi kuchli ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy va diniy harakatlarning boshlanishi sababli vujudga kelgan. Harakat ishtirokchilari katolik cherkovini yevangeliyalar g‘oyalaridan chekinishda ayblab, uni asl holatiga qaytarishni talab qilib chiqqanlar. Bu tarixda «reformatsiya harakati» (lotincha *reformatio* – o‘zgartirish, to‘g‘rilash kabi ma’nolarni anglatadi) deb ataladi.

Reformatsiya harakati chuqur tarixiy ildizga ega. Harakat boshlanishidan oldingi davrlarda ham ruhoniylarning ma’naviy buzuqligi, o‘z vazifasini suiiste’mol qilishlari, dabdababozliklari, kishilarga befarqlik, tamagirlilik va rasmiyatchilik kabi illatlari ilg‘or jamoatchilik vakillari tomonidan keskin tanqid qilingan. Jumladan, Oksford universitetining professori J. Viklif va Praga universitetining professori YA. Gusning chiqishlarini alohida qayd etish lozim.

Germaniya va Shveysariya reformatsyaning markazlari edi. Ushbu harakat keyinchalik G‘arbiy Yevropaning boshqa davlatlariga yoyilgan. Martin Lyuter (1483–1546), Tomas Myunser (1430–1525), J. Kalvin (1509–1564) reformatsiya harakatining tashkilotchilari va rahbarlari hisoblanganlar.

O‘rta asrlarda katolik cherkovi asosiy boylik sanaluvchi yer maydonlarining katta qismiga egalik qilgan. Aholi daromadning o‘ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiiste’mol qilish, tamagirlilik, poraxo‘rlik kabi vositalardan

foydalanan edilar. Indulgensiylar (lotincha *ihduigehtia* – rahm-shafqat degan ma’noni anglatadi) sotish keng qo’llanilgan. Ruhoniylarning ma’naviy buzuqligi, befarqligi, beg‘amligi shu darajada keng ildiz otgan ediki, cherkov uni o‘z doktrinasida ham aks ettirishga majbur bo‘lgan. Doktrinaga binoan, ma’naviy fazilatlaridan qat’i nazar, diniy marosimni ruhoniy bajargan bo‘lsa, ilohiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Katolik cherkovidagi «nosog‘lom» munosabatlar reformatsiya harakatining vujudga kelishida muhim bo‘lgan, lekin uning asosiy sababi o‘z umrini yashab bo‘lgan feodal munosabatlardir. Feodal jamiyat negizida vujudga kelib, ijtimoiy mavqeini tobora mustahkamlab borgan burjuaziya hokimiyat uchun kurashda dastlab eski jamiyatning mafkuraviy tayanchi sanalgan katolik cherkovini mag‘lubiyatga uchratishi lozim bo‘lgan.

Reformatsiya harakati dastlab Germaniyada Martin Lyutering Rim papasiga qarshi chiqishidan boshlangan. 1517 yil 31 oktabrda Martin Lyuter o‘z qarashlarini 95 ta tezisda bayon etib, uni Vittenberg shahar cherkovlaridan birining darvozasiga osib qo‘ygan. Tezislarda cherkovning avliyolar yordamida xalos bo‘lish, a’rof, ruhoniylarning vositachilik vazifasi haqidagi ta’limotlari tanqid qilingan. Keyinchalik Rim papasining hokimiyati inkor qilingan. Lyuter cherkov tashkilotining iyerarxiya prinsipi asosida tuzilishini va boshqarilishini rad etgan, Isoning xaloskorlik kuchiga ishonchi orqali kishi mustaqil ravishda, cherkovning vositachiligidan xalos bo‘lishi mumkinligi g‘oyasini himoya qilgan.

Martin Lyuter rohiblikni bekor qilish, diniy marosimlarni soddalashtirish va cherkovni dunyoviy hokimiyatga bo‘ysundirish kabilarni talab qilib chiqqan. Uning talablari Germaniyada endigma shakllana boshlagan burjuaziyaning manfaatlariga mos kelgan. Shuningdek, ko‘pchilik nemis knazlari va feodal guruhlarining vakillari ham unga xayrixohlik bildirgan. Mazkur guruhlar cherkovning katta yer maydonlariga egalik qilishi, behisob boyliklarga egaligi, german cherkovlarining Rim papasiga katta pul mablag‘lari ajratishi va davlatlarning ichki ishlariga doimiy aralashuvi kabilardan norozi bo‘lganlar.

Bir guruhi lyuterchi nemis knazlarining talabi bilan Shpeyer Reyxstag har bir nemis knazi o‘zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Lekin Germaniyada Rim papasiga qarshi kurash olib borishga qodir kuchli, markazlashgan davlat yo‘q edi. Rim papasining tazyig‘i bilan 1529 yilda Reyxstag bu

qarorni bekor qilgan. Reyxstagning qaroriga javoban, 5 nafar nemis knazi va 14 nafar imperiyaning shaharlari Reyxstagdagi ko‘pchilikka qarshi norozilik (protest) bildirganlar. Mazkur voqeadan keyin xristianlikda reformatsiya natijasida paydo bo‘lgan yangi yo‘nalish «protestantizm» deb atala boshlangan.

Germaniyadagi reformatsiya harakatida aholining o‘rtahol va kambag‘al tabaqalari ham keng ko‘lamda ishtirok etgan. Ularning manfaatlarini Tomas Myunser o‘z qarashlarida himoya qilgan. Dastlab Tomas Myunser siyosiy faoliyatini lyuterchilar harakatida ishtirok etishdan boshlagan. Lekin keyinchalik Lyutering qarashlari cheklanganligi va hukmron tabaqalarning manfaatiga xizmat qilishidan norozilik bildirib, diniy aqidalar va ijtimoiy-siyosiy muammolar tanqidida, Lyuterdan farqli o‘laroq, murosasizlik yo‘lini tanlagan.

Tomas Myunser diniy ta’limotga munosabat sohasida cherkov tashkilotlarining quyidan yuqoriga bo‘ysunishiga asoslangan boshqaruva tartibiga qarshi chiqqan, ortodoksal diniy ta’limotlar va yepiskoplar hokimiyatini inkor qilgan, xudoga e’tiqod har bir kishining qalbida tug‘ilishi kerak, deb hisoblagan. Shu bilan birga kishi Isoning ruhini qalbida his qilsa, soxta haqiqat og‘usini tark etadi, oliy ilohiy haqiqatga erishadi, bunga erishishdagi tenglik fuqarolarning huquqiy tengligini bildiradi, deb ta’kidlagan. Tomas Myunser kishilarni umumiyligi tenglikka asoslangan ilohiy jamiyat qurishga da’vat etgan. Tomas Myunserning da’vati Germaniyadagi dehqonlar qo‘zg‘olonining shioriga aylangan. Dehqonlar qo‘zg‘oloni mag‘lubiyat bilan tugagan va Tomas Myunser asirga olinib, qatl etilgan. Uning tarafdarlari esa Yevropa davlatlariga tarqab ketganlar.

XVI asrning birinchi yarmida reformatsiya harakati Yevropaning boshqa davlatlariga yoyila boshlagan. Bu harakatning yirik markazlaridan biri Shveysariya edi. Mamlakatning Jeneva va Syurix shaharlaridagi harakatlarga J. Kalvin va U. Svingli rahbarlik qilganlar. Shveysariyadagi reformatsiya harakati protestantizmda yangi kalvinizm oqimini vujudga keltirgan. Kalvinizm – burjuaziyaning katolik cherkoviga qarshi kurashi timsoli. Oqimda umum e’tirof etgan e’tiqod ramzi yo‘q. Injil esa diniy ta’limotning yagona manbai hisoblanadi. Taqdiri azal haqidagi ta’limot oqimning asosiy g‘oyalaridan biridir. Kalvining fikricha, xudo ayrim kishilarni abadiy rohat-farog‘atda, ayimlarni do‘zax azobida qiynalib

yashash uchun yaratgan. Lekin har qanday kishi azoblardan xalos bo‘lishi mumkin, chunki xudo uni yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Xudoning marhamati tushgan kishi tashabbuskor bo‘lishi va abadiy rohat-farog‘atda yashashga loyiq ekanligini isbotlashi kerak. Bunday kishi tadbirkor va har ishda omadli bo‘ladi. U dunyoning lazzatlaridan tiyilishi, tejamkor bo‘lishi va kamtarona yashashi kerak.

O‘rta asrlarda diniy marosimlarda qo‘llanib kelingan ikonalar, sham yoqish, xoch va boshqa vositalardan foydalanishdan voz kechilgan. Sirli marosimlardan faqat ramziy ma’nodagi cho‘qintirish, non va vino tortishdan foydalanilgan. Asosan cherkovda va’z o‘qishga katta e’tibor berilib, marosim diniy qo‘shiqlar va xudoga sig‘inishlar bilan to‘ldirilgan. Dindorlar jamoasini saylab qo‘yiladigan presviterlar (grekcha *presbyteros* – oqsoqol degan ma’noni anglatadi, xristian cherkovidagi ruhoni kishi) va pastorlar (lotincha *pastor* – cho‘pon, podachi degan ma’nolarni anglatadi, protestant cherkovining xizmatchisi) boshqargan. Ular ayni paytda diniy marosimlarga rahbarlik ham qilganlar. Diniy tashkilotlarga esa avtonomiya huquqi berilgan.

Reformatsiya harakatining yirik markazlaridan yana biri Angliya bo‘lgan. Bu mamlakatda reformatsiya yuqori tabaqalarning tashabbusi va boshchiligida amalga oshirilgan. 1531 yilda Angliya parlamenti katolik cherkovi aqidalari va marosimlarini saqlab qolgan holda cherkovning Rim papasidan mustaqilligi to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Cherkovga rahbarlik qilish vakolati esa qirol zimmasiga yuklatilgan. Barcha monastirlar yopib tashlanib, cherkov mulklari musodara qilingan. Rim papasiga qarshi kurash tomonlarning o‘zaro kelishuvi bilan yakunlangan. 1571 yilda Angliya parlamenti e’tiqod ramzi to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilgan. Ushbu hujjat asosida anglikan cherkovi vujudga kelgan.

XVI asrda protestantizm yo‘nalishining asosiy oqimlari lyuteranlik, kalvinizm va anglikanlar cherkovi vujudga kelgan. Lekin yo‘nalish tarkibida oqimlarning shakllanish jarayoni hozirga qadar davom etmoqda. Ular qatoridagi baptistlar, metodistlar va pyatidesyatniklar oqimlarini misol keltirish mumkin. Protestantizm yo‘nalishining turli oqimlardan tashkil topganligi ular o‘rtasida diniy ta’limot, aqida va marosimlarda umumiylilik bormi, degan savol tug‘diradi.

Protestantizm ta’limotida cherkov va rohiblarning xudo va odamlar o‘rtasidagi vositachilik vazifasi inkor qilinadi. Unda har bir kishining xudo

bilan bevosita muloqot qilish va xalos bo‘lish imkoniyatiga ega ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu aqidaning qabul qilinishi natijasida dindorlar zimmasidagi og‘ir yuk bo‘lmish hashamatli monastirlarni qurish va ko‘p sonli rohiblarni boqish zarurati o‘z-o‘zidan barham topgan.

Odamlarning xudo bilan bevosita aloqa o‘rnatishi haqidagi aqidadan har bir dindorning ruhoniy bo‘lishi to‘g‘risidagi aqida paydo bo‘lgan. Unga binoan, protestantlik e’tiqodini qabul qilib, cho‘qintirilgan kishi va’z o‘qish va diniy marosimlarni bajarish huquqiga ega bo‘ladi. Bu ruhoniylarning umuman inkor qilinishini bildirmaydi, protestant ruhoniylari xristianlikning boshqa yo‘nalishlaridagidan farqlanadi. Ruhoniylar dindorlar jamoasi tomonidan saylanadi va faqat unga hisob beradi. Ularga dindorlarning tavba-tazarrusini qabul qilish va gunohlarini kechirish huquqi berilmagan. Bunday ruhoniylarning oila qurishlari mumkin va ular uchun selibat (lotincha *caliebs* – uylanmagan degan ma’noni anglatadi) qasami bekor qilingan.

Injil – diniy ta’limotning asosiy manbai. Muqaddas rivoyatlar, ya’ni Rim papasining hujjatlari, «cherkov otalari»ning asarlarining ilohiy mazmunga egaligi tan olinmaydi, lekin ulardagi Injilning mazmunini aks ettiruvchi qismlaridan foydalaniladi. Injilni dindorlar ona tilida o‘qishlari e’tirof etilgan. Har bir kishi o‘z ona tilida diniy marosimlarni bajarish va Injilni mustaqil tafsir qilish huquqiga ega.

Protestantizmning asosiy aqidalari sifatida qabul qilingan odamlarning gunohkorligi va Isoning birlamchi gunohni yuvish uchun o‘zini qurban qilganligiga ishonish bilan xalos bo‘lish mumkinligi g‘oyasi targ‘ib qilinadi. Sirli marosimlar, zohidlik, savob ish qilish kabilalar kishining xalos bo‘lishiga yordam berolmaydi. Odamlarning ichki tabiatи birlamchi gunoh ta’sirida tamoman o‘zgarganligi bois ular xudoning ko‘magisiz, mustaqil yaxshilik qilish imkoniyatiga ega emas. Yaxshilikning namoyon bo‘lishi insonning shaxsiy xislati emas, balki xudoga bo‘lgan muhabbatining samarasidir. Odam gunohkor va gunohdan xalos bo‘lish uchun xudoni doimo yodda tutishi, unga sig‘inishi kerak. Bu amal bilan mustahkamlanmasa, kutilgan natijani bermaydi. Odam o‘zining kundalik vazifalarini sidqidildan bajarishi lozim. O‘z vazifalariga sidqidildan yondashish kishining xudoga nisbatan munosabati qanchalik samimiy ekanligidan dalolat beradi.

Protestantizmda taqdiri azalga ishonish mavjud. Unga ko‘ra, xudo kishining tug‘ilishidan oldin taqdirini belgilab qo‘yadi. Odamning yerdagi hayotida xudo uning taqdirini qanday belgilaganini bilib bo‘lmaydi. Lekin insonning mehnatsevarligi, ishdagi omadliligi, tijoratdagi yutuqlari, badavlat va baxtli yashashi kabilar unga xudoning nazari tushganligi va poklanish belgilari sifatida qabul qilinadi.

Protestantizmda diniy marosimlar soddalashtirilgan va ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Ibodatlar va’z va duo o‘qish, psalom (diniy qasida va ashula)lar kuylash, Injildan parchalar o‘qish bilan cheklanadi. Marhumlar ruhiga, Bibi Mariyam, avliyolar va ikonalarga sig‘inish, a’rofga ishonish kabilar bekor qilingan. Ibodatxonalardan hashamatli va ko‘p chiqim talab qiluvchi jihozlar (qo‘ng‘iroqlar, mehroblar, ikonalar, haykallar va boshqa bezaklar) olib qo‘yilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, protestantizm yo‘nalishi G‘arbiy Yevropada katolik cherkovining zo‘ravonligi, odamlar taqdiriga befarqligi, ma’naviy aynishi, boylikka o‘chligi, ijtimoiy va madaniy hayotdagi taraqqiyparvar o‘zgarishlarga to‘sinqiliga qarshi bo‘lgan yangi ijtimoiy-siyosiy kuchlar mafkurasi sifatida vujudga kelgan. Qayd etish joizki, katolik cherkoviga qarshi qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakat dahriylik harakati emas, balki cherkovdagi illatlarga, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga to‘sinqilik qiluvchi siyosiy katolitsizmga qarshi qaratilgan harakat edi.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Xristianlikning vujudga kelishi sabablari nimalardan iborat?
2. Xristianlik ta’limotining asoslarini aniqlang.
3. Xristianlikning muqaddas rivoyatlariga qaysi manbalarni kiritishimiz mumkin?
4. Xristianlikning ulug‘ bayramlarini sanab bering.
5. Qachon va nima sababdan xristianlikda bo‘linish vujudga kelgan?
6. Katolitsizmning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Katolitsizmda cherkovlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyati nimalardan iborat?
8. Protestantizmning katolitsizmdan farqlarini aniqlang?
9. Pravoslaviyeda nima sababdan avtokefal cherkovlar yuzaga kelgan?
10. Protestantizm qachon va qanday sabablarga ko‘ra vujudga kelgan?
11. Protestantizmning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

7-mavzu
ISLOM DININING YUZAGA KELISHI
VA TARQALISHI

**Islom dinining vujudga kelishi. Muhammad payg‘ambar va
uning yangi dinni shakllanishidagi xizmatlari**

Islom dini yuzaga kelishi jihatidan jahon dinlari ichida uchinchi o‘rinda turadi. Islom dini Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika, Janubisharqi Osiyo, Kavkaz xalqlarining tarixida nihoyatda muhim o‘rin tutadi va ayni vaqtida ham ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga katta ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Eron, Pokiston, Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni, Liviya, Tunis, Sudan singari mamlakatlarda islom rasmiy davlat dini mavqeiga ega. MDH davlatlari hududida Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Ozarbayjon, Tatariston va Boshqirdiston xalqlari o‘zlarining islom dinida ekanliklarini e’tirof etishadi. Hozirgi kunda turli qit’alarda yashovchi bir milliarddan ziyod kishi irqi, millati, sinfi va tabaqaviy farqlaridan qat’i nazar, islom dini normalari va qadriyatlari atrofida birlashgan hamda jahon ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida salmoqli o‘rinlardan birini egallaydi.

Islom milodiy VII asrning boshlarida Arabiston yarimorolida paydo bo‘lgan. Yarimorol aholisining asosiy qismini arablar tashkil etgan. Islom vujudga kelishi arafasida arablar asosan chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. Arabistonning qulay geografik o‘rni (hududidan G‘arb va Sharq davlatlarini bog‘lovchi karvon yo‘llari o‘tgan va uchta qit’ani tutashtirib turadi) sababli, savdo-sotiq va hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi yarimorolning hududida turlicha bo‘lgan. Uning bepoyon cho‘llarida yashagan ko‘chmanchi arablar chorvachilik bilan shug‘ullangan. Yarimorolning shimoliy qismida Vizantiya va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniy markazlarning ta’siri kuchli edi. Karvon yo‘li o‘tgan janubi-g‘arbiy qismi (Hijoz)da qadimdan savdo-sotiq, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik va qisman hunarmandchilik rivojlangan.

Milodiy I asrda Arabistonning janubi-g‘arbiy qismida shahar-davlatlar vujudga kelgan. IV–VI asrlarda bu yerda Makka, Yasrib, Toif singari yirik shaharlar mavjud edi. Ularda istiqomat qiluvchi arab zodagonlarining daromadini karvon yo‘llaridan kelayotgan boj soliqlari va savdo-sotiq tushumlari tashkil etgan. Mintaqadagi iqtisodiy jonlanish natijasida ko‘chmanchi chorvador qabilalarda urug‘-qabilaviy munosabatlarning yemirilishi va davlat uyushmalarining paydo bo‘lish jarayoni kuchaygan.

Arabistonning qulay geografik o‘rni, karvon yo‘llari bo‘ylab boy shahar-davlatlarning mavjudligi qudratli qo‘shti davlatlarning mintaqaga qiziqishini kuchaytirgan. VI asrning boshlarida Arabistonning janubig‘arbiy qismida joylashgan Efiopiya (Habashiston) davlati yarimorolning karvon yo‘llari o‘tgan qismi (Hijoz)ni bosib olgan. Lekin Habashiston boy o‘lkada mustahkam o‘rnasha olmagan. VI asrning ikkinchi yarmida Eron Sosoniylari davlati Efiopiyanı Arabistondan surib chiqargan. Arabiston Sosoniylar davlati tarkibiga kiritilgan.

Sosoniylar hukmronligi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni keskinlashtirgan. Bunga sabab ularning Buyuk ipak yo‘lining ahamiyatini yanada oshirish maqsadida, Arabistondan o‘tgan janubiy karvon yo‘lini izdan chiqarishlari bo‘lgan. Oqibatda janubiy karvon yo‘li vayron qilingan. Karvon yo‘lidan kelayotgan daromad esa keskin kamaygan. Arabistonning tashqi savdo aylanmasi qisqargan va xo‘jaligi inqirozga uchragan.

Arabistondagi iqtisodiy inqiroz natijasida aholining turmush darajasi keskin pasayib ketgan va ma’naviy tushkunlik yuzaga kelgan. Qabilaviy nizolar kuchaygan. Xalq orasida xaloskor mahdiyning kelishi to‘g‘risidagi rivoyat tarqalgan.

Bu davr ko‘chmanchi arab qabilalari (badaviylar)ning urug‘-qabilachilikdan sinfiy tuzumga o‘tish davriga to‘g‘ri kelganligi sababli vaziyat yanada murakkablashgan, an’anaviy turmush tarzi va normalari buzila boshlagan. Ijtimoiy ziddiyatlar va arab qabilalarining og‘ir tanglikdan chiqish uchun markazlashgan mustaqil davlatga birlashishga intilishi kabilar kuchaygan. Buning uchun tarqoq arab qabilalarni birlashtiruvchi mafkura zarur edi. Islom dini tarqoq qabilalarni birlashtiruvchi mafkura sifatida tarix sahnasiga chiqqan.

Islomgacha Arabistonda turli xil dinlar mavjud edi. Semit qabilalari an’analariga ko‘ra, Quyosh, Oy, tabiatning bejilov kuchlari, turli xudolar va ruhlarga sig‘inganlar. Har bir qabilaning o‘z xudolari, totem yoki fetishlari mavjud bo‘lgan. Ular gohida bir-biriga qarama-qarshi edi. Qabilaning diniy tasavvurlari faqat mazkur qabila a’zolarininggina birligini ta’minlagan, umumarab dini esa yo‘q edi.

Ibtidoiy din shakllari va ko‘pxudolilik bilan birga yakkaxudolilikka asoslangan din turlari ham yoyilgan. Arablar qadimdan yakkaxudolilikka e’tiqod qilgan yahudiylar bilan yonma-yon yashaganlar. Efiopiya Arabistonning bir qismini bosib olganidan keyin xristianlik (islomgacha Efiopiyada davlat dini sifatida qabul qilingan) keng yoyila boshlagan. Sosoniylar davlati Arabistonda zardushtiylikning keng yoyilishiga shart-

sharoit yaratgan. Oqibatda arablar orasida ibtidoiy din shakllari bilan birga yakkaxudolilikka sig‘inuvchilarning ham soni ortib borgan.

VI asrda Janubiy Arabistonda haniflar (arabchada – chinakam e’tiqod qiluvchilar, taqvodorlar degan ma’nolarni anglatadi), ya’ni yakka xudolikka da’vat etuvchilar harakati keng yoyilgan. Ularni «haniflar» deb atalganligining sababi hozirgacha aniq emas. Ayrim manbalarda harakat ishtirokchilarining ko‘pchiligi «banu hanifa» urug‘idan chiqqanligi bois shunday nom berilganligi qayd etiladi. Ular sanamlar, fetishlar va turli xudolarga sig‘inishni qoralab, yagona xudoga sig‘inishni da’vat qilganlar. Ayrim haniflar o‘z xudolarini «Olloh» (arabchada – *al-iloh* yoki semit tilida – *al* yoki *el* so‘zidan olingan bo‘lib, xudo, Olloh degan ma’nolarni anglatadi) deb ataganlar.

Haniflar harakati boshlangan davrda Olloh quraysh qabilasining sanami hisoblangan. Mazkur harakat ishtirokchilari juda ko‘p bo‘lgan, lekin islam vujudga kelganidan keyin ular to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar deyarli yo‘q qilib tashlangan. Qur’on va boshqa manbalarda Sajjoh, Tulayh, Asvad, Musaylima kabi haniflar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Haniflar o‘zlarini xudoning ilohiy xabarini odamlarga yetkazuvchi vakili – payg‘ambar deb ataganlar. Biroq bunday da’volar aholi orasida e’tiborsiz qolgan. Faqat Muhammad alayhissalomgina islam tarixida buyuk payg‘ambar sifatida tan olingan.

Muhammad 570 yilda Makka shahrida tavallud topgan. Uning tug‘ilishi arafasida otasi, 6 yoshligida esa onasi Amina aya vafot etgan. Ota-onasidan erta judo bo‘lgan Muhammad dastlab bobosi Abd al-Mutallib tomonidan, u olamdan o‘tgach esa amakisi Abu Tolibning qo‘lida tarbiyalangan. Muhammad yoshlik chog‘idanoq amakisining savdo ishlarida yordam bergen. U mehnatkashligi, odamlarning e’tiborini qozona olishi, ularning ko‘ngliga yo‘l topa olishi va sodiqligi bilan nom qozongan. Shu bois unga «Amin» (sodiq) degan taxallus berilgan.

Abu Tolib Muhammadni 21 yoshida badavlat beva xotin Hadichaga ish boshqaruvchilikka xizmatga bergen. Ko‘p vaqt o‘tmasdan u Hadichaga uylangan. Er-xotinning yoshida juda katta farq (Muhammad xotinidan 15 yosh kichik bo‘lgan) bo‘lsa-da, o‘zaro hurmat va mehr-muhabbatga asoslangan mustahkam oila qurilgan. Biroq Muhammadning xotinlaridan biri Oyshaning ma’lumotiga ko‘ra, ularning yoshlaridagi farq katta bo‘lmagan. Shunga ko‘ra, Muhammad uylangan vaqtida 23 yoshda, Hadicha esa 28 yoshda bo‘lgan. Agar ularning olti farzand ko‘rganliklari

hisobga olinsa, Oyshaning ma'lumoti haqiqatga yaqin bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Muhammad uylanganidan keyin savdo ishlarini davom ettirish va mulkini ko'paytirishga harakat qilsa-da, yashashdan eng asosiy maqsad Ollohgaga xizmat qilish deb hisoblagan. Mulkiy ta'minlanganlik unga diniy ishlar bilan muntazam shug'ullanish imkonini bergen.

610 yilda Muhammad xudodan vahiy (xudoning xohish-irodasini ifodalaydigan «haqiqat»larni odamlarga mo'jizaviy yo'llar bilan yetkazish) kelayotganligini aytib, arablarni yagona xudo – Olloh atrofida birlashishga da'vat etgan va insonlarni Olloh irodasiga bo'ysunishga chaqirgan.

Ma'lumki, yagona Olloh to'g'risidagi g'oya, unga imon keltirganlarning birodarligini anglatadi. Muhammadning da'vagini qabul qilganlar o'zaro hamkorlik, bir-biriga muhabbat, ezgulik vaadolat qoidalari asosida birlashishni haqiqiy e'tiqod asoslari deb hisoblaganlar. Muhammad Ollohga imon keltirishga da'vat etishni boshlagan dastlabki davrlarda yangi din yaratishni da'vo qilmagan. Shunisi e'tiborga molikki, islam dini (arabchada *islom* – itoat etish, bo'ysunish degan ma'nolarni anglatadi) tarqalishining dastlabki yillarida u Quddus shahri tomonga qarab sajda qilgan. Xristianlar va iudaizmga sig'inuvchilarini birodarlar deb hisoblagan. Yahudiylar dastlab Muhammadni mahdiy sifatida qabul qilgan bo'lsalar-da, keyinchalik uning qarashlarini tanqid qilganlar. Diniy qarashlardagi ixtiloflar sababli iudaizm va xristianlar bilan ajralish yuz bergen. Muhammad o'z tarafdarlarini barcha diniy marosimlarni arablarning siyosiy va diniy markazi – Makka shahriga qarab bajarishga da'vat etgan.

Muhammadning da'vatorlik faoliyati dastlab katta qiyinchiliklarga duch kelgan. Hatto eng yaqin qarindoshlari ham dastlab uning g'oyasini qabul qilmaganlar. Muhammadning Makka shahridagi 12 yillik da'vatchilik faoliyati muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. Makka zodagonlari uning da'vatlaridagi ijtimoiyadolat, din ahlining birodarligi, boylarning kambag'allar foydasiga xayriya qilishlari, sudxo'rlikning qoralanishi, axloq normalariga amal qilish kabi g'oyalarini qabul qilmagan. Bundan tashqari, shaharda shu davrgacha nufuzi baland bo'Imagan hoshimiylar urug'i vakilini payg'ambar sifatida hukmron ummaviy zodagonlari qabul qila olmas edilar.

Muhammadning da'vatchilik faoliyati bilan shug'ullanishiga qarshi turli to'siqlar mavjud bo'lган. 617 yilda unga da'vatchilik bilan faqat o'z mahallasida shug'ullanishiga ruxsat berilgan, ammo mahalladan tashqariga chiqishi qat'iyman qilingan. 620 yilda Hadicha (xotini) va undan keyin

Abu Tolib (amakisi) vafot etgan. Yaqin kishilarining madadidan mahrum bo‘lgan Muhammadning hayoti xavf ostida qolgan va u shahardan chiqib ketishga qaror qilgan. U 622 yilda (taxminan 22 yoki 24 sentabrda) to‘sirlardan muvaffaqiyatli o‘tib, Yasribga (Madina) ko‘chgan. Muhammadning Yasribga ko‘chgan vaqt halifa Umar davrida musulmon hijriy taqvimining hisobiga asos sifatida qabul qilingan.

Makka shahriga muxolif yasribliklar Muhammadni qabul qilganlar (Muhammadning onasi Amina aya asli yasriblik edi). Muhammadning da’vatlarini qabul qilgan yasribliklar ansorlar, Makkadan ko‘chib kelganlar muhojirlar deb yuritilgan. Yasribda muhojirlar va ansorlar musulmonlar jamoasi (arabchada «muslim» – bo‘yin eguvchi, o‘zini ollohga topshirgan) umma (ma’lum dinga e’tiqod qiluvchilar jamoasi)ga birlashgan. Musulmonlar Muhammadni payg‘ambar, diniy va dunyoviy hokimiyat rahbari sifatida tan olganlar. Muhammadning sharafiga Yasribga keyinchalik al-Madina (arabchada – *madinai noib*, ya’ni payg‘ambar shahri) degan nom berilgan.

Madina shahrida Muhammad alayhissalom rahbarligida islomga e’tiqod qiluvchilar uchun manzil – birinchi masjid qurilgan hamda islomning diniy va siyosiy mavqeini aks ettiruvchi birinchi nizom yozilgan. Bu nizomga binoan, islomga e’tiqod qiluvchi barcha kishilar bir xalq deb e’lon qilinib, o‘zaro nifoq, qasos olish bekor qilingan. Musulmonlarga qo‘lda qurol bilan bir-birlarini himoya qilishlari lozimligi uqtirilgan. Barcha munozarali masalalar bo‘yicha hukm chiqarish Muhammad alayhissalom zimmasiga o‘tgan. Islom dinini qabul qilmagan mahalliy arablar, nasroniyalar va yahudiylar bilan alohida shartnomal tuzilgan.

Shunday qilib, birinchi teokratik (grekcha *teos* – xudo, *kratos* – hokimiyat degan ma’noni anglatadi) davlat vujudga kelgan. Davlat boshida yakka hokim dindor kishi bo‘lgan. Bu davlatni Ollohning yerdagi vakili – Muhammad payg‘ambar hamda uning ikki yordamchisi Abu Bakr va Umar boshqarganlar. Ular o‘z qo‘llariga nafaqat siyosiy va harbiy hokimiyatni, balki diniy ishlar, kishilarning tarbiyasi, yangi dinni tarqatish bilan bog‘liq vazifalarni ham olganlar. Shu tariqa payg‘ambarning hayoti va aytgan so‘zlari sekin-asta qonundek mavqeiga ega bo‘lib borgan.

Tez orada islom dinining ta’siri Janubiy va G‘arbiy Arabistonning deyarli barcha qabilalarini qamrab olgan. Muhammad payg‘ambar tarafдорлари islom diniga e’tiqodni goh targ‘ibot, gohida esa kuch ishlatish yo‘li bilan qaror toptirganlar. Yirik savdo-sotiq markazi Makka shahri aholisi islom diniga hammadan ko‘p qarshilik ko‘rsatgan. 623 yildan

boshlab musulmonlar makkaliklarning karvonlariga hujum qila boshlagan. Ular katta qo'shin bilan musulmonlarga qarshi chiqqan. 624 yilda Badr shahri yonidagi jangda Muhammad rahbarligidagi qo'shin makkaliklarni tor-mor qilgan. 625 yilda makkaliklar qo'shini Uxud tog'i yaqinida musulmon qismlariga katta talafot yetkazgan. Lekin makkaliklar Yasribdan chekinganlar. 628 yilda Muhammad katta qo'shin bilan Makka shahriga yaqin kelgan. Musulmonlar qo'shnlari Makka shahri yaqinidagi al-Xudoaybiya qishlog'iga kelib to'xtagan. Shaharliklar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida tinchlik shartnomasi tuzilgan. Nihoyat, Muhammad 630 yilda Makka shahrini qo'lga oldi, ilgari unga qarshi bo'lgan quraysh zodagonlari esa uning ittifoqchisiga aylanganlar. Muhammad garchi o'z ona shahrida muvaffaqiyat qozongan bo'lsa-da, Madina shahriga qaytishni ma'qul ko'rgan. O'limidan bir necha oy avval, u Makkaga haj qilgan. Shu davrdan e'tiboran Makka shahri islom dinining muqaddas poytaxti deb e'lon qilingan.

632 yilda Muhammad vafot etgan va o'zi boshlagan ishni davom ettirish uchun minglab maslakdoshlariga qoldirgan. Muhammad alay-hissalomning o'limidan so'ng ayrim ko'chmanchi qabilalar islom tartiblariga qarshi qo'zg'olonlar ko'targanlar. Biroq bunday qo'zg'olonlar muvaffaqiyat qozonmagan, ya'ni Muhammad tarafdorlari ularni bostirganlar. Ular islom dinini tarqatish va buning uchun qo'shni davlatlarni bosib olishni asosiy maqsad deb bilganlar.

Muhammad payg'ambar vafotidan keyin davlat boshlig'i dastlab umma tomonidan saylangan. Umma saylagan to'rt xalifa (xulafo ar-roshidin) – Abu Bakr (632-634 yillar), Umar (634-644 yillar), Usmon (644-656 yillar), Ali (656-661 yillar) davrlarida islom qo'shni davlatlarga yoyilgan. Qisqa vaqt ichida (VII–VIII asrlarda) ular O'rta va Yaqin Sharqni, Markaziy Osiyoning asosiy qismini, Shimoliy Hindistonni bosib olganlar va Xitoy chegarasigacha yetganlar. Bundan tashqari, Shimoliy Afrikada Liviya, Tunis va Marokashni ishg'ol etganlar hamda Gibraltar bo'g'ozi orqali o'tib, Pireneya yarimorolini egallaganlar. Ular hatto Fransiyagacha yetib borganlar va u yerda Puatye shahri yonidagi jangda (732 yil) mag'lubiyatga uchraganlar.

Bunday zabit etishlar oqibatida juda katta hududda islom davlati – Arab xalifaligi paydo bo'lgan va uning aholisi islomlashtirilgan. Islomlashtirish turli yo'llar (kuchli iqtisodiy vositalar, agar ular yordam bermasa, harbiy kuch ishlatish yo'li) bilan amalga oshirilgan. Shunday qilib, qisqa vaqt ichida islom milliy chegaradan tashqariga chiqqan va

sekin-asta jahon dinlaridan biriga ega bo‘lgan. Bu esa, albatta, bir qator xalqlarning tarixiy taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa sifatida aytganda, Muhammad payg‘ambar arab elatini yangi diniy mafkura asosida jipslashtirib, markazlashgan davlatga asos solgan. Jamiatni iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy inqirozdan xalos qilgan. Insoniyat tarixida alohida o‘ringa ega islom madaniyatining poydevorini yaratgan.

Qur’on, uning mazmuni va tuzilishi. Sunnat va hadislar

Musulmon an'analariga ko‘ra, Ollohning irodasi va o‘gitlari Muhammad payg‘ambarga farishta Jabroil orqali vahiy (arabchada – uqtirilgan degan ma’noni anglatadi) qilingan. Vahiy kelgan kun islomda Laylat-ul qadr kechasi (arabchada – taqdirni hal qiladigan kecha degan ma’noni anglatadi) deb yuritiladi. O‘z navbatida, payg‘ambar bu o‘gitlarni kishilarga yetkazgan. Bu narsa musulmonlarning muqaddas kitobi Qur’onda (arabchada – o‘qimoq degan ma’noni anglatadi) bayon etilgan.

Muhammad davrida diniy ta’limot tartib bilan yozib borilmagan. Uning hayotligida muqaddas bitikka ehtiyoj bo‘lmagan, chunki din va davlat ishlari bilan bog‘liq masalalarni payg‘ambarning o‘zi bevosita hal etgan. U vafot etganidan keyin diniy ta’limot bayon etilgan muqaddas yozuvlarga ehtiyoj tug‘ilgan. Muqaddas bitikning yagona matnini tayyorlash maqsadida xalifa Abu Bakr 632 yilda Qur’on sahifalarini to‘plab, dastxat qilishni sahoba (arabchada – hamroh, do‘sit degan ma’nolarni anglatadi) Muhammad Zayd ibn Sobitga topshirgan. Uning tahririda tayyorlangan qo‘lyozma matni suhuf (arabchada sahifalar degan ma’noni anglatadi) deb nomlangan. Lekin suhuf matni bilan Qur’on suralarini (arabchada *izra* – devorni terishda ishlatiladigan g‘isht yoki toshning bir qatori degan ma’nolarni anglatadi) mustaqil to‘plovchilarning matnlari o‘rtasida tafovutlar mavjud bo‘lgan. Bu esa dinda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Xalifa Usmon muqaddas bitiklar bilan bog‘liq tafovutlarni bartaraf etish maqsadida o‘zining rahbarligida ijodiy guruh tuzgan. Ijodiy guruh 651 yilda Qur’onning asl nusxasini tayyorlagan. Undan farq qiladigan barcha matnlar yo‘q qilingan. Tayyorlangan nusxa xalifa Usmon mus’hafi (arabchada – o‘rama qog‘oz, pergament degan ma’nolarni anglatadi) deb atalgan.

Ma’lumki, Qur’oni karim jami 114 suradan iborat. Har bir sura, o‘z navbatida, Olloh o‘gitlaridan iborat oyatlarga (arabchada – mo‘jiza degan ma’noni anglatadi) bo‘linadi. Qur’ondagi birinchi suradan tashqari qolgan barcha suralar hajm jihatdan torayib, kichiklashib, ixchamlashib boradi. Eng uzun suralar Qur’onning boshida va eng qisqa suralar esa oxirida

joylashtirilgan. Shuning uchun unda xronologik va mantiqiy tartib yo‘q. Qur’onda har bir suraga nom berilgan, lekin ko‘pchilik hollarda suraning nomi mazmuniga mos kelmaydi. Birinchi sura «fotih» yoki «ochuvchi sura» bo‘lib, u musulmonlar takrorlab o‘qiydigan duodan iborat. «An-nos» surasi bilan Qur’oni karim yakunlanadi. Har bir sura doirasida oyatlar tartib bilan raqamlangan. Suralarda oyatlarning soni turlicha (masalan, eng qisqa hisoblanuvchi 103, 108, 110-suralar uchta oyattan, eng uzun – 2-sura esa 286 oyatdan iborat). Oyatlarga suralar kabi nom berilmagan. Hajmi jihatdan oyatlar ikki so‘zning birikmasidan (masalan, 82-suraning 1–5 oyatlari) yoki tugal fikrni ifodalovchi katta jumalardan (masalan, 3-suraning 11, 14, 18, 19, 20 singari oyatlari) tuzilgan. Ko‘p oyatlar mazmunan bir-birini takrorlaydi. Bunga sabab, o‘sha davrda ma’lum g‘oya, rivoyat va ko‘rsatmalarni takror aytish keng qo‘llanilgan. Suralar matniga o‘zgartishlar kiritmasdan oyatlarga taqsimlash XX asrning boshlarigacha davom etgan. Shu bois Qur’onning har bir tarixiy davrdagi nashrlarida oyatlarning soni turlicha ko‘rsatilgan (masalan, 1989 yilda chop qilingan «Islom ma’lumotnomasi»da 6204 tadan 6232 tagacha oyatlar qayd etilgan).

Diniy rivoyatlarga ko‘ra, Qur’onning matni Muhammadga 22 yil davomida vahiy qilinganligi sababli tarixiy davr va sharoit ta’sirida undagi ayrim ko‘rsatmalar o‘zgarib borgan. Uning matni mazmunida ziddiyat, bir-birini inkor etuvchi fikrlar paydo bo‘lgan. Buni hal etish uchun nas’h (arab tilida – bekor qilish degan ma’noni anglatadi) nazariyasi ishlab chiqilgan. Mazkur nazariya bo‘yicha Qur’onda nas’h (bekor qiluvchi) va mansuh (bekor qilinuvchi) oyatlar mavjud. Keyinroq ijod etilgan oyatlar (nosih), ilgarigi, mazmunan qarama-qarshi bo‘lgan oyatlar (mansuh)ni inkor etadi. Qur’onning 40 dan ortiq suralarida ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar mavjudligi qayd qilingan.

O‘z mazmuniga ko‘ra, Qur’on turli qonun-qoidalar majmui, an’ana va udumlar, afsona va rivoyatlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pchiligi arab aholisi o‘rtasida keng tarqalgan. Qur’onda asosan yakkayu-yagona yaratuvchi xudo – Olloh va uning irodasiga so‘zsiz itoat etish lozimligi haqida gapiriladi. Qur’onga binoan, Olloh olamni olti kun davomida, ya’ni birinchi kun samoni, ikkinchi kun Quyosh, Oy, yulduzlar va shamolni, uchinchi kun yerda va suvda yashovchi turli maxluqlar, shuningdek osmonda yashovchi farishtalar va havoni, to‘rtinchi kun suvni (barcha maxluqlarga taom belgilagan va shu kundan e’tiboran, uning irodasiga binoan, daryolar oqa boshlagan), beshinchi kun jannatni, oltinchi kun Odam Ato va Momo Havolarni yaratgan. Shanba kuni esa hech narsa yaratilmagan, barcha ishlar yakunlangan bo‘lib, olamda osoyishtalik va uyg‘unlik hukm surgan.

Qur’onga ko‘ra, Olloh yetti olamni yaratib, ularni ustma-ust joylashtirgan. Eng quyi olamda Quyosh va Oyni mustahkamlagan. So‘ng u yerni odamlar oyog‘i ostiga gilam kabi to‘shagan va uning surilib ketmasligi uchun ustiga tog‘larni bostirib qo‘yan. Insonni yaratish xudoning faoliyatidagi eng oliy ish hisoblanadi. Olloh dastlab barcha go‘zal narsalarini, keyin odamni yaratishga kirishgan. U inson jismini tuproq va loydan yasab, muayyan tuzilish ato etgan, so‘ng ko‘z, quloq, yurak bilan to‘ldirib, muqaddas ruhiy hayot bag‘ishlagan.

Qur’on matni mazmunini tushunish asrlar davomida qiyinlashib borgan. Muqaddas kitobni tafsir qilish (izohlash) an’anasi muammoni yanada murakkablashtirgan. Tafsirning xilma-xil tiplari mavjud. Ularning eng asosiyлари qadimgi rivoyatlarga, ilk sharhlarga tayanib tafsirlash, ilohiyotga asoslanib, Qur’onni ichki ziddiyatlardan xoli, an’anaviy qarashlar bilan tushunib bo‘lmasligiga asoslanib ratsional tafsir qilish, muqaddas kitobning mazmunini tushunishni darajalovchi tafsir. Bunda kishining ma’naviy barkamolligi va tushunchasiga katta e’tibor berilgan. Qur’onning matnini tafsir qilish uni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotga moslashtirishga imkon bergen.

Islomning muqaddas manbai – Qur’oni karim ijtimoiy hayotdagи o‘zgarishlarga to‘liq javob berish imkoniyatiga ega emas edi. Shu tariqa pand-nasihatlar yig‘indisi – sunnat (arabchada – odat, an’ana, xatti-harakat tarzi kabi ma’nolarni anglatadi) vujudga kelgan. Islomda sunnat ahamiyati jihatdan Qur’ondan keyin turadi. U Muhammad (SAV)ning so‘zlari va xatti-harakatlari bayon qilingan muqaddas rivoyatlardan iborat. Sunnat VII asrning o‘rtalarida vujudga kelgan.

Sunnat hadislardan (arabchada – hikoya, xabar, bildirish, parcha degan ma’nolarni anglatadi) tashkil topgan. Ular Muhammad payg‘ambarning hayoti, faoliyati va ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Arab xalifaligi tashkil topganidan keyin ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagи o‘zgarishlarning diniy ta’limotda aks ettirilishi zarurati va siyosiy hokimiyat uchun kurashda turli guruuhlar Muhammadning obro‘-ehtiromiga tayanishga intilishi sababli, hadislarning soni jadal sur’atlar bilan ko‘payib borgan. Hadislarni to‘plashdagi bunday tartibsizlikka faqat IX asrda chek qo‘yilgan. Shu davrga kelib, ular tartibga solingan va din, axloq, fiqhning muqaddas manbaiga aylangan.

Hadislarni yig‘uvchi, sharhlovchi, targ‘ib etuvchi shaxslar «muhaddis» deb atalgan. Muhaddislar hadislarni to‘plashda, birinchidan, isnod (arabchada – tayanch degan ma’noni anglatadi), ya’ni hadisni ma’lum qilgan kishilarni sanab o‘tishlari, ikkinchidan, matn, ya’ni hadisning mazmunini bayon

qilishlari kerak. Nufuzli hadislar to‘plamida qo‘srimcha ravishda hadislarga sharhlar beriladi. Hadislar to‘plamlari juda ko‘p, doimo ularning oltitasi alohida e’zozlanadi. Oltita to‘plamdan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) va Muslim an-Nishopuriy (817-875) qalamiga mansub hadislar to‘plami ishonchli deb tan olingan. Islomdagi yo‘nalish va oqimlarning hadislarga munosabatlarida turlicha yondashuvlar mavjud. Shunga qaramasdan hadislar to‘plamlari umumiy ahamiyatga ega qadriyatdir. Shialik yo‘nalishi alohida hadislar to‘plamiga ega bo‘lib, ularda Muhammadning oilasiga alohida e’tibor beriladi. Lekin ikkala yo‘nalish ham hadislarning muqaddas rivoyatlar sifatidagi ahamiyatini inkor etmaydi.

Islom ta’limoti

Qur’on va sunnatning mazmuni oddiy mehnatkash xalq vakillariga tushunarli bo‘lmaganligi sababli, ularni islom olamida ziyorilar, ruhoniylar va huquqshunoslar qunt bilan o‘rganar va tafsir qilar edilar. Keng musulmon ommasi uchun esa qator asosiy tamoyillarni o‘z ichiga olgan «E’tiqod ramzi» yaratilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

1) *Ollohga ishonish*. Har bir musulmon (arabchada – bo‘yin eguvchi, itoatkor degan ma’nolarni anglatadi) yagona Ollohni tan olishi va uning irodasiga bo‘ysunishi shart;

2) *Ollohning farishtalariga ishonish*. Musulmon kishi farishtalar (arabchada – malak, maloika) va yovuz kuchlar (jinlar) mavjudligiga ishonishi lozim. Ularning barchasi Olloh tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning irodasini ifoda etuvchi jismsiz mavjudotlardir. Xudoga eng yaqin bo‘lgan farishtalar zimmasiga turli vazifalar yuklatilgan bo‘lib, Jabroil – Ollohning hukmini kishilarga yetkazuvchi, Mikoil – koinotni boshqaruvchi, Isrofil – maxsus shoxdan yasalgan karnayni chalib qiyomat kuni haqida xabar beruvchi, Azroil – jon oluvchi farishta vazifasini bajaradi. Shuningdek, o‘lganlarni qaborda dastlabki so‘roq qiluvchi farishtalar – Munkar va Nakir, jannatning qo‘riqchisi – Ridvon, do‘zaxning qo‘riqchisi – Malik ham xudoning yaqin yordamchilari vazifasini bajaradilar. Olloh irodasiga bo‘ysunishni istamagan yana bir farishta mavjud bo‘lib, uning nomi Shayton (Iblis)dir. Shayton odamlarni gunohga yetaklaydi. Qudratli Olloh bu farishtani jilovlab, bo‘ysundirib olishga qodir, biroq u ataylab Iblisgaga erkinlik berganki, bundan maqsad islomga e’tiqod etuvchi musulmonlarning irodasini, islom diniga bo‘lgan muhabbati va izchilligini sinash hisoblanadi. Bu farishta oxirzamonga qadar erkin bo‘ladi;

3) *Oollohning kitoblariga ishonish*. Musulmonlar Qur’onni abadiy va odamlar tomonidan yaratilmagan deb hisoblaydilar. Islomda Olloh muqaddas ta’limotini Muhammaddin oldin Muso (Moisey) va Iso (Iisus)larga vahiy qilgan. Tavrot, Injil va Zabur (Psaltir – qadimgi yahudiy dinining duolar to‘plami) kabi muqaddas bitiklar Qur’ondan oldin yuborilgan manbalardir. Shuning uchun ham islom boshqa dinlar ta’limotiga o‘xshaydi. Qur’on muqaddas bitiklarning eng so‘nggisidir. Qur’ondagi har bir ibora muqaddas hisoblanadi, u xudo tomonidan vahiy qilingan va unga shak keltirish mumkin emas;

4) *Oollohning payg‘ambarlariga ishonish*. Payg‘ambarlar ilohiy haqiqatni bandalarga yetkazadilar, ularni va’z, nasihat bilan haq dinga va yaxshi ishlarga chaqiradilar. Qur’onda 25 nafar payg‘ambarning ismlari qayd etilgan, biroq musulmonlar Muhammadni barcha payg‘ambarning payg‘ambari, deb hisoblaydilar. Payg‘ambarlar ikki turga bo‘linadilar: rasullar va nabiyalar. Olloh alohida kitob va shariat bergen payg‘ambarlar «Rasul» deb ataladilar. Olloh alohida kitob va shariat ato etmagan, lekin rasulga berilgan kitob va shariat asosida ish qilishga buyurilgan payg‘ambarlar «nabiyalar» deb ataladi. Rasullar nabiy bo‘lishi mumkin, lekin nabiyalar rasul bo‘laolmaydilar.

5) *oxirat kuniga ishonish*. Oxiratda (arabchada – oxirgi kun, dunyoning tugash kuni degan ma’nolarni anglatadi) Olloh va u xohlaganidan boshqa hech narsa qolmaydigan kun. Uning qachon bo‘lishini faqat Olloh biladi. Oxirat kunida Yerdagi hayot tugaydi. Oollohning qudrati bilan o‘lganlar qayta tiriladilar va bir joyda – Mahshar yerida to‘planadilar;

6) *islom e’tiqodini qabul qiluvchi har bir kishi o‘z taqdirining Olloh tomonidan oldindan belgilab qo‘yilgani (taqdiri azal)ga ishonishi lozim*. Qur’onda yozilishicha, «Olloh kimni hidoyat qilishni istasa, uning ko‘nglini islom uchun keng qilib qo‘yar. Kimni adashtirishni istasa, uning ko‘nglini «tor va tang qilib qo‘yar»¹⁰. Oollohning irodasiga musulmonlar so‘zsiz itoat etishlari shart;

7) *o‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonish*. Oollohning irodasi bilan qayta tirilgan odamlarning «Mahshar yeri»da to‘plangan kuni qiyomat deb ataladi. Bu kunda har bir inson o‘z qilmishiga loyiq mukofot, ajr oladi: kimdir do‘zaxda qiynoq azobiga duchor bo‘lsa, yana kimdir jannatda rohat-farog‘atda yashashga tuyassar bo‘ladi.

Islomda diniy e’tiqod, marosim, urf-odat, huquq va axloq normalardan tashkil topgan dindorlar uchun oddiy, bajarilishi qulay shartlar to‘plami

¹⁰ Куръони карим / Таржимон ва изоћлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т., 1992. – Б. 95.

farzlar ishlab chiqilgan. Ularni bajarmaganlar islomdan chiqqan deb hisoblanadi. Farzlarning eng asosiysi «islom arkonlari» deb ataladi va quyidagilardan iborat:

Kalima keltirish – «Ashhadu an la iloha illollohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh», ya’ni «Ollohdan o’zga iloh yo’qligiga va Muhammad uning bandasi va payg‘ambari ekanligiga shohidlik beraman» demak. Kalima keltirgan kishi islomni qabul qiladi, Ollohgaga bo‘ysunadi va farzlarni bajarish mas’uliyatini oladi.

Namoz kuniga besh vaqt o‘qiladi, undan faqat bemorlar va yosh bolalar ozod qilinadilar. Musulmonlar erta tongda, tushda, tushdan so‘ng, kun botishdan va uyqudan avval namoz o‘qishlari kerak. Namozdan oldin, albatta, tahorat (poklanish) marosimiga amal qilinadi. Agar suv bo‘lmasa, hatto tuproq bilan ham tahorat qilishga ijozat beriladi. Musulmonlar o‘z turmush tashvishlari bilan namoz vaqtini unutmasliklari uchun masjidlarda baland minoralar quriladi va u yerdan turib masjid muazzin (so‘fi)lari baland ovoz bilan musulmonlarni namoz o‘qish vaqtini haqida xabardor qiladilar.

Ro‘za. Islom dinida faqat bitta shunday cheklash mavjud. Bir oy davomida musulmon kishi erta tongdan kechgacha taom yemasligi, suv ichmasligi, ishrat qilmasligi lozim. Faqat qorong‘i tushishi bilan me’yorida taom yeyishga ruxsat beriladi. Islomda bir yil 354 kundan iborat bo‘lganligi uchun ramazon (ro‘za) oyining vaqtini doimo o‘zgarib turadi. U qahraton qishga ham, yozgi jazirama kunlarga ham to‘g‘ri kelishi mumkin. Ramazon oyida mehnat qilish odatdagidek kechadi. Ro‘zani sababsiz buzgan kishi farzga amal qilmagan deb hisoblanadi. Ro‘za tutishdan maqsad musulmonlar irodasini chiniqtirishdir. Shuningdek, ro‘za odamlarning ma’naviyatini yuksaltiradi. Ro‘za vaqtida musulmonlar bir-birlariga yaxshi niyat tilaydilar, o‘zaro munosabatlarda yomonliklar, janjallar unutiladi va odamlar gaplashganda yomon (qo‘pol) so‘zlarni ishlatishdan o‘zlarini tiyishga harakat qiladilar.

Zakot. Har bir mulkdor musulmon yilda bir marta kambag‘al, beva-bechora, nochorlar uchun yillik daromadining bir qismini berishi shart. Bu islomga e’tiqod qiluvchi mulkdor musulmonlar uchun majburiy amal sanaladi. Zakot islom davlatlarida muntazam ravishda yilning oxirida olinadi. Uning miqdori pul daromadining ulushi 1/40 (2,5 %)ga teng. Dunyoviy davlatlarda musulmonlarning ayrim qismi zakotni masjidlarga ixtiyoriy xayr-ehson sifatida beradilar. Majburiy bo‘lmagan yana bir vazifa – sadaqa. U odatda ixtiyoriy ravishda kambag‘allar, yetimxonalar, masjidlar va moddiy yordamga muhtoj kishilarga beriladi. Sadaqa o‘ziga to‘q musulmonlar uchun taskin topish, qoniqish hissi bilan birga, beva-

bechora, kambag‘allar jamoasining hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Haj. Shariatga binoan, har bir musulmonning hayotda aqalli bir marta Makka shahrining muqaddas yerlarini hamda xudoga sig‘inishi va Ka‘bani ziyorat qilishi. Ziyorat quyidagi talablarni bajarishni taqozo etadi: Ka‘bani yetti marta aylanish, qora toshni o‘pish, Safa va Marva tepaliklari o‘rtasida tez yurish, Zamzam muqaddas qudug‘idan suv ichish, Arafot tog‘i yonida turish, Mino vodiysida shaytonga tosh otish, Ollohogha qurbanlik qilish kabi marosimlar shular jumlasidandir. Kim haj qilsa, «hoji» unvoniga ega bo‘ladi va uning oq salla o‘rab yurishiga ruxsat etiladi.

Musulmon ruhoniylari yuqorida bayon etilgan beshta asosiy farzdan tashqari, yana bir farz – jihod (g‘azovot)ni tashviq qiladilar. Qur’onda bu haqda birmuncha aniq ma’lumot berilgan. Yilda sakkiz oy (to‘rt oy qon to‘kish taqiqlangan oylar hisoblanadi) yomonlikka, dushman kuchlariga qarshi yoki dinni kuch yordamida yoyish (bu masalada musulmonlarning qarashlari bir-biridan keskin farq qiladi) uchun kurashish muqaddas ish deb baholanadi. Muhammad payg‘ambar o‘gitlariga ko‘ra, «ulug‘ jihod» bu musulmonning e’tiqodi va gunohlariga tavba-tazarru qilish ehtiyoji o‘rtasidagi ma’naviy kurash bo‘lsa, «qurolli kurash» din yo‘lidagi odatiy harakatdir.

Islom aqidalariga ko‘ra, muqaddas jihodda ishtirok etish, hatto halok bo‘lish kishini gunohlardan forig‘ qiladi va shahidning jannatdan o‘rin olishida buning ahamiyati kata hisoblanadi. Aytish joizki, jihod tarzida nafaqat bosqinchilik urushlari, balki milliy ozodlik kurashlari ham olib boriladi (masalan, XX asrda bu shior ostida qator milliy-ozodlik kurashlari bo‘lib o‘tgan).

Islomda diniy bayramlarga alohida e’tibor beriladi. Ular qatorida eng katta e’tiborga ega bo‘lganlari Ro‘za hayit, Qurban hayit, Me’roj, Mavlud bayramlaridir.

Ro‘za hayit (arabchada – *Iyd al-fitr*) Ramazon oyining tugaganligi sharafiga o‘tkaziladigan musulmonlar bayrami. U 3 kun davom etadi. Bayram namozgohda ertalab namoz o‘qish, o‘lganlarni yod olib xudoyi, duoi fotiha qilish, yo‘qsillarga sadaqa berish bilan boshlanadi. Barcha musulmonlar Ro‘za hayiti kunlari xursandchilik qiladilar, bir-birlariga sovg‘alar in’om qiladilar.

Qurban hayit – musulmonlarning Olloh yo‘lida muayyan jonzodlarni qurbanlik qilish kuni. U ro‘za hayitidan 70 kun o‘tganidan so‘ng nishonlanadi. Qurban hayitning mohiyati shundaki, diniy rivoyatlarga ko‘ra, Ibrohim payg‘ambar o‘zining chin e’tiqodini isbotlash uchun o‘g‘li Ismoilni Olloh yo‘lida qurban qilmoqchi bo‘lganda, xudo uni to‘xtatib

qo‘y so‘yishga buyurgan. Islomda qurbanlik haj marosimining majburiy elementlaridan biriga aylangan. Rivoyatlarga ko‘ra, marhum narigi dunyoda qurban qilingan jonivor tufayli Sirotdan (jannat ko‘prigi) oson o‘tishi mumkin. Agar musulmon kishi qurbanlik qilmasa, ko‘priordan o‘tishi murakkablashadi va ko‘prik ostidagi do‘zaxga qulab tushishi mumkin. Qurban hayit katta xursandchilik bilan nishonlanadi, bayram munosabati bilan ajoyib taomlar tayyorlanadi, ertalab masjidda hayit namozi o‘qiladi, musulmonlar o‘z ajdodlarining qabrlarini ziyorat qiladilar, kambag‘allarga sadaqalar ulashiladi. Muqaddas joylar, sajdahohlar va masjidlarga xudo yo‘lida ehson berish udumlari amalga oshiriladi.

Me’roj – Muhammadning mo‘jizaviy ravishda Buroqda Makkadan Quddusga va undan osmonga – Olloh oldiga qilgan safar kuni. Muhammad Olloh bilan suhbatda 99 mingta so‘z aytgan. Bu safar shunchalik tez bo‘lganki, u qaytib kelganida hali yotgan o‘rni sovimagan, ag‘darilgan ko‘zadagi suv hali to‘kilib ulgurmagan. Muhammadning tungi parvozi xotirasiga bag‘ishlab har yili rajab oyi (qamariy taqvim bo‘yicha yettinchi oy)ning 27-kunida bayram o‘tkaziladi.

Mavlud (arabchada – tug‘ilish, payg‘ambarning tug‘ilgan kuni degan ma’nolarni anglatadi) – Muhammadning tug‘ilgan kuni bayrami. Bu kun masjidlarda marosimlar o‘tkaziladi, ularda payg‘ambar sha’niga madhiyalardan iborat she’rlar o‘qiladi, ruhoniylar va’zxonlik qiladilar, yo‘qsillarga sadaqa beriladi. Islom davlat dini sifatida tan olingan mamlakatlarda Muhammad payg‘ambarning tavallud ayyomi dam olish kuni deb e’lon qilinadi.

Juma (arabchada – jamlik, jam bo‘lish degan ma’nolarni anglatadi) – musulmonlarning dam olish kuni. Musulmonlar namozgohda peshinni o‘qish va xutba (arabchada – targ‘ibot, nutq degan ma’nolarni anglatadi) eshitish uchun to‘planadilar. Odamlar bu kunda bayramona liboslarini kiyadilar, mazali taomlar tayyorlaydilar, mehmondorchilikka boradilar.

Islomda diniy targ‘ibot markazi, diniy marosimlarni bajarish joyi machit (masjid) hisoblanadi. Sharqda masjidlar azaldan diniy ta’lim maskani va madaniy markaz vazifasini bajarib kelgan. Masjidlarda diniy marosimlarni bajarish bilan birga yangiliklarni eshitish, kundalik ishlarni hal etish mumkin bo‘lgan. Musulmon ruhoni (mulla)lari maktablarda o‘g‘il bolalarga ilohiyotdan dars bergenlar. Ayrim yirik machitlar qoshida madrasalar tashkil etilgan.

Musulmonlar yagona ummani (arabchada – ma’lum dinga e’tiqod qiluvchilar jamoasi degan ma’noni anglatadi) tashkil etadilar. Umma diniy jamoalarga bo‘linadi. Diniy jamoaga imom (arabchada – oldinda turuvchi degan ma’noni anglatadi) va mulla (arabchada – yaqinlashgan, yaqin odam

degan ma'nolarni anglatadi) rahbarlik qiladilar. Yirik machitlarda ruhoniylar jamoasiga muftiy (arabchada – fatvo beruvchi, diniy masalalarda qaror chiqaruvchi degan ma'noni anglatadi) rahbarlik qiladi. Mulla unvoniga musulmon jamoasi vakillari orasidan maxsus ma'lumotga ega yoki diniy marosimlarni bajarish malakasiga ega nomzodlar saylanadilar. Islom davlat dini sifatida tan olingan mamlakatlarda muftilik lavozimiga nomzod tayinlanadi. Islom davlat dini maqomiga ega bo'lmagan mamlakatlarda esa muftilar ruhoniylar va mutavalliyat vakillarining qurultoyida saylanadilar.

Islom diniy tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri *shariat* (arabchada – to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonun degan ma'nolarni anglatadi) hisoblanadi. Shariat musulmonlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga soladigan axloqiy, huquqiy va madaniy normalar to'plamidir. Uning normalari islom yuzaga kelganidan keyingi ikki asr davomida ishlab chiqilgan. Ularga asos qilib Qur'oni karim va sunnat, keyinchalik ijmo va qiyos olingan. Shariat musulmonning xatti-harakatlarini besh toifa (kategoriya)ga ajratadi. Bular: farz – bajarilishi qat'iyan majburiy hisoblangan xatti-harakatlar; mandub (sunnat) – amalga oshirilishi majburiy emas, lekin ma'qul, lozim deb hisoblanuvchi normalar; mubah – bajarilishi ixtiyoriy normalar; makruh – amalga oshirilishi noma'qul sanaluvchi normalar; harom – qat'iy ravishda taqiqlangan xatti-harakatlar.

Islom jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanuvchi oilaga katta e'tibor beradi. Ayollar taqvodorligi – islom e'tiqodining yuzaga kelishi va mustahkamlashning asosiy omillaridan biri. Dindor ayol, birinchi galda ona, ya'ni oilada islom an'analari saqlanishining posbonidir. Onaning bolalar bilan uzviy aloqasi islomiy an'analarning avlodlar o'rtasida vorisligini ta'minlaydi, islom qadriyatlarining tarixan saqlanib qolishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Islom dinida oila-nikoh munosabatlari ham alohida o'rin tutadi. Islomda uch xil nikoh: doimiy, vaqtinchalik va kanizaklar bilan bo'ladigan nikohlar tan olinadi. Hozirgi zamonda doimiy nikoh udumi saqlanib qolgan. Vaqtinchalik nikoh deyarli uchramaydi, faqat hozirgi Eron Islom Respublikasining shia mazhabiga mansub musulmonlar yashaydigan ayrim hududlaridagina saqlanib qolgan. Islom nikohsizlikka va e'tiqodiga ko'ra uylanmaslikka qaror qilgan ruhoniylarga salbiy munosabat bildiradi.

Islomda ajralish, ya'ni er-xotinning nikohdan chiqishi sod-dalashtirilgan va rasmiyatchiliklarga e'tibor berilmagan. Masalan, er xotiniga taloq e'lon qilishi mumkin.

Islomda, bundan tashqari, bir qator boshqa cheklashlar ham mavjud. Masalan, savdo-moliya munosabatlarida zo'r lab tortib olingan narsalar

bilan savdo-sotiq qilish, sotuvchining o‘z mulki bo‘lmagan tovarlar bilan savdo qilishi, qarz berish evaziga daromad olish (sudxo‘rlik) kabilar harom hisoblanadi.

Islom dini oziq-ovqat masalasida ham o‘ziga xos cheklashlarni targ‘ib qiladi. Jumladan, cho‘chqa go‘shti, spirtli ichimliklar va o‘limtik narsalarni iste’mol qilish man etiladi.

Bunday chekashlarning ildizi juda qadimga borib taqaladi. Masalan, cho‘chqa go‘shtini iste’mol qilishni man etish Qadimgi Misrda va yahudiylar orasida keng tarqalgan.

Islom dinida ortiqcha zeb-ziynatga berilish, masalan, tilla va kumush taqinchoqlarni haddan ziyod ko‘p taqish qoralanadi. Bunday taqinchoqlar jamoa nochor qatlamlarining hasad qilishi va g‘azablanishiga olib keladi, deb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, islom e’tiqodi asoslari mustahkam va serqirra hayotiy voqealarga tayanadi. Islom dinining deyarli bir yarim ming yil mobaynida yashab kelayotganligi va barhayotligining sababi ham shunda.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Islomning vujudga kelishi sabablarini tahlil qiling.
2. Arabiston yarim orolining aholisi islomgacha qaysi dinga e’tiqod qilgan?
3. Hanafiylar harakati qanday g‘oyaga asoslangan?
4. Muhammad alayhissalomning Makka shahridagi da’vatlarining muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanishi sababini ko‘rsating.
5. Nima uchun Yasrib shahri aholisi Muhammad alayhissalomning da’vatlarini qabul qilgan?
6. Qur’oni karim ilmiy ahamiyati haqida fikr yuriting.
7. Qur’oni karim suralariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
8. Islom iymoni aqidalari deganda nimani tushunasiz?
9. Islom arkonlariga nimalar kiradi?
10. Islomning asosiy bayramlarini izohlang.

8-mavzu

ISLOM DINING YO‘NALISHLARI, OQIMLARI VA DINIY HUQUQIY MAKTABLARI

Islomdagi yo‘nalish va oqimlarning mohiyati va xususiyatlari

Din kishilarning ma’naviyati, qadriyatlari, yashash mazmuni, ruhiyati bilan bog‘liq masalalar va ijtimoiy-siyosiy hayotni ifodalaydi. Ijtimoiy hayot maqsad va manfaatlari xilma-xil guruhlardan tashkil topadi. Din

mazkur jarayonlarga tortilar ekan, undan ushbu guruhlarning manfaatlarini muayyan darajada aks ettirish talab qilinadi. Bundan tashqari, ijtimoiy hayot doimo o'zgarib turadi. Uning tarkibiy qismi bo'lmish din ham unda yuz berayotgan jarayonlarni hisobga olishi lozim. Aks holda u ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi voqelikka aylanib qoladi.

Islom vujudga kelgan ilk davrlarda yo'nalish, oqim va mazhablarga bo'linmagan. Undagi dastlabki bo'linish VII asrning o'rtalarida turli guruhlarning siyosiy hokimiyat uchun o'zaro kurashlari natijasida paydo bo'lган. Siyosatdagi ixtiloflar keyinchalik diniy ta'limot sohasiga ham ko'chirilgan.

Islomda, umuman, har qanday dinda bo'linish sabablari o'zaro bog'liq bo'lган turli jarayonlar ta'siridan paydo bo'ladi. Bunday jarayonlar sabablari quyidagilardan iborat:

1) diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o'zgaruvchanligi sababli ijtimoiy taraqqiyotdan ortda qolish natijasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar ta'siri;

2) din va ruhoniylarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishlari zarurati;

3) diniy ta'limotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urfodatlari va an'analariga moslashishi;

4) diniy ta'limotga munosabat va uning talqinidagi tafovutlar.

Yuqoridagi kabi ta'sirlar oqibatida har qanday dinda bo'linish (yo'nalish, oqim va mazhablar) vujudga keladi. Lekin dirlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyatini undagi bo'linishning qanchalik xilma-xil ekanligidan kelib chiqib baholash xatodir. Dindagi qarashlar xilma-xilligi uning jamiyatdagi ildizini mustahkamlaydi, mavjud muammolarning hal etilishida to'g'ri yo'lni tanlash imkoniyatini kuchaytiradi.

Islomda dastlab xorijiylar (arabchada – chiqish, qarshi turish degan ma'nolarni anglatadi) yo'nalishi vujudga kelgan. Uning a'zolari xalifa Alining Suriya noibi Muoviyaning hokimiyat uchun ochiq kurashiga qarshi murosachiligi va qat'iyatsizligidan norozi guruhlardan iborat bo'lган. Ular Alining siyosatiga norozilik bildirib Kufa shahridan Xarura qishlog'iga ketib qolgan. Shuning uchun ba'zi ilk manbalarda yo'nalishni xaruriylar deb ham yuritiladi.

Xorijiylar dastlab siyosiy talablar bilan chiqqanlar. Ayniqsa, musulmonlarning irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar tengligini e'tirof etilgan. Xalifa lavozimiga ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, mas'uliyatni anglagan va davlatni boshqarish iqtidoriga ega nomzod

saylangan. Agar xalifa jamoa manfaatini himoya qilmasa, egallab turgan lavozimidan bo'shatilgan yoki qatl qilingan.

Vaqt o'tishi bilan ilohiyotga e'tiqod va amal aqidalarini kiritish taklif etilgan. Unga binoan, xudoga e'tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi, musulmon kishi vijdon amri bilan ish tutishi, diniy tartibga nafaqat so'zda, balki amalda ham rioya etishi lozim. Diniy tartibni bajarmagan kishilar shafqatsiz jazolanganlar. Islom musulmonlarni kamtarona yashashga da'vat etadi va unda o'yin-kulgu, musiqa, mayxo'rlik va boylikka hirs qo'yish kabilar qoralanadi.

Xorijiylar yo'nalishida quyidagi asosiy guruhlar mavjud:

1) *ibodiylar guruhi* VII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Unga Abdulloh ibn Ibod (VII asrning ikkinchi yarmida yashagan) asos solgan. U yo'nalishning mo'tadil guruhi hisoblanadi va diniy ta'limotda ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olish va hukmron siyosiy kuchlar bilan murosa qilish, hatto ularga yon bosishga yo'l qo'yadi;

2) *sufritlar guruhi* VII asrning ikkinchi yarmida Arabistonda vujudga kelgan. Mazkur guruh maqsadni yashirish, vaziyatga qarab kurash usullarini o'zgartirish tarafdori sanaladi;

3) *azrakiylar guruhi* VII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Unga Nafi ibn Azrak (685 yilda vafot etgan) asos solgan. Bu guruh e'tiqod masalasida har qanday murosalarini inkor qiladi. Azrakiylar guruhi maqsadga erishishda qat'iy harakat tarafdori hisoblanadi.

Xorijiylar xalifa Ali va boshqa sulolalar vakillariga qarshi murosasiz kurash olib borganlar. Ularning ijtimoiy-siyosiy tizimga nisbatan murosasizligi, kishilar hayotini normativlashtirish darajasining juda yuqoriligi va uni qat'iy nazarat qilishga intilishi yo'nalish tarafdorlari sonining kamayishiga sabab bo'lgan. Ayni vaqtida xorijiylar juda kam sonli bo'lib, Shimoliy Afrikada va ayrim arab davlatlarida saqlanib qolgan. Islom yo'nalishlari qatorida avvalgi ta'siri va mavqeini yo'qotgan.

Islom dinidagi yirik yo'nalishlardan biri shialikdir (arabchada *shia* – guruh, partiya, tarafdorlar degan ma'nolarni anglatadi). U VII asrning o'rtalarida xalifa Ali va uning tarafdorlarini birlashtirgan diniy-siyosiy oqim sifatida Iroqda vujudga kelgan.

Shialar dastlab siyosiy hokimiyatni Muhammad payg'ambarning avlodlari boshqarishi va hokimiyat otadan farzandga meros sifatida o'tishi kerak degan talablari bilan chiqqanlar. Shuning uchun shialar Ali va uning avlodlaridan boshqa barcha sunniy xalifalarni zo'ravonlik bilan hokimiyatni bosib olganlikda ayblaydilar. Sunniy xalifalarga Ali va uning avlodni bo'lgan o'n ikki imomni qarshi qo'yadilar. Oxirgi (o'n ikkinchi)

imom Muhammad Mahdiy (Olloh yo‘liga yetaklaydigan kishi) 873 yilda tug‘ilgan. U yoshlik chog‘ida bedarak yo‘qolgan.

Diniy ta’limotda shialar Qur’oni karim Ollohning kalomi ekanligini tan oladilar, lekin xalifa Usmon uni o‘z manfaatiga moslashtirib, xalifa Alining hokimiyatni egallashiga oid bitta surani chiqarib tashlagan, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga qur’onning haqiqiy nusxasini qiyomat kuni o‘n ikkinchi imom Yerga olib kelishi haqidagi aqida qabul qilingan.

Shialar, sunniylardan farqli o‘laroq, Muhammad payg‘ambar bilan bog‘liq hadislarni tan olmaydilar. Ular xalifa Ali va uning avlodlari bilan bog‘liq maxsus hadislar to‘plamini tuzganlar va u «Axbor» deb nomlanadi.

Shu bilan birga, shialar iymonda beshta aqida (Ollohning yagonaligi, adolat, oxirat va o‘lgandan keyin qayta tirilish, payg‘ambarlik, imomat)ni tan oladilar.

Shialikda diniy ta’limot bilan birga urf-odat va marosimlarda ham farqlar mavjud. Masalan, ular Makka va Madinadan tashqari Karbalo va Najaf shaharlarini ziyorat qiladilar. Xalifa Alining avlodni bo‘lgan o‘n ikki imomning jabrdiyda va din yo‘lida shahid bo‘lganlar sifatida qabrlari muqaddaslashtirilgan. Imom Husaynga motam tutadilar. Bu «shaxsey-vaxsey» marosimi deb ataladi.

Shialikning asosiy mazhablari quyidagilardan iborat:

1) *alaviylar mazhabiga* IX asrda Ibn Nusayr asos solgan. Shu bois mazhab asoschisining nomi bilan *nusayriylar* deb ham ataladi. Mazhab a’zolari xalifa Alining shaxsini ilohiyashtiradilar va uni xudo kabi ulug‘laydilar. Alaviylar ta’limotida xristianlik aqidalari, oy va yoritqichlarga sig‘inish, ruhning ko‘chib yurishiga ishonish kabi qarashlar mujassamlashgan. Odamlarning ruhlari dastlab yulduzlar bo‘lgan. Ali ularni odamlarning jismiga joylagan. Taqvodor odamlarning ruhlari vafot etganlaridan keyin yana qayta yulduzlarga aylanadi. Gunohga botgan odamlarning ruhlari hayvonlar jismiga ko‘chadi. Alaviylar mazhabiga mansub kishilar namoz, ro‘za va boshqa islom marosimlarini bajarmaydilar va rasmiy diniy oqimlar tomonidan ta’qib qilinganligi sababli o‘z e’tiqodlarini sir tutadilar;

2) *zaydiylar mazhabi* VIII asrning o‘rtalarida, ummaviylar sulolasining inqirozi davrida vujudga kelgan va Shialarning beshinchi imomi – Muhammad al-Bokirning ukasi Zayd ibn Alining nomi bilan atalgan. Ushbu mazhab vakillari Zaydni beshinchi imom deb hisoblab, undan keyingi imomlarni tan olmaydilar. Aqidalari va marosimlari jihatidan shialar va sunniylarning o‘rtasida turib, har ikkala oqimga nisbatan murosa yo‘lini tutadilar. Zaydiylar xalifa Alidan ilgarigi xalifalar

hokimiyatini tan oladilar va o‘n ikkinchi imom – Muhammad Mahdiyning qiyomat kunida qaytib kelishiga ishonmaydilar avliyolar va mozorlarga sig‘inishni, zohidlikni inkor qiladilar;

3) *ismoiliylar mazhabi* VIII asrning o‘rtalaridan shakllana boshlagan va IX asrning oxirlariga kelib mustaqil diniy mazhabga aylangan. Bunga shialarning oltinchi imomi – Jafar as-Sodiqning katta o‘g‘li Ismoil (ichkilik va maishatga berilganligi uchun taxt vorisligidan mahrum qilingan) asos solgan. Diniy-falsafiy ta’limot tizimi neoplatonizm, neopifagorizm, xristian gnostisizmi kabilar ta’sirida shakllangan. Ta’limot zohiri (tashqi) va botiniy (ichki) qismlarga bo‘linadi. Zohiri qismi shialarning umumiy qarashlaridan deyarli farqlanmaydi. U maxfiy ta’limotdan bexabar bo‘lgan ismoiliylar ommasiga mo‘ljallangan. Botiniy ta’limotda xudodan keyingi yetta quyi pog‘ona ajratiladi. Yettinchi pog‘onani kamolotga erishgan inson, ya’ni payg‘ambar tashkil etadi. Kamolotga erishgan inson o‘zida «olamiy aql»ni aks ettirgan notiq bo‘lib, xudo ta’limotini kishilarga yetkazadi. Ismoiliylar mazhabidan keyinchalik turli yo‘nalishlar ajralib chiqqan.

4) *ja’fariy mazhabi* shialikning diniy-huquqiy tizimi bo‘lib, o‘n ikkinchi imomga e’tiqod qiluvchi imomiyarning asosiy oqimini tashkil etadi. Mazhabning asoschisi sifatida oltinchi imom – Ja’far as-Sodiq (700–765) qabul qilingan bo‘lsa-da, aslida uning shakllanishida imom ishtirok etmagan. IX–X asrlarda bir qator mujtahid va ilohiyotchilar tomonidan mazhab ta’limoti ishlab chiqilgan.

Shialik hozir Eron Islom Respublikasi, Iroq va Yamanda keng tarqalgan. Shia yo‘nalishiga mansub ayrim guruhlar Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Suriya, Livan, Misr kabi davlatlarda ham uchraydi. Ma’lum miqdorda shia yo‘nalishidagi musulmonlar Ozarbayjon, Tojikiston va Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida uchraydi.

Islomdagi eng yirik yo‘nalish sunniylikdir. Sunniylar o‘zlarini asl islom an’analari tarafdarlari deb hisoblaydilar. Sunniylik ortodoksal (grekchada – dindor, e’tiqodli, ya’ni, biron-bir ta’limotga, yo‘nalishga, dinga og‘ishmay amal qiluvchi degan ma’nolarni anglatadi) islom yo‘nalishidir. Yo‘nalish islomning Muhammad payg‘ambar davrida vujudga kelgan ta’limotini tan oladi. Sunnat islomning ikkinchi manbai sifatida qabul qilingan va unda an’anaviy diniy marosimlar, maishiy turmush hamda ijtimoiy hayot qoidalariga amal qilinadi.

Sunniylikda islomning muqaddas manbalarini ijtimoiy hayotda qo‘llashga munosabat masalasida quyidagi mazhablar mavjud:

1) *hanafiya mazhabiga* Imom Abu Hanifa (Imom A'zam) asos solgan. Mazhabning mafkurasi islom aqidalarini ijtimoiy hayotga tatbiq etishda ijodiy yondashuvga asoslanadi va bunda qiyos (arabchada – solishtirish, taqqoslash, o'xshatish degan ma'nolarni anglatadi) qoidalarini qo'llash bilan musulmon jamoasi yoki davlat manfaatlariga ko'proq mos keluvchi yechimni tanlashga intiladi. Hanafiya mazhabiga sunniylarning 1/3 e'tiqod qiladilar;

2) *molikiya mazhabiga* Malik ibn Onas (713–795) asos solgan va Muhammad alayhissalom hayotligi davrida vujudga keltirilgan diniy-huquqiy tartibotga asoslanadi. Molikiya mazhabi Qur'on va sunnatni aqlga asoslanib (ratsional) talqin qilishga qarshilik qilsa ham, qiyosni ijtimoiy hayotda qo'llashni to'liq inkor etmaydi. Hozirda ushbu mazhabning Tunis, Jazoir, Marokash singari davlatlarda tarafdarlari bor;

3) *shofi'iy mazhabiga* Imom ash-Shofi'iy (767–820) asos solgan. Shafi'iy mazhabi hanafiya va molikiya mazhablarini o'zaro murosaga keltirish tarafdori. U diniy mafkurasiga ko'ra, qiyos va ijmo (birdamlik, yakdillik bilan qabul qilingan qaror)larni ijtimoiy hayotda qo'llashda cheklashga yo'l qo'yanligi uchun molikiya maktabiga yaqin turadi. Shofi'iy mazhabi hozirda Suriya, Misr, Sharqiy Afrika mamlakatlarining ba'zilarida va janubiy Arabiston davlatlarida saqlanib qolgan;

4) *hanbaliya mazhabiga* Imom Ibn Hanbal (780–755) asos solgan. Ushbu mazhab ijtimoiy hayot masalalarini hal etishda faqat Qur'on va sunnat qoidalariga asoslanib qaror chiqarish tarafdori hamda qiyos va ijmolarni qo'llashda faqat sahobalarning birgalikdagi maslahati bilan qabul qilingan hukmlarni tan oladi. Mazhab diniy masalalarda erkin fikrni inkor qiladi va ta'limoti ijtimoiy hayotdagi zamonaviy talablardan ortda qolganligi, erkin fikrni rad etishi sababli, islom mamlakatlarida uning tarafdarlari ko'p emas.

Sunniylikdagi mavjud diniy huquqiy mazhablar e'tiqod qiluvchilarining miqdori jihatidan bir-biridan farq qilsa ham, huquqda tengligi e'tirof etiladi va din asoslariiga zid deb hisoblanmaydi.

X asrga kelib, islom dinida ortodoksal mavqega ega hisoblanuvchi kalom (arabchada – so'z, nutq degan ma'nolarni anglatadi) ta'limoti paydo bo'lgan. Uning tarafdarlari mutakallimlar deb ataladi va ilk namoyandalari – al-Ash'ariy (873–935), Maturidiy (944 yilda vafot etgan) islom aqidalarini ijodiy tafsir etishga qarshi chiqqanlar. Mutakallimlar musulmon ruhoniylarining an'anaviy davomchilari tomonidan tanqidga uchraganlar. Mutakallimlar barcha narsa va hodisalar asosida Olloh irodasi yotganligini ta'kidlaydilar. Ular, jumladan, Qur'oni karimning yaratilishiga oid ayrim fikrlarni ham olg'a suradilar. Qur'oni karimning ilohiy kelib chiqishi

to‘g‘risidagi g‘oyani himoya qilib, muqaddas kitobni emas, balki uni ifoda etuvchi harflarni, siyoh va qog‘oznigina inson tomonidan yaratilgan deb hisoblaydilar.

Mutakkalimlarga qarama-qarshi mu’taziliylar (arabchada – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar degan ma’nolarni anglatadi) oqimi VIII asrda yuzaga kelgan. Oqimga Vosil ibn Ato (699–748) asos solgan. Uning a’zolari falsafa va mantiqning metod va tushunchalarini ilohiyotga tatbiq etib, mistikaga qarshi chiqqanlar, qur’on va sunnatni aql-idrokka mos talqin etish hamda islomga ratsionalistik elementlarni kiritish tarafdarlari bo‘lganlar. Mu’taziliylar ta’limoti VIII asrning birinchi yarmida rasmiy e’tiqod sifatida qabul qilingan. VIII asrning o‘rtalaridan boshlab ortodoksal e’tiqod tarafdarlarining hokimiyatda ustunlikni qo‘lga kiritganliklari sababli, bu oqim taqiqlangan va ta’qib qilingan. U hukumat tomonidan to‘xtovsiz taqib qilinganligi sababli O‘rta Sharqda XI–XII asrlarda, Markaziy Osiyoda XIII–XIV asrlarga kelib yo‘q bo‘lib ketgan. Mazkur oqimning mintaqadagi so‘nggi vakillaridan biri – Zamahshariydir.

Islom dinida mistik va tarkidunyochilik g‘oyasiga asoslangan so‘fizm oqimi ham mavjud bo‘lib, u taxminan VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Uning keng yoyilishi XI asrga to‘g‘ri keladi. So‘fizmning (arabchada – jun, qo‘pol jun kiyim, jun kiyim kiyib yuruvchi degan ma’nolarni anglatadi) asosiylari g‘oyasi barcha musulmonlarning Ollohol oldida tengligi to‘g‘risidagi aqidaga asoslanadi. So‘fiylar odamlarni halol pok bo‘lishga, kasb hunar egallab o‘z mehnati bilan yashashga, boshqalarning mehnatidan foydalanmaslikka, tenglik va ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishga da’vat etadilar.

So‘fizm ta’limotida buddizm va neoplatonizm elementlari ham mavjud bo‘lib, ular so‘fizmning panteistik ta’limotida yaqqol ko‘rinadi. Panteizmning mohiyati shundaki, unda barcha narsa va hodisalar jonli hisoblanib, Ollohol irodasining ifodasi deb ta’kidlanadi. So‘fiylarning asosiylari g‘oyasiga ko‘ra, kishi bu dunyodagi faoliyatini faqat bir maqsadga – Ollohol bilan uyg‘unlashishga, birlashishga safarbar etmog‘i lozim. Ilohiy haqiqatga kishi asta-sekin, bosqichma-bosqich erishadi.

So‘fiylar ta’limotining ayrim elementlari keyinchalik ortodoksal islom tarkibiga ham kiritilgan. Bu ishda islom ruhoniylaridan al-Fazzoliyning hissasi salmoqli bo‘lgan. U so‘fizmning mistik muroqaba (intuitsiya), ya’ni Olloholni hissiy idrok etish g‘oyasini qabul qilgan va so‘fizmdan farqli o‘laroq, barcha musulmon udumlarini bajarishni farz deb hisoblagan. Biroq u so‘fizmning panteistik g‘oyalarini qabul qilmagan. Fazzoliyning tashqi voqelikni passiv idrok etish haqidagi g‘oyasi musulmonlarda tashqi

olam narsa va hodisalariga nisbatan yuzaki qarash odatini shakllantirgan. Bu keyingi asrlarda o‘z natijasini bera boshlagan. Al-Fazzoliyning mazkur ta’limoti o‘rta asrlarda ilm-fan, jumladan tabiatshunoslik ilmining rivojlanishi va Markaziy Osiyoda ilmiy taraqqiyotga beqiyos hissa qo‘shgan mutafakkirlarning yetishib chiqishiga to‘sinqlik qila olmagan.

Islom dinining asosiy yo‘nalishlari va oqimlari xususida to‘xtalganda undagi ikki asosiy tamoyil yoki yo‘nalish haqida gapirmaslik mumkin emas. U islam dini paydo bo‘lganidan buyon o‘tgan 1400 yillik ijtimoiy taraqqiyot davomida shakllangan. Shu o‘tgan davr mobaynida insoniyat feodalizmdan kapitalizmgacha, bozor munosabatlari shakllangan davrlargacha teokratik davlatdan respublika, prezidentlik boshqaruviga asoslangan davlat tuzilishigacha bo‘lgan tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan. Islomdagi bu ikki yo‘nalish fanda traditsionalizm va modernizm nomi bilan mashhur.

Traditsionalizm «ortodoksal islam» nomi bilan ham yuritiladi. U o‘zbek tilida ilk islam ta’limoti, Qur’on va sunnalarda qayd etilgan g‘oyalarning asl mohiyatini saqlab qolish, zamon, davr o‘zgarishi bilan ayrim islam aqidalarining ham o‘zgarishi mumkinligi haqidagi fikrlarni inkor etuvchi ruhoniylar faoliyati bilan bog‘liqdir. Traditsionalistlar nuqtai nazaricha, islam dinining aqidalari, olam haqidagi Olloh ta’limoti abadiy va mutlaqdir. Zamonda va tarixda bo‘ladigan har qanday o‘zgarish Olloh tomonidan oldindin belgilangan va hukm qilingan bo‘lib, barcha narsa va hodisalar uning irodasi bilan sodir bo‘ladi va mavjuddir. Traditsionalizm islam dinida hurfikrlilik va erkinlik bo‘lishiga tish-tirnog‘i bilan qarshi chiqadi, islomdagi o‘zgarishlarni tanqid qiladi. Buning yorqin ko‘rinishi XVIII asr oxirlarida paydo bo‘lgan va hozirgi kunda jahonning qator mintaqalarida ortodoksal islamni targ‘ib qiluvchi o‘ta janggari oqimlardan biri vahhobiylik hisoblanadi.

Vahhobiylar islam dinidagi modernistik tamoyilga qarshi chiqadilar, fundamentalizm da’vosi bilan dindagi har qanday o‘zgarishlarga qarshi kurashadilar, ekstremistik da’vatlar bilan din ahlini bir-birlariga qarshi qo‘ymoqchi, hattoki davlat ishlariga ham aralashmoqchi bo‘ladilar va o‘z g‘oyalaringi qaror toptirish maqsadida diniy davlat tuzishga ham da’vo qiladilar.

Modernizm, ya’ni islam dinini ijtimoiy taraqqiyot, fan va texnika yutuqlari bilan uyg‘unlashtirishga urinish muayyan darajada mafkuraviy yo‘nalish yoki ta’limot mavqeiga egadir. Islom modernizmi asosan XIX asrlarda paydo bo‘lgan. U islam dunyosining ilg‘or fikrli ziyorilari tomonidan yaratilgan. Ular G‘arbda burjua munosabatlarining rivojlanishi

ijobiy samara bergenligi va fan-texnikaning gurkurab rivojlanishiga olib kelganligini ko'rib, Sharq jamiyatlarini ham isloh qilish, shariat qonunlari o'rniga burjua huquqini tiklashni taklif qildilar. Turkiya XX asrning 20-yillarida Sharq mamlakatlari orasida birinchi bo'lib kapitalistik munosabatlar o'rnatgan. Turkistonda bunday urinishlar jadidlar harakatida ko'zga tashlanadi. Jadidlar islam mistik qarashlar o'rniga ilm-fanni rivojlantirish milliy taraqqiyot uchun qanchalik zarur ekanligini birinchilar qatorida anglab yetganlar.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining islam taraqqiyotiga qo'shgan hissali

Islam dinining Markaziy Osiyo mintaqasida, umuman, jahon miqyosida taraqqiy qilishiga vatandoshlarimiz beqiyos hissa qo'shganlar. Garchi islam dini Arabiston yarimorolida paydo bo'lgan bo'lsa-da, madaniy jihatdan arab badaviy qabilalaridan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi darajasi bo'yicha ancha ustun bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari islam dinining nazariy jihatdan rivojlanishi va hayot ehtiyojlari asosida takomillashuviga salmoqli ta'sir ko'rsatganlar. Buni tasdiqlash uchun Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro va Bahovuddin Naqshband kabi mutafakkirlarni eslash kifoyadir. Ularning nomlari butun islam dunyosida chuqur hurmat bilan tilga olinadi. Mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston hukumati o'z ichki siyosatida mustamlakachilik davrida unutilgan, biroq xalqimiz tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk zotlarning nomlarini tiklash va xalq xotirasida abadiylashtirishga qaratilgan benihoya xayrli siyosat olib bormoqda.

Yuqorida tilga olingan allomalar islam dinining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shganlar. Chunonchi, bizning Vatanimizda butun islam dunyosida eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sahih as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870), Imom Muslim ibn al-Hajjogi (819–874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi (824–892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (817–880), Imom Ahmad an-Nasoiy (830–915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (824–886) kabi siymolardir. Bu olti alloma ichida hadis ilmida amir al-mo'miniyn degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan *Imom al-Buxoriy* alohida e'tiborga molik buyuk islamshunos olimdir.

Imom al-Buxoriyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Ardazbh al-Juafiy al-Buxoriyidir. U

810 yil 20 iyulda Buxoro shahrida tug‘ilib, Samarqand shahri yaqinidagi Xartang qishlog‘ida 870 yil 1 sentabrda (60 yoshida) vafot etgan.

Imom al-Buxoriydan islom olamida juda qadrlanadigan «Al-jome’ as-sahih», «At-tarix» nomli asarlar meros bo‘lib qolgan. Imom al-Buxoriy butun umrini hadislar to‘plashga va ishonchlilarini ajratishga sarflagan. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to‘plagan olim va uning shoh asarlari «Al-jome’ as-sahih», «Al-adab al-mufrad» kabilar hisoblanadi. Imom al-Buxoriyning xalqimiz madaniy hayoti tarixidagi xizmatlari shundan iboratki, u faqat hadislar to‘plash bilan cheklanib qolmagan, balki o‘z davrida odamlar orasida mehr-muhabbat, saxiylik, ochiqqo‘llik, ota-on, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, halollik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni qaror toptirishga oid yo‘l-yo‘riqlar va o‘gitlar ham ishlab chiqqan.

1998 yil 1 sentabrda buyuk alloma tavalludining 1225 yilligi keng nishonlanishi va unga bag‘ishlangan majmuuning yaratilishi bejiz emas. Imom al-Buxoriy merosi islom niqobida yuruvchi g‘araz niyatli kimsalardan xalqimiz ma’naviyatini qalqon misoli himoyalaydi, mustaqilligimizni mustahkamlashga, yosh avlodni ajdodlarimizning ibratli hayoti ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Islom dini taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan yana bir ulug‘ ajdodimiz, samarqandlik alloma, kalom ilmining asoschilaridan biri, musulmon olamidagi eng yirik sunniylik kalom maktabi – moturidiylik asoschisi *Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Moturidiy* (870–944). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2000 yilda Moturidiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi. Moturidiyning islom dini taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi shundaki, hanafiy oqimini al-Moturidiy maktabining izdoshlari tashkil etgan. Qolgan qismini esa yana bir mashhur mutakallim alloma al-Ash’ariy (874–935 yoki 941) maktabining izdoshlari tashkil etganlar.

Jahonning eng mashhur olimlari al-Moturidiyni bir ovozdan kalom ilmining ulug‘ namoyandalaridan biri sifatida tan olganlar. Al-Moturidiyning shoh asarlaridan biri «Kitob at-tavhid» (yoki «Yakkaxudolilik haqidagi kitob») musulmon ilohiyotshunosligida bilish nazariyasi bayon qilingan birinchi asar hisoblanadi. Uning kalom ilmiga ta’rif berilgan muqaddimasida bilimning uch manbai, ya’ni hissiy qabul qilish, axloqiy tafakkur va inson ishonchli manbalardan olishi mumkin bo‘lgan an’anaviy axborot mavjudligi haqida so‘z yuritiladi.

Al-Moturidiy konsepsiyasining ahamiyati shundaki, u sof din doirasidan chiqib, aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Afsuski, Abu Mansur al-Moturidiyning ko‘p asarlari bizgacha yetib kelmagan yoki yetib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlarning kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi. Yuqorida tilga olingan, islam olamida juda muhim hisoblangan «Kitob at-tavhid» asari bizgacha to‘liq yetib kelgan. Uni 1970 yilda Fatxulloh Xulif Bayrut shahrida nashr ettirgan.

Abu Mansur al-Moturidiy o‘z davrida islomiy ilmlar sohasidagi eng yetuk alloma hisoblangan, islam dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozir turli diniy asarlarda zo‘r ehtirom bilan tilga olinadi. Uni ulug‘lab, «imom al-xuda» va «imom al-mutakallimin» (yoki «hidoyat yo‘li imomi» va «mutakallimlar imomi») kabi nomlar bilan ham ataganlar.

Al-Moturidiyning nafaqat fiqh va kalom ilmiga, balki boshqa fanlarga oid asarlar yozganligi ham ma’lum. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida al-Moturidiyning ovchilikka oid «Risolai jonvor doriy» («Jonivorlarga oid risola») asarining qo‘lyozmasi saqlanadi. Bu asarda ovchi qushlarni boqish haqida fikr yuritiladi. Hozirgi kunda xorijiy islam olamida al-Moturidiyning nomi va ta’limoti yaxshi ma’lum. Deyarli barcha islam mamlakatlarida al-Moturidiyning diniy-ma’naviy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib boriladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab Farb olimlarida ham al-Moturidiy merosiga kuchli qiziqish paydo bo‘lgan. Al-Moturidiyning shoh asarlari – «Kitob at-tavhid» hamda «Ta’vilot ahl as-sunna» («Sunnylik an’analari tarixi»)dan saqlanib qolgan qo‘lyozma matnlari nashr qilingan va qisman tadqiq etilgan.

1997 yilda alloma haqidagi birinchi yirik tadqiqot – Gettingem universitetining professori Ulrix Rudolfning «Al-Moturidiy va Samarqand sunnylik ilohiyotshunosligi» asari nemis tilida nashr etilgan. Bu kabi tadqiqotlar islam dini haqidagi bilimlarimizni kengaytiribgina qolmay, xalqimizning boy ma’naviy merosi va uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasini ko‘rsatishga ham xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoning islam dini taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan allomalaridan yana biri – *Burhoniddin al-Marg‘inoniy* (1123–1197). Islam olamida fiqh (huquq) ilmining ilmiy asoslarini yaratgan vatandoshimiz Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg‘oniy al-Rishtoniy al-Marg‘inoniy 1123 yilning 23 sentabrida tavallud topgan. U Qur’on va hadis ilmlarini

mukammal egallab, fiqh, ya’ni islom huquqshunosligi bobida benihoya chuqur ilmga ega bo‘lganligi va fundamental asarlar yaratganligi uchun Burhon ud-din va-l-milla¹¹ va Burhoniddin al-Marg‘inoniy nomlari bilan mashhurdir.

Al-Marg‘inoniyning islom taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi islom huquqshunosligida ayniqsa salmoqlidir. Bu uning 1178 yil Samarqand shahrida yozilgan «Hidoya» asari bilan bog‘liqdir.

«Hidoya»da huquqiy masalalarning yechimi dastlab taniqli fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflarning e’tirozlari yoki qo‘shilishlarini izhor etish yo‘li bilan berilgan. Ana shu obro‘li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma’qul yechimni tanlash yo‘liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki mukammal sharhi ham asoslab keltirilgan.

«Hidoya» to‘rt juzdan iborat bo‘lib, birinchi juzga ibodat masalalari, ya’ni tahorat, namoz, ro‘za, zakot va haj kiritilgan. Ikkinci juzga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qul, bedarak yo‘qolgan shaxs, sherikchilik va vaqf mulkiga oid masalalar kiritilgan.

Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, vasiylik, majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo‘lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan.

To‘rtinchi juzda esa, meros taqsimoti, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususidagi shartnomalar, qurbanlikka so‘yiladigan jonzod, umuman, qurbanlik qilish, shariatga zid (yomon) narsalar, tashlandiq yerkarni o‘zlashtirish, taqiqlangan ichimliklar, ovchilik, garov, jinoyatlar, yuk haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar kiritilgan.

Burhoniddin al-Marg‘inoniyning «Hidoya» asari bir necha asr davomida islom davlatlarida huquqshunoslik bo‘yicha asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyoroda 1917 yilgi sho‘rolar inqilobi natijasida shariat qonunlari bekor qilinib, sovet sud tizimi o‘rnatilguniga qadar buyuk allomaning «Hidoya» asari sud-huquq amaliyotida asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tab kelgan.

¹¹ «Милла» деганда халқ, яъни мусулмонлар тушунилади. Бу билан олимни улуғлаб, уни ислом оламидаги халқлар ҳамда ислом динининг далили, исботи дейилади.

1991 yilda xalqimiz mustaqillikka erishgach, bu ulug‘ vatan-doshimizning o‘lmas merosiga e’tibor yana tiklandi. «Hidoya» asari o‘zbek huquqshunosligi uchun yana shoh asarlardan biriga aylandi. 1994 yilda «Hidoya» qayta nashr etildi. Markaziy Osiyoda islom dinining keyingi taraqqiyoti X–XI asrlarda tasavvuf ta’limotini shakllantirdi. Sharqshunos olim O. O. Usmonovning ta’kidlashicha, tasavvuf Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining ma’naviy hayoti tarixidagi eng murakkab, o‘zaro ziddiyatlarga to‘lib-toshgan va muhim hodisalardan biri bo‘lib, tarkidunyochilik, bu dunyo boyliklari va nozu ne’matlaridan voz kechish, Olloh vasliga yetmoq uchun pok, halol, o‘z mehnati ila yashash, ixtiyoriy ravishdagi faqirlik unga xos xususiyatlardan hisoblanadi.

Tasavvuf ta’limoti XI–XII asrlarda yashab ijod etgan islom allomasi *Yusuf Hamadoniy* (1048–1140) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik yassaviya, naqshbandiya, kubraviya, bektoshiya kabi tariqatlarni yuzaga keltirdi¹².

Ahmad Yassaviy (1005–1166) tariqati turkiyzabon xalqlar madaniyati tarixida katta o‘rin tutadi. Tasavvufdagi barcha yirik tariqatlarda bo‘lganidek, yassaviya ta’limoti quyidagi qoidalarga amal qilishga asoslangan:

- 1) murid hech kimsani o‘z piridan afzal ko‘rmasligi, unga doimo taslimiyot izhor qilmog‘i lozim;
- 2) murid shunchalik zukko va idrokli bo‘lishi kerakki, to o‘z shayxining rumuz va ishoralarini mukammal anglay olsin;
- 3) shayxning barcha akvoli (so‘zlari) va af‘oli (ishlari)ga murid sodiq bo‘lib, unga mutlaqo mute va mu’taqid bo‘lmog‘i lozim;
- 4) o‘z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini chustu choloklik (chaqqonlik) ila sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog‘i zarur. Chunki rizoi Olloh uning (ya’ni shayxning) izmidadir;
- 5) murid o‘z so‘ziga sodiq, va’dasiga vafoli bo‘lib, murshidi ko‘nglida hech qanday shak-shubha tug‘dirmasligi zarur;
- 6) murid o‘z va’dasiga vafodor, so‘zida ustuvor turmog‘i lozim;
- 7) murid o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulkini, butun bor-yo‘g‘ini o‘z shayxiga nisor etmoq uchun doimo tayyor turmog‘i lozim;
- 8) murid o‘z murshidining barcha sir-asrorlaridan ogoh bo‘lib, uning ifshosini hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak;

¹² Қаранг: Маънавият юлдузлари / Масъул муҳаррир М. М. Хайруллаев. – 1999. – Б. 134.

9) murid o‘z shayxining barcha takliflarini nazarda tutib, uning mushkulotini oson qilmog‘i, pandu nasihatlarini bajo keltirmog‘i shart;

10) murid xudo visoli uchun o‘z shayxi yo‘lida butun molu jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart¹³.

Ahmad Yassaviy o‘z tariqatini she’riy uslubda «Hikmat» nomli asarida bayon etgan. Yassaviy ta’limoti kishilar o‘rtasida poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, o‘z qo‘lining kuchi va peshona teri bilan hayot kechirish orqali Olloh visoliga yetish mumkin, degan g‘oyani olg‘a surgan. Yassaviya ta’limoti ba’zi kishilarning mol-dunyoga hirs qo‘yishini qoralaydi, kamtarlikka, g‘aribparvarlikka da’vat qiladi. Shunday qilib, Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyoda ilk tasavvuf ilmiga asos solgan, islom dinining taraqqiyotiga hissa qo‘shgan.

Islom dini taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan yana bir vatandoshimiz Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga kelgan *Najmuddin Kubro* (1145–1221) hisoblanadi. Islomshunoslik ilmida uning ta’limoti kubraviya tariqati nomi bilan mashhurdir. Yoshligidan ilmga chanqoq Najmuddin Misr, Eron va Sharqning boshqa mamlakatlarida tahsil olgan. Uning islom diniga qo‘shgan hissasi shundaki, zikrni ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro etish usulini kiritgan. Kubraviya tariqati hadis va shariatga asoslanadi. Bu ta’limotga ko‘ra, inson o‘z mohiyat-e’tibori bilan kichik olamni tashkil etadi va katta dunyo bo‘lmish koinotdagi barcha narsalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o‘ziga xos maqomlarda joylashtirilgani sababli, haqiqat yo‘lini qidiruvchilar bunday yuksaklarga ko‘tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo‘lish, ya’ni kamolotga erishish uchun, ma’lum riyozatli yo‘llarni bosib o‘tishlari zarur. Buning uchun quyidagi o‘nta asosga tayanmoq lozim: tavba, zuhd fi-dunyo, tavakkal, qanoat, uzlat, mulozamat az-zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba va rizo.

Ushbu o‘nta talabning qisqacha mohiyati shundaki, kishi bu dunyo lazzatlari va mol-dunyoga hirs qo‘yishdan o‘zini tiyishi, sabr-qanoatli bo‘lishi, o‘zligidan kechib, xudoga muhabbat qo‘yishi, unga cheksiz ishonishi lozim. Najmuddin Kubro dan qator asarlar meros qolgan. Masalan, «Favo‘ix al-jamol va favotix al-jalol», «Al-usul al-ashara», «Risolat al-xo‘if al-xa‘im min laumon al-la‘im» kabilar shular jumlasidan. Uning yana bir asari – «Risolatun odob ul-zokirin» («Zikr aytuvchilar odobi haqida risola») fors tilida bizgacha yetib kelgan bo‘lib, hozir O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining kutubxonasida saqlanmoqda.

¹³ Ўша асар. – Б. 136.

Najmuddin Kubro tariqati Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va boshqa musulmon xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning ta’limoti asosida kubraviya maktabi vujudga kelgan va deyarli XV asrgacha tasavvuf ta’limotini ifodalovchi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lgan.

Najmuddin Kubro Urganch shahrini mo‘g‘ul bosqinchlaridan himoya qilishda shiddatli jangda shahid bo‘lgan. O‘sanda u 70 yoshda bo‘lgan.

Uzoq vaqt mobaynida mo‘g‘ul mustamlakachiliga qarshi olib borilgan kurashlar XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib Markaziy Osiyoda sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi mustaqillik uchun urushlar g‘alabasi va Movarounnahrda yagona davlat barpo etilishi bilan yakunlangan. Islom dini bu davrda Amir Temur va temuriylar siyosatida, mamlakatdagi ma’naviy birlik, madaniy yuksalish,adolat o‘rnatish va saqlash ishiga qaratilgan. Islom dini asosida shakllangan tasavvuf, ayniqsa, naqshbandiya o‘sha davr ma’naviyatining g‘oyaviy asosi bo‘lib xizmat qilgan. Naqshbandiya islomga tayangan holda insonning axloqiy poklik, mehnat va bilim egallashiga keng yo‘l ochib beruvchi g‘oyalarni targ‘ib qilib, ma’naviy-ijtimoiy hayotda katta ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Bahovuddin Naqshband, Yoqub Charxiy, Xo‘ja Muhammad Porso, Xo‘ja Akrom kabi naqshbandiya nazariyotchilari shu davrda yashab ijod etganlar.

Markaziy Osiyoda XIV asrda tasavvuf ilmi sohasida vujudga kelgan tariqat *Xoja Muhammad Bahovuddin Naqshband* (1318–1389) nomi bilan bog‘liqdir. Bahovuddin Naqshband 1318 yilda Buxoro yonidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilgan (keyinchalik Naqshband sharofati bilan Qasri Orifon deb atala boshlangan).

Naqshband ta’limoti asosida ixtiyoriy faqirlik yotadi. Atoqli sharqshunos olim YE. E. Bertelsning yozishicha, u umr bo‘yi dehqonchilik bilan kun kechirgan va o‘z qishlog‘idagi uncha katta bo‘limgan yeriga bug‘doy va mosh eksa-da, uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Naqshband bo‘yra ustida yotib kun kechirgan va butun umrini o‘z ixtiyorli bilan faqirlikda, yo‘qchilikda o‘tkazgan. Naqshband tariqatining asl aqidasi – «dil ba yoru, dast ba kor», ya’ni «doimo ko‘ngling Ollohda, qo‘ling esa ishda bo‘lsin», degan g‘oyani olg‘a suradi. Naqshbandiya ta’limoti XV asrda Afg‘oniston, Eron, Hindiston singari musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan. Bu ta’limot tarafdarlari asketizm (tarkidunyochilik)ga, boy-zodagonlarning zulmi va istibdodiga qarshi bo‘lganlar, faqat o‘z qo‘l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun kechirishga kishilarni chaqirganlar. Ular shu bilan birga savdosoti, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-

ma’rifat, xattotlik, naqqoshlik, miniaturachilik, quruvchilik kabi barcha foydali va xayrli yumushlar bilan shug‘ullanishga da’vat etganlar.

Xoja Bahovuddin Naqshbandni Markaziy Osiyo xalqlari juda yuksak qadrlaydilar. 1993 yilda mamlakatimizda Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligi keng nishonlanganligi bejiz emas. Naqshbandning nafaqat diniy, balki dunyoviy hunarlarni ham egallahsga da’vat etganligi mustaqilligimiz taqozo etgan xalq bunyodkorligiga g‘oyaviy madad bo‘ladi. Shu bois xalqimiz tasavvuf ilmining darg‘alaridan biri bo‘lmish Xoja Bahovuddin Naqshband ta’limotiga asrlar osha yana murojaat qilishi tabiiydir. Zero, tarixiy xotirasiz kelajak bo‘lmaydi.

Islomning hozirgi zamondagi o‘rni va mavqeい

Islom dini XX asr oxirlariga kelib, o‘z nufuzi va mavqeiga ko‘ra, yer kurrasida xristianlikdan so‘ng ikkinchi o‘rinni egalladi. Hozir islom diniga deyarli 1,5 mld. kishi e’tiqod qilmoqda. Agar islom dini paydo bo‘lgan davrlarda asosan Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lsa, XX asrning oxirlariga kelib Osiyo, Afrika, Yevropa va Shimoliy Amerikaning qator mamlakatlariga yoyilgan. Buning obyektiv va subyektiv sabablari mavjud.

Obyektiv sababi shundaki, islom dini yahudiylit, xristianlik dinlarining ijobiy jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, diniy e’tiqod va sig‘inishlarni inson hayotining turli holat va vaziyatlariga moslashtira olgan hamda diniy e’tiqod qulayligini ta’minlaydi. Shu bois u Yevropa va Shimoliy Amerikaning muqaddam xristianlik yoki yahudiylit e’tiqodida bo‘lgan yoxud diniy e’tiqodi umuman bo‘lмаган fuqarolarining aksariyatini o‘ziga jalb eta olgan. Ayni vaqtida ham islom diniga kirish Yevropa va Shimoliy Amerikada muayyan udumga aylanib bormoqda. Bu hol, tabiiyki, boshqa diniy konfessiyalar rahbariyatini tashvishlantirmoqda. Ular islom e’tiqodini qabul qiluvchilar nufuzining ortib borishi, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida islom qadriyatlarining ustuvorligiga olib kelishi boshqa diniy konfessiyalarning mavqeini zaiflashtiradi deb xavotir olmoqdalar. Aslida bunday tashvishlar o‘rinsizdir. Haqiqiy islom kishilar o‘rtasida mehr-oqibat, poklik, halollik, shafqat, rahmdillik, xayr-saxovat,adolat va insof kabi qadriyatlarni e’zozlaydi, insonni ezgulikka undaydi.

Islom dini niqobi ostida ish ko‘rvuchilar, g‘araz maqsadli siyosiy kuchlar, turli ekstremistik elementlar bundan mustasnodir. Din niqobida ish ko‘rvchi manfur, terrorchi kuchlar islom e’tiqodining millionlab kishilar qalbiga kirib borishi jarayonini aslo to‘xtata olmaydi, aksincha, iymonli, diyonatli dindorlar ularni uloqtirib tashlaydilar va islom olaming ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaydilar. Islom dini XXI asrga kelib jahon ijtimoiy-

siyosiy sahnasida yirik siyosiy-g‘oyaviy omil mavqeiga ega bo‘la boshladi. Agar sobiq Ittifoq tuzumi davrida jamiyatda sekulyarizm (lotinchada – dunyoviy degan ma’noni anglatadi) va dahriylik (ateizm) siyosati hukmron bo‘lgan bo‘lsa, Markaziy Osiyoning mustaqillikka erishgan yosh davlatlari siyosatida sekulyarizm birmuncha yumshatildi, diniy e’tiqodga erkinik berildi. Natijada islom dini siyosiy hayotga aralashish imkoniga ega bo‘ldi. Mustaqillikka erishgan yosh davlatlar o‘z siyosiy yo‘llarini tanlashda G‘arb demokratiyasi an’alariga murojaat qildilar.

Hokimiyatlar taqsimlanishi, demokratiya prinsiplarining siyosiy islohotlar uchun asos qilib olinishi jamiyatda islom harakatlarining kuchayishi va hokimiyatga da’vogar kuch sifatida maydonga chiqishiga olib keldi. Mamlakatda diniy e’tiqodga erkinlik berilishining ayrim kishilar tomonidan noto‘g‘ri talqin etilishi natijasida, 1991–1992 yillarda Farg‘ona vodiysida ekstremistik kuchlar rasmiy hokimiyatning o‘rniga islom tartiblarini o‘rnatish uchun ochiqdan-ochiq harakat qilishga kirishdilar. Hukumat tomonidan respublikadagi faoliyati tugatilgan «Akromiylar», «Adolat», «Tavba», «O‘zbekiston islom uyg‘onish partiyasi» singari ekstremistik tashkilotlar islom dinining siyosiyashib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Bu harakatlar endilikda mustaqillikka erishgan O‘zbekistonda yuzaga kelgan obyektiv qiyinchiliklar (ishsizlar sonining ko‘payishi, tur mush darajasining pasayishi, o‘zgaruvchan sharoitlarda eskicha boshqaru uslublarining davlat hokimiyati idoralarida inersiya shaklida saqlanib qolganligi kabilar) dan ustomonlik bilan foydalanish va mamlakat hayotini islom qonunlariga asoslangan o‘zanga burib yuborishga urinib ko‘rdilar. Buni ayrim chet el diniy ekstremistik tashkilotlarining mahalliy gumashtalari (Juma Namangoni, Tohir Yo‘ldoshev singari yot unsurlar) amalga oshirmoqchi bo‘ldilar. Biroq rasmiy siyosiy hokimiyat hamda huquqni muhofaza qiluvchi xizmat xodimlarining hushyorligi va sobitligi natijasida diniy ekstremistik mafkuraning payi qirqildi.

O‘zbekistondagi voqealar dinning siyosiyashuvi muammosining faqat bir ko‘rinishidir. XX asrning oxiriga kelib, islom dini jahon miyosida yetakchi ijtimoiy-siyosiy mavqeni da’vo qildi.

Eron islom inqilobining yetakchi rahbarlaridan Oyatullo Humayniy bundan deyarli 20 yil muqaddam taniqli italyan jurnalisti Oriana Fallagiga bergen intervyusida shunday degan: Islom adolatdir. Islom e’tiqodiga muvofiq, har qanday diktatura – katta gunohdir. Islom deyarli hamma narsa: erkinlik, demokratiya va boshqalardir. Islom siyosiy-diniy ta’limotdir. Unda, bir tomondan ruhoniylilik siyosatni, ikkinchi tomondan

esa siyosat ruhoniylilikni to‘ldiradi. Islomda diniy fatvolardan ko‘ra ko‘proq siyosiy da’vatlar ustuvordir. Olloh nomi bilan qasamyod qilamanki, islom siyosatdir1.

Oyatullo Humayniyning bu so‘zları diqqatga sazovordir. Darhaqiqat, XX asr oxiriga kelib, islomning nafaqat diniy-axloqiy, balki ijtimoiy-siyosiy ta’limot ham ekanligi isbotlandi. U jahonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlariga ta’sir etib turuvchi vositaga aylandi.

Ayni kunda islom dinining shunchaki bir ta’limot emas, balki g‘oyat katta qudrat va salohiyatga ega mafkura ekanligini Yaqin va O‘rta Sharq, Bolqon yarimoroli, Kavkaz, Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonning Kashmir o‘lkalarida kechayotgan diniy mazmundagi ijtimoiy jarayonlar yanada yaqqol tasdiqlamoqda. Islom jahon miqyosida jiddiy siyosiy kuchga aylanmoqda. Biroq uning haqiqiy mohiyatini buzish, undan g‘arazli siyosiy maqsadlarda foydalanish islomning xalqaro obro‘yiga putur yetkazmoqda, ayrim kaltabin siyosatchilarning islom diniga qolgan barcha dirlarni qarama-qarshi qo‘yishlariga sabab bo‘lmoqda. Bu bilan haqiqiy islomning insonparvarlik, ezgulik va adolatlilik kabi mohiyati xavf ostida qolmoqda. Bir guruh ekstremistlar, terrorchilar o‘z g‘arazli maqsadlari bilan islom mohiyatini qorishtirib yubormoqda. Bunday sharoitda islom dinining azaliy insonparvarlik, poklik, halollik, rahm-shafqatlilik, imonlilik tamoyillarining ustuvorligiga erishish, jahon ahlini bu qadriyatlarga ishontirish, uning umuminsoniy tabiatini ilmiy izohlab berish davr talabidir.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Islomda yo‘nalishlar va oqimlarning yuzaga kelish sabablari nimalardan iborat?
2. Sunniylilik va shialik o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlang.
3. Shialarning islomning muqaddas manbalariga munosabatlarini izohlang.
4. Nima sababdan xorijiylarning tarafдорлари juda kam sonli bo‘lib qolgan?
5. Nima sababdan sunniylikka e’tiqod qiluvchilar «ortodoksal» islom tarafдорлари deb ataladi?
6. Sunniylikda diniy ekstremizmning manbai bo‘lgan diniy-huquqiy maktabni aniqlang.
7. So‘fizm oqimining asosiy g‘oyalari va maqsadi nimalardan iborat?
8. Islom ilohiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan Markaziy Osiyo mutafakkiri kim?
9. Markazi Osiyoda tasavvufning qaysi tariqatlari yuzaga kelgan?

10. Islomdagi an'anaviylik va zamonaviylik jarayonlarining o'ziga xosligi nimalardan iborat?

9-mavzu

DINIY EKSTREMIZM VA FUNDAMENTALIZMGA QARSHI KURASHNING MOHIYATI, MAQSADLARI VA HUQUQIY JIHATLARI

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mohiyati, maqsadlari va xavfi

XX asrning oxirlarida xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi global muammolar qatoriga diniy ekstremizm va fundamentalizm ofati qo'shildi. Yadroviy urush xavfi, ekologik fojia kabi global muammolar insoniyat taqdiriga qanchalik vayronkor tahdid qilayotgan bo'lsa, diniy ekstremizm va terrorizmning buzg'unchilik ta'siri ko'lami ulardan kam emas. 2001 yil 11 sentabrda AQSHda yuz bergen fojia shuni ko'rsatadiki, bu ofat nafaqat iqtisodiy qoloq yoki rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlarga ham birday xavflidir.

Jahon miqyosida diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash xalqaro darajada kuchlarning birlashtirilishini taqozo etadi. Bu kurashda eng avvalo diniy ekstremizmning yuzaga kelishi sabablari, mohiyati va xususiyatlarini o'rganish lozim.

Diniy ekstremizm (lotinchada – *extremum* eng keyingi, oxirgi degan ma'nolarni anglatadi) ijtimoiy hayotda yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida paydo bo'ladi va uning ildizlari uzoq o'tmishimizga borib taqaladi. Zero, diniy ekstremizm diniy dunyoqarash paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan ijtimoiy voqelikdir. Faqat u turli tarixiy davrlarda xilma-xil ko'rinish, shakl va mazmunda namoyon bo'ladi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilik siyosati (salib yurishlari, buyuk geografik kashfiyotlardan keyin jahonni bo'lib olish uchun kurash), Usmoniy turk davlatining G'arbiy Yevropaga tahdidi (XIV–XVI asrlar) diniy shiorlar asosida olib borilgan. Usmoniy turklarning G'arbiy Yevropaga tahdidi rivojlanishi darajasi taxminan teng sivilizatsiyalarning to'qnashuvi bo'lgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin G'arbiy Yevropa jahon miqyosida iqtisodiy, harbiy-texnikaviy ustunlikka erishgan. Mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha ortda qolgan xalqlar G'arbning tajovuziga diniy shiorlar asosida birlashgan. Mazkur shiorlar xalqni an'anaviylikni saqlab qolish, jamiyatni G'arbda ishlab chiqilgan «qolip»larga asosan modernizatsiyalashga qarshi kurashga da'vat etgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida Saudiya Arabistonida ijtimoiy hayotni G'arb modeli asosida zamonaviylashtirishga qarshi kurash jarayonida diniy fundamentalistik va ekstremistik vahhobiylilik mazhabi yuzaga kelgan. An'anaviy taraqqiyot

yo‘lini saqlab qolishni talab qilgan barcha konservativ kuchlar mazhab atrofida birlashgan. Vahhobiylik Saudiya Arabistonida rasmiy e’tiqod sifatida mustahkamlangan.

XX asrda dunyoning ikki tizimga bo‘linishi tufayli yuqoridagi muammo vaqtinchalik ortga surildi. XX asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag‘lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqa boshladi. Shulardan biri industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Mazkur muammo turli ko‘rinishlarda, xususan din sohasida ham o‘ta keskin tus oldi.

XX asrning oxirlarida diniy ekstremizm diniy-siyosiy harakat sifatida avj oldi. Shuning uchun ekstremistik ruhdagi diniy oqimlar o‘ta janggarilik, murosasizlik g‘oyalari bilan qurollangan, dunyoviy g‘oyalari va dindagi modernistik yo‘nalish tarafdarlarini ta’qib etuvchi, hatto terrorchilik vositasida jismonan yo‘q qilishgacha boruvchi ashaddiy aqidaparastlar harakati sifatida baholanadi.

Ekstremizmning ilmiy adabiyotda yagona bir ta’rifi mavjud emas. Shunga qaramay, ekstremizm deganda radikal qarashlarga ega bo‘lgan, o‘z g‘oyasi yoki fikrini boshqalarga har qanday vositalar bilan singdirishga intiladigan kishilarning e’tiqodi tushuniladi.

Diniy ekstremizm deganda dinning ijodiy tabiatini inkor etuvchi, dunyoviy xatti-harakatlarni diniy mafkura maqsadlariga bo‘ysundirishga urinuvchi harakat tarafdarlari nazarda tutiladi. Aslini olganda, diniy ekstremizm – fundamentalizmning bir ko‘rinishi. Diniy ekstremizm zaminida fundamentalizm yotadi. Biroq ayrim tadqiqotchilar, diniy ekstremizmni bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida, fundamentalizmdan farqlashga urinadilar. Aslida diniy ekstremizm va fundamentalizm bir-biridan uzoq hodisalar emas. Diniy ekstremizm to‘g‘risida to‘liqroq tasavvur hosil qilish uchun uning belgilari haqidagi tushunchalarga ega bo‘lish lozim.

Diniy ekstremizm konfessiya ichidagi turli oqimlar va mazhablarning o‘zaro kurashi yoki konfessiyalararo qarama-qarshiliklar sababli vujudga keladi. Ma’lumki, muayyan dinda doimo yo‘nalishlar, oqimlar va mazhablar o‘rtasida to‘xtovsiz kurash boradi. Bu obyektiv hodisa. Zero, diniy tashkilotlarga rahbarlik ularning iqtisodiy resurslariga egalik qilish, siyosiy hokimiyatga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini beradi. Lekin dindagi bo‘linishlarni faqat manfaatlar kurashining natijasi sifatida qarash masalaga xolisona yondashuvning buzilishiga olib keladi. Har bir din o‘ziga xos tilsimotdir. Shu bois ham dinning muqaddas manbalari tafsiri turli tarixiy davrlarda uning yangi qirralarini ochadi. Insoniyat ilohiy

haqiqatni anglash sari boradi. Bunday haqiqat esa kishining ichki dunyosi va ruhiy mohiyatini tushunishiga yordam beradi.

Diniy ekstremizmning eng birlamchi xususiyati shundaki, u jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy norma va qadriyatlarni inkor qiladi yoki ularga qarshi kurashadi. U siyosiy sahnaga chiqish, hokimiyat tepasiga kelish, davlat boshqaruv uslubini diniy o‘zanga burish kabilarga harakat qiladi. Diniy ekstremizm hodisalarini faqat yaxshi yoki yomon, qora yoki oq deb baholashga odatlangani uchun demokratiya va plyuralizmni inkor etadi.

Diniy ekstremizmning manbai mutaassiblik (fanatizm)dir. Mutaassiblik kishilarning muayyan narsa, fikr yoxud g‘oyaga ko‘rko‘rona, uning chuqur mohiyatiga yetmasdan, butun vujudi bilan qattiq ishonishi, uni boshqa hamma narsa va g‘oyalardan to‘g‘riroq deb bilishi natijasida boshqalarga ham turli vositalar bilan singdirishga harakat qilishidir.

Jamiyatda mutaassiblik quyidagi sabablar natijasida vujudga keladi:

a) aholi keng qatlamlarining iqtisodiy turmushi darajasining pastligi va ijtimoiy munosabatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

b) fuqarolarining diniy bilimi va saviyasinining yetarli darajada rivojlanmaganligi, diniy jaholatning ustunligi.

Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekiston iqtisodiyotining bir taraflama, asosan, xomashyo ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi, respublikada zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida ishlovchi korxonalar va sanoat uchun malakali mutaxassis kadrlarni yetkazib beruvchi bilim dargohlarining kamligi sababli, malakali mahalliy ishchi kadrlar tayyorlash muammosi hal qilinmay qolgan. Respublika rahbariyati bu muammoni chetdan mutaxassis kadrlarni olib kelish bilan hal qilishni afzal ko‘rgan. Mahalliy aholi vakillari, asosan, yordamchi ishchi bo‘lib yoki yuqori malaka talab qilmaydigan kasblarda ishlaganlar. Zero, bunday kasblarda mehnat qiluvchilarning ish haqi juda kamligi sababli viloyatlardagi mahalliy aholi vakillarida ishchilik kasblarini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqish uyg‘onmagan. Bunda milliy mentalitetimizning ta’sirini ham qayd qilishimiz lozim. Mahalliy aholi o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan sanoat korxonalarida murakkab kasblarni o‘zlashtirishdan ko‘ra asrlar davomida ajdodlaridan meros bo‘lib kelgan qishloq xo‘jaligida yoki shaharlardagi savdo-moliya tizimlarida ishlashni afzal ko‘rgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, sobiq Ittifoq davrida O‘zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining asosiy qismi xomashyoga dastlabki ishlov berishga mo‘ljallangan bo‘lib, ular boshqa respublikalarga tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun olib ketilgan. Xomashyo yoki yarim tayyor

mahsulotlarning bozorlarda arzon narxlarda sotilishi aholi turmush darajasining boshqa mintaqalarga nisbatan past bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan.

Mahalliy aholi vakillari orasida yuqori malakali ishchi kuchining kamligi va iqtisodiy turmush darajasining pastligi turli ekstremistik va fundamentalistik ruhdagi diniy oqimlarning yoyilishiga qulay shart-sharoit yaratgan.

O‘sha davrda olib borilgan dahriylik siyosati oqibatida mustamlaka davrigacha islom dunyosining markazlaridan biri bo‘lgan Markaziy Osiyo o‘zining ilgarigi nufuzini yo‘qotgan. Aholining diniy bilimlari darjasasi pasayib borgan va asosan diniy marosim hamda an’analarni bajarish darajasiga tushib qolgan. Buning sabablari quyidagilardan iborat:

- a) dinga qarshi kurash davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirilganligi, diniy ta’limotni ilmiy o‘rganish uchun yetarli shart-sharoitlarning mavjud emasligi;
- b) sobiq Ittifoq davrida aholiga diniy ta’lim berishning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- v) diniy tashkilotlar va ulamolarning kuch va imkoniyatlaridan aholini tarbiyalashda foydalanilmaganligi.

Diniy ekstremizm va mutaassiblik diniy fundamentalizmning negizida (lotincha *fundmehtum* – asos degan ma’noni anglatadi) vujudga keladi. XX asrning boshlarida «fundamentalizm» atamasi dindagi modernizatsiya jarayonlariga to‘sinqinlikni aks ettiruvchi tushuncha sifatida ilk bor qo‘llana boshlangan. Shu davrda AQSHda «Fundamentlar (asoslari): haqiqatga shahodat keltirish» nomli risolalar to‘plami nashr qilingan. Unda xristianlikning fundamental nazariyalarini nimalar tashkil etishi izohlangan. To‘plam yuzasidan boshlangan munozaralarda dindagi fundamental ahamiyatga ega qadriyatlarni himoya qiluvchilar fundamentalistlar deb atala boshlangan.

Yuqorida qayd etilgan misollardan xulosa qilganda, «diniy fundamentalizm» atamasi dastlab xristianlikka nisbatan qo‘llanila boshlagan. Albatta, atamaning dastlab kimga yoki nimaga nisbatan qo‘llanilganligi muhim emas, lekin hozir diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm deganda G‘arb va hatto ayrim Sharq mamlakatlarida islomni bayroq qilib oluvchi kimsalar va guruqlar o‘tmish tarixni esga olib qo‘ysalar aslo foydadan xoli bo‘lmaydi.

Diniy fundamentalizm muayyan diniy e’tiqod, tarixiy davr yoki birgina mintaqaga xos ijtimoiy hodisa emas. Mazkur voqelik har qanday

dinga xos xususiyat bo‘lib, turli tarixiy davrlarda dinning ajralmas yo‘ldoshi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab islom davlatlarida diniy tiklanish va jonlanish hodisalariga nisbatan «fundamentalizm» atamasi qo‘llanila boshlagan. Hozirgi kunda kishilarda ziddiyatli his-tuyg‘uni uyg‘otuvchi «islom fundamentalizmi» atamasi shu vaqtdan boshlab jahon miqyosiga yoyilgan.

Diniy fundamentalizm deb diniy aqidalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ilohiy bashorat va mo‘jizalarni juz’iy tushunishni inkor qiluvchi qarashlar tizimiga aytiladi.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning maqsadi quyidagilardan iborat:

a) dinning sofligini saqlab qolish niqobi ostida g‘araz maqsadli diniy tashkilotlar va guruhlarning siyosiy hokimiyatni qo‘lga olish va dindorlar nazoratida bo‘lgan hukumatni tuzishga intilishlari;

b) ko‘zlangan yovuz niyatga erishish uchun dinning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini saqlab qolish va yanada mustahkamlash maqsadida uni zaiflashtiruvchi har qanday jarayonlarga qarshi kurashish.

Yuqorida qayd etganimizdek, diniy ekstremizm va fundamentalizm barcha dirlarga xos xususiyatdir. Hozir u ijtimoiy hayotda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Masalan, G‘arb jamiyatlarida sekulyarizatsiya jarayonlari keng ko‘lamda ijtimoiy hayotga tatbiq etilganligi sababli Sharq davlatlaridagidek keskinlik kasb etmadni. Sharqda jamiyatning sekulyarizatsiya jarayonlari davom etmoqda va islom davlatlarida bu hali boshlang‘ich bosqich darajasidadir. Shuning uchun Sharqda bu jarayonlarning davlat xavfsizligiga tahdidini bartaraf etish maqsadida muayyan qonuniy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Sharqda dunyoviy taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatlar (jumladan, Turkiya, O‘zbekiston singari mamlakatlar)da diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tuzish qonun bilan taqiqlangan.

O‘zbekistonda diniy ekstremizm va fundamentalizmning ijtimoiy hayotda faollashuvining sabablari quyidagilardan iborat:

a) kommunistik mafkuraning yemirilishi sababli ma’naviy hayotda yuzaga kelgan bo‘shliq o‘rnini to‘ldirish zarurati;

b) sobiq Ittifoq davlatida din va dindorlarning ta’qib qilinganligi;

v) odamlarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi va etnik jihatdan o‘zining nasl-nasabini izlashning kuchayganligi;

g) ayrim ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar;

d) xorijiy davlatlarning diniy ekstremistik va fundamentalistik ruhdagi oqim va mazhablarni qo'llab-quvvatlashlari.

XX asrning ikkinchi yarmida Sharq davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining oshib borishi, fan va texnika taraqqiyoti ijtimoiy hayotda G'arb madaniyati ta'sirining kuchayishiga sabab bo'ldi. Ta'kidlash joizki, bunday jarayonlar muqarrar ravishda milliy urchodatlar va an'analar, jumladan diniy an'analarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini o'zgartiradi, milliy madaniyatda va diniy ta'limotda modernizatsiya jarayonlarini vujudga keltiradi. Ijtimoiy hayotdagi bunday o'zgarishlar diniy ekstremizm va fundamentalizm to'sqinligiga duch keladi. Jahon miqyosida, xususan O'zbekistonda diniy ekstremizm islam ekstremizmi shaklida o'ta keskin ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Islom ekstremizmi vakillari quyidagi guruhlarga bo'linadi: birinchidan, islam ekstremistlari (buzg'unchilari, desa to'g'riroq bo'ladi) hozirgi zamon musulmonlari yashaydigan davlatlarning rahbarlarida musulmonchilikdan asar ham qolmagan, ular dahriylardir, degan da'vo bilan chiqadilar. Shuning uchun diniy ekstremistlar islam aqidalarini ijtimoiy hayotda qayta tiklash uchun qat'iy harakatga undaydilar; ikkinchidan, ular islam, shariat qonunlarini mamlakat miqyosida o'rnatishga, binobarin, ochiqdan-ochiq, islam davlatini barpo etish uchun kurashga chaqiradilar.

Islom ekstremizmi va fundamentalizmining O'zbekistonda 80-yillarning oxirlari va 90-yillarning boshlaridan yoyilishi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va fuqarolar totuvligiga jiddiy xavf tug'dirdi. Mazkur xavfning qanchalik xatarli ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida atroflicha bayon qilingan. Prezident I. A. Karimov diniy ekstremizm va fundamentalizm birinchi navbatda fuqarolarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda ko'rinyotganligini qayd etgan. Bu bejiz emas, chunki o'tish davri siyosiy tizimida davlat boshqaruvi organlari yangidan shakllantirilgan. Siyosiy hayotga rahbarlik qilish tajribasi endi shakllanayotgan bir vaqtida hokimiyat organlari davlat boshqaruvi jilovini mustahkam qo'lda tutib turish imkoniyatiga ega emas. Diniy ekstremistlar bunday qulay imkoniyatdan «unumli» foydalanishga intiladilar¹⁴.

O'zbekistonda o'tish davrida demokratik jamiyat qurish mexanizmi asta-sekin, bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etib borilmoqda. Fundamentalistlar bunday vaziyatda o'zlarini demokratiya uchun

¹⁴ Каранг: Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 51–62.

kurashuvchi fidoyilar sifatida ko'rsatishga urinadilar. Ularningadolat haqidagi ommabop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga hayotiy tajribasi yetarli bo'lmanayayrim guruhlar, xususan yoshlarimizning ko'r-ko'rona ergashishlari, fundamentalistlarga qaram bo'lib qolishlari kuzatiladi. Bunday xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida yaratilgan milliy g'oya asoslari, buyuk davlat qurish kabilar mazkur aholi qatlamlari kuchini bunyodkorlikka, vayronkor g'oyalar ta'siriga qarshi immunitet hosil qilishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston ko'p konfessiyali davlat. Hozir kunda O'zbekistonda yigirmaga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat olib bormoqda. Diniy ekstremistlar mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshiliklar keltirib chiqarishga harakat qiladilar. Dindorlik belgilari bo'yicha tafovutlar millatlar o'rtasidagi totuvlik, mintaqadagi xalqlar do'stligiga raxna solishi mumkin.

Mamlakat ichkarisida diniy konfessiyalar o'rtasida yuzaga kelishi ehtimoli bo'lган adovat musulmon va nomusulmon davlatlar yoki ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida noxush tasavvurlarni yuzaga keltirishi yoki mamlakatimizni mojarolar girdobiga tortishi mumkin.

Diniy ekstremizmning yana bir xususiyatlaridan biri shundaki, u ijtimoiy ongda dinni barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasidir degan noto'g'ri tasavvurni qaror toptirishi mumkin. Aslida, diniy dunyoqarash dunyoviylik yoki ateizm kabi borliqni aks ettiruvchi g'oyalar tizimining tarkibiy qismidir. Masalan, dunyoviylik diniylik yoki dahriylikni inkor etmaydi, ya'ni u diniylik va dahriylik oralig'ida joylashgan ma'naviy-madaniy holatdir. Din ham o'z navbatida umummilliyl madaniy yuksalish yo'lida dunyoviy davlat bilan samarali hamkorlik qilishi mumkin. Fikrimizning isboti sifatida Amir Temur davrida islom dinining markazlashgan davlat tuzish uchun kurashuvchi kuchlarni jipslashtiruvchi vosita vazifasini bajarganligini, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va taraqqiyotga xizmat qilganligini misol keltirishimiz mumkin.

Dinning ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi faoliyatiga an'anaviylik va aqidaparastlik tarafdorlari to'sqinlik qiladi. Agar dindagi zamona naviylik va an'anaviylik tarafdorlari jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida o'zaro murosaga kela olmasalar mavjud ziddiyatlar konfessiya doirasidan chiqadi, ijtimoiy tus oladi. Shu vaqtdan boshlab mazkur ziddiyatlar jamiyat va davlat uchun tahdid soluvchi kuchga aylanadi.

Asriy mustamlakachilik changali va tutqunlikdan qutulgan yoki o‘z mustaqil yo‘lini tiklash yo‘lida turgan davlatlar uchun diniy ekstremizm o‘ta xavfli kuchga aylandi. Diniy ekstremizmnning mutaassiblikni o‘ziga quroq qilib olgan fundamentalistik, terrorchilik tashkilotlari tomonidan bunday mamlakatlarga eksport qilinishi xavfi kuchaydi. 1998 yilda Namangan viloyatidagi Ota Valixon masjidida in qurban ayrim «islom rahnamolari»ning kirdikorlari ham fikrimizning bir isbotidir. Namangoniy taxallusini olgan Juma Xo‘jayev pokistonlik muhojir Amjet Ali ta’sirida Farg‘ona vodiysida islom ekstremizmining ashaddiy oqimi – vahhobiylilikni keng targ‘ib qildi.

Ma’lumki, vahhobiylilik XVIII asrning oxirlarida Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Arablarning Turkiya istibdodiga qarshi kurashi, jamiyatni modernizatsiyalashtirish va an’anaviylikni saqlab qolish tarafдорлари o‘rtasidagi raqobat, diniy ta’limotda avliyolarga sig‘inish aqidasining keng yoyilishiga to‘sinqinlik mazkur diniy-siyosiy oqimni yuzaga kelishining asosiy sabablari edi.

Vahhobiylar islomni Muhammad payg‘ambar davridagi asl holatiga qaytarish, uni soxta avliyolardan xalos qilish maqsadida Olloh va inson o‘rtasidagi vositachi-ruhoniylarga qarshi chiqqanlar, muqaddas mozorlar va avliyolarga sig‘inishni inkor qilganlar. Musulmonlarning boylikka haddan ortiq ixlos qo‘yishlari, spirtli ichimliklarni iste’mol qilishlari, nasha va sigareta chekishlari, musiqa, teatr va rassomchilik bilan shug‘ullanishlari, badiiy zavq-shavq olishlari kechirilmas gunoh deb e’lon qilingan.

Hozirgi davrda vahhobiylilik Saudiya Arabistonida rasmiy tan olingan oqim bo‘lsa-da, ilgarigi murosasizlik xususiyati bir qadar mo‘tadillashuvi bilan almashgan. Zero, Arabistondagi muqaddas qadamjolar qayta tiklangan va davlat tomonidan muhofaza qilinmoqda. Lekin ular islomning nazoratida bo‘lgan davlat tuzish, uning ijtimoiy hayotga ta’sirini kuchsizlantiruvchi har qanday yangiliklarga qarshi mamlakat ichkarisida va xalqaro miqyosda kurash maqsadidan voz kechmaganlar.

O‘zbekistonda o‘rnashib olgan vahhobiylarning mash’um rejasi xalqni mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘atib, jihod, ya’ni dahriylarga qarshi urushga da’vat etish va kelajakda islom davlatini yoki sobiq Qo‘qon xonligini qayta tiklash edi. Vahhobiylik ekstremistik oqimidagilar bu maqsadlarini amalga oshirish uchun «Islom lashkarları» va «Adolat» uyushmalarini tashkil etganlar. 1991–1992 yillarda Namangan viloyatida «Otavalixon» jome masjidida Abdulla O‘tayev, Tohir Yo‘ldoshev boshchiligidagi 100–200 kishidan iborat guruh tuzilgan. «Adolat» harakati

faollari mahallalarda ko‘ngilli nazoratchilar guruhlarini tashkil etanlar. Guruhlar a’zolari kechki payt mahallasidan tashqarida yurgan odamlarni to‘xtatib so‘roq qilish, mast kishilarni masjid oldidagi ustunlarga bog‘lash usullarini qo‘llagan. 1992 yil mart-aprel oylarida ularning noqonuniy faoliyatni tugatilgan.

Vahhobiylilik ekstremistik mazhabining aynan Farg‘ona viloyatida faollashuvi harbiy-siyosiy va harbiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u muayyan jug‘rofiy-siyosiy maqsadlarga bo‘ysundirilgan edi. Alohida ta’kidlash joizki, Farg‘ona vodiysi uch qo‘shni davlatni birlashtiruvchi hudud. Farg‘ona va Namangan viloyatlari esa Tojikiston va Qиргизистон bilan chegaradosh. Tojikistonda bo‘lib o‘tgan birodarkushlik urushi oqibatlariga hozirgi davrda ham to‘liq barham berilgani yo‘q. Bunday vaziyatlarning barchasi ular uchun o‘zlarining jirkanch maqsadlarini amalga oshirishda qo‘l kelgan.

O‘zbekistonga noqonuniy suqilib kirib, filialini tashkil etgan diniy ekstremistik va fundamentalistik tashkilotlardan yana biri – «Hizbut-tahrir al-islomiy» (Islom ozodlik partiyasi). Partiya 1953 yil Falastinda paydo bo‘lgan. Unga shayx Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) asos solgan. Tashkilot filiallarining asosiy qismi G‘arbiy Yevropa davlatlarida faoliyat olib boradi. Sharq mamlakatlari Misr, Iordaniya, Tunis, Quvayt va Turkiyada bunday harakatlar ayniqsa keng tarqalgan. Tashkilot rasmiy davlat hukumatini to‘ntarish yo‘li bilan islom davlatini o‘rnatishga harakat qiladi. Mavjud islom davlatlarini esa xalifalikni qayta tiklash orqali birlashtirishga da’vat etadi.

Tashkilot vahhobiylardan farqli o‘laroq, kurashning ekstremizm, terrorizm usullariga nisbatan g‘oyaviy, mafkuraviy vositalarini afzal ko‘radi. Lekin O‘zbekistonda uning sodir etgan bomba terrorchiligi amaliyotlari, 2005 yil 12–13 may kunlaridagi Andijondagi xunrezliklar kurash usullari jihatidan vahhobiylarga juda yaqin turishini ko‘rsatdi. Qayd etish lozimki, vahhobiylar tashkilotlariga nisbatan hizbutchilar yashirin ish olib borish usullarini juda puxta egallaganlar va ulardan xavfliroq. Tashkilot tarkibiy jihatdan piramida shaklida tuzilgan bo‘lib, uning a’zolari 4–5 kishidan iborat «halqa»ni tashkil etadi va «dorislari» deb ataladilar. Halqaning rahbari «mushrif» haftada kamida bir marta ta’lim mashg‘ulotini o‘tkazadi. Dorislari bir-birlarini faqat ismi yoki taxallusi orqali biladilar. Tashkilotga a’zo bo‘layotgan nomzod uning faoliyati haqidagi ma’lumotlarni sir saqlashi to‘g‘risida qasam ichadi. Mintaqaviy rahbarlar – mutamad tashkilotning umumiy rahnamosi, ya’ni amir tomonidan belgilanadi. Mutamad viloyat miqyosida ishlaydigan mas’ul va tumanda ish olib boradigan musoidga

rahbarlik qiladi. Tashkilot a'zosi o'z daromadining 5–20 % miqdorida soliq to'lab turishi lozim.

«Hizbut-tahrir al-islomiy» tashkiloti o'zining asl maqsadini niqoblashga intiladi. Shuning uchun G'arbiy Yevropa davlatlarida faoliyat ko'rsatayotgan uning ayrim tashkilotlari ochiq ish olib boradilar. Lekin uning maqsadi qonun doirasida ish olib boruvchi jamoat tashkilotidan keskin farq qilishini ko'rsatadi. Tashkilotning maqsadi quyidagilardan ibrat:

- tinch, osoyishta davlatda fuqarolar urushini boshlash;
- mamlakatning iqtisodiy faoliyatini izdan chiqarish;
- millatlar va dinlararo nizolarni keltirib chiqarish;
- mamlakatga qurol-asлаha va narkotik moddalarni olib kirib, fuqarolarning tinch hayotiga raxna solish;
- mustaqil davlatni qurol-asлаha ishlab chiqaruvchi xorijiy mamlakatlarga qaram qilish¹⁵.

Davlatimiz rahbarining ziyrakligi va hushyorligi tufayli vahhobiylar, hizbutchilar, akromiyalar singari diniy ekstremistik va fundamentalistik tashkilotlarning faoliyati uzoq davom etmadi. 1992 yilda ularga zarba berildi. Biroq bunday tashkilotlarning ayrim yo'lboshchilari – Juma Xo'jayev (Namangoniy), Tohir Yo'ldoshev kabilar Tojikiston va Pokistonga qarab qochganlar. va xorijlik janggari islam ekstremistlari tomonidan qo'llab-quvvatlanganlar. Juma Yo'ldoshevga «Namangon» harbiy batalyonini tuzish va 400 ga yaqin janggarilarni tayyorlash uchun sharoit yaratib berilgan. Pokistonga qochgan jinoyatchi Tohir Yo'ldoshevni esa «tolibon» harakatining boshliqlari o'z himoyalariiga olganlar. Ular Tohirni Pokistonning Peshovar turmasidan katta pul evaziga qutqarib, unga pokistonlik harbiy yo'riqchi Abdulla va tojikistonlik aloqachi Abdulazizni biriktirib qo'yishgan. Abdulla Tohirga portlovchi va zaharli kimyoviy moddalardan, Birlashgan Arab Amirligining yo'riqchilari piyodalarga va tanklarga qarshi minalar va zenit qurollaridan, Abdulaziz esa shifrlangan ma'lumotlardan qanday foydalanishni o'rgatganlar.

Bu faktlar shundan dalolat beradiki, islam ekstremistlari din niqobi ostida to'g'ridan-to'g'ri mustaqil O'zbekiston davlatini yo'q qilish va uning o'rniga Pokiston yoki Eron kabi islam davlatini barpo etish rejasini amalga oshirishga harakat qilmoqdalar.

Islam ekstremizmi mamlakatimiz hududida ko'p marta zARBAGA uchradi. Xalq undan nafratlandi, chunki ekstremistlar o'ta qonxo'rlik

¹⁵ КАРАНГ: *Бўсниддинов З. М. Ислом йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар.* – 2000. – Б. 46–60.

namunalarini ko'rsatdilar. Ular ayrim hokimiyat rahbarlariga qarshi suiqasdlar uyushtirib, xalqni zo'rlik bilan orqalaridan ergashtirmoqchi bo'ldilar. Ekstremistlar xalq orasida «qaytganlar» yoki «haqiqiy dinga» ergashmaganlar haqida qandaydir «qora ro'yxat» borligi va bu ro'yxatdagilarning birin-ketin shariat yo'li bilan jazolanishlari haqida turli mish-mishlarni tarqatdilar, yurtdoshlarimiz o'rtasida qo'rquv, sarosima kayfiyatlarini yuzaga keltirmoqchi bo'ldilar. Biroq huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining qat'iy va murosasiz tadbirlari yordamida diniy ekstremizmning payi qirqildi. Uning ashaddiy yo'lboshchilari qo'lga olindilar va oshkora sud qilinib, haqiqiy basharalari fosh etildi.

Biroq islom ekstremizmi ushbu hududdan supurib tashlangan, deyish to'g'ri emas. Ekstremizm ochiq kurashdan qochib, o'zining xufiyona harakatini davom ettiradi. Ayniqsa, ekstremistlar yoshlarni o'z ta'siriga olmoqchi bo'ladilar, hukumatimiz tomonidan din ahliga ko'rsatilayotgan hurmat, turli imtiyozlar va yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan g'arazli maqsadlarda foydalaniq qolishga urinadilar.

Diniy ekstremizmning ashaddiy ko'rinishi hisoblanuvchi vahhobiylilik kabi azaliy e'tiqodimizga yot diniy mazhablarning faoliyatiga hushyorlik bilan qarash nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mahalla faollari, balki yurtimizda dunyoviy va demokratik davlat barpo etish ishtiyog'i bilan yashayotgan har bir fuqaro uchun ham qarz, ham farzdir.

Diniy ekstremizm nima uchun kuchli va ta'sirchan, unga kimlar rahnamolik qilmoqda, degan savollar tug'iladi. Bularga javob berish uchun diniy ekstremizm va fundamentalizm orqasida turuvchi, uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi diniy tashkilotlar xususida ma'lumotga ega bo'lish maqsadga muvofiqliр.

Musulmon olami XX asrda soni va ko'lami bo'yicha dunyoda yetakchi mavqega ega bo'lish uchun iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan faollashdi. Xalqaro Islom konferensiyasi tashkilotiga (1969 yilda asos solingan) yangidan-yangi davlatlar a'zo bo'ldi. Natijada islom davlatlariga qiziqish bilan birga, ularning tez rivojlanishi va birlashishiga xavf-xatar manbai sifatida qarashlar ham yuzaga keldi.

Ta'kidlash joizki, islom dini o'zidan ilgari paydo bo'lgan dinlar: yahudiylilik, buddaviylik va xristianlikning ijobjiy tomonlarini ham o'zida mujassamlantirganligi va kishilar o'rtasida hamjihatlik, tinchlik, saxovatlilik, insonparvarlik, halollik va odillik tamoyillarining tiklanishini targ'ib etganligi uchun jahonning boshqa dinlariga nisbatan o'z tarafiga har yili millionlab kishilarni jalb etmoqda. Islom diniga kirish ko'lami boshqa dinlarga kirish ko'lamiga nisbatan jahon miqyosida salmoqlidir.

Islomni qabul qilmagan davlatlar uning mavqeini tobora oshib borishidan tashvishga tushmoqdalar. Atoqli G‘arb siyosatshunoslari buni nazarda tutib, musulmonlarni birlashuvi butun dunyo uchun ofatga aylanishini tashvish bilan qayd etmoqdalar. G‘arb mafkurachilarislom dunyosini ichidan parchalash uchun uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyani ishlab chiqqanlar. Unga binoan, islam dini ichida mavjud bo‘lgan turli mazhablar va oqimlar o‘rtasida «asl islam» uchun bo‘ladigan o‘zaro da’vo va ziddiyatlardan foydalanish, ziddiyatlarni rag‘batlantirish, turli janggari tashkilotlarni tuzish kabi taktik rejalar ishlab chiqilgan. Bunday tashkilotlarga quyidagilar kiradi: Livanda «Hizbut-tahrir» va «Amal», Falastinda «Xamas», Misrda «Al-jihod-Al islomiya» va «Al-Jamaa Al-Islomiya» kabi janggari islomiy tashkilotlar kiradi. Ayrim tashkilotlar esa o‘z faoliyatlarini to‘xtatgan yoki boshqa taktik yo‘llarga o‘tgan. Bular jumlasiga 1967 yilda tuzilgan va Misr prezidenti Jamol Abdul Nosirga suiqasd uyuşhtirgan «Takfir val xitra», «Musulmon birodarlar» kabi diniy terrorchilik tashkilotlari kiradi. «Al jihad al-Islom» tashkiloti 1981 yil 6 oktabrda Misr Prezidenti Anvar Saodatga suiqasd uyuşhtirgan.

Markaziy Osiyoda diniy ekstremistik ruhda bo‘lgan tashkilotlar tayanch nuqtasini topishga, g‘oyaviy jihatdan mustahkamlanib olishga va bu hududda islam davlatini barpo etishga intiladilar. Bunday harakatlar sho‘ro tuzumi davrida ham bo‘lgan. Biroq ular, ayniqsa, sho‘ro tuzumi parchalaganidan so‘ng yosh mustaqil davlatlarning mafkuraviy jihatdan zaifligi va milliy mafkurasining hali shakllanishga ulgurmaganligidan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga urinadilar. O‘ta janggari vahhobiylilik oqimining chetdan eksport qilinishi ham aynan shu zararli maqsadlarga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov diniy ekstremizm va islam fundamentalizmining barqarorlik, tinchlik va millatlararo totuvlikka xavfi haqida quyidagi fikrni bayon etgan: «Aqidaparastlarning maqsadi demokratiyani, dunyoviy davlatni, ko‘p millatli va ko‘p dinli jamiyatni obro‘sizlantirishdan iborat»¹⁶.

Diniy ekstremizm va fundamentalizm da’vatlariga ko‘r-ko‘rona ishonish va ularni rag‘batlantirish eski zamoni qo‘msovchi, dunyoviy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan hayotni istamaydigan kimsalar dunyoqarashidir.

Bu haqda, xususan, mamlakatimiz xalqlarining ehtiyoji va orzu-umidlariga zid g‘ayriinsoniy aqidalarga ergashishning oqibatlari xususida

¹⁶ Каранг: Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б 302.

Prezident I. A. Karimov shunday deydi: «Fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim. Bu da'vatlar oxir-oqibatda bunday odamlarning aqligagina emas, balki taqdiriga ham hukmron bo'lib olishini yaqqol anglashimiz, ayniqsa, yoshlarimiz buni aniq tasavvur qilishi lozim. Bunday nufuzli odamlarga bo'ysunmay qo'yish shaxsiy fojiaga aylanib ketishi ham mumkin. Qullarcha mutelik, shaxsning erksizlik asoratiga tushib qolishi, fikrlash, sa'y-harakat va tashabbus ko'rsatish erkinligining mutlaqo cheklanishi buning eng og'ir oqibatlaridir»¹⁷.

Respublikamizda diniy ekstremizm va islom fundamentalizmining qo'li baland kelsa, quyidagi mudhish oqibatlar kelib chiqishi mumkin:

- fuqarolar urushining boshlanishi;
- iqtisodiy hayot va ishlab chiqarishning izdan chiqishi;
- qochoqlar oqiminining paydo bo'lishi;
- millatchilik, taraf-tarafchilikning kuchayishi;
- jinoyatchilik, axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik kabilarning om-maviylashuvi;
- diniy qarama-qarshiliklar natijasida qurbanlarning ko'payishi, begunoh qon to'kilishi;
- mamlakatning quroq-aslaha ishlab chiqaruvchi davlatlarga qaram bo'lib qolishi.

Bu oqibatlarni ko'z oldiga keltirish, hozirgi tinchlik va osoyishtalik, millatlar va turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro hurmatning qadriga yetish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan qoidalarni hurmat qilish va ularga og'ishmay rioya etish, har bir gap va xattiharakat uchun chuqur mas'uliyatni his etish har bir inson uchun muqaddas burchdir.

Diniy va milliy nizolar qanday oqibatlarga olib kelishini qo'shni mamlakatlar – Afg'oniston va Tojikistonda vujudga kelgan holat yana bir karra isbotlab turibdi. Vahhobiylilik, akromiylik va shu kabi boshqa diniy aqidaparastliklar xalqqa faqat kulfat keltirishi mumkin. Buni vahhobiylarning Farg'ona vodiysidagi qilmishlari isbotladi. Ularga ergashish, yovuz niyatlilarni qo'llab-quvvatlash mustaqillikka nonko'rlik qilish va xoinlik bilan barobardir.

¹⁷ Ўша асар. – Б. 59–60.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari

Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash ongли ravishda olib borilishi zarur. Buning uchun, avvalambor, quyidagi muhim jihatlarni anglash lozim:

- din, uni siyosiy lashtirish va fundamentalizmning aynan bir narsa emasligi;
- fundamentalizmning globallashuv jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi;
- fundamentalizm va ekstremizmning terrorizm vositasida ijtimoiy voqelikda qaror topishi;
- ekstremizm va fundamentalizmning maqsad va vositalari nuqtai nazaridan farqlanishini kabilar.

Diniy ekstremizm va islom fundamentalizmiga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari aynan shu jihatlarni aniqlash orqali belgilanadi. Buning sababi diniy ekstremizm va fundamentalizmning o‘ta jiddiy va qaltis mafkuraviy hodisa ekanlidigadir. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash ko‘r-ko‘rona va bir yoqlama olib borilmasligi lozim, chunki diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning samarasи to‘g‘ri ilmiy metodologiyani tanlashga bog‘liqdir.

Mazkur mulohazalardan kelib chiqib yondashilganda, islom dini, siyosiy islom va fundamentalizm aynan bir narsa emas. Islom ekstremizmi va islom fundamentalizmi islom dini bilan emas, balki siyosiy islom va turli ekstremistik siyosiy kuchlar bilan bog‘liqdir.

Siyosiy islom va uning ashaddiy janggari ko‘rinishi bo‘lmish islom ekstremizmi terrorizm va fanatizm bilan bog‘liqdir. Islom ekstremizmi va fundamentalizmiga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishi islom diniga emas, balki siyosiy islamning manfur ko‘rinishlaridan biri – islom ekstremizmi va terrorizmga qarshi qaratilishi lozim.

Mamlakatimiz va ayrim jahon matbuot vositalari yordamida tarqatilgan ba’zi manbalarda islom dini, siyosiy islom, terrorizm va diniy ekstremizm qorishtirib yuborilmoqda. Natijada hatto ayrim davlat arboblari (masalan, AQSH Prezidenti J. Bush) beixtiyor islom diniga siyosiy islom bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan terrorizmni ham uning tarkibiy elementi, deb kiritmoqda. Vaholanki, terrorizm va islom ekstremizmi islom dini bilan faqat konfessional jihatdan bog‘liq.

Mamlakatimizning ichki ishlар organlari xodimlari diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash yo‘nalishini aniqlashda bu xatoga yo‘l qo‘ymasliklari, haqiqiy islom bilan islom dinini niqob qilib olgan, aslida

ma'lum siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi ekstremistik kuchlarni farqlay olishlari, obrazli qilib aytganda, «burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirmaslik»lari kerak. Bu, ayniqsa, ajdodlari va tarixiy o'tmishi islom dini bilan bevosita bog'liq bo'lgan vatandoshlarimiz uchun kechirarli emasdir.

Ekstremizmga qarshi kurash davomida xalqimizning eng muqaddas qadriyatlaridan biri – islom diniga zarar yetkazish xunuk oqibatlarga olib keladi, xalqni davlatga qarshi qo'yadi, davlatimiz tomonidan islom dinini rivojlantirish, islom taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizni ulug'lashga qaratilgan dono siyosatga shak keltiradi, uni obro'sizlantiradi. Bunga esa aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy ongi va siyosiy madaniyati mazkur masalada yetarli bilimlarni egallashni taqozo etadi. Bu esa islom dinini noo'rin ayblast, unga janggari, agressiv diniy ta'limot, degan siyosiy tamg'a bosilishining oldini oladi. Islom dinini agressivlikda, terrorchilikda ayblast jahon miqyosida islom dini nufuzi va islom mavqeining oshib borishidan talvasaga tushish, global iqtisodiy, siyosiy, madaniy va demografik jarayonlarda gegemonligini tarixan yo'qotayotgan postindustrial jamiyatlarning siyosiy kuchlari uchun xosdir.

Islom fundamentalizmi jahonda sodir bo'layotgan globallashuv va integratsiya jarayonlariga nisbatan salbiy ta'sir shaklida maydonga chiqqan. Bu narsani anglamaslik islom fundamentalizmiga qarshi kurashning asosiy yo'nalishini aniqlashga imkon bermaydi.

Aytish joizki, islomda ham, xristianlik va boshqa dinlarda bo'lganidek, fundamental tushunchalar kishilarning ezgulik, rahm-shafqat, mehr-oqibat,adolat va poklik kabi tasavvurlari asosiga qurilgan. Shu bois tom ma'nodagi diniy fundamentalizm ekstremistik ruhdagi fundamentalizmdan farq qiladi. Fundamentalizmga qarshi kurashning yo'nalishi shu ma'noda din asoslariiga emas, balki uning begona, yovvoyi tarmog'i bo'lgan ekstremistik ruhdagi fundamentalizmga qaratilmog'i lozim.

An'anaviy islom dini fundamentalizm bayrog'i ostida rivojlanmoqda. Siyosiy islom esa islom dinini muayyan siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida o'ziga shior yoki niqob qilib olishga urinmoqda.

Fundamentalizm jahonda kechayotgan globallashuv (lotinchada *globus* – shar, butun yer yuzini qamrab oluvchi voqea yoki hodisa),

standartlashuv (inglizchada *standart* – namuna, nusxa, me’yor, umum e’tirof etilgan yoki tavsiya qilinadigan namuna, nusxa, me’yor), vesternizatsiya (inglizchada *west* – g‘arb, g‘arb dunyosiga xos turmush tarzini tashviqot qilish, olib kirishga harakat) va konsyumerizm (iste’mol erkinligini targ‘ib qilish)ga qarshi reaksiya tarzida vujudga keldi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. «Sovuq urush» davri tugaganidan so‘ng, jahonda umumiyligi informatsiya tarmog‘i (internet), umumiyligi bozor, umumiyligi iste’mol, kollektiv hamkorlik, kollektiv xavfsizlik kabi hodisalarga umumiyligi ehtiyoj sezila boshlandi. Islom dunyosi mamlakatlari uchun islom an’analariga asoslangan turmush tarzi va udumlariga G‘arb standartlari, normalari va qadriyatlarining kirib kelishi an’anaviy tafakkurda qarshi reaksiya holatlarini shakllantirdi. Yo‘ldosh orqali aloqalar, elektron pochta va shu kabilalar Sharq olamiga G‘arb qadriyatlarining tobora chuqurroq singib borishini tezlashtirdi.

Islom mamlakatlari G‘arb davlatlarida shakllangan sekulyarizm (ya’ni, dinni davlatdan ajratish) siyosatini qabul qilmaslikka harakat qiladi, o‘z hukmini jahon hamjamiyatiga o‘tkazmoqchi bo‘ladi. Bu narsa islom fundamentalizmini xristianlikning diniy qonunlaridan biri bo‘lgan pravoslav fundamentalizmidan farq qilishga olib keladi. G‘arb texnologiyasi ilmi va texnikasi yutuqlaridan tobora ko‘p bahramand bo‘layotgan Sharq xristianlikdan emas, balki ko‘proq G‘arb mafkurasidan cho‘chiydi.

Bu kayfiyatni Eron Islom Respublikasining sobiq rahbari marhum Oyatulla Humayniy Italiya gazetasi «Korryere della Sera»ning muxbirini taniqli jurnalist Oriana Fallachiga 1979 yilda Eronda sodir bo‘lgan islom inqilobidan so‘ng bergen intervyusida yaqqol ifodalaydi. Jumladan, u: «Biz sizlarning fanlaringizdan ham, texnikangizdan ham cho‘chimaymiz. Biz sizlarning g‘oyalaringizdan va odatlaringizdan cho‘chiymiz»¹⁸, – deydi. Darhaqiqat, Sharq islom dunyosining rahbarlari G‘arb texnikasi bilan birga kirib keluvchi G‘arb ma’naviyati, mafkurasi, odat va udumlaridan cho‘chishadi va Sharq muslimmon aholisini islom talablariga zid qadriyatlar ta’siriga tushib qoladi deb o‘ylaydilar. Buning oldini olish uchun ayrim siyosiy islom namoyandalari islomdan o‘zga dinni tan olmaydilar, islom dinida bo‘lmagan barcha kishilarni o‘zlariga dushman deb hisoblaydilar.

¹⁸ Караңг: Центральная Азия и Кавказ. – Стокгольм, 2000. – С. 16.

Bu kayfiyatlar turli janggari siyosiy kuchlarga madad beradi, islom dinini himoya qilish niqobi ostida islom dunyosini qolgan butun jahon xalqlariga qarshi qo‘yadi. Ayrim islom mafkurachilari islom dunyosi mamlakatlarini birlashtirmoqchi, jahonning deyarli 50 mamlakatini birlashtiruvchi islom davlati – islom xalifaligini tiklamoqchi bo‘ladilar. Bu ishga islom korchalonlaridan Usoma bin Lodin, Shomil Basayev, Ibn Xattob, Juma Namangoniy va boshqalar qattiq bel bog‘laganlar. Ular islom aqidalariga butunlay zid usullar – terrorizm, garovga olish va kishilarni dahshatga soluvchi mish-mishlar vositasida o‘zlarining qabih niyatlariga erishmoqchi bo‘ladilar. Xulosa qilib aytganda, janggari fundamentalizm terrorizm vositasida ijtimoiy voqelikda qaror topmoqchi, buning uchun ayrim yosh mustaqil davlatlarning ichki ziddiyatlari va iqtisodiy qiyinchiliklaridan ustomonlik bilan foydalanmoqchi, rasmiy hokimiyatga qarshi turuvchi kuchlarni shakllantirmoqchi, xalq birligini buzmoqchi bo‘ladilar. Bu sohada ular mablag‘ va kuchni ayamaydilar, real hokimiyatga nisbatan har qanday norozilikni qo‘llab-quvvatlaydilar. Bunday sharoitlarda siyosiy hokimiyatning muhim tarmog‘i bo‘lgan ijroiya hokimiyati, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, xususan, ichki ishlar organlari xodimlaridan chuqur siyosiy bilimdonlik, yuksak malaka va hushyorlik talab qilinadi.

Fundamentalizmga qarshi kurash samarali olib borilishi lozim. Bu ishdagi savodsizlik xalqimiz e’zozlovchi buyuk qadriyat – islom diniga putur yetkazadi, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati oldida obro‘yini to‘kadi, turli aksilinqilobchi kuchlarga esa bu narsa qo‘l keladi. Ular mustaqil O‘zbekiston xalqini tanlangan dunyoviy demokratik taraqqiyot yo‘lidan chiqib, o‘rta asr diniy davlatchilik yo‘liga kirishiga jon-jahdi bilan harakat qiladilar. Buni ichki ishlar idoralarining har bir xodimi to‘g‘ri anglashlari, islom diniga yot unsurlarga aniq zarba berish malakasiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Zero, oq-qorani farqlash har bir vijdonli xodimning kasbiy va vijdoniy burchidir.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Diniy ekstremizm nima?
2. «Diniy fundamentalizm» tushunchasi dastlab qaysi dinga nisbatan qo‘llanilgan?
3. Diniy mutaassiblik nima?

4. «Islom fundamentalizmi» iborasi qachon paydo bo‘lgan?
5. Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mamlakatimizda yuzaga kelishi sabablari va maqsadlari nimalardan iborat?
6. Fundamental qadriyatlarga e’tiqod qilishning ijobiy jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo‘llari haqida fikr yuriting?
8. Prezidentimiz I. A. Karimov diniy ekstremistik va fundamentalistik ruhdagi sektalar faoliyatining milliy mustaqilligimizga tahdidini nimalardan iborat deb hisoblaydi?

10-mavzu
MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGI VA UNING
HUQUQIY ASOSLARI

Jamiyatda dinning o'rni va ahamiyati

Mustaqillik yillarda xalqimizning azaliy qadriyatlarini tiklash borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, o'zligimizni angladik, tariximizga xolisona qarash, beaho ma'naviy mulkimiz bo'lgan islom diniga e'tibor kuchaydi. Xalqimizning go'zal an'analaridan biri – Navro'z bayramining tiklanishi, Ro'za va Qurban hayatlarining rasman umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb belgilanishi ma'naviy poklanish yo'lidagi jiddiy harakatlarning amaliy ko'rinishdir.

Mustaqillikka erishganimizga qadar yurtimizda faqat 87 ta masjid faoliyat ko'rsatgan. Bugun O'zbekistonda 2000 dan ziyod masjid ishlab turibdi. Mustaqillik yillarda jamiyat a'zolarining vijdon erkinligini ta'minlash, ularning o'z diniy marosim va urf-odatlarini ado etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Masalan, 1980 yilda sobiq Ittifoq bo'yicha faqat 17 kishi muqaddas haj ziyoratiga borgan bo'lsa, 2001 yilning o'zidayoq 4 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz bu saodatga musharraf bo'lganlar. Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida minglab yurtdoshlarimiz haj va umra ziyoratini amalga oshirish baxtiga tuyassar bo'ldilar.

O'zbekiston musulmonlari idorasining sobiq raisi muftiy Abdurashid qori Bahromov bu haqda shunday deydilar: «Ilgarilari yurtimizda istibdod mafkurasi hukmronlik qilgan davrlar, haj safariga borish juda qiyin bo'lib, safar ijozati nihoyatda past darajada cheklangan edi. Taassufki, uzoq yillar davomida diyorimiz musulmonlarining bu boradagi orzu niyatlariga yetarli darajada e'tibor berilmadi. Natijada, ko'plab ulamolarimiz va bir qancha imon-e'tiqodli kishilarimiz yetmish yillar mobaynida tilak va orzular qilib, hajga bora olmasdan, armon bilan dunyodan ketdilar. Endilikda mingminglab mo'min-musulmonlar muborak haj safariga borishga musharraf bo'lmoqdalar va bo'ladilar»¹⁹.

Lekin Sovet Ittifoqi mafkurasi barham topib, konfessiyalar tizimi shakllanmagan davrda (hozir O'zbekistonda 20 ga yaqin diniy konfesssiya faoliyat ko'rsatmoqda) mamlakatimiz hududiga har xil yo'nalishdagi din targ'ibotchilari va mazhablar suqilib kira boshladilar. Huquqiy maqomi va

¹⁹ Абдурашид қори Баҳромов. Мустақиллик ва виждон эркинлиги // Демократия ва инсон ҳукуклари. – Т., 1999. – № 34.– Б. 47.

faoliyati tushunilmas darajada aralashib ketgan, ro‘yxatga olinmagan diniy tashkilotlar, har xil sektalar soni hududimizda bilib bo‘lmas darajada ko‘paygan edi.

1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinganligi va bu yo‘nalishlarning huquqiy tartibga solinishi tarixiy ahamiyatga molik hodisa bo‘ldi. Uning 18-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar», – deyilgan. Biroq, dinga e’tiqod qilish – har bir fuqaroning o‘z ixtiyoriga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga binoan hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 57-moddasida ta’kidlanishicha, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘iga va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati, maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

1998 yil 1 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun O‘zbekistonda dinning mavqeい va o‘rnini juda aniq va ravshan belgilab beradi, sekulyarizm prinsipining har qanday dunyoviy davlat uchun muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Qonunning 5-moddasi O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining deyarli barcha sohalarida mamlakatning dinga munosabatini yoritib beradi. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e’tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, har-xil e’tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatalishiga ko‘maklashadi, dindorlarning mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlariga yo‘l qo‘ymaydi.

Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni ko‘llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (rozelitizm), shuningdek har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidani buzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan faoliyatlariga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlatning vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatlarini va dahriylik targ‘ibotiga oid harakatlarini mablag‘ bilan ta’minlamaydi.

O‘zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo‘limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga riosa etishlari shart. Dindan davlatga va konstitutsiyaviy tuzumga qarshi targ‘ibot olib borish, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg‘otish, axloqiy negizlar va fuqaroviylar to‘g‘risida qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo‘l quyilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek, g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati qat’iyan man etiladi.

Davlat hokimiyyati va boshqaruva organlariga, mansabdor shaxslarga tazyiq o‘tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek yashirin diniy faoliyat qonun bilan taqiqlanadi.

O‘zbekistonda dinning ta’lim tizimiga munosabati ham umumjahon taraqqiyoti taqozo etgan, o‘zini tarixan oqlagan tamoyillarga asoslangan. O‘zbekiston Respublikasida sekulyarizm prinsipiiga riosa qilinadi, ya’ni ta’lim tizimi dindan ajratilgan. Ta’lim tizimi o‘quv dasturlariga diniy fanlarning kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Respublika fuqarolarining dunyoviy ta’lim olish huquqlari dinga munosabatlaridan qat’i nazar ta’minlanadi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonun O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy tashkilotlar tuzishning huquqiy maqomini belgilaydi. Ushbu qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e’tiqod qilishdan iborat rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli

birlashmalari (diniy jamiyatlar va o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e’tirof etiladi.

Diniy tashkilot o‘n sakkiz yoshga to‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo‘lmagan fuqarolarning tashabbuslari bilan tuziladi.

Tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borish uchun ularning O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yagona markaziy boshqaruvi organlari tuzilishi mumkin.

Diniy tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki uning joylardagi organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladilar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o‘z faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkin.

Tegishli diniy ma’lumotga ega O‘zbekiston fuqarosi diniy tashkilot rahbari bo‘lishi mumkin. Diniy tashkilot rahbarligiga O‘zbekiston fuqarosi bo‘lmagan shaxslarning nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishib olinadi.

O‘zbekistonda diniy tashkilotlarning huquqiy maqomi 1991 yil 14 iyunda (mustaqillikkacha) qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi dastlabki qonunda juda zaif belgilangan bo‘lib, diniy tashkilotlar tuzish osonlashtirilgan edi. Natijada ayrim viloyatlarda diniy tashkilotlarning soni benihoyat ortdi, diniy tashkilotlarga g‘arazli maqsadli shaxslar ham suqilib kira boshladilar va turli siyosiy davolar bilan haqiqiy din ahlini ekstremistik yo‘llarga torta boshladilar. Jamiyatning ma’naviy sohasida sodir bo‘layotgan islohotlardan ustomonlik bilan foydalanmoqchi bo‘lgan turli diniy ekstremistik kuchlar yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan huquqiy asoslar bilan cheklandilar va bizning hududimizda diniy davlat qurish haqidagi xom xayollaridan mahrum bo‘ldilar va xalqimizning nafratiga duchor bo‘ldilar, ayrim janggarilar esa o‘z qilmishlariga yarasha jazo ham oldilar.

O‘zbekistonda diniy e’tiqod erkinligi deyarli yigirmaga yaqin diniy konfessiyalar faoliyati uchun sharoit yaratdi. Hozir O‘zbekistonda turli mazhablar, sektalar ham o‘z maslakdoshlariga ega. Bular adventistlar, krishnachilar, baptistlar, yevangelistlar, iyegovachilar, shialar, buddaviylar, katoliklar, yahudiylar, lyuteranlar va hatto baxailar bo‘lib, o‘z diniy urf-odatlarini erkin amalga oshiradilar. O‘zbekistonda diniy mazhablar va oqimlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, o‘z nufuzi va mavqeiga

ko‘ra ikki asosiy konfessiya mamlakat ijtimoiy hayotida salmoqli o‘rin tutadi. Bular islom diniy boshqarmasi va rus pravoslav cherkovidir.

1995 yil Toshkentda «Yagona osmon ostida birgalikda yashayman» deb nomlangan xalqaro xristian-musulmon konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unga Markaziy Osiyoning musulmon va pravoslav ruhoniylari, BMT vakillari va umumjahon cherkovlar kengashi delegatlari qatnashdilar. Xorijdan kelgan mehmonlar O‘zbekistonda hukm surayotgan dinlar va konfessiyalararo o‘zaro hurmat va totuvlikni ko‘rib mamlakatda demokratik davlat shakllanayotganiga amin bo‘lishdi. Darhaqiqat, dinlararo hamjihatlik yuksak ma’rifat va axloqni taqozo etadi. Barcha dirlarga xos bo‘lgan ezgulik, mehr-shafqat va tinchliksevarlik g‘oyalari ayrim din niqobida yurgan ekstremist unsurlar da’vatlariga tamomila zid ekanligini hayotning o‘zi isbot etmoqda. Ayrim din arboblari ham O‘zbekistondagi istiqomat qiluvchi g‘araz maqsadli shaxslarni tanqid qilishmoqda. Masalan, Toshkent va O‘rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir (Ikim): «Din –samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta’lim-tarbiya berishlari lozim»²⁰, – deb ta’kidlaydi.

Shunday qilib, mustaqil O‘zbekistonda dinning mavqeい sobiq sho‘ro davridagi holatdan butunlay farq qiladi. Din taraqqiyoti uchun davlat barcha sharoitlarni yaratmoqda va diniy e’tiqod qonun yo‘li bilan kafolatlangan. Din mamlakatimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. U xalqimizning ma’naviy poklanishi, ajdodlarimiz merosining vorisi bo‘lishligi, asrlar davomida orzu qilgan mustaqilligimizni mustahkamlash va farovon hayot qurishimiz uchun xizmat qiladi.

O‘zbekistonda dinning mavqeい va o‘rni bundan buyon ham mustahkamlanib boradi. Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiymadaniy va ma’rifiy siyosat bu borada muhim qadam bo‘lmoqda.

Jamiyat ma’naviy hayotida dinning o‘rni va ahamiyati

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, sobiq sho‘ro tuzumida hukmron bo‘lgan ateizm (dahriylik) mafkurasi ham barham topdi. Islom dini asriy tutqunlikdan so‘ng yana o‘zining mavqeini tiklab, jamiyatning ma’naviy hayotida ahamiyatga ega bo‘la boshladi.

²⁰ Владимир (Иким). Маънавиятнинг гуллаши. Мустақиллик ва динлараро тутувлик // Демократлаштириш ва инсон ҳукуклари. – 1999. – № 41. – Б. 45.

O‘z navbatida islom diniga erkinlik berish qator ijtimoiy va ma’naviy muammolarni ham keltirib chiqardi. Garchi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida»gi qonun asosida din davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy hayotda, ayniqsa jamiyatning ayrim tabaqalari orasida diniy mafkuraning salmog‘i ortib bordi.

Islom dinining jamiyat hayotidagi o‘rni va salmog‘i xususida va diniy e’tiqodning qayta tiklanishi bilan bog‘liq tadbirlar ilmiy izlanuvchilar tomonidan keng yoritilgan. Dinning bugungi va ertangi mavqeining taqdiri to‘g‘risida mulohazalarni bayon etish ichki ishlar idoralari xodimlari uchun muayyan metodologik ishlanma yoki konsepsiya vazifasini ham o‘tashi mumkin.

Umuman, din hozirgi sharoitda muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Dinning jamiyat ma’naviy-ma’rifiy hayotida tutgan o‘rmini bilish uchun uning jamiyat va shaxs hayotida qanday o‘rin egallashini, dinding davlatga va shaxsning dinga munosabatini tarixan qanday o‘zgarib borganligini ilmiy tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Ilmiy jihatdan Karaganda, dinining jamiyat hayotiga ta’sir etish jarayonini tarixan ikki tendensiya asosida tahlil etish mumkin. Bular – sakralizatsiya va sekulyarizatsiya tendensiyalari.

Sakralizatsiya (lotinchada *sacer* – muqaddas degan ma’noni anglatadi) deganda ijtimoiy hayotni, ijtimoiy institatlarni, kishilar hayoti va ongini muayyan diniy e’tiqod doirasida talqin qilish va izohlash tushuniladi.

Sakralizatsiya Sharq va G‘arb madaniyatida turlicha qiyofada va mazmunda rivojlangan. O‘zbekistonda sakralizatsiya islom dini an’analarini jamiyat va inson hayotining barcha sohalarini mutlaq zabit etish, har qanday urf-odat, an’ana, udum va odatlarga diniy qiyofa berish va jamiyatni boshqarish ishlarini ham ilohiylashtirishda kuzatish mumkin. Masalan, o‘zbek madaniy merosini diniy va dunyoviy tomonlarga bo‘lish qiyin. Hatto ilmiy taraqqiyot ham diniy qobiqda rivojlanib kelgan. Diniy element jamiyat va kishi hayotiga shunchalik chuqur o‘rnasha olganki, undagi har bir xatti-harakat udum va marosimda dunyoviy element bilan uyg‘unlashib ketgan. Shuning uchun hozirgi o‘zbek kishisining mentaliteti diniy elementni yadro sifatida o‘z hayoti doirasida ushlaydi.

Din taraqqiyoti tarixan dunyoviy taraqqiyot bilan teng kechgan, unga doimo moslashib kelgan. Hozirgi kezlarda din hatto dunyoviy taraqqiyotga ta’sir etish yoki yetakchi bo‘lishga ham da’vo qilmoqda.

G‘arb madaniy an’analarida sakralizatsiya hodisasi Sharq madaniy taraqqiyotidan tubdan farq qiladi. G‘arbda sakralizatsiya jarayoni tarixan klerikalizatsiya (lotinchada *clericalis* – cherkovda oid degan ma’noni anglatadi) hodisasini yuzaga keltirgan. Klerikalizatsiya nafaqat shaxsiy va ijtimoiy hayotni tashkillashtirishni boshqargan, balki bu holatni g‘oyaviy asoslarini ham yaratgan. O‘rtalarda bu jarayon o‘zining yuqori nuqtasiga yetgan G‘arb ijtimoiy hayotida cherkov huquqiy va siyosiy institut mavqeini egallagan. Diniy qoidalardan chetlashish yoki chekinish cherkov tomonidan salbiy baholangan. Bu hodisani yaxshiroq tasavvur qilish uchun hurfikrlilik va dunyoviy tafakkur tarafdarlarini jismonan yo‘q qilishga qaratilgan mash’um inkvizitsiya hukmlarini eslash kifoya. Klerikalizatsiya o‘rtalarda Markaziy Osiyoda ham kuzatilgan. Insoniyat merosiga beqiyos hissa qo‘sghan, tabiatshunoslik ilmini antik davrdan so‘ng sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga uringan G‘arb tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Nikolay Kopernik, Galileo Galiley va boshqalar singari Sharqda ilmiy tafakkur zahmatkashlari Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va ayniqsa Mirzo Ulug‘bek dunyoviy ilmlarni rivojlantirishga uringanliklari uchun din peshvolari tomonidan ta’qib qilinganlar, ko‘plab G‘arb olimlari esa o‘rtalarda qatl etilganlar, Jordano Bruno, Ariel Akosto kabi siymolar esa diniy e’tiqodga shak keltinganliklari uchun Rim katolik cherkovining hukmi bilan tiriklayin o‘tda kuydirilganlar. Bu davrlarda fan dinga bo‘ysundirilgan, falsafa va etika fanlari esa diniy e’tiqod normalarini ijtimoiy voqelikda mustahkamlanishiga xizmat qilar edi. Insonning oilaviy hayoti, bolalar tarbiyasi, oila-nikoh munosabatlari G‘arbda cherkov tomonidan nazorat etilsa, Sharqda esa islam dini misolida shariat qonunlari (musulmon huquqi) asosida tartibga solib turilar, jamiyat va insoning har bir xattiharakatiga ilohiy tus berilar va yagona Olloh amriga bog‘lanar edi.

Sakralizatsiya Sharq mamlakatlari (musulmonchilik tarqalgan davlatlar)da xarizmatik hokimiyat mavqeiga ega edi. Podshoh, sulton, amir yoki xon bir vaqtning o‘zida ham dunyoviy ishlar, ham diniy ishlar bo‘yicha mas’ul edi. Qozi, hokim kabi boshqa amaldorlar odatda din nomidan ish ko‘rar edilar. Podshoh Ollohnning yerdagi noibi, ya’ni vakili degan aqida xalq orasida keng tarqalgan edi. Podshohning amri vojib, ya’ni Ollohnning amri kabi so‘zsiz bajarilishi lozim, degan fikr omma ongiga singdirilar va din peshvolari tomonidan tashviq qilinar edi.

Sakralizatsiya Sharq tasavvur falsafasida, ayniqsa so‘fizmda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, so‘fizm falsafasining yirik namoyandalaridan biri Ahmad Yassaviy ta’limoti to‘la-to‘kis dunyoviy hayotni ilohiy hayotga bo‘ysundirishga qaratilgan bo‘lib, inson hayotining mazmunini Olloh muhabbatiga erishish, u bilan uyg‘unlashish deb biladi. Sakralizatsiya diniy fanatizm va dogmatizmning yo‘ldoshi hamda dunyoviy tafakkurga zid tendensiyadir.

Sakralizatsiyaga qarama-qarshi tamoyil (tendensiya) sekulyarizatsiyadir. Sekulyarizatsiya (lotinchada – dunyoviy degan ma’noni anglatadi) diniy e’tiqodning jamiyat va kishi hayotining barcha sohalaridagi mutlaq hukmronligiga barham berish, hokimiyatni din ta’siridan xalos qilish, dunyoviy taraqqiyot yo‘liga o‘tish kabilarni anglatadi.

Sekulyarizatsiya jarayoni din va diniy tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o‘rnining o‘zgarishi, dinning davlatdan ajralishiga olib keladi.

«Sekulyarizatsiya» atamasi ilk bor 1646 yilda Vesfal sulhini tuzish uchun yuborilgan fransuz vakili Longvil tomonidan o‘zaro muzokaralarda hamda cherkov mulkini davlat va shaxs hisobiga musodara qilish, milliylashtirish jarayonini ifoda etish uchun ishlatilgan.

Ma’lumki, o‘rta asrlarda cherkov va ruhoniylar yirik yer egasi edilar. Ularga jamiyat mulkining juda katta qismi tegishli bo‘lgan. Ijtimoiy taraqqiyot sekulyarizatsiya jarayonini tezlashtirgan. G‘arbda Reformatsiya davrida (taxminan XIV asr o‘rtalari va XVII asrning boshlarini o‘z ichiga oladi) davlatning cherkovdan qaramligi zaiflashgan. Sekulyarizatsiya bu davrda ko‘proq yuridik atama sifatida ijtimoiy mulkni cherkov tasarrufidan davlat va xususiy shaxslar tasarrufiga o‘tish jarayonini ifodalash uchun ishlatilgan.

Sekulyarizatsiya jamiyatning siyosiy sohasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. XVIII asrlardan boshlab davlat cherkovga qaram bo‘lmay, o‘zining ichki va tashqi siyosatini mustaqil yurgizish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu ayniqsa ta’lim-tarbiya sohasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Diniy o‘quv dargohlari bilan birga dunyoviy maktablar, gimnaziya va universitetlar paydo bo‘lgan. Dunyoviy bilimlar va tabiatshunoslik ilmi gurkirab rivojlangan, fan-texnika taraqqiyotiga keng yo‘l ochilgan.

Ayniqsa G‘arb mamlakatlari tomonidan yangi yerkarning ochilishi, bir necha geografik kashfiyotlar jamiyatda sekulyarizatsiya jarayonini yanada

mustahkmlagan va XVIII asrning oxirlariga kelib qator Yevropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga olib kelgan.

Garchi qator tabiiy fanlarga o'rta asr Sharq mutafakkirlari asos solgan va rivojlantirishga hissa qo'shgan bo'lsalar-da, jamiyatning sekulyarizatsiya qilinishi, dinding dunyoviy ishlaridan chetlashtirilishi G'arb mamlakatlarida ijobiy natija bergen. R. Dekart, I. Nyuton, E. Mayer, CH. Darwin, Gumbold kabi G'arb olimlari tabiatshunoslik sohasida salmoqli natijalarga erishganlar. Bu esa G'arbda fan va texnikaning mislsiz tez rivojlanishi uchun asos bo'lgan.

Sekulyarizatsiya davlatni dindan, maktabni esa cherkovdan ajratgan, ularning bir-biridan mustaqil tarzda rivojlanishiga olib kelgan.

G'arbdan farqli o'laroq, Sharqda jamiyat hayotida islom dinining cheksiz hukmronligi va davlat ishlariga aralashuvi o'rta asrdagi ilmiy taraqqiyotni yangi tarixiy davrlarda davom etishiga to'sqinlik qilgan.

Fojia shundaki, dunyoviy ilm Sharqda turg'un holatda qoldi. Bu esa ijtimoiy tuzumni ham o'rta asrlarga xos monarchistik bo'lishligiga, avtoritarizm bilan bog'liq xarizmatik hokimiyat boshqaruviga keng yo'l ochdi. Hozirgi G'arb bilan ayrim Sharq mamlakatlari, aniqrog'i, xristian va islom submadaniyatlari o'rtasidagi notekis ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sekulyarizatsiya jarayonini Sharqda kechikkanligi natijasida sodir bo'ljan deb izohlash mumkin.

Sekulyarizatsiya prinsipi mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni bilan huquqiy kafolatlangan.

Ta'kidlash joizki, ayrim G'arb olimlari sekulyarizatsiyani ateizm, ya'ni dahriylik bilan aralashtirib yuborishadi. Aslida esa sekulyarizatsiya va ateizm boshqa-boshqa tushunchalardir.

Ateizm to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni qat'iy ravishda diniy e'tiqodni inkor etadi, ilmiy materialistik dunyoqarashni yoqlab chiqadi. Ateizm tarafdarlariga G'arbda L. Feyerbax, K. Marks, F. Engels, E. Fromm, F. Nitsshe, Jan Pol Sartr, A. Kamyu singari olimlar kiradi.

Sekulyarizm esa dinga nisbatan birmuncha yumshoq munosabatda bo'ladi, fan va dinding hur rivojlanishi, o'zaro tolerant (hamjihat)lik mavjudligining tarafdoi bo'lib chiqadi. Sekulyarizatsiya, bir so'z bilan aytganda, jamiyat hayotida ijobiy ahamiyatga ega sanaladi.

Uzil-kesil aytish mumkinki, hozir O‘zbekistonda sekulyarizatsiya prinsipiga rioya qilinmoqda. Bu rasmiy, davlat siyosati darajasida namoyon bo‘lmoqda. Davlat siyosati sekulyarizatsiya prinsipini mafkuraviy vositalar yordamida shaxs va jamiyat ongiga singdirmoqchi bo‘ladi hamda turli tadbirlarni amalga oshiradi.

Lekin aholining aksariyat qismi sekulyarizm prinsipini qabul qilmaydi. Buning sababi sekulyarizmni ateizm bilan almashtirib yuborishi, sekulyarizmning hayotbaxsh salohiyati, dunyoviy demokratik jamiyat qurish hamda inson huquq va erkinliklari kafolati uchun qanchalik muhim ekanligini barcha ham birday anglay olmaslidigadir.

O‘zbekiston tanlagan taraqqiyot yo‘li – dunyoviy demokratik yo‘l. Sekulyarizm bu taraqqiyot uchun muayyan darajada metodologik ahamiyatga ega. Lekin sekulyarizm ommaviy ongga birdaniga o‘rnasha olmaydi. Buning sabablari turlicha. Masalan, islom dini tarixan dunyoviy hayotga nafaqat moslasha oladi, balki diniy va dunyoviy tafakkur birligida ustuvor mavqega ham ega bo‘ldi. Sho‘ro tuzumi ateistik mafkura bilan go‘yoki sekulyarizmni ijtimoiy voqelikda qaror toptirmoqchi bo‘lgan va dinni quvg‘in qilgan. Biroq ateizm mafkurasi islom dinini insonlarning turmush tarzi va tafakkur vositasiga tarixan aylanib qolganligini hisobga olmagan. Shuning uchun ham dahriylik mafkurasi rasman tan olingan bo‘lsa-da, hayotda qaror topa olmagan. Xo‘sh, keyingi ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat hayotida din qanday o‘rin tutadi va qanday ahamiyatga ega hamda sekulyarizmning tarixiy taqdiri nimalarga bog‘liq, degan savollar tug‘iladi.

Dinning hozirgi zamon ijtimoiy hayotda, xalqaro munosabatlarda, madaniy hayotdagи mavqeidan kelib chiqqan holda ta’kidlash joizki, din bundan keyin ham kishilarni o‘zaro hamjihatlikka, tinchlikka, ezgulikka undovchi omil bo‘lib qolaveradi.

XX asr va XXI asr boshlarining ko‘zga ko‘ringan ruhoniylaridan biri, xalqlar uchun kurashga katta hissa qo‘sghan arbob, xalqaro Nobel mukofoti sovrindori, lamaizm dinining yetakchisi Dalay-lama XIV dinning zarurligi haqida quyidagi fikrlarni bayon etgan: «texnika hech qachon insonlarga oliy baxt keltirmaydi. Texnikaviy vositalar faqat jismoniy qoniqish beradi, agar u tufayli ba’zi hollarda ma’naviy qoniqishga erishish imkonи paydo bo‘lsa-da, u davomiylilik kasb etmaydi. Boshqa tomondan qaralsa, agar inson faqat ma’naviy sohadan baxt izlasa, u jismoniy

yo‘qotishlarda unchalik kuchli iztirob chekmaydi. Jahonning barcha dinlari aql beboshligini tizginlashga birdek da’vat etadi, chunki barcha baxtsizliklarning ildizi shundadir. Har bir din mo‘minlik, itoatkorlik va donishmandlik xos bo‘lgan shunday ruhiy holatga da’vat etadi va unga erishish yo‘lini ko‘rsatadi»²¹.

Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Biroq dinni siyosiy maqsadlar uchun niqob qilib olish, diniy davlat barpo etish vositasida yana o‘rta asr sakralizatsiya tendensiyasini ijtimoiy hayotda tiklashga urinish dunyoviy qadriyatlarga asoslangan konstitutsiyamiz va amaldagi qonunlarimizga ziddir. Eng asosiysi, dunyoviy taraqqiyot yo‘lini tanlagan xalqimiz diniy e’tiqodni chuqr hurmat qilgan holda dunyoviy yaratuvchanglik faoliyatini afzal ko‘rdi. Chunki jahon hamjamiyatining eng ilg‘or mamlakatlari faqat dunyoviy tafakkur orqali fan-texnika va ijtimoiy sohalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Yosh mustaqil O‘zbekiston davlati ham shu yo‘lni ma’qul ko‘rdi va dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish vazifasining muvaffaqiyatli hal etilishi ko‘p jihatdan dinga va dindorlarga nisbatan olib borilayotgan siyosatga ham bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligining mustahkamlanishi, ijtimoiy munosabatlar sekulyarizm prinsipi asosida rivojlanishining qayd etilishi, fuqarolarning diniy huquq va erkinliklarining kafolatlanishi fikrimizning yaqqol isbotidir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998 yilda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi» qonun Konsitutsiyada belgilangan huquq ijodkorligi sohasidagi umumiyl vazifalarni aniqlashtirdi, diniy tashkilotlar va dindorlar faoliyati bilan bog‘liq masalalarning ijodiy hal etilishi namunasi vazifasini o‘tadi. Ammo bu sohada muammolar to‘liq hal qilindi, degan fikr masalaga yuzaki munosabatda bo‘lishni va oqibati jamiyat uchun xavfli bo‘lgan hodisalarni vujudga keltirishi mumkin.

Respublikamizda diniy tashkilotlar va fuqarolarning diniy e’tiqodi bilan bog‘liq muammolar faqatgina din sohasidagi mavjud muammolar bilan cheklanmaydi, balki masalaga kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu muammolarni bir necha qisimlarga ajratib o‘rganish mumkin:

²¹ Далай-Лама XIV. Ҳақиқий душманимиз – ўз ичимизда // Демократлаштириш ва инсон ҳукуклари. – Т., 1999. – № 3–4. – Б. 42.

1) demokratiyani rivojlantirish. Jamiyatni demokratlashtirish fuqarolarni davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ularni mavjud siyosiy tuzumni saqlab qolish, siyosiy barqarorlik uchun kurashga safarbar etadi;

2) bozor iqtisodini rivojlantirish asosida aholining moddiy turmush darajasini yaxshilashga alohida e’tibor berish zarurligi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, diniy ekstremizm va terrorizm iqtisodiy qoloq davlatlarda ayniqsa keskin tus olmoqda. Iqtisodiy muammolarning hal etilishi dinni niqob qilib olgan siyosiy unsurlarni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlashning muhim shartlaridan biridir;

3) aholining madaniy saviyasini oshirish. Diniy aqidaparastlikning muhim manbalaridan biri jaholatdir.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy muammo-larning aks ettirilishi haqida fikr yuriting.
3. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning dunyoviy davlat qurishdagi ahamiyati to‘g‘risida mulohaza bildiring.
4. Diniy tashkilotlarni tuzishning huquqiy jihatlari nimalardan iborat?
5. O‘zbekistonda fuqarolarning diniy kiyimlarni kiyishlari qonun bilan qanday tartibga solinadi?
6. Sekulyarizm nima?
7. Jamiyat taraqqiyotiga sekulyarizm va klerikalizm jarayonlari qanday ta’sir etadi?
8. O‘zbekistonda sekulyarizm prinsiplarining joriy qilinishida yuzaga kelgan muammolar nimalardan iborat? O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar tuzishning huquqiy maqomini tushuntiring.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT

ASOSIY ADABIYOT

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. – T., 2003.

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagи «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni – T., 1997.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1997.

O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi 1991 yil 14 iyun qonuni (yangi tahrirda) // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1998. – № 5–6.

Karimov I. A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T., 1996.

Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin T. 2. – T., 1996.

Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T., 1996.

Karimov I. A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T. 4. – T., 1996.

Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishslash zamon talabi. T. 5. – T., 1997.

Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – T., 1998.

Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. – T., 1999.

Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T., 2000.

Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T. 9. – T., 2001.

Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T. 10. – T., 2002.

Karimov I. A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T. 11. – T., 2003.

Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. – T., 2004.

Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13. – T., 2005.

Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliv qadriyat .T. 14. – T., 2006.

Karimov I. A. Ilmu ma’rifat ziyosi hech qachon so‘nmaydi (Prezident Islom Karimovning Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi) // Xalq so‘zi. – 2006. – 3 noyab.

Karimov I. A. Inson manfaatlarini ta’minalash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor vazifamizdir (Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi) // Xalq so‘zi. – 2006. – 7 dek.

Karimov I. A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir. – T., 2007.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi qarori // Xalq so‘zi. – 2006. – 26 avg.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2004 yil 19 iyun farmoni.

Abdusamedov A. E. Dinlar tarixi. – T., 2004.

Dinshunoslik asoslari: O‘quv qo‘llanma // Mas’ul muharrir A. E. Abdusamedov. – T., 1995.

Jo‘rayev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. – T., 1998.

Munavvarov Z. va boshq. Dunyoviy davlat va din. Ko‘ngildagi buzilish. – T., 1998.

Mo‘minov A. va boshq. Dinshunoslik: Ma’ruzalar matni. – T., 2000.

Osnovы religovedeniya: Uchebnoye posobiye / Pod obЩ red. M. N. Yablokova. – M., 1995.

Religiovedeniye / Pod red. M. M. Shaxnovich. – SPb., 2006.

Qodirov A. Q., Narbekov A. V. Dinshunoslik: Ma’ruzalar matni. – T., 2003.

QO'SHIMCHA ADABIYOT

Qur'oni Karim (Tarjima va izohlar muallifi Alovuddin Mansur). – T., 1992.

Abdulaziz M., Baxmanyor SH. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. – T., 1992.

Avesto: Yasht kitobi / M. Is'hoqov tarjimasi. – T., 2001.

Almeyev R. V. V plenu illyuziy: religioznyy ekstremizm – ugroza miru i stabilnosti. – T., 2005.

Andronova L. P. Katolitsizm: Slovar. – M., 1991.

Axmedova E., Gabidullin R. Kulturologiya. Mirovaya kultura. – T., 2001.

Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – T., 1992.

Boys M. Zoroastriysy. Verovaniya i obychai. – M., 1998.

Vasilyev L. S. Istorya religiy Vostoka. – M., 1997.

Vasilyuk F. Perejivaniye i molitva. – M., 2005.

Popov YE. V. Vvedeniye v kulturologiyu: Uchebnoye posobiye – M., 1996.

Guazari Aydyn. Xizbut-taxrir al-islami: mifы i realnost. – T., 2005.

Juzjoniy A. SH. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo fiqhlar. – T., 2002.

Juzjoniy A. SH. Islom huquqshunosligi va hanafiy mazhabi taraqqiyotida O'rta Osiyo fiqhlarining o'rni. – T., 2005.

Zakrullayev A. K. O'zbekistonda g'ayriqonuniy faoliyat ko'rsatayotgan diniy ekstremistik tashkilotlar va ular haqida qisqacha tushuncha. – T., 2004.

Injil. – Almati, 1993.

Imom al-Buxoriy. Ilmu ma'rifat nuri: Saylanma hadislar. Ilm; Vatan; inson; ma'rifat; matonat. – T., 1998.

Isxanov S. A. «Hidoya»ning musulmon huquqi manbai tizimida tutgan o'rni // Huquq–Pravo–Law. – 2003. – № 2. – B. 56–61.

Koshify V. Futuvvatnomai Sultoniy. – T., 1994.

Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. – T., 1995.

Krivelev I. Bibliya: istoriko-kriticheskiy analiz. T. 1 – M., 1999.

Kunrapa Z. Payg'ambarimiz va ashurai mubashshara. 1-kitob. – T., 1995.

- Kunrapa Z.* Hazrati payg‘ambarimiz va islom dini. 2-kitob. – T., 1996.
- Levi Stross K.* Strukturnaya antropologiya. – M., 1983.
- Maxmudov T.* «Avesto» haqida. – T., 2000.
- Men A.* Istorya religii. Kn. 1. – M., 1994.
- Mizun YU. V., Mizun YU. G.* Tayny bogov i religiy – M., 1999.
- Munavvarov Z.* Prosveshitelskaya deyatelnost – osnova gosudarstvennoy politiki v oblasti religii // *Huquq–Pravo–Law.* – 2004. – № 4. – S. 62–66.
- Muxtasar. – T., 1994.
- Nazarov T.* «Islom xodiri» konsepsiysi. – T., 2005.
- Narbekov A. V.* Zardushtiylik axloq normalarining mohiyati va xususiyatlari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2005.
- Panova V. F., Vaxtin YU. B.* Jizn Muxammeda. – M., 1991.
- Pomerans G., Mirkina Z.* Velikiye religii mira. – M., 2006.
- Radugin A. A.* Vvedeniye v religiovedeniye: teoriya, istoriya i sovremennoye religii: Kurs leksiy. – M., 2000.
- Rak I.* Mify Drevnego Irana. – Yekaterinburg, 2006.
- Saidkasimov S.* Islam ne priyemlet nasiliye // *Huquq–Pravo–Law.* – 2004. – № 4. – S. 68–78.
- Saidkasimov S.* Islam otvergayet terror // *Huquq–Pravo–Law.* – 2005. – № 2. – S. 8–22.
- Solijonova G.* Imom Ismoil al-Buxoriy hadislarida oila huquqi // *Huquq–Pravo–Law.* – 2002. – № 1. – B. 91–94.
- Taylor E.* Pervobyttnaya kultura. – M., 1992.
- Timoti Uinter.* XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish). – T., 2005.
- Usmon Turar.* Tasavvuf tarixi. – T., 1999.
- Xoji Ismatulloh Abdulloh.* Markaziy Osiyoda islom madaniyati: Qisqacha ma'lumotnomasi. – T., 2005.
- Xudoyberdiyev O.* Shariat va fiqh // *Huquq–Pravo–Law.* – 2004. – № 4. – B. 67.
- Sharipov B. X.* Ekstremistskiye i terroristicheskiye organizatsii Blyzhego Vostoka i opyt borby s nimi // Ekstremizm, terrorizm, guruhiy va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 1999. – S. 176–177.

Yunusova A. T. Religiya i obshchestvo // Huquq–Pravo–Law. – 2002. – № 1. – B. 10–14.

Qodirov A., Ismoilov M. «Qurbanlik» yoki «shahidlik» ko‘rinishidagi terrorizm // Huquq–Pravo–Law. – 2004. – № 2. – B. 16–19.

Hasanov A. A. Makka va Madina tarixi. – T., 1992.

Husniddinov Z. M. Islom – yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T., 2000.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
1-mavzu DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI.....	4
Dinshunoslik fanining mohiyati, predmeti va vazifalari	4
Dinning tuzilishi va funksiyalari.....	12
2-mavzu DINNING ILK SHAKLLARI VA ULARNING INSON DUNYOQARASHIGA TA’SIRI.....	22
Dinning vujudga kelish sabablarini o‘rganishga asosiy yondashuvlar.....	22
Dinning ilk shakllari va ularning xususiyatlari.....	29
3-mavzu MILLIY DINLAR	37
Mesopotamiya diniy tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi	37
Qadimgi Misr diniy tizimi	43
Qadimgi Gretsiya diniy tizimi	46
Qadimgi Hindiston dini.....	51
Qadimgi Xitoy dini	53
Iudaizm dini	57
4-mavzu ZARDUSHTIYLIK DINI	62
Zardushtiylikning kelib chiqishi sabablari va muqaddas bitigi	62
Zardushtiylik ta’limoti va marosimlari	66
5-mavzu BUDDAVIYLIK VA HINDUIZM: DUNYOQARASH, IJTIMOIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI	74
Buddaviylikning mohiyati va xususiyatlari	74
Hinduiylikning ta’limoti va marosimlari	84
6-mavzu XRISTIANLIK: MOHIYATI, MANBALARI VA XUSUSIYATLARI	95
Xristianlik ta’limoti va marosimlari	95
Katoliklar va pravoslavlarning o‘ziga xos jihatlari	104
Protestantlarning o‘ziga xos jihatlari	121
7-mavzu ISLOM DININING YUZAGA KELISHI VA TARQALISHI	127
Islom dinining vujudga kelishi. Muhammad payg‘ambar va uning yangi dinni shakllanishidagi xizmatlari	127
Qur’on, uning mazmuni va tuzilishi. Sunnat va hadislar.....	133
Islom ta’limoti.....	136
8-mavzu ISLOM DINING YO‘NALISHLARI, OQIMLARI VA DINIY HUQUQIY MAKTABLARI	142
Islomdagi yo‘nalish va oqimlarning mohiyati va xususiyatlari.....	142
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining islom taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari	150
Islomning hozirgi zamondagi o‘rnii va mavqeい	157
9-mavzu DINIY EKSTREMIZM VA FUNDAMENTALIZMGA QARSHI KURASHNING MOHIYATI, MAQSADLARI VA HUQUQIY JIHATLARI	161

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mohiyati, maqsadlari va xavfi...	161
Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari	174
10-mavzu MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI	179
Jamiyatda dinning o‘rni va ahamiyati.....	179
Jamiyat ma’naviy hayatida dinning o‘rni va ahamiyati	183
TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT	190
ASOSIY ADABIYOT	190
QO‘SHIMCHA ADABIYOT	193

DINSHUNOSLIK ASOSLARI

O‘quv qo‘llanmasi

Muharrir
Sarvarbek Qosimov

Texnik muharrir
Axmadxo‘ja Yuldashev

Bosishga ruxsat etildi 07.2007 y. Nashr-hisob tabog‘i 14,0
Adadi nusxa. Buyurtma № Kelishilgan narxda.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
7000197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.